AXMETJANOV M.M., G`AFFOROV F.H., O`RINOV U.A., SHARIPOVA SH.S.



# KASBIY TA`LIM METODIKASI

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

**Axmetjanov M.M., G`affarov F.H., O`rinov U.A., SHaripova SH.S.**

# KASBIY TA`LIM METODIKASI

5111000 – Kasb ta`limi (5321600 – Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari) va 5150900 – Dizayn (kostyum) bakalavriat ta`lim yo`nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun darslik

**Toshkent - 2020**

**UO`K: 37. 013 (075)**

**KBK 74.r**

Kasbiy ta`lim metodikasi. Axmetjanov M.M. va boshq. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi - T.: «Fan va texnologiya», 2020. – 444 bet. ISBN: 978-9943-11-404-3

T a q ` r i z c h i l a r:

**SH. SH. Olimov** – Buxoro davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor.

**A.H. Gaffarov** – Buxoro muhandislik-tehnologiya instituti "Metrologiya va standartlashtirish" kafedrasining dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Ushbu darslikda mualliflar kasbiy ta`limi metodikasining asosiy tushunchalari, uning asosiy qonuniyatlari va ta'lim jarayoni, o'qituvchi va talaba shaxsi faoliyatini uyg'unlashtirish texnologiyalari, ta'lim mazmunini tanlash tamoyillari, kasbiy ta'limning tashkiliy shakllari, o'qitish vositalari va ularning qo'llanishi, kasbiy ta'limni tashkil etishda innovatsion texnologiyalarini qo`llash, talabalarda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish texnologiyasiga tavsif berganlar.

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tayyorlangan bo'lib, 5111000 – Kasb ta`limi (5321600 – Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari) va 5150900 – Dizayn (kostyum) bakalavriat ta`lim yo`nalishi professop-o`qituvchilari va talabalari uchun mo'ljallangan.

В данном учебнике авторы охарактеризовали основные понятия методики профессионального образования, еуо основные закономерности и процесс обучения, технологии оптимизации деятельности учителя и личности студента, принципы выбора содержания обучения, организационные формы профессионального обучения, средства обучения и их применение, использование инновационных технологий в организации профессионального обучения, технологию использования средств обучения в процессе развития у студентов общетрудовых и профессиональных умений и навыков.

Учебник подготовлен на основе типового плана утвержденного министерством высшего и средне специального образования Республики Узбекистан и предназначен для профессоров-преподавателей и студентов, обучающихся по направлению 5111000 – профессиональное образование (5321600 – технология и отрасли лёгкой промышленности) и 5150900 – Дизайн (костюм).

In this textbook, the authors described the main concepts of professional education methodology, its main patterns and process of teaching, technologies of optimization of activity of the teacher and student, principles of choice of educational content, organizational forms and means of professional teaching, their application and use of innovative technologies in the organization of professional teaching, technology the use of learning tools in the development process of students of general labor and professional skills.

The textbook was prepared based on a model plan approved by the Ministry of higher and secondary special education of the Republic of Uzbekistan and is intended for professors-teachers and students studying in the direction 5111000 - professional education (5321600 – technologies and branches of light industry) and 5150900 - Design (costume).

# KIRISH

*Yoshlar bugungi va ertangi*
*kunimizning hal qiluvchi kuchidir.*
**Sh.M. Mirziyoyev**

O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlaninshning o`ziga xos yo`lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni dolzarb vazifa qilib qo`ydi. Bugungi kunda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xalqaro bozorlarga chiqarish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va xorijiy sheriklarni jalb etish, “O‘zbekyengilsanoat” aksiyadorlik jamiyatining muhim vazifalaridan biridir. Bularning barchasi mamlakatimiz yengil sanoatini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish imkonini beradi.

Hukumatimiz tomonidan tashqi bozorlarda talab katta bo‘lgan, yuqori sifatli, zamonaviy va raqobatbardosh yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan ta’lim yo‘nalishlarini takomillashtirish, shuningdek, sanoatning ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asosda yangi ish o‘rinlari tashkil etish hamda aholi daromadlarini oshirish maqsadida tashqi bozorlarda talab katta bo‘lgan va importning o‘rnini bosuvchi, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investorlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarini jalb etishga qaratilgan vazifalar belgilandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 26-oktabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni e’lon qilinib, zamonaviy texnologiya asosida barpo etish, mazkur korxonalarda mingdan ortiq yangi ish o‘rinlarini yaratish, oliy ta’lim tizimi bitiruvchilarini doimiy ish o‘rni bilan ta’minlashga e’tibor qaratildi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar va ehtiyojlar monitoringi yengil sanoat korxonalarida zamon talablariga mos keladigan, malakali mutaxassislarga bo‘lgan talabning oshayotganligini ko‘rsatmoqda. O‘z navbatida yengil sanoat sohasi

bo‘yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida kafedra tegishli ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligining DTS, malaka talablari, o‘quv rejalari, fan dasturlari, ishchi o‘quv rejalari va ishchi fan dasturlari bilan to‘liq ta’minlangan, ularda kadrlar iste’molchilari fikrlarini inobatga olgan holda ishlab chiqarish bilan ta’lim integratsiyasi inobatga olingan.

Bu jarayon ta’lim muassasalarida tegishli yo`nalishdagi mutaxassislik fanlarini o`qitish va ishlab chiqarish ta`limi (mutaxassislik fanlari bo`yicha laboratoriya va amaliy mashg`ulotlar, mashinalarni boshqarishga o`rgatish, o`quv va ishlab chiqarish amaliyoti)ni yuqori metodik saviyada o`tish orqali amalga oshiriladi. Mashg`ulotlarning qayd etilgan tashkiliy shakllari talabalarni tanlagan mutaxassisliklari bo`yicha amaliy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan kasbiy ta`lim natijasida nazariy bilim, ko`nikma va malakalar tizimi shakllantiriladi, ishlab chiqarish ta`limi jarayonida esa, talabalar asosan, amaliy kasbiy ko`nikma va malakalarni egallaydilar. Bu ikkala mushtarak jarayon mahsuli sifatida muayyan kasb va malakaga ega bo`lgan mutaxassisni tayyorlash ta`minlanadi.

Zamonaviy mutaxassis o`z kasbiy faoliyati sohasidagi yangiliklarni egallab borishi, istiqboldagi taraqqiyot yo`nalishlari hamda yuzaga keluvchi muammolarni yechish yo`llarini ko`ra bilishi lozim. Bunday talablar darajasidagi mutaxassisni tarbiyalash uchun ta’lim muassasalarida kasbiy ta`lim metodikasini amalga oshirishning samarali shakllari, faol metodlari hamda zamonaviy vositalari majmuasini ishlab chiqish hamda ilmiy-metodik jihatdan asoslash lozim bo`ladi.

Ta’lim muassasalarida malakali mutaxassis tayyorlash ishlari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- mutaxassislik bo`yicha davlat ta`lim standartida belgilangan bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilganligi;

- ta`lim mazmunida ko`zlangan ta`lim-tarbiya maqsadi va vazifalariga mos kelishi;

- malakali mutaxassis tayyorlash jarayonining barcha tarkibiy qismlari (nazariy mashg`ulotlar, laboratoriya-amaliy mashg`ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti) o`zaro bog`liq holda uzviy tashkillashtirilishi;

- kasbiy ta`lim berish mazmunining fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti darajasi talablariga javob berishi.

Bu talablarni bajarishda kasbiy ta`lim metodikasining o`rni beqiyosdir. Chunki, kasbiy ta`lim metodikasining asosiy vazifasi - bo`lajak malakali mutaxassislarni muayyan mutaxassislik sohasida amaliy faoliyat ko`rsatishga tayyorlashdan iborat. U esa, o`z navbatida nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishga o`rgatish, zarur bo`lgan kasbiy ko`nikma va malakalarni shakllantirish, o`z mutaxassisliklari uchun xos bo`lgan ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish, tayyorlash, amalga oshirish, nazorat qilish va xizmat ko`rsatishga o`rgatishdan iborat.

Kasbiy ta`lim metodikasi deganda birorta kasb, yoki mutaxassislik bo`yicha nazariy va amaliy o`qitish tushuniladi. Lekin, hozirgi kunda bu atama bir tomonlama bo`lib, ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta`lim-tarbiyaning nazariy va amaliy jihatlarini qamrab oladi.

Kasbiy ta`lim metodikasini o`qitish jarayonida mutaxassisliklar bo`yicha kasbiy ko`nikma va malakalarni shakllantirish uchun ma`lum texnologik, tashkiliy-iqtisodiy, nazariy, texnikaviy bilimlar beriladi. U o`z mohiyatiga ko`ra nazariy ta`lim va amaliy mehnat jarayonlarining sintezidir. Bu holat unga har tomonlama majmuaviy yondoshuvni talab etadi.

Har qanday ta`lim jarayoni o`zaro bir-birini taqozo etuvchi o`qitish – o`qish faoliyatini ko`zda tutadi. Bunda, maxsus ixtisoslik fanlari bo`yicha mashg`ulotlarni tashkil qilishda talaba faoliyati ikki tomonlama harakterga ega, ya`ni nazariy bilimlarni o`zlashtirish hamda ularni qo`llashning amaliy ko`nikma hamda malakalarini o`zlashtirish. Ular ta`lim jarayonida birlashadi va bir butun pedagogik jarayonni tashkil etadi. Ushbu xususiyat ta`lim berish jarayoni va metodlariga ham taaluqlidir.

Ta’lim muassasalarida o`qitish jarayoni mustaqil va o`zaro bog`langan nazariy va amaliy qismlarga bo`linadi. Amaliy mashg`ulotni yuqori metodik saviyada o`tish uchun maxsus fanlarning nazariy qismi talab darajasida o`qitilishi lozim. Ma`lum sohada mutaxassis tayyorlashda talabalarning ishlab chiqarish mehnatiga oid nazariy bilim, amaliy ko`nikma va malakalarini shakllantirish muhim masalalardan biridir.

Respublikamizda bozor munosabatlariga o`tish sharoitida tobora keng ko`lam olayotgan yangi texnika va ilg`or ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish davr talabi bo`lib qolmoqda. Bundan kelib chiqqan holda bo`lajak kasb ta`limi o`qituvchilari uchun zamonaviy talablar darajasiga o`quv-uslubiy qo`llanmalar yaratish talabalarning kasbiy ko`nikma va malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur darslikda ham bo`lajak kasb ta`limi o`qituvchilarining ishlab chiqarish ta`limi metodikasi borasidagi nazariy bilimlarini puxta egallashlariga ko`maklashish, amaliy bilim va ko`nikmalarini rivojlantirishga puxta zamin tayyorlashga qaratilgan.

Shuningdek, darslik oliy ta`lim muassasalari talabalari va professor–o`qituvchilari hamda kasb-hunar kollejlari o`qituvchilari, soha tadqiqotchilari, doktorantlar uchun qiziqarli manba bo`lib qoladi deb ishonamiz.

## MODUL I. KASBIY TA`LIM METODIKASI FANINING TARIXI, MAZMUNI, PREDMETI, METODI VA FAOLIYAT MAZMUNI.

**MODULNING UMUMIY MAQSADI:** kasbiy ta`lim metodikasi fanining tarkibiy tuzilishi, asosiy tarmoqlari, maqsad va vazifalariga oid nazariy bilim berish, boshqa fanlar bilan aloqadorligi va fanga oid dastlabki ko‘nikmalarni shakllantirish, talabalarga «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o‘rta mahsus kasb-hunar ta’limiga qo‘yilgan talablar haqida fikr yuritish, kasb-hunar kollejlarida mutaxassislar tayyorlash mazmuni, kasb ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim tizimining uzviyligi va o‘zaro bog‘liqligi, o‘quv moddiy bazasining tashkil etilishi (o‘quv materiallari va moslamalar bilan ta’minlanishi) va boshqa fanlarga oid dastlabki ko‘nikmalarni shakllantirish**.**

***MODULNING O‘QUV MAQSADLARI:***

- **ta’limiy maqsad**: talabalarga kasbiy ta`lim metodikasi fani va uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, fanga oid tushunchalarni o‘zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;
- **tarbiyaviy maqsad**: talabalarda fanning o‘ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;
- **rivojlantiruvchi maqsad**: talabalarning kasbiy yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashi va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.

## MAVZU 1. “KASBIY TA`LIM METODIKASI” FANINING MAZMUNI, PREDMETI VA METODI.

| | |
|---|---|
| ***O’quv maqsadi*** ⇒ | *Fanning tarihi, predmeti, maqsad va vazifalari to’g’risida nazariy bilimlar berish, asosiy mazmuni, boshqa fanlar bilan aloqadorligiga oid mavzuni nazariy jihatdan o’rganish* |

## 1.1. Kasbiy ta`lim metodikasi fanining tarixi, predmeti, maqsad va vazifalari.



***Tayanch so'z va iboralar:***

*Kasbiy ta`lim metodikasi, kasbiy ta`lim metodikasi tarixi, kasbiy ta`lim metodikasi tarmoqlari, kasb-hunar sirlari, kasb-hunar ta'lim tizimi, kasbiy ta'limning shakllanishi, ta'lim sohasidagi muammolar, kasbiy faoliyat, o`qitish metodikasi, metod va usullar, o`qitishning tashkiliy ko`rinishlari.*

Tizimli tahlil tamoyili respublikamiz kasb-hunar ta'limining butun rivojlanish yo'liga yangicha nazar tashlashni talab etadi. Bu holat o'z novbatida ushbu ta'limning rivojlanish yo'li va turli bosqichlarini tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil etib, qonuniyatlari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Kasbiy ta'lim berish, kasb-hunar sirlarini o'rganish juda qadim zamonlarda paydo bo'lgan. Kasbiy malaka bevosita mehnat faoliyati jarayonida berilgan. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, hunarmandchilikning ixtisoslashib borishi, mehnat malakasi va ko'nikmalarining murakkablashuvi to'plangan mehnat tajribasi, jumladan, tizimlashgan bilim, malakalarini ma'lum bir tarzda avloddan avlodga o'tkazish zaruriyatini tug'dirdi. Bu ehtiyoj dastlab ustoz-shogird yo'li bilan tartibsiz, ya'ni xaotik tarzda amalga oshirildi. Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi bilan turli darajadagi va sohadagi kasb-hunar o'quv yurtlari paydo bo'ldi. Kasb-hunar ta'lim tizimi mustaqil tarmoq sifatida dastlab Evropada, so'ng Amerikada shakllandi.

Gummanistik utopiya tarafdorlari T. Mor (1478-1535) va T. Kompanellalar (1568 - 1639) asarlarida yoshlar ta'limini ishlab chiqarish mehnati bilan bog`lash (qo'shib olib borish) g'oyalari ilgari surildi. Ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi, fan-texnika taraqqiyoti kasbiy ta'limga bo'lgan qiziqishni kuchaytira bordi. Eng avvalo, bolalarni mehnatga jalb etishning ijtimoiy va iqtisodiy jihatlariga katta ahamiyat berildi.

Ingliz iqtisodchisi va pedagogi Dj. Bellers (1634-1725)ning "Ishlab chiqarish muassasalarida hamkorlik haqida tavsiyalar" asari dastlabki kasbiy ta'limga oid ishlardan biri sanaladi. Unda ijtimoiy pedagogik masala sifatida kambag'alchilikdan

qutilish yo'llaridan biri yoshlarni kasb-hunar sir-sinoatlarini o'zlashtirishga o'rgatish, ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan bog`lash g'oyasi ilgari surilgan edi.

Ingliz faylasufi va pedagogi Dj. Bellers (1632 - 1704) kasb-hunarga o'rgatishga alohida e'tibor berdi. D. Lokk "Ishchilar maktabi haqida" bitiklarida davlat ishchilar maktabi tashkil etish g'oyasini ilgari surgan.

Frantsiyalik ijtimoiy arbob K.A. Korbonning (1808-1881) "Kasb ta'limi haqida" asarida ilk bor ustoz-shogird tizimi holati tahlil etilib, erkin kasb tanlashning shaxs va jamiyat uchun muhimligi ko'rsatildi, shuningdek, umumiy va kasbiy tayyorgarlik, kasbiy maktab tuzish, umumiy kasbiy ta'limni uyg'unlashtirish, aqliy va jismoniy mehnatni o'zaro aloqadorligi kabilarga ham alohida to'xtalib o'tilgan.

K. Marks (1818-1883) politexnik ta'lim zarurligini asosladi va ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan qo'shib olib borish masalasini ilgari surdi.

Shunday qilib, kasb-hunar ta'limi metodikasi nisbatan yangi va rivojlanuvchi fandir. U kasb-hunar ta'limi tizimining takomillashuvi jarayonida umumiy pedagogikadan maxsus soha sifatida ajralib chiqdi. Kasb-hunar ta'limi metodikasining o'z ob'ekti, predmeti, tamoyillari, maqsadi, mazmuni, tashkiliy shakllari, metod va vositalari, o'ziga xos kategoriyalari mavjud bo'lib, ular fanning asosini tashkil etadi.

Zamonaviy kasb-hunar ta'limining asosiy xususiyati - uning integratsiya yo'nalishi (tendentsiyasi) hisoblanib, bu holat ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Agar tashqi integratsiya umumjahon ta'lim makonini qurish bilan bog'liq, ya'ni turli mamlakatlarda to'plangan tajribalardan foydalanishni ko'zda tutgan bo'lsa, ichki integratsiya predmetlararo yondashuv asosida integrativ kurslar tuzishni ko'zda tutadi. Ana shunday integrativ o'quv predmetlaridan biri kasb-hunar ta'limi metodikasining o'zi hisoblanadi. Chunki u kichik mutaxassislar tayyorlashning zaruriy mazmuni va darajasini belgilovchi Davlat ta'lim standartlariga binoan yaratilmoqda.

Kasbiy ta'limning shakllanishi: yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlash muhim ijtimoiy pedagogik vazifa bo'lib, insoniyat jamiyati o'z tarixida bu masalani turlicha yechimini topishga harakat qilgan. Dastlabki paytlarda bolalarni mehnatga tayyorlash bevosita mehnat faoliyati jarayonida amalga oshirilgan. Dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning paydo bo'lishi yoshlarni hayot faoliyatiga maxsus

tayyorlash zarurligini muhim masala sifatida kun tartibiga qo'yildi. Shunday qilib, aqliy va jismoniy mehnat ajraldi. Uzoq o'tmish tarixida ustoz-shogird tizimi paydo bo'ldi.

Respublikamiz kasb-hunar ta'limida miqdor ko'rsatkichlari va tashkiliy shakllaridagi o'zgarishlar dinamikasining tahlili bizga shartli ravishda tabiatiga ko'ra kasb-hunar ta'limi tizimining farqlanuvchi quyidagi rivojlanish bosqichlarini ajratib ko'rsatish imkonini berdi:

1. 1924-1940 yillarda ta'lim tizimi sifatida vatanimiz kasb-hunar ta'limining tarkib topishi va rivojlanishi barqaror bo'lmagan davri;
2. 1941-1959 yillarda safarbarlik davri.
3. 1960-1980 yillar evolyutsion rivojlanish davri;
4. 1981-1986-yillar - sakrashsimon o'zgarishlar inqirozoldi davri;
5. 1987-1990-yillar - rivojlanishdagi sifat o'zgarishlar (inqiroz) davri;
6. 1991-1996-yillar inqirozdan asta-sekin chiqish va barqarorlik (moslashish) davri;
7. 1997-2002-yillar - kadrlar tayyorlash milliy modelini amalga joriy etishning birinchi bosqichi (yangitdan rivojlanish) davri;
8. 2003 yildan hozirgi davrgacha bo'lgan davr.

Zikr etilgan bosqichlarga ajratish mezoni sifatida kasb-hunar ta'limi tizimining quyidagi ko'rsatkichlariga asoslandik: o'quv muassasalari miqdori va har yilgi bitiruvchilarning soni; shuningdek, yangi turdagi o'quv yurtlariga aylanishi va ularning turli darajalarga bo'linishi. Tarixiy manbalarni o'rganish bizga o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab respublikada kasb-hunarga o'qitish bo'yicha maxsus kurs va maktablar tashkil etila boshlanganligidan darak berib, ular tugallangan bilimlar berishni emas, balki ma'lum ish o'rinlarida ishlash uchungina zarur bo'lgan tor doiradagi bilim, ko'nikma va malakalarni berishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Dastlab barcha yirik korxonalar qoshida fabrika-zavod o'quvchilari (FZU) kurslari va sanoat-texnika o'quv yurtlari tashkil etila boshladi, ularda maxsus o'quv predmetlari bilan bir qatorda umumta'lim o'quv predmetlari o'qitilgan. O'sha davrda korxonalarning texnik jihozlanishi past darajada bo'lganligi bois o'quv yurtlarining ham jihozlari ularga mos ma'lum ma'noda chegaralangan darajada edi. Respublikamizda

katta sanoat korxonalari mavjud bo'lmaganligi sababli XX asrning 30-yillarigacha texnikumlar, zavod fabrika o'quv kurslari, hunar texnika maktablari, o'quv ishlab chiqarish ustaxonalari va turlicha hunar-texnika bilim yurtlari muntazam ko'paya bordi.

1930-yillarning oxiri 40-yillarning boshlarida respublikada sanoat korxonalari tashkil etila boshladi. Tarixiy manbalar taxlili 1940 yilda O'zbekistonda 1445 ta yirik sanoat korxonalari mavjud bo'lganligi haqida guvohlik beradi. Bu sanoat korxonalarida zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalarning amalga joriy etilishi ommaviy ravishda texnik jihatdan savodxon ishchi kadrlar tayyorlash zaruratini kun tartibiga qo'ydi. Ana shunday malakali kadrlar tayyorlash vazifasi 1940-yilda tashkil etilgan davlat mehnat zaxiralari tizimiga yuklatildi. Davlat mehnat zaxiralari tizimi asosan quyidagi uch turdagi: hunarmandchilik o'quv yurtlari, temir yo'l o'quv yurtlari va fabrika-zavod o'quvchilar maktablarini o'ziga qamrab oldi. Shunday qilib, yana ishchi mutaxassis kadrlar tayyorlashga diqqat e'tibor kuchaytirildi. Lekin 1939-yilda boshlangan ikkinchi jahon urushi kasb-hunar ta'limi tizimiga ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymadi. Mamlakatdagi urush holati barcha ishchilarni frontga safarbar etish bilan bir vaqtda sanoatni to'liq harbiy qurol – aslaha ishlab chiqarishga o'tkazishni talab etdi. Shu bois nisbatan qisqa vaqtda yoshlardan ishchi mutaxassislar tayyorlashga talab ortdi. Shuning uchun yangi o'quv yurtlari tashkil etish bilan bir qatorda, vaqtinchalik fabrika-zavod o'quvchilar maktablari tashkil etildi. Shu sababli 1961-1964-yillar davomida respublikadagi barcha mehnat zaxiralari o'quv yurtlari yagona shahar va qishloq hunar-texnika bilim yurtlariga aylantirilib, ularning har biri ma'lum sohalar bo'yicha ixtisoslashtirilib, malakali ishchilar tayyorlashga kirishildi. 1970-yillarning oxiridan boshlab ommaviy ravishda o'rta ma'lumotli ishchilar tayyorlashga o'tildi. Ana shu davrga kelib, hunar-texnika ta'limi sohasiga ilmiy-tadqiqot va ilmiy-metodik ishlar olib borish faoliyati faollashdi. Kasb-hunar ta'limi bu davrda respublika xalq xo'jaligining barcha sohalariga talab etilgan ixtisosliklar bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlab bera oldi. Uning me'yoriy, moddiy-texnik, o'quv-uslubiy bazasi kengaytirildi va mustahkamlandi.

1981-1986 yillar sakrashsimon o'zgarishlar inqirozoldi davrini o'ziga qamrab olgan bosqich hisoblanadi. 80-yillarning birinchi yarmidan boshlab respublika kasb-hunar ta'limi rivojlanishida kadrlar tayyorlash miqdori bilan ijtimoiy va xalq xo'jalik

talablari orasida nomutanosiblik holatlari, ya'ni ziddiyatlar ko’zga tashlana boshladi. Shuningdek, bu davrda salbiy an'analar to’plana boshlab, hunar-texnika bilim yurtlari soni asoslanmagan holda ko’paytirildi. Natijada tayyorlanayotgan ishchilar sifati ishlab chiqarish talablariga javob bermay qoldi. Buning natijasida respublikamiz faqat xom ashyo bazasi sifatida qolaverdi. Demak, bu davrda ta'lim sohasidagi inqiroz jamiyatning siyosiy va iqtisodiy inqiroziga mos tushdi.

Natijada umumta'lim maktablarida o’qishni xohlamagan va o’zlashtirmaydigan o’quvchilarni hunar-texnika talimi tizimiga ommaviy ravishda majburan yuborilishi odat tusiga aylandi. Korxonalarda ishchilarga bo’lgan talabga nisbatan tayyorlangan ishchilarning tayyorgarlik darajasi orasida keskin farqlar sezila boshladi. Iqtisodiy tanglik holati sharoitida hunar-texnika ta'limiga ajratilgan mablag’ hajmi ham tabiiy ravishda kamaydi. Bir so’z bilan aytganda, jamiyat hayotidagi siyosiy va iqtisodiy o’zgarishlar hunar-texnika ta'limidagi o’ziga xos o’zgarishlarga sabab bo’ldi. Tez o’zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslasha oladigan ishchi kadrlar tayyorlash yo’nalishlarini qayta ishlab chiqish zarurati kun tartibiga qo’yildi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o’tish hunar-texnika ta'limini boshqarish, uni rejalashtirish va oldindan bashorat etish metodlari, qo’shimcha mablag’ bilan ta'minlash manbalarini izlab topishni talab etdi. Shuning uchun u ham yaxlit moslashuvchan tavsifga ega tadbirlar tizimini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi.

1991-1996-yillarni o’ziga kamrab olgan moslashuvchanlik davrida hunar-texnika ta'limi tizimining ko’plab miqdor ko’rsatkichlarining kamayishi sekinlasha bordi. 1992-yilga kelib sekin-asta tayyorlangan mutaxassis kadrlar va o’quv yurtlari soni ham barqarorlasha boshladi. 1993-yilga kelib hunar-texnika ta'limiga qabul qilishda yuqori ko’rsatkichlar qayd etildi.

Mustaqillik qo’lga kiritilgan ilk kunlardan boshlab «Ta'lim to’g’risida»gi qonun loyihasi ustida ishlar olib borildi.

Natijada 1992 va 1997-yillarda «Ta'lim to’g’risida»gi qonun qabul qilinib, hozirgi kunda uning yangi tahriri ustida ishlar olib borilmoqda. Bu holat qonun qotib qolgan dogma emas, balki zamon bilan hamnafas ekanligidan dalolatdir. Shuningdek, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida»gi qonun ham 1997 yil 29 avgustda qabul qilindi.

Bu davrda ta'lim sohasidagi muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o’quv jarayonining moddiy-texnika va axborot negizining yetarli darajada emasligi;

- yuqori malakali pedagog-kadrlarning yetishmasligi;

- o’quv metodik, ilmiy adabiyotlar va didaktik materiallar bilan sifatli va yetarli darajada ta'minlanmaganligi;

- kadrlar tayyorlash tizimida fan va ishlab chiqarish orasida uzviy o’zaro ta'sir va manfaatli integratsiyaning mavjud emasligi va hokazolar.

Bu muammolarning yechimini topish maqsadida 1997 yil ta'limga oid qonunlar qabul qilinishi vatanimiz kasb-hunar ta'limini yangi sifat bosqichiga ko’tarishga imkon berdi. 1997 yildan shu paytgacha bo’lgan davr ichida o’qish muddati uch yil bo’lgan yangi o’rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi yaratildi. Bu tizim akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini o’ziga qamrab olib, ixtiyoriy majburiy ta'lim turi deb ataldi.

Yuqoridagilarga xulosa qilib, takidlash joizki, hozirgi jadal sur'atli fan-texnika taraqqiyoti natijasida kasbiy mehnat mazmuni va harakteri jadal ravishda o’zgarmoqda, texnika sohasidagi yangiliklar ishlab chiqarish jarayoniga tezkorlik bilan joriy etilib, insoniyat jamiyatining tinchligi, farovonligi ta'minlanmoqda. Bunga ko’plab rivojlangan mamlakatlarni misol sifatida ko’rsatish mumkin.

Ta'lim-tarbiya ishi ma'lum me'yorlar doirasida amal qiladi. Bu me'yorlarsiz ta'lim-tarbiya ishi mazmun, shakl, zamon, makon hamda natijalar nuqtai nazaridan samarasiz bo’ladi. Aslini olganda, maxsus ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar aniq maqsadni ko’zlab reja asosida amalga oshiriladi.

Kasbiy ta`lim metodikasi fani "Pedagogika" fanining tarmog`i sifatida quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishga qaratiladi:

- kasbiy ta'lim vazifalarini asoslash, uning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish;
- o`quv materiali mazmunini asoslash;
- oliy ta'lim tizimida ta'lim jarayonini tashkil etish;
- bo`lajak mutaxassislarda kasbiy bilimlarni shakllantirishning pedagogik va axborot texnologiyasini asoslash.

**Mazkur fan mutaxassislik** fanlarini o`qitish metodlariga bag`ishlangan bo`lib, u talabalarga tanlangan soha bo`yicha mutaxassislarni tayyorlashga oid chuqur nazariy bilimlar berishga yo`naltirilgan. Shu bilan birgalikda fanning mazmunida o`qitish usullariga oid umumiy ma'lumotlar, ta'lim jarayonining tashkiliy-pedagogik sharoitlariga ham e'tibor qaratilgan.

**Talaba o`zining** kasbiy faoliyatida ilmiy tajriba va ishlab chiqarishni boshqarishga oid bilim va ko`nikmalarni to`laqonli o`zlashtirgan bo`lishi bilan birga ilmiy-pedagogik izlanishlar olib borish qobiliyatlariga ham ega bo`lishi lozim.

**Talaba** ilmiy-pedagogik yo`nalishda ish olib borishi uchun pedagogika-psixologiya fanlarini va mutaxassislik fanlarini o`qiitish metodikasini bilishi zarur. Talaba ilmiy-pedagogik ijodiyot metodologiyasini, o`qituvchi kasbiga oid pedagogik va kommunikativ qobiliyatlarni, pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratni, ishchi o`quv dasturi va o`quv rejalari tuzishni, fan bo`yicha talabalar bilimini baholashning reyting tizimini bilishi lozim.

**Kasb ta`limi fanlarini o`qitish** metodikasi fanini o`zlashtirgan talaba: o`qitishning didaktik qonunlari va tamoyillarini, ta'lim-tarbiya berishning nazariyasi va amaliyotini. o`qitishning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, ta'lim jarayonini tashkil etishning turli usul va shakllarini, jumladan ma'ruza o`qishni, amaliy mashg`ulotlarni o`tkazishni, talabalar mustaqil bilim olishlarini tashkil etishni, malakaviy bitiruv ishlariga rahbarlik qilishni, ta'lim jarayonida o`qitishning texnik vositalari va axborot texnologiyalarini qo`llash ko`nikmalariga ega bo`lishi kerak.

**Kasbiy ta`lim** metodikasi fanini o`rganish jarayonida muammoli ma'ruzalar o`tkazish, interfaol metodlar, pedagogik strategiyalardan foydalaniladi.

«Kasb ta'limi metodikasi» fanini o`rganishning maqsadi:

- talabalarni kasbiy pedagogik tayyorgarlik ta'lim sohasini 5140900 «Kasb ta'limi» yo`nalishi ta'lim sohalari bo`yicha ta'lim olayotgan bakalavrlarda kasb-hunar kollejlari o`quvchilarining ta'limi va tarbiyasi jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yecha olishida hamda ularning texnologiya va ishlab chiqarish

ta'limi darslarini olib borishiga yordam beradigan metodik bilim, ko`nikma va malakalarini shakllantirishdir, talabalarda kasbiy ta'lim metodikasining terminalogik tushunish apparatini shakllantirish;

- ta'limni tashkil qilish shakllari, maqsadi va vazifalarini loyihalash bo`yicha ko`nikma va malakalarni shakllantirish;

- ta'lim jarayonining tashkil etilganligini tahlil qilish va uni samarali baholay bilish;

- kasbiy ta'lim yo`nalishi bakalavrlarining metodik ishlari tizimi bo`yicha tushunchalarni hosil qilish jarayonida o`quvchilar faoliyatini tashkil etish va uni boshqarishni loyihalay olish bo`yicha malakalarni shakllantirish.

**Kasb-ta`limi metodikasi** fanida talabalarga mutaxassislik fanlarini ishlab chiqarishiga tadbiq etilgan holda o`quvchilarga o`qitish metodlarini o`rgatishdan iborat. O`quv jarayonida tarbiyaviy ishlarni olib borish, mutaxassislikka bo`lgan qiziqishlarini shakllantirish va qobiliyatlarini rivojlantirish, kasb-hunar kolleji o`quv dasturlari hamda hujjatlarini to`gri yuritish kabi muammolarni yechishga yordam beradi.

O`qitish metodikasi fani asosan pedagogika, psixologiya, fiziologiya‖ va mutaxassislik fanlari bilan bog`lik holda o`qitiladi.

**Kasb-ta`limi metodikasi fanini** o`qitishning tashkiliy ko`rinishlari har tomonlama kamol topgan, texnikadan ma'lumoti bo`lgan ishchilar tayyorlash masalasi, avvalo, o`qitish jarayonida hal qilinadi.

Kasb-hunar kollejlaridagi ta'lim olayotgan o`quvchilar shaxsini shakllantirishning, ularning aqliy va jismoniy kamol toptirishning, umumiy hamda kasbiy bilim berishning eng muxim vositalaridir.

Kasb-hunar kollejlarida o`quvchilarning tanlagan mutaxassisliklarini chuqurroq o`rgatish uchun muhandis pedagoglardan o`qitayotgan maxsus fanini yahshi bilishi darkor. Mahsus fan o'qituvchilari har bir yangi mavzuni yoritish jarayonida o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi kerak. Dars paytida o'qituvchi o'quvchilarni o'zini bilimini oddiy tilda sodda hayotiy misollar bilan ongiga singdirishi uchun juda katta mahorat talab qilinadi. O'qituvchi dars tugagandan

keyin o'quvchilarni baholash jarayonida olgan bilim va ko'nikmalariga qarab ko'zlangan maqsadiga erishganligini bilib oladi. Buning uchun esa, o'qituvchi o'quvchilar psihologiyasini yahshi bilishi talab qilinadi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. So‘nggi yillarda O`zbekiston Respublikasida kasb ta`limi sohasida qanday islohotlar olib borilmoqda?
2. Kadrlar tayyorlash jarayonidagi kasbiy-malakaviy o`zgarishlar haqida nimalarni bilasiz?
3. Kasbiy ta`lim metodikasi fanining tarmoqlarini sanab bering.
4. Kasbiy ta`lim metodikasi faninnig o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Kasbiy ta`lim metodikasi tarixi haqida aytib bering.
6. Pedagogik izlanishlar deganda nimani tushunasiz?

## 1.2. Fanning asosiy mazmuni, boshqa fanlar bilan aloqadorligi.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Ta`lim, ta’lim faoliyati, bilim, ko‘nikma, malaka, ta’lim mohiyati, kasb ta’limi texnologiyasi, didaktika, metodika, o‘qitish metodikasi, metod, metodologiya, ta’limiy kenglik, mahorat, baxolash, kasb.*

Respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar o'sib kelayotgan yosh avlodda intellektual qobiliyatlar va kasbiy bilimlarni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Bunday kelib chikkan holda kasbiy ta`lim metodikasi fani bo'lajak mutaxassislarning ixtisoslik fanlaridan ta'lim berish metodikasi, oliy ta'lim tizimida o'qitish shakllari hamda o'qitishning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalariga oid bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Kasbiy ta'lim metodikasi fani "Pedagogika" fanining tarmog'i sifatida mazmuni quyidagicha amalga oshiriladi:

- kasbiy ta'lim vazifalarini asoslash, uning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish;
- o`quv materiali mazmunini asoslash;
- oliy ta'lim tizimida ta'lim jarayonini tashkil etish;
- bo'lajak mutaxassislarda kasbiy bilimlarni shakllantirishning pedagogik va axborot texnologiyasini asoslash.

**Mazkur fan mutaxassislik** fanlarini o'qitish metodlariga bag'ishlangan bo'lib, u talabalarga tanlangan soha bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashga oid chuqur nazariy bilimlar berishga yo'naltirilgan. Shu bilan birgalikda fanning mazmunida o'qitish usullariga oid umumiy ma'lumotlar, ta'lim jarayonining tashkiliy-pedagogik sharoitlariga ham e'tibor qaratilgan.

**Talaba o'zining** kasbiy faoliyatida ilmiy tajriba va ishlab chiqarishni boshqarishga oid bilim va ko'nikmalarni to'laqonli o'zlashtirgan bo'lishi bilan birga ilmiy-pedagogik izlanishlar olib borish kobiliyatlariga ham ega bo'lishi lozim.

**Talaba ilmiy**-pedagogik yo'nalishda ish olib borishi uchun pedagogika-psixologiya fanlarini va mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasini bilishi zarur. Talaba ilmiy-pedagogik ijodiyot metodologiyasini, o'qituvchi kasbiga oid pedagogik va kommunikativ kobiliyatlarni, pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratni, ishchi o'quv dasturi va o'quv rejalari tuzishni, fan bo'yicha talabalar bilimini baholashning reyting tizimini bilishi lozim.

**Kasb ta'limi metodikasi** fanini o'zlashtirgan talaba: o'qitishning didaktik qonunlari va tamoyillarini, ta'lim-tarbiya berishning nazariyasi va amaliyotini. o'qitishning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, ta'lim jarayonini tashkil etishning turli usul va shakllarini, jumladan ma'ruza o'qishni, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishni, talabalar mustaqil bilim olishharini tashkil etishni, malakaviy bitiruv ishlariga rahbarlik qilishni, ta'lim jarayonida o'qitishning texnik vositalari va axborot texnologiyalarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

**Kasb ta'limi metodikasi** fanini o'rganish jarayonida muammoli ma'ruzalar

o'tkazish, interfaol metodlar, pedagogik strategiyalardan foydalaniladi.

**TA’LIM** - bilim berish, malaka va ko‘nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta’lim jarayonida bilim o‘zlashtiriladi va tarbiya amalga oshiriladi.

Ta’lim tor ma’noda o‘qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayoni emas, balki oila, ishlab chiqarish va shu kabi sohalarda ham ma’lumot o‘zlashtirish jarayonidir.

Ta’lim  ilm berish va tarbiyalashni o‘ziga qamrab olib, respublikaning aql zakovat va ilm borasidagi kuch-quvvatini rivojlantirish, jamiyat, oila va davlat oldidagi o‘z mas’uliyatini anglaydigan har jihatdan barkamol erkin shaxsni shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Shuning uchun ham u ustuvor soha hisoblanadi.

Ta’lim faoliyati o‘z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi:

a) ma’lum bir tajriba va amaliy faoliyat turini muvaffaqqiyat bilan tashkil qilish uchun olamning zarur xususiyatlari haqidagi axborotlarni o‘zlashtirish (bu jarayonning mahsuloti bilimlardir);

b) mana shu faoliyat turlarini yuzaga keltiradigan usul va vositalarni o‘zlashtirish (bu jarayonlarning mahsuloti malakalardan iborat bo‘ladi);

c) ko‘zlangan maqsad va berilgan masala shartiga mos ravishda to‘g‘ri yo‘l va usul tanlash hamda nazorat qilish uchun ko‘rsatilgan axborotlardan foydalanish usullarini egallash (bu jarayonning mahsuli – malakadan iborat bo‘ladi).

Insonning ma’lum bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishida ongli maqsad bilan boshqariladigan barcha harakatlari ta’lim bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ta’limning mohiyati, maqsadi va mazmuni jamiyatning madaniy taraqqiyoti, fan-texnikasining rivojlanganligi, ishlab chiqarish texnologiyalarining amalga joriy etish darajasi kabilar bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma’lumotga bo‘lgan talab va ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta’lim haqidagi g‘oyalarga qarab kishilik jamiyatining turli davr (bosqich)larida ta’limning mohiyati, maqsadi, mazmuni tashkil etish shakllari, amalga oshirish metodlari va vositalari o‘zgarib, takomillashib boradi.

Ta’lim mohiyatiga ko‘ra bu jarayonda ishtirok etuvchilarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining natijasidir. Ta’lim jarayonida shaxsning dunyoqarashi, qobiliyati, fazilat (xislat)lari o‘zgaradi. Ta’lim jarayonida kishilik jamiyatining ijtimoiy-tarixiy tajribalari tahsil oluvchilar tomonidan o‘zlashtiriladi va shu yo‘l bilan u avlodlar orasidagi ma’naviy-madaniy, ijtimoiy, ijtimoiy vorislikni taminlaydi.

Ta’limning metodologik asosini dealektik bilish nazariyasi tashkil etadi.

**KASB TA’LIMI TEXNOLOGIYASI** - butun o‘qitish va o‘qish jarayonini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashning tizimi usuli bo‘lib, u maqsadga erishishga yo‘naltirilgan holda insonlarning o‘rganish qobiliyati va ular o‘rtasida muloqot to‘g‘risidagi tadqiqotlar natijasiga hamda ta’lim jarayonini yanada samarali tashkillashtirishning jonli, jonsiz vositalari bilan shug‘ullanishga asoslanadi.

**DIDAKTIKA** – grekcha “didasko” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘qitaman, o‘qishni o‘rgataman ma’nolarini anglatadi. Shunga ko‘ra didaktika – bu o‘qitish nazariyasidir. Didaktika o`qitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maksadlarini ishlab chiqadi.

**METODIKA**– Pedagogikaning o‘qitish, qonuniyatlari, qoidalari, tashkil etish shakllari, amalga oshirish va natijalari nazorat qilib baholash metod hamda vositalarini o‘zida mujassamlashtiruvchi fan tarmog‘idir. Har bir o‘quv fani o‘qitish sohasi o‘rgatishning vazifalari, mazmuni, metodlari va tashkiliy ko‘rinishi haqidagi metodika asosida quriladi.

**O‘QITISH METODIKASI** - bu turli usullar tizimi bo‘lib, o‘quv-didaktik materiallardan foydalanish orqali belgilangan maqsadga erishish uchun nazariy dars va amaliy mashg‘ulotlar paytida qo‘llaniladigan usullar majmuasidir.

Kasbiy ta’lim metodikasi ijtimoiy hayotning ma’lum sohasida faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan bilim, amaliy ish-harakat usullarini shakllantirish qonuniyatlari, qoidalari, shakl, metod va vositalari hamda mazmuni haqidagi pedagogikaning muhim tarmog‘idir.

**METOD** – iborasi (yunoncha-methodas-tadqiqot yoki bilish yo‘li, nazariya, ta’limot ma’nosini anglatib) voqelikni bilish, o‘zlashtirish, o‘zgartirish usullari majmuasidir. Metod aslida insonning amaliy faoliyati negizida vujudga kelgan. Metod – pedagogik jarayon elementi sifatida mazmun maqsadlarga maksimal mos kelishi kerak, ana shunda – tarbiya, o‘qish, o‘rganish amalga oshadi. Metodning asosiy vazifasi – qobiliyatni rivojlantirish. Kasbiy faoliyatda metodning asosiy ko‘rsatkichi – uning kasbiy faoliyat vositalariga mosligidadir.

**METODOLOGIYA**– metod va logiya iboralarining birligida bilish faoliyati usuli, tuzilishi vositalari va mantiqiy tartibi haqidagi ta’limot ma’nosini anglatadi. Demak, metodologiya har qanday faoliyatning zaruriy tashkiliy komponentidir.

Metodologik bilimlar, eng avvalo, muayyan faoliyat turlarining mazmuni va izchilligini o‘ziga qamrab olib, odat hamda me’yorlar shaklida,ikkinchidan, amalda bajariladigan faoliyatning ta’siri sifatida yuzaga chiqadi. Har ikkala holda ham bilimning asosiy vazifasi bilish jarayonini tartibli ravishda amalga oshirish yoki biror ob’ektni amaliy o‘zgartirishdan iborat.

**TA’LIMIY KENGLIK** – ta’lim jarayonlari amalga oshiradigan, ya’ni tashqi atrof – muhit bilan o‘zaro harakat anglanadigan va amalga oshiriladigan kenglik.

Pedagogik jarayonda ta’limiy kenglikning son va sifat jihatdan tavsifi asosan pedagogga, uning ichki madaniyati, dunyoqarashi, qarashlariga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham pedagogning professional tayyorgarligi nafaqat aniq mazmunni egallashga, balki, ekologik madaniyat, ma’naviyat, umumiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan taqdirda maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tashqi va ichki ta’limiy kenglik kasbiy faoliyatning ahamiyati bugungi kun ta’limining eng dolzarb muammolaridandir.

**Metodika** – metod va usullarning yig`indisidan iborat bo`lib, qandaydir harakatni amalda bajarilishidir. O`qitish metodikasida u yoki bu fanni o`rganish haqida tushuniladi. Adabiyotlarda shunday so`z talqini uchraydi: - O`qitish metodikasi, - O`rgatish metodikasi. Lekin bu ikki tushuncha ham amalda teng huquqlidir. Chunki o`qitish – bu o`rgatilganning faoliyati, o`rgatish esa – ularni birgalikdagi faoliyatibir. O`qitish metodikasining metodologik asoslari bilim

nazariyasi bo`lib, umumiy qonuniyatlarni, inson atrofida sodir bo`layotgan, uni o`rab turgan dunyo shakli va metodlarini o`rganadi.

**O`qitish metodikasi** o`quv predmeti sifatida bo`lg`usi muxandis-pedagogga quyidagini tushunitirishi kerak. Qanday va nimaga o`qitish, qanday ketma-ketlikda va nimaga endi shunday o`qitiladi, boshqacha emas. U nafaqat metodlarning bilim, ta'lim mazmunini, balki, o`qitilayotgan fanlar majmuasini o`z ichiga oladi.

O`qitish metodikasi fani maxsus va ishlab chiqarish ta'limi fanlarini kasb-hunar maktablari va kollejlarda o`qitiladigan priedmetlarni bir butun guruhlar sifatida birlashtiradi.

O`qitish jarayoni pedagogikaning va u rahbarlik qilayotgan o`quvchilarning bilim, o`quv hamda malaka tizimini ongli ravishda puxta o`zlashtirishga qaratilgan izchil harakatlari majmuidan iborat.

O`qitish jarayoni davomida o`quvchilarning bilish kuchlari rivojlantiriladi.

**O`qitish -** O`qituvchining o`quvchilarga bilim, o`quv va malaka berishi, ularning bilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi faoliyatidir.

**O`qish** - O`quvchilarning o`quv fani materiallarini o`zlashtirish borasida muntazam mexnati.

**BILIM -** bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi ularning ichki zaruriyatidan kelib chiqqan bog‘liqlikdir. Uni qonuniyat deb ham yuritiladi. Chunki bu zaruriy bog‘liqlik narsa va hodisalarning tabiatidan kelib chiqib, bizning ixtiyorimizdan tashqari o‘zi mavjud. Uni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Bilim kishidan kishiga ma’lumot (axborot) orqali o‘tadi.

**KO‘NIKMA VA MALAKALAR.** Ko‘nikma va malakalar deganda biror shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi, tashqaridan kuzatish mumkin bo‘lgan harakatlari va reaksiyalari tushuniladi. **Malakalar** ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda yuzberadigan harakatlardir.

**MALAKA-** kishi egallagan bilimlari ko‘nikma bosqichidan o‘tib, doimiy harakat turiga aylanishi, mahorati hosil qilishi.

**MAHORAT-** o‘zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy harakatlarni (shu jumladan dars berishni) kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish.

**BAXOLASH-**ta’lim jarayonining ma’lum boskichida ukuv maksadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida ulchash, natijalarni aniklash va taxlil qilishdan iborat jarayondir.

**KASB-** muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyati turi. Kasb-hunar sirlarini egallashga umumiy hamda maxsus ma’lumot hamda amaliy ish-harakat usullarini o‘zlashtirish orqali erishiladi.

Kasb o‘ziga mehnat faoliyatining tor doirasi bilan harakterlanuvchi ixtisosliklarni mujassamlashtiradi. Ba’zi kasblarda bir qancha ixtisosliklar mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘qituvchilik kasbi o‘qitiladigan o‘quv predmetlariga binoan: umumta’lim, umumtexnik, maxsus fanlar o‘qituvchisi bo‘lishini ko‘rsatishi o‘zi kifoya. Kasb va ixtisos shaxsning muntazam ravishda ma’lum turdagi ish bilan shug‘ullanishini ifodalaydi. Respublikamiz fuqarolariga kasb va ixtisos tanlashlariga keng imkoniyatlar yaratilgan.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Ta’lim tushunchasini izohlang.
2. Ta’limning metodologik asosini qanday  nazariya tashkil etadi?
3. Ta’limiy kenglik deganda nimani tushunasiz?
4. Didaktika bilan metodikaning bir-biridan farqi nimada?
5. Kasb qanday faoliyat turiga kiradi?
6. So‘nggi yillarda O`zbekiston Respublikasida kasb ta`limi sohasida qanday islohotlar  olib borilmoqda?
7. Kadrlar tayyorlash jarayonidagi kasbiy-malakaviy o`zgarishlar haqida nimalarni bilasiz?
8. Kasbiy ta`lim metodikasi fanining tarmoqlarini sanab bering.

9. Kasbiy ta`lim metodikasi faninnig o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
10. Kasbiy ta`lim metodikasi tarixi haqida aytib bering.
11. Pedagogik izlanishlar deganda nimani tushunasiz?

### *Foydalanilgan adabiyotlar*


1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. T. “O‘zbekiston”, 1997. 29 avgust. -7 bet.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. T. 1997. 29 avgust. 9-10 bet.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2016 yil, 56 bet.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 48 bet.
6. 2017-2021 yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
7. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000.
8. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.
9. Olimov Q. T. va boshq. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.
10. www.inter-pedagogika.ru
11. www.didaktika.ru
12. www.School. edu. uz
13. www.Ppsy. ru
14. www.Bank/referat. ru

# MAVZU 2. O`ZBEKISTONDA KASB TA`LIMINING RIVOJLANISHI.

***O'quv maqsadi***

*Mavzuni «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'rta mahsus kasb-hunar ta'limiga qo'yilgan talablar, kasb-hunar kollejlarida mutaxassislar tayyorlash mazmuniga oid ma'lumotlarni nazariy jihatdan o'rganish*

## 2.1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'rta mahsus kasb-hunar ta'limiga qo'yilgan talablar



***Tayanch so'z va iboralar:***

*Kasbiy ta`lim metodikasi, kasbiy ta`lim metodikasi tarmoqlari, kasb-hunar sirlari, kasb-hunar ta'lim tizimi, ta'lim sohasidagi muammolar, kasbiy faoliyat, o`qitish metodikasi, metod va usullar, o`qitishning tashkiliy ko`rinishlari.*

Ma`lumki, "Ta`lim to`g`risida"gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» (1997 yil 29-avgust) qabul qilingach, ta`lim tizimi tubdan isloh qilina boshlandi. Bu muhim hujjatlarga ko`ra respublikamizda kasb-hunar kollejlarini jadal sur`atlar bilan rivojlantirish chora tadbirlari belgilangan. Bu birinchidan mutaxassislar tayyorlash sifatiga bog`liq bo`lsa, ikkinchi tomondan o`quv yurtining zamonaviy texnologiyalar bilan ta`minlanganligiga bog`liq. Kasb-hunar kolleji muhandis-pedagog hodimlari oldiga tayyorlanayotgan kichik mutahassislarga ilmiy dunyoqarashni, mehnatga ijodiy munosabatini tarkib toptirish ularda yuksak mehnat intizomini va madaniyatini, jamoa oldida burch his-tuyg`ularini tarbiyalash kabi vazifalarni qo`yadi.

Milliy dasturning asosiy maqsadi: ta`lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o`tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to`la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak manaviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Jamiyatda sodir bo`layotgan bugungi yangiliklar hamda iqtisodiy o`zgarishlar ta`lim tizimiga, xususan, o`rta maxsus kasb-hunar ta`limiga boshqacha

yondashishni talab qiladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy amalga oshirish vazifalaridan biri ta`lim oluvchilarning tayyorgarlik sifati va ixtisosiga zaruriy talablarni, ularning madaniy va ma`naviy-ruxiy darajalarini aniqlab beruvchi davlat ta`lim standartlarini yaratish va tatbiq etishdir. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari:




Kasb ta`limi metodikasi fan sifatida XX asrning ikkinchi yarmida, O`zbekistonda esa, 1985 yildan boshlab shakllana boshladi.

Ma`lumki, har qanday fanni o`qitishda dastavval quyidagi an`anaviy savollar uchligi qo`yiladi:

- fanni nima uchun o`rganish kerak (ya`ni, maqsad va vazifalarni aniqlash)?
- nimani o`rganish kerak (ya`ni, mazmunini aniqlash)?
- qanday o`rgatish kerak (ya`ni, ta`limning samarali usul va vositalarini aniqlash)?

Kasb ta`limi metodikasi fani o`rta maxsus kasb-hunar ta`limi o`qituvchilarini kelgusi kasbiy faoliyatida har tomonlama tayyorlashni amalga oshirish uchun chuqur ta`lim berishga qaratilgan. U predmet sifatida informatika yo`nalishidagi, o`rta bo`g`indagi mutaxassislarni tayyorlashda ishtirok etuvchi bo`lajak o`qituvchilarni kasbga yo`naltirish bo`yicha nazariy bilimlar berishga asoslangan. Zamonaviy ta`limda bu, eng avvalo, talabaning ijtimoiy hayot faoliyatida ongli, aqlli va madaniyatli munosabatda bo`lishga o`rgatishdir. «Kasbiy ta`lim

metodikasi» fani bir necha mutaxassislik fanlari bilan bog`liq bo`lgani uchun u bu fanlarning metodologiyalariga asoslanadi va ta`lim-tarbiyaning umumiy tamoyillariga tayanadi. Ma`lumki, ushbu tamoyillar pedagogika va didaktika tomonidan ishlab chiqiladi. Bundan tashqari malakaviy ta`lim metodikasi fiziologiya va psixologiya tomonidan o`rnatilgan qonuniyatlardan ham bevosita foydalanadi.

Ma`lumki, metodika bu - metod va usullar yig`indisi bo`lib, qandaydir harakatni amalga oshirishdir.

Ta`lim va tarbiyaning umumiy maqsadlaridan, uning zamonaviy fanlar tizimida tutgan o`rni va vazifalaridan, jamiyat hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda fanning asosiy maqsadlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- o`quvchilarda kompyuter savodxonligini rivojlantirish;
- o`quvchilarda axborotga ishlov berish, uzatish va undan foydalanish jarayonlari haqidagi bilimlar asoslarini mustahkam va ongli o`zlashtirib olishlarini ta`minlash;
- o`quvchilarga dunyoning zamonaviy ilmiy ko`rinishini shakllantirishda axborot jarayonlarining ahamiyatini, jamiyatning rivojida axborot va kommunikatsion texnologiyalarning rolini ochib berish;
- hayotida kompyuterlardan ongli va ratsional foydalanish ko`nikmalarini shakllantirish.

YUqoridagi masalalardan hech biri qolganlaridan uzilgan holda, alohida hal etilmasligi lozim. Ular bir butunlikda, bir-biri bilan chambarchas bog`liq holda amalga oshirilishi lozim, chunki o`quvchilar tomonidan yo`nalish fanlari asoslarini mustahkam egallash natijasida ularni tafakkurini tarbiyalash, ilmiy va kasbiy dunyoqarash asoslarini yaratish mumkin.

O`quvchilarni to`g`ri va chuqur xulosalar chiqarishga, mantiqiy mushohadalar qilishga o`rgatish, ularda har bir masalani yechishga tanqidiy va ijodiy yondashishga olib kelib, turli shart-sharoitlarda unumli faoliyat ko`rsata olishlariga imkon beradi.

Hozirgi paytda oliy ta'lim muasasalari va kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlar o`qitish metodikasi, o`qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo`llash, o`quv uslubiy ta'minot muammolariga qaratilgan bir necha diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, kasb-hunar kollejlari tizimini takomillashtirish hamda ularning o`quv tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish maqsadida xorijiy mamlakatlarning etuk mutaxasislari va malakali pedagoglari ishtirokida seminarlar, ilmiy- amaliy anjumanlar o`tkazildmoqda.

Kasbiy ta`lim metodikasi bir necha bo`limlarga bo`linib, bu bo`limlarda muxim masalalarini, ya'ni kasb-hunar ta'limi yo`nalishlari, mexnat pedagogikasi, kasb-hunar didaktikasi kabi masalalarni qamrab oladi. Shuningdek ularda, kasb–hunar tarbiyasining ijtimoiy psixologik shart-sharoiti, kasb-hunar ta'limi nazariyasi va kasb-hunar ta’limi huquqi o`rganiladi. Har bir o`quv fani o`qitish sohasi, o`rgatishning vazifalari, mazmuni, metodlari va tahshkiliy ko`rinishi haqidagi fan ma'lumotlari asosida qurilgan fan bu- **metodika** deb ataladi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Kasb-hunar kolleji muhandis-pedagog hodimlari oldiga kichik mutahassislarni tayorlashda qanday islohotlar olib borilmoqda?
2. Kadrlar tayyorlash jarayonidagi kasbiy-malakaviy o`zgarishlar haqida nimalarni bilasiz?
3. Milliy dasturning asosiy mazmuni va maqsadi nimadan iborat?
4. Kasbiy ta`lim metodikasi faninnig o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Metodika haqida aytib bering.
6. Pedagogik izlanishlar deganda nimani tushunasiz?

## 2.2. Kasb-hunar kollejlarida mutaxassislar tayyorlash mazmuni, kasb ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim tizimining uzviyligi va o‘zaro bog‘liqligi, o‘quv moddiy bazasining tashkil etilishi (o‘quv materiallari va moslamalar bilan ta’minlanishi), kasbiy fanlarni o‘qitish qonuniyatlari va tamoyillari, kasbiy fanlarning ta’lim mazmunini tanlash mezonlari, kasbiy fanlarning tashkiliy shakllari; kasbiy fanlarning o‘quv amaliyotini tashkil etish, o‘quv-ishlab chiqarish ishlarini me’yorlashtirish va tashkil etish, kasbiy fan o‘qituvchisining o‘quv-me’yoriy xujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash metodikasi

***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Buyuk kelajagni yaratish, kasbni to‘g‘ri tanlash, shaxs, moyillik, qiziqish, layoqat, kasb turlari, kasbiy faoliyat, Inson-texnika, Inson-tabiat, Inson-belgilar tizimi, Inson-badiiy obrazlar.*

O’zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi, shu jumladan, kasbiy ta`lim metodikasining metodologik asoslari quyidagilar hisoblanadi:

- O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O’zbekiston Respublikasining «Ta'lim to’g’risida»gi qonuni;
- O’zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida»gi qonuni.

Shuningdek, buyuk mutafakkirlar va olimlarning ta'lim-tarbiya haqidagi g’oyalari, hukumat qarorlari, farmon va farmoyishlar kabilar.

O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o’n ikkinchi chaqiriq O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o’n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. Mazkur qonunda O’zbekiston xalqi:

- inson huquqlariga va davlat suvereniteti g’oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib:
- hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda;
- o’zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga suyanib;
- demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib;
- xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda;

- respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib;
- insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko’zlab;
- fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida;
- o’zining muxtor vakillari siymosida O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan, deb ko’rsatilgan.

Respublikamiz Konstitutsiyasi VI bo’lim, 26 bob va 128 moddadan iborat. Shu o’rinda u qotib qolgan dogma emas, balki takomillashib boruvchi hujjat ekanligini e'tirof etish zarur. Konstitutsiya mohiyati va mazmuni boshqa ijtimoiy fanlarni o’rganish davrida chuqur o’rganganilishi bois, uning bevosita ta'lim-tarbiya bilan bog’liq 41 va 42 moddalariga qisqacha to’xtalib o’tamiz.

Jumladan, Konstitutsiyamizning 41-moddasida: "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir"hamda 42-moddasida: "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga ham xo’rlik qiladi", - deb belgilab qo’yilgan. Zikr etilgan konstituttsiyaviy huquqlarimizni ta'minlash uchun maxsus qonunlar qabul qilingan bo’lib, ular bilan quyida qisqacha tanishamiz.

Mustaqil O’zbekistonning “Ta'lim to’g’risida”gi ilk qonuni 1992 yil 2 iyuldan amalga joriy etilgan bo’lib, u VII bo’lim 44 moddadan iborat edi.

Amaldagi “Ta'lim to’g’risida”ti qonun 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan bo’lib, 34 ta moddadan iborat. Bu qonunga binoan respublikamizda shu paytgacha hech bir mamlakatda avval ishlab chiqilmagan va amalga joriy etilmagan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining qonuni ham O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida 1997- yil 29-avgust kuni qabul qilindi.

Kasb-hunar ta'limining metodologik asoslarisiz uning maqsadi, vazifalari, mazmuni, tashkil etish shakllari, amalga oshirish metod va vositalari, ishtirokchilari, natijalari hamda bu jarayonga ta'sir etuvchi boshqa omillarni asosli o’rganish mumkin emas. Kasb ta'limining metodologik asoslari uning me'yoriy hujjatlarini aniqlashga imkon beradi.

Ma'lumki, bo’lajak kichik mutaxassislarni tayyorlash ishi bevosita davlat va jamiyatning talab hamda ehtiyojlariga asoslanib, o’rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimidagi tayyorlov yo’nalishlari kasblar va ixtisosliklar tasniflagichida o’z ifodasini topadi. Amaldagi o’rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo’nalishlari kasblar va ixtisosliklar umumiy davlat tasniflagichi O’zbekiston Respublikasida texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlashtirish bo’yicha yagona tuzilma tarkibiga kiradi va Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to’g’risida”gi 1998 yil 5-yanvardagi 5-sonli qarori asosida ishlab chiqilgan. O’rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tayyorlov yo’nalishlari kasblar tasniflagichining tasniflash ob'ektlari hisoblanib, unda tayyorlov yo’nalishlari nomi, kodi va shu tayyorlov yo’nalishlari turkumiga kiruvchi kasblar nomi va kodi hamda ixtisosliklar ro’yxati keltirilgan.

Tasniflagichda ta'lim haqidagi me'yoriy hujjatlarni indeksatsiyalash maqsadida foydalaniladigan ta'limning xalqaro standart tasniflash kodlari ham keltirilgan.

Tasniflagich o’rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o’quv yurtlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlovchilar, o’rta maxsus, kasb-hunar ta'limida Davlat ta'lim standartlari o’quv rejalari, dasturlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiquvchilar ta'lim muassasalari rahbarlari, respublika va mahalliy boshqaruv tashkilotlar mutaxassislari, vazirliklar, muassasalar va boshqa respublikamiz xo’jaliklarini rivojlantirishda faoliyat ko’rsatayotgan sub'ektlar uchun mo’ljallangandir. Tasniflagich kasb-hunar kollejlari va boshqa tashkilot hamda muassasalarning qaysi vazirlikka, qarashliligidan va mulkchilik shaklidan qat’iy nazar aynan qo’llanilishi shart.

Tasniflagichda quyidagi ta'riflar qo’llanilgan: tayyorlov yo’nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichi, o’rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o’quv muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash bo’yicha tayyorlov yo’nalishlari, kasblar va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan ro’yxati.

**Malaka** - mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik darajasi, undagi ma'lum ishni bajarish uchun zarur bo’lgan bilim, ish-harakat usullarining aniq, tez fursatda, talab

darajasida bajarilishidir va mutaxassisning malakasini belgilovchi ko'rsatkich bo'lib, u haqida toifa yoki diplomning mavjudligi hisoblanadi.

Kasb qanchalik murakkab bo'lsa, unga mos holda kasb-hunar sirlarini o'zlashtirish uchun shuncha ko'p vaqt talab etadi. Mehnatning intellektual darajasi aqliy va manual (jismoniy) faoliyatning o'zaro munosabatini ko'rsatadi. Ilmiylik darajasi esa, mehnat faoliyatining texnik-texnologik jihatlari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Ko'p funktsiyalilik mehnatning murakkabligi, turli xildagi vazifalarni bajarishi bilan harakterlanadi. Mehnat faoliyati algoritmining murakkabligi faqatgina turlicha emas, balki bir paytning o'zida parallel ravishda aqliy va manual ish-harakat usullarini bajarilishi bilan harakterlanadi.

DTS asosida quyidagilar amalga oshiriladi:

- ta'lim mazmuni tanlab olinadi va shakllantiriladi;
- o'quv dasturlashtirish va metodik hujjatlar, ta'lim vositalari ishlab chiqiladi;
- ta'lim natijalariga qo'yilgan talablar shakllantiriladi;
- kasbiy tayyorgarlik sifatini nazorat qilish tizimi ishlab chiqiladi;
- ta'lim muassasasi attestatsiya qilinadi;
- kasbiy maslahat, kasbga yo'naltirish, kasbiy tanlash ishlari tashkil etiladi;
- mutaxassislarning malakasini oshirish shakllari aniqlanadi;

DTSning o'zi esa tasniflagich asosida ishlab chiqiladi;

DTSning amaliy muhimligini hisobga olib, uni quyidagi tartibda ishlab chiqish tavsiya etiladi:

- mualliflik jamoalarini tuzish;
- alohida bo'limlarni ishlab chiqish, ularni dastlabki baholash va o'zgartirishlar kiritish;
- DTS loyihasini tuzish uni ekspert baholash;
- yakuniy ishlov berish, tahrirlash, rasmiylashtirish va tasdiqlash.

DTSni ishlab chiqish bo'yicha mualliflar jamoasiga amaliyotchilar, soha va pedagogika fani namoyondalari, mehnat bo'yicha mutaxassislar, psixologlar, fiziologlar kiritilishi maqsadga muvofiq. DTS ustida ishlashning asosiy bosqichi ekspert baholash bosqichidir. Ekspert baholashning asosiy vazifasi xatolarni aniqlash

mohiyati, mazmuni, terminologik noaniqliklarini aniqlash va ularni kelgusida tuzatish yo'llarini ko'rsatishdir.

DTSning mazmuni quyidagilar asosida aniqlanadi:

- Davlat va soha me'yoriy, texnik va texnologik hujjatlarni tahlil etish;
- mehnat bozori talablari;
- mutaxassis mehnat faoliyati mazmuni:
- ilmiy texnik taraqqiyot va bozor munosabatlarining rivojlanishi ta'sirida ushbu sohadagi mehnat an'analarining rivojlanishi;
- mavjud tarifikatsiya va attestatsiya tuzilmalari;
- chet el kasbiy ta'lim standartlarini o'rganish, tahlil etish va shu kabilar.

Tahlil o'z navbatida quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- hujjatlarni bevosita o'rganish;
- intervyu olish;
- maslahat berish, ekspert so'rovnomasi o'tkazish, mutaxassislar amaliy faoliyatini kuzatish. Bunda quyidagilar tahlil ob'ektlari bo'lib xizmat qilishi mumkin: mehnat qurollari, mehnat vositalari, mehnat mahsuloti, mehnat jarayoni, vazifalari, shart- sharoitlari va uni tashkil etish shakllari.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Mustaqil respublikamizning buyuk kelajagini yaratishda yosh avlodni faol qatnashishga jalb etish bevosita kasbga yo'naltirish ishi bilan bog'liq deydilar. Misollar bilan isbotlar.
2. Kasbni to'g'ri tanlash-inson hayot-faoliyatidagi muhim ish bo'lib, u har bir shaxsning qiziqishi, mayli, imkoniyatlariga mos kelishi zarur degan fikrga qanday qaraysiz? O`z fikringizni bildiring.
3. Bilim egallash manbalariga nimalar kiradi? Izohlab bering.
4. Jamiyatning kasb-hunar sohiblariga bo'lgan ehtiyojlari haqida nima deya olasiz? O`z fikringizni bayon eting.

5. Kasb turlariga izoh bering.
6. Mehnat predmeti bo‘yicha kasblar qanday tasniflanadi?
7. Mehnat qurollari bo‘yicha kasblarning turlariga izoh bering.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 48 bet.
5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iyy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 104 bet.
6. 2017-2021yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
7. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.
8. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.
9. www.inter-pedagogika.ru
10. www.didaktika.ru
11. www.School. edu. uz
12. www.Ppsy. ru
13. www.Bank/referat. ru


## MAVZU 3. BO‘LGUSI KASBIY FAOLIYATGA MOTIVATSIYA.

***O’quv maqsadi***

*Talabalarga kasbiy yo‘nalganlik, kasbiy faoliyat motivatsiyasi, kasbiy muloqot motivlari, shaxsning kasbda o‘zini namoyon etishi, kasb tanlash, kasbiy layoqatlik, kasbiy o‘z-o‘zini baholash, kasbiy maslahatlar va kasbga yo‘naltirishiga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rgatish*

## 3.1. Kasbiy yo‘nalganlik, kasbiy faoliyat motivatsiyasi, kasbiy muloqot motivlari, shaxsning kasbda o‘zini namoyon etishi



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Bozor munosabatlari, kasb-hunarga yo`naltirish, tashxis markazi, ustuvor o`rin tutish, teng huquqlilik, kasbiy tanlov, tashxis va maslahat xulosalari, uzluksiz jarayon, faoliyat turi, amaliy echimini topish, mahalliy sharoitlar, nazariy bilimlar.*

Bozor munosabatlari sharoitida jahon standartlari talablariga to`la javob bera oladigan malakali mutaxassisni tayyorlashning g`oyaviy va huquqiy asoslari O`zbekiston Respublikasining ”Ta`lim to`g`risida”gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mazmunida o`z ifodasini topdi. So`nggi yillarda mazkur masalaning ijobiy yechimini topishga xizmat qiluvchi dasturiy va me`yoriy hujjatlarning qabul qilinishi va amaliyotga tatbiq etilishi ham xalq xo`jaligining malakali kadrlarga bo`lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 203-sonli Qaroriga binoan Xalq ta`limi vazirligi qoshida o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazi tashkil etilgan. Ushbu qarorga binoan Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrida o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik tashxis Markazining 14 ta hududiy va 212 ta shahar filiallari tashkil topgan. Ularning faoliyatini yo`lga qo`yishga 835 nafar mutaxassis jalb etilgan. Shu bilan birga Respublika umumiy o`rta ta`lim maktablarida 9661 nafar psixolog faoliyat olib bormoqda.

Mamlakatimizda o`quvchilarni kasb-hunarga yo`llash bo`yicha bir qator me`yoriy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, “O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish to`g`risida”, “O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish xonasi to`g`risida” hamda “O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik hududiy tashxis Markazi to`g`risida”gi namunaviy Nizom, o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik - pedagogik Respublika

tashxis Markazining Ilmiy Kengashi to`g`risida"gi Nizomlar shular jumlasidandir. Nomlari qayd etib o`tilgan me`yoriy hujjatlar hamda ularning mazmunida yoritilgan g`oyalarga muvofiq O`zbekiston Respublikasida o`quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirish tizimini takomillashtirish Kontseptsiyasi ishlab chiqilgan va O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi tomonidan 2002 yil 10 oktyabrda (153-sonli qarori bilan) tasdiqlangan. Ushbu Kontseptsiyada o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish jarayonida quyidagi tamoyillarning ustuvor o`rin tutishi alohida ta`kidlab o`tilgan:

- kasb-hunarga yo`naltirish xizmatlarining tizimli-majmuaviy harakterdaligi;

- iqtisodiy rivojlanishni mehnat bozorini o`rganish, ular istiqbolini belgilash orqali jamiyat va shaxs qiziqishlarining muvofiqlashuvi;

- shaxsni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik tashxis qilish shakli, uslublari va vositalarining ilmiy asoslanganligi;

- O`zbekiston va (lozim bo`lganda) boshqa davlat fuqarolarining o`qish, ish joyi, yoshi, jinsi, millati va diniy dunyoqarashidan qat`iy nazar kasb-hunarga yo`naltirish xizmatlaridan foydalanishda teng huquqliligi;

- kasb tanlash, yoki almashtirish, ta`lim turi va ishga joylashish imkoniyatlariga nisbatan kasbiy hamda boshqa axborotlarning tushunarliligi;

- umumiy o`rta ta`lim maktabi o`quvchilariga psixologik-pedagogik va kasb-hunarga yo`naltirish xizmatlari ko`rsatishning majburiyligi, bepulligi, aholining boshqa guruhlariga davlat darajasida kafolatlangan kasbiy tashxis va maslahat berishning ixtiyoriyligi;

- kasbiy tanlov, tashxis va maslahat xulosalarining ob`ektivligi, maxfiyligi va tavsiyaviy harakterda ekanligi.

Kasb-hunarga yo`naltirish sohasida mavjud bo`lgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar hamda umumiy o`rta ta`lim maktablari o`quvchilarini kasb-hunarga yo`naltirish, xususan ularni boshlang`ich sinflardanoq kasblar olami bilan tanishtirish usullarini yangilash zarurati yuzaga kelmoqda. Zero, umumiy o`rta ta`lim muassasalari o`quvchilarini kasb-hunarga yo`naltirish, ularning kasb-

hunarni ongli va to`g`ri tanlashlariga ko`maklashish masalasi ta`lim sohasida davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biriga aylandi.

Uzluksiz ta`lim tizimi rivojlanishining hozirgi sharoitida o`quvchilar bilan olib boriladigan kasb-hunarga yo`naltirish ishlarini takomillashtirish, ularni ongli va mustaqil kasb tanlashga tayyorlash umumiy o`rta ta`lim maktablarining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Ma`lumki, o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish ishlari ta`lim-tarbiya bilan uzviy kechadigan, uning barcha qirralarini qamrab oladigan uzluksiz jarayondir. Maktabgacha, umumiy o`rta ta`lim maktablari va maktabdan tashqari, o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalari, jamoat tashkilotlari hamda ota-onalarning o`zaro hamkorligi bu jarayonning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bunday hamkorlik o`sib kelayotgan yosh avlodga ongli kasb tanlash, o`z kasbiy istiqbolini belgilash hamda jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo`shish imkonini yaratadi.

Kasb, yoki – kasb qilmoq kabi so`z va tushunchalar arab tilidan kirib kelgan bo`lib, (kasaba) fe`lning o`zagi hisoblanadi. Arab tilidagi kasaba so`zi qo`lga kiritmoq, ishlab topmoq, qozonmoq, biror ishni bajarmoq, qandaydir foyda-manfaatga erishmoq, yutuqqa ega bo`lmoq kabi ma`nolarni anglatadi.

Aksariyat fiqh olimlari – kasb qilish so`zini halol, yoki harom yo`llar bilan, muayyan hunar, yoki hunarsiz mol-mulk qozonishga nisbatan qo`llashadi. Demak, lug`at va fiqh jihatidan – kasb qilish deyilganda hunar orqali, yoki hunarsiz ravishda (masalan, biror-bir korxona, yoki tashkilotda soatbay, yoki ishbay ishlab, aqliy mehnat bilan shug`ullanib, tadbirkorlik qilib, kitob yozib va h.), qaysi yo`l bilan bo`lishidan qat`iy nazar, mol-mulk topish tushuniladi. O`zbek tilida kasb deb kishining risq talabida muayyan ish, faoliyat turi bilan davomli tarzda shug`ullanishga aytiladi.

Dars o‘quvchilar bilan qiziqarli, hattoki, darsga taalluqli bo‘lmagan mavzular to‘g‘risidagi suhbat bilan boshlanadi.

Iloji bo‘lsa darsga bog‘liq bo‘lgan mavzular yuzasidan suxbatni boshlash kerak. Masalan qiziqarli kashfiyot, yangilik yoki hikoyat tanlanishi mumkin. Bularning barchasi birinchi dars mobaynida o‘quvchilarning kayfiyatiga, shu sohaga qiziqishiga yoki keyingi darslarda o‘quvchilar o‘rganadigan faniga e’tiborini qaratishga yordam beradi.

Agar dars birinchi bor yangi o‘quvchi guruhida o‘tilayotgan bo‘lsa, o‘qituvchi qisqacha o‘zini tanishtirib o‘tib, o‘quvchilarga ham o‘zlarini tanishtirish imkoniyatini berishi kerak. Bu o‘quvchilarda ishonch tug‘diradi, o‘quvchilar o‘zlariga bildirilayotgan hurmatni his qiladilar. Ta’riflangan va tanlangan o‘qitish fanlari va modullari asosida nazariy fan maqsadini bayon etish orqali motivatsiya va muayyan mavzuga kirish amalga oshiriladi. Intrinzli(ichki) va ekstrinzli (tashqi) motivatsiya uchun sabab va argumentlar topishga harakat qilish lozim. Motivatsiya qilish bilan o‘qish va o‘rganishga bo‘lgan tayyorlik uchun shart-sharoit yaratiladi.

Shu nuqtai nazardan o`quvchi-yoshlarni muayyan kasb-hunar sirlarini egallashga o`rgatish pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kasbga yo`naltirishning asosiy maqsadi - umumiy o`rta ta`lim maktablari o`quvchilarini ongli va mustaqil ravishda kasb-hunar tanlashga tayyorlash, kelgusi ta`limning yo`nalishi va kasb-hunar egallashning usullarini aniqlashdan iborat.

Shu nuqtai nazardan, maktabdagi har bir pedagog kasb-hunarga yo`naltirish bo`yicha qanday ishlarni amalga oshirishini bilishi lozim. Chunki, kasb-hunarga yo`naltirish ishlarini amalga oshirishda nafaqat maktab pedagoglari, yoki amaliyotchi psixologi, balki butun maktab jamoasi mas`ul hisoblanadi.

O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish uzluksiz ta`lim tizimining muhim bosqichi bo`lgan umumiy o`rta ta`lim tizimida alohida ahamiyatga ega bo`lib, yoshlarga o`quv va maxsus fanlar doirasida ishlab chiqarish sohalari, ularning o`ziga xos xususiyatlari, mehnat turlari, kasbiy faoliyat borasidagi ma`lumotlar beriladi. Natijada o`quvchilarda muayyan turdagi faoliyat yo`nalishiga qiziqish va hayotiy ehtiyoj yuzaga keladi.

Mazkur ehtiyojni qoplash va malakali mutaxassislarni tayyorlash ta`limning keyingi bosqichi o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi tizimida amalga oshriladi. Bu esa o`z navbatida umumiy o`rta va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi uzviyligini ta`minlash mexanizmini ishlab chiqish va joriy qilishni talab qilmoqda.

Respublikamiz ta`lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqqan holda qo`yilgan talablar yosh avlodni kasbga yo`naltirishning ilmiy va amaliy muammolari echimini topishga qaratilgan tadqiqotlar faollashuviga sabab bo`ldi. Bu boradagi tadqiqotlarda yosh avlodni kasb tanlashga tayyorlashning amaliy yechimini topishga qaratilgan quyidagi asosiy yo`nalishlarini qayd etish mumkin:

- o`quvchilarning kasblar olamida yo`nalish olishiga yordam beruvchi hamda o`z individual imkoniyatlarini haqqoniy baholay olish ko`nikmalari zarur darajasini ta`minlovchi kasbiy axborotlar tizimini yaratish;
- o`quvchilarning kasb-hunar tanlashiga yordam berish maqsadida shaxsni o`rganishning tashxis metodlarini ishlab chiqish;
- yoshlarga kasbiy maslahatlar berishning nazariy va metodik asoslarini yaratish;
- kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatli mayllarini asoslash;
- umumiy o`rta ta`lim maktablarida o`quvchilarni kasb tanlashga yo`llashning vosita va yo`llarini aniqlash;
- bitiruvchi sinf o`quvchilarini kasb tanlashga erkin yo`naltirishning mazmuni, shakl va metodlarini belgilash;
- O`zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy modelini amaliyotga tadbiq etish sharoitida o`quvchilarni kasb tanlashga yo`llashning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;
- alohida olingan hududiy markazlarda yoshlarni kasb tanlashga yo`llash ishini boshqarish xususiyatlarini belgilab berish talab etiladi.

Biroq, bizgacha mavjud bo`lgan tadqiqotlarda muayyan natijalar olingan bo`lsa-da, bugungi kunda kasb-hunar tanlashga yo`llash ishlarining asosiy maqsadi – har bir o`quvchining kasb tanlashda shaxsiy sifatlari, qiziqish, qobiliyat,

moyilliklarini uyg`unlashtirish va jamiyat talablariga hamda kasb talablariga mos keluvchi sohani ongli ravishda tanlash ko`nikmalarini shakllantirish muammosi hal etilgan emas. Muammoning to`laqonli echimini topishga to`siq bo`layotgan asosiy holatlardan biri – tadqiqotlarning odatda qandaydir tartibda belgilanadigan o`rtacha olingan o`quvchi shaxsiga yo`naltirilganligi bilan izohlanadi. Natijada:

1) kasb tanlayotgan o`quvchilarga individual, tabaqalashtirilgan yondoshuv joriy etilmayapti;

2) aksariyat holatlarda quruq so`zlashuvdan iborat deklarativ metodlar bilan cheklanilmoqda;

3) o`quvchilarni qiziqtirgan yoki tanlagan kasbi xususiyatlari bilan bevosita tanishishi uchun keng imkoniyat yaratilmayapti.

O`quvchilarni mahalliy sharoitlardan kelib chiqib kasb tanlashga yo`llash uchun zarur bo`ladigan shahar, tuman va boshqa hududiy muassasalarning mutaxassislarga bo`lgan ehtiyoji to`g`risida joriy va istiqbolli dasturlar ishlab chiqilmagan. Shu sababli o`quvchilarning hayotida muhim o`ringa ega bo`lgan mehnat ta`limi mashg`ulotlarini to`g`ri tashkil etish, undan oqilona foydalanishda ularga yordam berish zarur. Umumiy o`rta ta`lim maktablari mehnat ta`limi mashg`ulotlaridagi (texnologiya va dizayn, servis xizmati, qishloq xo`jaligi bo`limlari)dagi amaliy ishlarni bajarish jarayonida, o`quvchilar bilan suhbatlar o`tkazish hamda o`quvchilar, ularning ota- onalari bilan so`rovnomalar o`tkazish orqali o`quvchilarning qiziqish qobiliyati va moyilliklarini aniqlagan holda ulardagi mazkur qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini rivojlantirish kerak.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarining mehnat ta`limi darslari va barcha shakllardagi ishlarning chuqur ichki mohiyati o`quvchilarni ijtimoiy foydali faoliyatga faol jalb qilish, ularning tashabbusi va mustaqilligini rag`batlantirish hamda individual qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlarini uyg`unlashtirishdan iboratdir.

Bu urinish o`quvchilar o`rtasida kasb-hunar asoslari borasidagi nazariy bilimlarni targ`ib etish, ularda ma`lum kasb yoki hunar yo`nalishida dastlabki

ko`nikma va malakalarni hosil qilishga nisbatan texnologik yondoshuv qapop toptirish bilan tavsiflanadi.

Tahlillar natijasida, respublikamizda o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish ishlari tizimli yo`lga qo`yilgan, umumiy o`rta ta`lim maktablarida muayyan ishlar olib borilayotgani bilan bir qatorda bir muncha muammolar va yechimini topishi kutilayotgan vazifalarning ham mavjudligi aniqlandi. Shuningdek, kasb-hunarga yo`naltirishning nazariy asoslaridan kelib chiqadigan asosiy tamoyillar aniqlandi.

O`quvchilarni kasb-hunarga samarali yo`naltirish va psixologik-pedagogik tashxis qilish tizimi o`rganildi, uning faoliyatidagi kamchilik va muammoli vaziyatlar aniqlandi hamda tizim ishini takomillashtirish bo`yicha takliflar shakllantirildi.

Umumiy o`rta ta`lim maktablari o`quvchilarini kasb-hunarga yo`naltirish borasidagi tajriba ishlarining maxsus metodika (loyiha) asosida tashkil etilganligi bu boradagi faoliyatning samarasini ta`minlashga imkon yaratdi. Zero, maxsus metodika tajriba ishlarining umumiy mohiyatini yoritish, faoliyatni tartibli, izchil hamda muayyan tizim asosida yo`lga qo`yilishiga imkon beradi.

Umumiy o`rta ta`lim maktablari o`quvchilarini kasb-hunarga yo`naltirish, ularda muayyan kasbiy faoliyat bo`yicha ko`nikma va malakalarni hosil qilish borasida muayyan yutuqlarga erishilganligini ko`rsatdi. Ushbu xulosa tajriba-sinov ishlari natijalarini matematik-statistik metod yordamida qayta tahlildan o`tkazilgan vaqtda yana bir bor tasdiqlandi. Shu bois, xulosa o`rnida quyidagilarni ham keltirish mumkin:

1. Uzluksiz ta`lim tizimi rivojlanishining hozirgi sharoitida o`quvchilar bilan olib boriladigan kasb-hunarga yo`naltirish ishlarini takomillashtirish, ularni ongli kasb tanlash, kelgusidagi kasbini o`zi belgilashga tayyorlash umumiy o`rta ta`lim maktablarining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Kasbga yo`naltirishning asosiy maqsadi — umumiy o`rta ta`lim maktablari o`quvchilarini ongli va mustaqil ravishda kasb-hunar tanlashga tayyorlash, kelgusi ta`limning yo`nalishi va kasb-hunar egallashning usullarini aniqlashdan iborat.

2. O`quvchilarni mahalliy sharoitlardan kelib chiqib kasb tanlashga yo`llash uchun zarur bo`ladigan shahar, tuman va boshqa hududiy muassasalarning mutaxassislarga bo`lgan ehtiyoji to`g`risida joriy va istiqbolli dasturlar ishlab chiqilmagan. Shu sababli o`quvchilarning hayotida muhim o`ringa ega bo`lgan mehnat ta`limi mashg`ulotlarini to`g`ri tashkil etish, undan oqilona foydalanishda ularga yordam berish zarur.

3. O`quvchilarni kasb-hunarga samarali yo`llash ishlarini uyushtirishda sinf rahbari, maktab psixologi, o`quvchilarni kasbga yo`naltiruvchi mutaxassis (o`qituvchi) hamda mehnat fani o`qituvchisi asosiy bo`g`in hisoblanadi. Albatta, u o`z faoliyatini dastlab ta`lim standartlari asosida olib borishi talab etiladi. Mehnat ta`limi darslarida mehnat ta`limi va tarbiyasining umumiy vazifalari yanada aniqlashuvi ularni quyidagi uchta guruhga birlashtirishni taqozo etadi. Jumladan: umumiy o`rtaiy vazifalar; tarbiyaviy vazifalar; amaliy vazifalar.

4. Markaziy Osiyolik mutafakkirlaridan hamda o`zbek ma`rifatparvar shoirlaridan qolgan qimmatli ma`naviy boylikning har bir satrini ochib tahlil qilganimizda ularning inson kamoloti, ma`naviyati va mehnatsevarlik xislatlari, bolalar va yoshlarni barkamol insonlar qilib shakllantirish va kasb-hunarga o`rgatishga taaluqli ibratli, qimmatli mulohazalarning guvohi bo`ldik. Hozirgacha saqlanib kelayotgan qator me`moriy inshootlar tufayli topilgan hunarmandchilik buyumlari, bularning barchasi buyuk ajdodlarimizning kasb-hunar o`rgatish, yuksak iste`dod va qobiliyat sohibi bo`lishga undovchi bebaho materiallar qoldirganliklaridan dalolat beradi. Shuningdek, bu meros hozirgi kunda ham yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirishda muhim ahamiyatga egadir.

5. Ta`lim tizimida o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirishda o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassalarini hamkorlik ishlarini to`g`ri yo`lga qo`yish hozirgi davrning talabidir. O`quvchi yoshlarni kasb- hunarga yo`naltirish umumiy o`rta ta`lim maktablari va kasb-hunar kollejlari uchun mushtarak bo`lsa-da, ular ixtiyoridagi reja va imkoniyatlar doirasi bir – birisiz amalga oshirilmaydi. Shunday ekan, bu borada umumiy o`rta ta`lim maktablari bitiruvchilari o`rtasida

kasbga yo`naltirish ishlarini olib borishda kasb-hunar kollejlarining imkoniyatlari beqiyosdir.

6. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida mehnat ta`limi darslarining mazmunan modernizatsiyalashtirilganligi, ustaxonalarning ishlab chiqarish – o`quv, asbob-uskunalari bilan ancha to`ldirilganligi, kasbga yo`naltirishning faol metodlaridan foydalanilganligi, bitiruvchi o`quvchilarning kasb tanlashga mas`uliyatni sezib munosabatda bo`layotganliklari ishchi kasblari nufuzini 50 foizdan 90 foizgacha ko`tarish imkonini berdi.

7. Kasbga yo`naltirishni ilmiy boshqarishni hukumat, korxonalar va tashkilotlarning ishchi reja asosida tayyorlash va yoshlarni ishchi kasblariga yo`naltirish sohasidagi harakatlari tizimi deb hisoblash lozim. Shu boisdan kasbga yo`naltirish ishining tashkilotchilari faqat tarmoqlarning emas, balki ayrim korxonalarning ham kadrlarga talab-ehtiyojlarini bilishlari va shu haqda maktablar va o`qituvchilarga axborot berib turishlari, amaliy tadbirlar dasturini ishlab chiqishlari va uni bajarish uchun kuch va mablag`larni safarbar etishlari, boshqaruv tizimining barcha bo`g`inlarida nazorat o`rnatishlari va ularga yordam berishlari lozim.

8. O`quvchilarni jamiyat, davlat, oila oldida o`z mas`uliyatini chuqur anglab etuvchi shaxslar etib tarbiyalashda davlat va jamiyat ijtimoiy muassasalarning kasbga yo`naltirish bo`yicha faoliyatini takomillashtirish asosiy omillardan hisoblanadi. Bunda kasb tanlashning bozor ehtiyojlari va imkoniyatlarini e`tiborga olish zarur, toki har bir shaxs ―o`ziga mos kasbni egallay olsin‖ tamoyili yoshlarni etuk mutaxassis sifatida shakllanishida kasbga yo`naltirish faoliyatining o`rni alohida e`tirof etiladi.

9. Kasb-hunarga yo`naltirish tarbiyalanuvchilarning kasbiy qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari, jismoniy rivojlanishi, vatanparvarligi, mehnatsevarligi, kasbiy tarbiyalash darajasi va boshqa jarayonlarni o`rgangan holda umumiy xulosa va tavsiyalar orqali kasb-hunarga yo`naltirilib boriladi.

10. Kasb-hunarga yo`naltirish bo`yicha tajriba-sinov ishlarini o`tkazishdan maqsad - o`quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va xohish-istaklarini

o`rganish, kasbiy ko`nikmani shakllantirish, kasb - hunarga yo`naltirishning zamonaviy va samarali uslublarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tavsiya etishdan iborat.

11. Tajriba-sinov ishlari doirasida respondent o`quvchilar o`rtasidagi anketa so`rovnomalari o`tkazishning asosiy vazifalari etib, o`quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va xohish - istaklarini aniqlash metodikasi natijalarini analitik tahlil etish. Ma`lumotlar bazasini yaratish; tahlil natijalariga ko`ra ta`lim muassasalari uchun kasb - hunarga yo`naltirish jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan uslubiy qo`llanma va tavsiyalar yaratish hamda chora-tadbirlar ishlab chiqish; o`quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va intilishlarini o`rganish orqali kasb-hunarga yo`naltirishning samarali metodlarini tavsiya etishdan iborat qilib belgilandi.

Tajriba-sinov ishlarida kasb-hunarga yo`naltirish bo`yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- o`quvchilarga kasbiy axborotlar va kasbiy ma`lumotlar berish;
- psixologik tashxis metodikalarini qo`llagan holda o`quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini o`rganish;
- berilgan ma`lumotlarni o`zlashtirganlik darajasini anketa so`rovlari yordamida tekshirib ko`rish;
- natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

12. Tajriba-sinov ishlari davomida o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish va o`tkazishda pedagogik axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish samarali ekanligi aniqlandi.

13. Respondent o`quvchilarning kasb tanlash asoslari borasidagi nazariy bilim, amaliy ko`nikma va malakalari darajasini aniqlashda maxsus mezonlarga tayanildi. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayonida ular tomonidan qayd etilgan ko`rsatkichlarning ushbu mezonlarga muvofiq kelishi tahlil etilganda tajriba guruhlarida ijobiy natijalar olindi.

14. Olingan natijalar tajriba-sinov ishlarining samarali kechganligini tasdiqladi hamda tajriba-sinov ishlarining maxsus loyiha va ishchi reja asosida olib borilganligi o`ziga xos ahamiyat kasb etdi.

Bugungi zamon talablaridan kelib chiqgan holatda avvalam bor ota-onalar va mahalla, keng jamoatchilik bilan birgalikda ish olib borishini kiritsak va uni aniq bir rejalar asosida olib borilsa, albatta o`z samarasini bermay qolmaydi. Mahalla xududidagi turli xildagi ishlab chiqarishlar, zamon talabiga javob beruvchi yangi zamonaviy dastgohlar bilan ta`minlangan tsexlar va kichik korxonalarning ishlab chiqarish ustalarini tadbirkorlarni, mahalladagi martabaga ega, hurmatga sazovar ardoqli insonlarni bolaga o`rnak qilib ko`rsatish uning kasb tanlashga bo`lgan qiziqishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Bola yoshligidan ota-onaning yaqin yordamchilari ekanligini his qiladi. Maktab, mahalla yordamida o`tkazilgan mehnatga bog`liq tadbirlarga bola o`sha tadbirni qanday maqsadda o`tkazilayotganini tushunib qatnashsa, mehnat qilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Ota-onalarning mehnatga bo`lgan munosabati bolaga tarbiyaviy ta`sir ko`rsatadi. Mahalla, maktab, oila bola tarbiyalashga hamkorlikda ma`sul hisoblanadi. Oiladagi va mahalladagi faollarning mehnatsevarligi kichiklarga mehnat namunasiga aylanadi.

Maktab, oila, mahallaning birgalikda turli tadbirlar, kechalar va mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar o`tkazilishi o`quvchilarda yaxshi ta`surot qoldiradi va ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

O`quvchilarni kasb tanlashga to`g`ri yo`naltirishda uning qiziqishlari, layoqati, jismoniy sog`lomliligi, bardoshliligi, sabr-toqati, iqtidori, qobiliyati, o`zlashtirishi, oiliviy sharoiti, ijtimoiy kelib chiqishi harakteri, va hakazolarni hisobga olgan holda yo`naltirishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Bola kasbni to`g`ri tanlashda yuqoridagi omillarni o`qituvchi, ota-ona, yaqinlari, u unib-o`sgan mahalla bilan olib borilgan tadbirlar va ishlar natijasida bu jarayonlarning ko`pini aniqlab olish mumkin. Bolaning to`g`ri tanlagan kasbi asosida kollej va akademik litseylarga yo`naltirilishi, ularni tamomlab o`zlari hohlagan kasb egalari bo`lishi ta`limning bosqichlarini davom ettirishi, kelajakdagi

mehnat, ish faoliyatlari davomida yuksak cho`qqilarga erishishiga, o`z tanlagan kasblarining yetuk mutaxassislari bo`lishiga yordam beradi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Kontseptsiyada o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish jarayonida qaysi tamoyillarning ustuvor o`rin tutishi alohida ta`kidlab o`tilgan?
2. Uzluksiz ta`lim tizimi rivojlanishining hozirgi sharoitida o`quvchilar bilan olib boriladigan kasb-hunarga yo`naltirish ishlarini takomillashtirish deganda nimani tushunasiz?
3. Kasbga yo`naltirishning asosiy maqsadi nimalardan iborat?
4. Respublikamiz ta`lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida nima deya olasiz?
5. Muammolarning to`laqonli yechimini topishga to`siq bo`layotgan asosiy holatlardan biri – tadqiqotlarning odatda qandaydir tartibda belgilanadigan o`rtacha olingan o`quvchi shaxsiga yo`naltirilganligi bilan belgilanadi. Buni qanday izohlay olasiz?
6. Respublikamiz ta`lim mazmuni tubdan isloh etilayotgan bugungi kunda o`quvchilarning texnik ijodkorlik mashg`ulotlariga qo`yiladigan talablar haqida nima deya olasiz?
7. Umumiy o`rta ta`lim maktablari o`quvchilarini kasb-hunarga yo`naltirish, ularda muayyan kasbiy faoliyat bo`yicha ko`nikma va malakalarni hosil qilish borasida muayyan yutuqlarga erishilganligi ko`rsatildi. Buni Siz qanday izohlaysiz?
8. Loyiha doirasida amalga oshirilgan tadqiqot ishi natijalariga ko`ra qanday tavsiyalarni ilgari surishimiz mumkin?
9. O`quvchilarni kasb tanlashga to`g`ri yo`naltirishda ularning qaysi sifatlariga e`tibor berish lozim?

## 3.2. Kasb tanlash, kasbiy layoqatlik, kasbiy o‘z-o‘zini baholash, kasbiy maslahatlar va kasbga yo‘naltirish



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Kasbga yo‘naltirish, faoliyat ko‘rsatish, kasbni to‘g‘ri tanlash, moyillik, qiziqish, kasbning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, kasb-hunar sohiblari, kasb ehtiyojlari, kasb turlari, kasblarning tasnifi.*

Mustaqil respublikamizning buyuk kelajagini yaratishda yosh avlodni faol qatnashishga jalb etish bevosita kasbga yo‘naltirish ishi bilan bog‘liq.

Yoshlarni kasbga yo‘naltirish muammosi bilan pedagoglar, psixologlar, shifokorlar, iqtisodchilar, sotsiologlar kabi boshqa sohalarda faoliyat ko‘rsatuvchi mutaxassislar shug‘ullanadi. Bu muammo ustida ko‘p soha mutaxassislarining shug‘ullanishi uni majmuaviy hal etilishiga sharoit yaratadi. Yoshlarda fan-texnika, texnologiya asoslari haqida mukammal bilim, kasbiy ish-harakat usullarini shakllantirish, ular tomonidan onglilik, mustaqillik, ishbilarmonlik, ijodkorlik kabi qobiliyatlarni o‘z mulkiga aylantirishiga erishish uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarini muhim vazifasidir.

Kasbni to‘g‘ri tanlash-inson hayot-faoliyatidagi muhim ish bo‘lib, u har bir shaxsning qiziqishi, mayli, imkoniyatlariga mos kelishi zarur. Mutaxassis o‘zi bajarayotgan ishga ijodiy yondoshib, mehnat unumdorligini  oshirib borsa, faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, kasbiy mahorati darajasini oshira borsagina mehnatdan qoniqish hosil qiladi. Yoshlarning kasb tanlashi ongli zaruriyat va ayni paytda jamiyat manfaatlariga mushtarak bo‘lishi ularning kamolot yo‘lidagi shaxsiy muddaolarini qondirishi lozim. Kasbga yo‘naltirish ishida iqtisodiy muammolar muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbga yo‘naltirishda bir tomondan-turli kasblar va ixtisosliklarning mavjudligi, ikkinchi tomondan-shaxslarning qator hususiyatlari bilan farqlanishi o‘ziga xos muammoli vaziyatlari vujudga keltiradi. Umuman ilk kasbga yo‘naltirish ishlari oiladan boshlanib, atrof-muhit, ota-ona, kattalar, qo‘ni-qo‘shni, mahalladoshlar kabilar ham unga ma’lum ta’sirini ko‘rsatadi.

Kasb-hunar tanlashda har bir shaxs, avvalo, nimani bilishi, xohlashini, qo‘lidan nima kelishini, ya’ni nimani uddalay bilishini va jamiyat uchun nima qilishi kerakligini bilishi zarur. Bu holatni mantiqan quyidagicha ifodalash mumkin. Kerak-xohlayman, bilaman-uddalayman.

Bilim egallash manbalari: uzluksiz ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, jamiat (oila, mahalla, tanishlar, qarindosh urug‘), hayot faoliyati kabilar.

**Moyillik** – ma’lum bir faoliyat bilan shug‘ullanishga undovchi omil.




**MEHNAT PREDMETI BOʻYICHA KASBLARNING TASNIFLARI**

| ***Inson-*** ***Texnika*** | **Inson-** **tabiat** | **Inson-** **inson** | **Inson-belgilar tizimi** | **Inson-badiiy obrazlar** |
|---|---|---|---|---|
| Texnik tizimlar bilan munosabatda boʻlish talab etiladigan mehnat faoliyat: Asbobsoz-chilangar, tokar, radio-texnik, avtomobillarni sinovchi, ta’mirlovchi chilangar va shu kabilar | Tabiat bilan munosabatda boʻlish talab etiladigan mehnat faoliyati: Dexqon-fermer, asalarichi, chorvador, zootexnik va shu kabilar | Insonlar bilan munosabatda boʻlish talab etiladigan faoliyat: Tarbiyachi, oʻqituvchi, toʻgarak rahbari va shu kabilar. | Belgilar tizimi bilan munosabatda boʻlish talab etiladigan faoliyat: Harf teruvchi, ofset bosma bosuvchi, va shu kabilar. | Rassom, kulol, kashtadoʻz, dizayner loyihalovchi va shu kabilar. |

*MEHNAT QUROLLARI BO‘YICHA KASBLARNING TURLARI*

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Qo‘l mehnati bilan bog‘liq:** asbobsoz-chilangar, avtomobillarni ta’mirlovchi chilangar, bo‘yoqchi, suvoqchi vashu kabilar | **Mexanizm va mashinalarni ishlatish bilan bog‘liq:** Tokar, frezolovchi, haydovchi, kombaynchi va shu kabilar | **Avtomatik qurilmalarni ishlatish bilan bog‘liq:** Dasturli stanoklar operatori, nazorat-o‘lchash uskunalari va avtomatik qurilmalarni ta’mirlovchi chilangar | **Maxsus qobiliyatlari ishga solish bilan bog‘liq:** O‘ymakor, rassom, kulol, dizayner, musiqachi, badiiy so‘z ustasi va shu kabilar. |

**Qiziqish** – u yoki bu ob’ektlar bilan yaqindan tanishish, uni bilishga, o‘rganishga bo‘lgan intilish. Insonlarning qiziqishi quyidagi sohalarga bo‘linishi mumkinligini fanda isbotlangan: insonlarga, texnika, tabiatga, belgilarga, badiiy obrazlar.

**Layoqat** – shaxsning tabiiy tug‘ma xususiyatlari bo‘lib, u hayot va tajriba davomida rivojlanib, qobiliyat  sifatida faoliyat davomida namoyon bo‘ladi. Jamiyatning kasb-hunar sohiblariga bo‘lgan ehtiyojlari: tanlangan kasbning mehnat mazmuni va istiqbollari haqidagi bilimlarni egallash; tanlangan kasbga o‘zining mosligini va shu yo‘nalishdagi o‘quv yurtida o‘qiy olish imkoniyatlarini anglab yetish; tanlangan kasbning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tushunish kabilarni belgilaydi.

O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish uzluksiz ta`lim tizimining muhim bosqichi bo`lgan umumiy o`rta ta`lim tizimida alohida ahamiyatga ega bo`lib, yoshlarga o`quv va maxsus fanlar doirasida ishlab chiqarish sohalari, ularning o`ziga xos xususiyatlari, mehnat turlari, kasbiy faoliyat borasidagi ma`lumotlar beriladi. Natijada o`quvchilarda muayyan turdagi faoliyat yo`nalishiga qiziqish va hayotiy ehtiyoj yuzaga keladi.

Mazkur ehtiyojni qoplash va malakali mutaxassislarni tayyorlash ta`limning keyingi bosqichi o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi tizimida amalga oshriladi. Bu esa o`z navbatida umumiy o`rta va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi uzviyligini ta`minlash mexanizmini ishlab chiqish va joriy qilishni talab qilmoqda.

Respublikamiz ta`lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqqan holda qo`yilgan talablar yosh avlodni kasbga yo`naltirishning ilmiy va amaliy muammolari echimini topishga qaratilgan tadqiqotlar faollashuviga sabab bo`ldi. Bu boradagi tadqiqotlarda yosh avlodni kasb tanlashga tayyorlashning amaliy echimini topishga qaratilgan quyidagi asosiy yo`nalishlarini qayd etish mumkin:

- o`quvchilarning kasblar olamida yo`nalish olishiga yordam beruvchi hamda o`z individual imkoniyatlarini haqqoniy baholay olish ko`nikmalari zarur darajasini ta`minlovchi kasbiy axborotlar tizimini yaratish;
- o`quvchilarning kasb-hunar tanlashiga yordam berish maqsadida shaxsni o`rganishning tashxis metodlarini ishlab chiqish;
- yoshlarga kasbiy maslahatlar berishning nazariy va metodik asoslarini yaratish;
- kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatli mayllarini asoslash;
- umumiy o`rta ta`lim maktablarida o`quvchilarni kasb tanlashga yo`llashning vosita va yo`llarini aniqlash;
- bitiruvchi sinf o`quvchilarini kasb tanlashga erkin yo`naltirishning mazmuni, shakl va metodlarini belgilash;
- O`zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy modelini amaliyotga tadbiq etish sharoitida o`quvchilarni kasb tanlashga yo`llashning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;
- alohida olingan hududiy markazlarda yoshlarni kasb tanlashga yo`llash ishini boshqarish xususiyatlarini belgilab berish talab etiladi.

Bola kasbni to`g`ri tanlashda yuqoridagi omillarni o`qituvchi, ota-ona, yaqinlari, u unib-o`sgan mahalla bilan olib borilgan tadbirlar va ishlar natijasida bu jarayonlarning ko`pini aniqlab olish mumkin. Bolaning to`g`ri tanlagan kasbi

asosida kollej va akademik litseylarga yo`naltirilishi, ularni tamomlab o`zlari hohlagan kasb egalari bo`lishi ta`limning bosqichlarini davom ettirishi, kelajakdagi mehnat, ish faoliyatlari davomida yuksak cho`qqilarga erishishiga, o`z tanlagan kasblarining yetuk mutaxassislari bo`lishiga yordam beradi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Mustaqil respublikamizning buyuk kelajagini yaratishda yosh avlodni faol qatnashishga jalb etish bevosita nima bilan bog`liq? Izohlab bering.
2. Yoshlarni kasbga yo‘naltirish muammosi bilan kimlar mashg`ul bo`lishadi? Misollar bilan izohlab bering.
3. Kasbni to‘g‘ri tanlashda nimalarga e`tibor berish lozim? Misollar keltiring.
4. Moyillik nima? Ta`rif berib, izohlab bering.
5. Kasb turlarini izohlab bering.
6. Mehnat predmeti bo‘yicha kasblarning tasniflari haqida nima deya olasiz?
7. Kasblarning turlari bo`yicha misollar keltirib, izoh bering.
8. Yosh avlodni kasb tanlashga tayyorlashning amaliy echimini topishga qaratilgan qaysi asosiy yo`nalishlarini qayd etish mumkin?

***Foydalanilgan adabiyotlar***


1. 2017-2021yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
2. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
3. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.
4. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.
5. www.inter-pedagogika.ru
6. www.didaktika.ru
7. www.School. edu. uz
8. www.Ppsy. ru

# MAVZU 4. O‘QUV-KASBIY FAOLIYAT MAZMUNI.

**_O’quv maqsadi_**

*O‘quv-kasbiy faoliyatda mutaxassis sifatida shaxs shakllanishi va rivojlanishini maqsad qilgan, o‘quvchiga qaratilgan o‘ziga xos faoliyati, o‘quv-kasbiy faoliyatda namoyon bo`luvchi motivatsion, mazmunli, faoliyatli, baholovchi-nazoratli, bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanish jarayoniga oid O‘quv-kasbiy faoliyatda namoyon bo`luvchi motivatsion, mazmunli, faoliyatli, baholovchi-nazoratli, bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanish jarayoniga oid oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganish*

## 4.1. O‘quv-kasbiy faoliyatda mutaxassis sifatida shaxs shakllanishi va rivojlanishini maqsad qilgan, o‘quvchiga qaratilgan o‘ziga xos faoliyat sifatida.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Shaxsini puxta o‘rganish, individual yondashuv, ijtimoiy, psixik jihatdan kamolga yetish, ijtimoiy mavjudot, qarama-qarshiliklarga ega bo`lish.*

Tarbiya jarayonini tashkil etishda bola shaxsini puxta o‘rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo‘lish va uning individual xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

Individual yondashuv o‘quvchining aqliy qobiliyati, bilishga bo‘lgan qiziqishi va iste’dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega. Bolaning harakatlari uning ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ongli ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo‘lishiga erishishni nazarda tutadi. Bu ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo‘nalishi bo‘yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi.

Inson hayoti davomida doimo o‘zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo‘lsa, u jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘ziga munosib o‘rin egallaydi. Zero, rivojlanish tarbiya ta’siri ostida boradi. Shu sababli shaxsga xos fazilatlarni to‘g‘ri va ob’ektiv baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri hal etish uchun uning xulqiga ta’sir etuvchi omillar va shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan tarbiya jarayonida uning shaxs rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsata olishi uchun ta’lim oluvchining o‘sishi va rivojlanishiga xos xususiyatlardan xabardor bo‘lish va inobatga olish maqsadga muvofiq. Binobarin, rivojlanish va tarbiya o‘rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxs tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillar. Pedagogika, psixologiya va falsafa fanlarida individning shaxs sifatida rivojlanishiga irsiyat (biologik omillar), muhit (ijtimoiy omillar) hamda tarbiya kabi omillarning ta’siri o‘rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko‘pdan buyon davom etadi.

Individning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishida irsiyat, ijtimoiy muhit va tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Ular ta’siridagina individ shaxs sifatida rivojlanib boradi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga jamiyatda birga yashash bilan bog‘liq bo‘lgan holat va hodisalar o‘rgatiladi. Bu jarayonda o‘quvchi ijtimoiy munosabatlarga kirishadi, jamiyat a’zolari bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Har qanday jamiyatning rivojlanish jarayonida ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, ideallr, axloqiy me’yorlar va qoidalar tizimi ishlab chiqiladi. Ijtimoiylashuv davrida har bir jamyat a’zosi mazkur qadriyat, ideal, me’yor va qoidalarning mohiyatini anglaydi, ularga rioya qilish asosida faoliyat yuritadi.

Ijtimoiylashuv jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan shaxsning xatti-harakatlari, xulq-atvori jamiyat talablariga mos kelishi, u bilan o‘zaro uyg‘unlasha olishi, salbiy ijtimoiy hodisalarga, individual rivojlanishiga

to‘sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba’zan aksi ham bo‘ladi: to‘liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba’zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko‘rsatmaydigan odamlar ham mavjud.

Shaxs deganda muayyan jamiyatning a’zosi tushuniladi. Odam-inson individi shaxsga aylanmog’i uchun ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o’z xususiyati va sifatlari bilan boshqalardan farq qilishi lozim.

Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo’ladi. U o’zining xususiyati, qiziqishi, qobiliyati, aqliy jihatdan rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji, mehnat faoliyatiga munosabati bilan boshqalardan farqlanadi. Bular shaxsning o’ziga xos xususiyatlari bo’lib, mazkur xususiyatlari rivojlanib, ma’lum bir bosqichga yetsagina, u kamol topgan shaxs sifatida namoyon bo’ladi. Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida qaror topada.

Shaxsning rivojlanishi, avvalo, unda shaxsiy xislatlarning shakllanishi bilan boshlanadi. Rivojlanish shaxsning o’zida jismoniy va boshqa xislatlarning takomilini namoyon etadigan jarayon bo’lib, bunday xislatlarning tug’ma, ba’zilarida keyinchalik erishgan bo’ladi.

Shaxs nomini olish uchun nimalar kerak? - degan savolning tug’ulishi tabiiydir. Odam ijtimoiy mavjudot sifatidan shaxsga aylanishi uchun unga ijtimoiy -iqtisodiy hayot sharoitlari muhit va tarbiya kerak bo’ladi. Ana shular hamda shaxsning nasliy xususiyatlarining taraqqiy etilayotganligi odamning rivojlanishi, shaxs sifatida namoyon bo’lishini ta’minlaydi.

Odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishini, uning har tomonlama kamolga etishi uchun tarbiyaviy ishlar metodikasi fani shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, unga ta’sir etadigan omillarni, rivojlanish jarayoniga aloqador bosqichlarni aniqlashi kerak. Shuningdek, bola shaxsining rivojlanishida faoliyatining o’rni va ahamiyatini ham o’rganishi lozim.

Biz yuqorida “rivojlanish” tushunchasini juda ko’p ishlatdik. Endi ushbu tushunchaga atroflicha yondashib, ta’rif berishga harakat qilaylik. Odam biologik

mavjudot sanaladi, tarbiyaviy, biologik va ijtimoiy qonuniyatlarga bevosita bo’ysunadi.

Boshqacha qilib aytganda, shaxs, inson tirik organizmdir, shu sababli uning hayoti biologiyaning umumiy qonunlariga, yoshlar anatomiyasi va fiziologiyasining maxsus qonunlariga bo’ysunadi. Bulardan tashqari odamning komil inson bo’lib yetishida aniq maqsad asosida tashkil etilgan hatti-harakat, iroda sifatlarining kamol topishi asosida ayrim nuqsonlarning bartaraf etilishi qiyinchiliklarni yengib o’tishga bo’lgan ishonchi ham muhim ahamiyatga egadir.

Ma’lumki, hayoti davomida inson jismoniy va psixik jihatdan o’zgarib boradi. Lekin, bolalik, o’smirlik va o’spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo’ladi.

Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o’sishi, o’zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi, bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta’sir etishi natijasida bola jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o’ziga munosib o’rin egallaydi.

Anatomik va fiziologik xarakterdagi o’zgarishlar jismoniy rivojlanishga ta’luqlidir. Odam bo’yining o’sishi, gavda og’irligining ortib borishi, gavda tuzulishining o’zgarishi, qon bosimi, o’pka sig’imi, tayanch-harakat apparatining holati va boshqalar jismoniy rivojlanish ko’rsatkichlaridir.

Ruhiy jarayonlar va bola ryhiyatidagi o’zgarishlar, chunonchi, diqqat va xotira darajasi, taffakur xususiyatlari, so’z boyligi hamda nutqning rivojlanganlik darajasi va boshqalar ruhiy rivojlanishga ta’luqlidir.

Shaxs rivojlanishida, u yoki, bu faoliyat turlari (o’yin, o’qish, mehnat va boshqalar)ning turli yoshdagi faoliyatlar mazmuni (maqsadga yunaltirilganlik, harakatning ongli, rejali bo’lishi, ularning samaradorligi va h.k) shuningdek, aloqa, muomala hamda kishilar o’rtasidagiijtimoiy munosabatlar mazmuni, ijtimoiy-ahloqiy me’yorlarga bo’ysunish, ijtimoiy burchni anglash, unga nisbatan ma’sullik kabi xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega bo’ladi.

Shaxsning shakllanishida shaxsiy xislat va sifatlarning rivojlanib, taraqiy etib borishi muhim o'rin tutadi. Shaxs sifatlarini to'g'ri aniqlash uchun turli munosabatlar jarayonida uni o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimi kadrlarning yangi avlodi taffakurini, ongini shakllantirishga xizmat qiladigan zarur bir soha sifatida namoyon bo'layotgan ekan, shaxs ta'rifi ham birmuncha oydinlashadi. Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismiga kirgan "shaxs" quydagicha ta'riflanadi:

**Shaxs** - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub`ekti va ob`ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste`molchisi va ularni amalga oshiruvchisi.

Demak, shaxs - ijtimoiy munosabatlar maxsuli bo'lib, ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy mavjudot sifatida jamiyatda o'z o'rni bor.

Shaxsning rivojlanishi esa, barcha tug'ma va hosil qilingan xususiyatlari: organizmning anatomik tuzilishi, fiziologik va psixologik xususiyatlari, faoliyat va xatti-harakatining miqdori va sifatining o'zgarish jarayonidir.

Faqat tarbiya orqali insondagi rivojlanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish mumkin. Tarbiya jarayonida aniq maqsad va reja asosida shaxsga ta'sir etiladi.

Buning natijasida muhitdagi voqealarning to'g'ri ijobiy ta'sirini amalga oshirish imkoni tug'iladi. Muhit bera olmagan narsalar tarbiya orqali hosil qilinadi, hatto tarbiya tufayli shaxsda tug'ma kamchiliklarni ham o'zgartirib shaxsni kamolga yetkazishi mumkin. Bundan tashqari muhitning salbiy ta'siri tufayli tarbiyasi izdan chiqqanlarni ham qayta tarbiyalaydi. Rivojlanish shaxs faoliyatidan tashqarida bo'lmaydi. Shu sababli odam faoliyati uning rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat xoh o'yin, mehnat, o'qish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Insonning kamol topish jarayonini faqat irsiyat, muhit va ta'lim-tarbiyaga bog'lab o'rganish, talqin qilish ham haqiqatga unchalik to'g'ri kelmaydi. Chunki, ijtimoiy taraqiyotda shaxsning o'zi ham faol ishtirok etadi.

Aytish mumkinki, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiyada shaxsning o'zi faol ishtirok etgandagina uning tug'ma layoqatini uyg'otadi, ist`edod qobiliyatlarini

o’stira oladi. Agar, kishi o’z ishini sevsa, uning shu sohadagi ist`edodi tezroq va kuchliroq ro’yobga chiqa boshlaydi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Tarbiya jarayonini tashkil etishda nimalarga e`tibor beriladi?
2. Kadrlar tayyorlash sohasida insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash haqida nimalarni bilasiz?
3. Inson hayoti davomida doimo o‘zgarib boradi. Uning sabablari nimada deb o`ylaysiz?
4. Individning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishidagi o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Shaxsning ijtimoiylashuvi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Siz buni qanday izohlaysiz?

## 4.2. O‘quv-kasbiy faoliyat komponentlari: motivatsion, mazmunli, faoliyatli, baholovchi-nazoratli, bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanish jarayoni



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Butunlikni tashkil qil ish, zaruriy bog‘liqlik, muayyan faoliyat, o‘qish jarayoni, bilimlarning ta’sirchanligi, mashq qilish, texnologik jarayon.*

Ta’limning muhim elementlari bizga juda qadimdan kelib qolgan va ular o‘z xususiyatlarini hozirgacha saqlab qolgan. An’anaviy kategoriyalar – maqsadlar, mazmun, shakllar, ta’lim uslub va vositalaridan jborat. Ana shular pedagog faoliyatining asosiy mazmunini tashkil etadi. Uzoq vaqt davomida yuqorida aytib o‘tilganlarning barchasi o‘quv jarayonida muhim ahamiyatga ega edi. Pedagogik jamiyat pedagogikada sodir bo‘layotgan vaziyatlarni qoniqarsiz qabul qilardi. Maqsad, mazmun va ba’zan jarayonlar noto‘g‘ri tushunilar edi. Chunki, ana shu formalar orasidagi bog‘liqlikda noaniqlik belgilanar edi. Metodika so‘zi sub’ektiv ma’noni berar edi. Ushbu aytilganlardan shuni xulosa qilish mumkinki:

1. Pedagog kadrlarning layoqatida muammo bor edi.
2. Pedagoglar maxsus o‘quv yurtlarida ta’lim olmagan mutaxassisligi yo‘q edi.

Pedagog SH.A. Amonashvili o‘z pedagogik jarayoniga quyidagicha ta’rif beradi – bu o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorligi va o‘zaro birdamligi. O‘qituvchi o‘quvchini yo‘naltiradi va o‘quvchi shaxsini tarbiyalaydi. Pedagog yordam ko‘rsatadi ana shu vaqtda agarda u talablarini aniq qo‘ysa. O‘quvchiga e’lon qiladi, maslahatlashadi, ko‘rsatadi, olib boradi, maslahat beradi, ishontiradi, qiziqtiradi, savollar va topshiriqlar beradi, ruhini ko‘taradi va uning shaxsini hurmat qiladi.

Ta’limning zamonaviy texnologiyalari o‘qituvchini ijodiy faoliyatini oshiradi. Bu yerda nimaga? Nima uchun? Nima? Qanday? Nima yordamida? Kim? Shundaymi? Degan savollarga keng javob berish nazarda tutilgan. Ana shu misollar ta’lim jarayoni va texnologiyasining mazmunini aniqlaydi.

Texnologiyalarni loyihalash – pedagogikaning vazifasi va didaktik jarayonning ishlab chiqilishi, bu barcha masalalarni yechishda muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik masalaning to`g`ri qo‘yilishi quyidagilardan iborat:

- ta’lim maqsadlari tahlili, o‘quv fani mazmuni asosida aniqlash;
- o‘quv predmeti mazmunini tuzish va uni o‘quv elementlari sistemasiga kiritish;
- o‘quv elementlari me’yorida topshiriq;
- ta’lim oluvchilarning bilim saviyalarini belgilab olish;
- ta’limni tashkil qilishdagi cheklanishlarni hisobga olish.

Pedagogning faoliyati pedagogik topshiriqlarni bajarish, uslublarini shalklantirishdan iborat.

Shunday qilib pedagog faolyati uch narsaga asoslanadi:

- boshqarish turi;
- axborot jarayoni turi;
- axborot berish vositalari turi.

Bundan kelib chiqib o‘quv jarayoniga quyidagicha yondashish kerak:

Avval o‘quv material mazmuni tahlil qilinadi, maqsadi o‘rganiladi va pedagogik topshiriqlarning sharoitlari hisobga olinadi. Shu asosda ta’lim vositalari

tanlab olinadi va uning texnologiyalariga kiritiladi. Ushbu umumlashtirilgan pedagogik texnologiyalar, aniq psixologik-pedagogik ravishda asoslangan bo‘ladi. Bu pedagogik texnologiyalar – uslubiy me’yorda qurish jarayoni ostida muammolarni hal qiladi. Kasbiy tayyorgarlik yutuqlarini rejali natijaga olib keladi. Ushbu pedagogik texnologiyalarning kiritilishi loizmligi sezilib qoladi. Uning zamirida ijodiy fikrlash muammolarini hal etish, qarorlar qabul qilish va jamoa orasidagi hamkorlik kiradi.

Nazariy jihatdan u yoki bu faoliyat tayyorgarligini baholash quyidagi komponentlar asosida amalga oshiriladi. Bular motivatsiyali yo‘naltiruvchi ijtimoiy-psixologik va jarayonli komponentlardan iborat.

Ishlab chiqarish ta’limi ustasining motivatsiyali, faoliyatli, mazmunli, baholovchi-nazoratli komponentlarni o‘quv-kasbiy faoliyatga ijobiy munosabatni, tarkib topshirish, rivojlantirish va boshqalarni o‘z ichiga oladi. “Tarbiyaviy ishda motivatsiya” deganda tarbiyaviy faoliyat mazmunini, yo‘naltirilganligi va tavsifini aniqlovchi motivatsiyalar to‘plami tushuniladi.

O‘quv-kasbiy faoliyatning tashqi motivatsiyalari mavjud bo‘lib, ularga ta’lim muassasasidagi ishning ustuvorligi, pedagog sifatida shaxsiy va kasbiy o‘sish imkoniyati, o‘quv-kasbiy motivatsiyalarga ishlab chiqarish ta’limi ustasi faoliyatining jarayoni va natijasini kiritish mumkin. Shuningdek, motivatsiya sifatida va boshqaruv motivatsiya ham mavjud bo‘lib, bular ishlab chiqarish ta’limi ustasi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikdagi harakatida yuzaga chiqadi.

Ustaning yetakchi o‘quv-kasbiy motivatsiyasi bo‘lib, talaba shaxsining bo‘lajak malakali kichik mutaxassis sifatida shakllanishiga g‘amxo‘rlik qilish hisoblanadi.

O‘quv-kasbiy faoliyatga tayyorgarlikning yo‘naltiruvchi komponenti bo‘lib ishlab chiqarish ta’limi ustasining kasb faoliyati xususiyatlari va sharoitlari to‘g‘risidagi bilim, ko‘nikma, malaka va tasavvurlarini o‘z ichiga oladi va qiziqish, yondashuvchanlik, dunyoqarash, ishonch hosil qilish, ko‘zlangan maqsad orqali kasbiy yo‘naltirilganligini ifodalaydi.

Qiziqishi asosan yo‘naltirilgnalikning birinchi shakli hisoblanib, o‘rta maktabda shakllanishni boshlaydi. O‘quv-kasbiy ishga qiziqish bir qancha talablarga ega bo‘lib, insonlarning o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi bilan bog‘liqdir. Qiziqish, shuningdek o‘quv-kasb sohasidagi ma’lum bilimlarga bo‘lgan talabni ham ifodalaydi. Maktabda olingan bilim o‘quv-kasbiy ishga bo‘lgan qiziqishga asos bo‘lishi mumkin.

Qiziqish mehnat faoliyati sifatida talabalarni ma’lum yo‘nalishda harakatlanishlariga majbur qiladi.

O‘quv-kasbiy ishga bo‘lgan qiziqish “Bilimga chanqoqlik”ni keltirib chiqarsa, yondashuvchanlik-“Faoliyatga chanqoqlik”ni yuzaga keltiradi. Bo‘lajak ishlab chiqarish ta’limi ustasini o‘qitish va tarbiyalash jarayonida yondashuvchanlikni doimo rivojlantirib borish zarur.

Ma’lumki, dunyoqarash dunyo haqidagi uning qonuniyatlari haqidagi, insonni o‘rab turgan mavjudotlar, tabiat va jamiyat haqidagi qarashlar va tasavvurlar tizimini bildiradi.

O‘quv-kasbiy faoliyatga nisbatan kasbiy dunyoqarash, qiziqish va yondashuvchanlikdan farqli ravishda tarbiyaviy ish haqida ham to‘liqroq integratsiyalangan tasavvurni beradi.

Kasbiy dunyoqarash, fikrlash va iroda bilan birga asta-sekin shakllanib va rivojlanib boradi. O‘quv-kasbiy faoliyatda kasbiy dunyoqarashni shakllantirish-ishlab chiqarish ta’limi ustasini tayyorlashdagi bosh vazifa bo‘lib hisoblanadi.

Ijtimoiy-psixologik komponent – ishlab chiqarish ta’limi ustasining talabalar bilan muomala va o‘zaro hamkorlik qilishdagi adekvat faoliyatini ta’minlaydi.

Jarayonli komponent ishlab chiqarish ta’limi ustasining tarbiyaviy uslub va usullarini egallashida, ularni bajarish uchun bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va mahoratni sintez qilishda ifodalanadi.

O‘quv-kasbiy faoliyat – dars va darsdan tashqari ishlarni, ishlab chiqarish ta’limi mashg‘ulotlaridagi tarbiyaviy yondashuvlari, talabalar bilan faol ishlashni, guruhiy ishlarni shakllantirishni, psixologogik-pedagogik tashxis o‘tkazishni,

talabalardan shaxs sifatida shakllanishini, ota-onalar bilan ishlashni o‘z ichiga olishi mumkin.

Malaka-mashq qilish yo‘li bilan hosil bo‘ladigan ish-harakatdir. Mashq qilish natijasida yurish, o‘qish, yozish, og‘zaki hisoblash, xilma-xil mehnat jarayonlarini bajarish malakalari hosil qilinadi. Talaba harakatni bajarishning muayyan usullarini egallab oladi va bu ishni ongning nazoratisiz avtomatik ravishda bajaradi. Lekin boshlang‘ich bosqichda harakat doimo ongli suratda bajariladi. Masalan, tikuv mashinasiga ip taqish ketma-ketligini tasavvur qilish, kerakli ip va ignani tanlash lozim. Agar talaba ipni taqishni bir necha marta takrorlagandan so‘ng, harakat odatdagi bir harakatga aylansa, u ongning zohiriy ishtirokisiz bajariladi. Yangi tikuv mashinasiga iplarni taqish, gazlamani tepki ostiga o‘rnatish va mashinasi ishga tushirish ishlarini ko‘p marta takrorlash har doim bu harakatlarning ketma-ketligini o‘ylab ko‘rishdan ozod qiladi.

Tikuv mashinasida bajariladigan texnologik jarayon o‘zgarganda ya’ni tikilayotgan kiyimga qo‘yiladigan texnologik talabga qarab, iplar rangi, turi, ignalar, tepkilar tanlanadi. Bunda tikuvchining ongi ishga kirishadi.

Ta’lim oluvchilar tomonidan o‘quv materilalari o‘zlashtirilganligini, ko‘nikma va malakalar xosil bo‘lganligini tekshirish va baholash ta’lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o‘qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o‘quv jarayonining turli bosqichlarida ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Demak, ishlab chiqarish ta’limi ustasining vazifasi bo‘lajak kichik mutaxassis shaxsini tarbiyalash va shakllantirish hamda ularning bilim, ko‘nikma, malaka va mahoratini rivojlantirishdan iboratdir.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Zaruriy bog‘liqlik - narsa va hodisalarning tabiatidan kelib chiqishi nimaga bog`liq?
2. Ko‘nikma va malakalar haqida nimalarni bilasiz?

3. Malaka haqida nimalarni bilasiz?

4. Bilimlarning ta’sirchanligi haqida nima deya olsiz?

5. Mashq qilish yo‘li bilan hosil bo‘ladigan ish-harakatiga nima deyiladi?

### *Foydalanilgan adabiyotlar*


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iyy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 104 bet.
3. 2017-2021yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
4. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
5. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.
6. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.
7. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
8. www.inter-pedagogika.ru
9. www.didaktika.ru
10. www.School. edu. uz


## MAVZU 5. KASB-HUNAR TA’LIMI JARAYONI.

***O’quv maqsadi*** ⇒

*Talabalarda o‘quv, mexnat va kasbkorlik jarayonlari tushunchalari, ishlab chiqarish jarayoni strukturasi, mehnat usullari, umummexnat va kasbkorlik ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish, Talabalarda ishlab chiqarish texnologiyasi, ta’lim texnologiyasi, mexnat jarayonlari, ishlab chiqarish va ta’lim texnologiyalari uyg‘unligi, kasb-hunar ta’limi jarayonlarining samaradorlik mezonlariga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganish*

## 5.1. Asosiy o‘quv, mexnat va kasbkorlik jarayonlari tushunchalari, ishlab chiqarish jarayoni strukturasi, mehnat usullari, umummexnat va kasbkorlik ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish.



*Tayanch so‘z va iboralar:*

*Ta`lim va tarbiya jarayoni, o`qitish jarayoni, kasbiy ko`nikmalar, ko`nikma va malakalar faoliyati, malakaning harakterli jihati, inson faoliyati, umummehnat va kasbiy malakalar, muvaffaqiyatli shakllanish, o`zgarib borish xususiyati.*

**Talabalar umummehnat ko`nikma va malakalarining tarkibiy qismlari va ularni rivojlantirish jarayoni.** Inson o`z hayotining ma`lum davrida boshqariladigan va aniq maqsadga yo`naltirilgan ta`lim va tarbiya jarayonida ishtirok etadi. Shu paytdan boshlab u maxsus faoliyat turi - o`qitishning sub`yektiga aylanadi, o`qitishning maqsadi esa bilim egallashdan iborat bo`ladi.

O`qitish jarayoni ikki bosqichdan iborat:

1. Har qanday foydali faoliyat uchun zarur bo`lgan, dunyo haqida qayd etilgan va ilmiy tan olingan axborotlar olish.

2. Malakalar hosil qilish – ya`ni aniq sharoitlarda amalga oshadigan usullar va avtomatlashgan operatsiyalarni egallash.

Qo`yilgan maqsadga mos keluvchi bilim va malakalarning zarur faoliyat bilan bog`lanishi ko`nikma asoslarini tashkil etadi. O`qitish faoliyati shunday alohida xususiyatlar bilan harakterlanadiki, bunda insonning faoliyati aqliy maqsadga bo`ysundiriladi, ya`ni ma`lum bilim, ko`nikma va malaka egallanadi.

Talabaning kasbiy ko`nikmalarni tez va oson o`zlashtirishi uning nafaqat umumiy qobiliyatlari, balki shu asosda shakllangan maxsus kasbiy qobiliyatlarning ham yuqori darajada ekanligini bildiradi.

Ko`nikma va malakalarni faoliyat tavsifiga ko`ra tasniflash mumkin.  Misol uchun, **bir guruhni intellektual ko`nikma** (eshitish qobiliyati, kitob bilan ishlash, insho yozish, reja tuzish, o`z ishini rejalashtirish, uni qulay tashkil etish) va malakalar (yozuv savodxonligi, ifodali o`qish) tashkil qiladi.

**Ikkinchi guruhga mehnat ko`nikmalari** (chizmalar bo`yicha buyum yasay olish) va alohida avtomatlashgan mehnat operatsiyalari (arralash, qirqish, randalash, kesish malakalari) kiradi. Bu guruhga harakat va konstruktiv texnik ko`nikma va malakalar kiradi, bunda ikkinchisi hamma vaqt asbob va mashinalar bilan ishlashga bog`liq bo`ladi.

**Uchinchi guruhni jismoniy tarbiya va sport** ko`nikmalari (jismoniy tarbiya mashqlarini bajara olish) va malakalari (sakrash, suzish, arqonga chiqish) tashkil qiladi. Odatda gigiyenik ko`nikma va malakalarni ham **alohida guruh** sifatida qaraladi. Bundan tashqari malakalar murakkablik va avtomatlashganlik darajalariga ko`ra ham farqlanadi.

Operatsiya (malaka)larning harakatga bog`liqligidan tashqari, A.N. Leont'yev harakatlar shakllanishining operatsiya(malaka)lar shakllanishidan teskari aloqasini uqtirib: "operatsiyalar rivojlanishining etarlicha yuqori darajasi nisbatan murakkabroq operatsiyalarni bajarish imkoniyatini beradi, bu murakkab harakatlar o`z novbatida yanada yangi harakatlarni keltirib chiqaruvchi yangi operatsiyalarga zamin tayyorlashi mumkin va h.k.", - degan fikrni bildiradi. Chamasi bu bog`liqlikni inobatga olish pedagogik faoliyat sohasida ko`nikma va malakalar shakllanishini bajarishda muhim ahamiyatga ega bo`ladi.

Malakaning harakterli jihati shundaki, mashqlar yordamida o`zlashtirilgan va avtomatlashgan harakat uslublari nisbatan ancha mustahkamligi bilan farqlanadi. Bu jihat insonlarning ko`plab malakalariga tegishlidir (yurishi, salomlashishi uchun qo`l uzatish), bunda bir operatsiyaning o`zi turli operatsiyalarga javoban amalga oshiriladi.

**Turg`unlik** bilan bir qatorda malakalar **moslashuvchanlik** bilan ham harakterlanadi, ya`ni harakat usulining sharoit o`zgarishiga mos ravishda o`zgarib borishdir (albatta ma`lum chegarada). SHu sababli malakani qo`llashda bu sharoitlar qanchalik turli-tuman bo`lsa u shunchalik moslashuvchan bo`lib boradi, yoki aksincha bir xillik malakalar bir xilligiga olib keladi.

Malakalar (avtomatlashgan operatsiyalar) inson faoliyatining barcha turlarida zarur bo`ladi. Malakalarni egallamasdan turib: mehnat qurollaridan muvaffaqiyatli

foydalanish mumkin emas, hisoblashlarni amalga oshirib bo`lmaydi, ilmiy-badiiy adabiyotlarni o`qib bo`lmaydi, san`at, sport, ilmiy yoki har qanday boshqa kasbiy faoliyat bilan shug`ullanib bo`lmaydi. Anglangan operatsiyalar (malakalar) ayniqsa harakat to`xtovsiz o`zgarib turuvchi sharoitda amalga oshganda, harakat usulini shoshmasdan o`ylab olish mumkin bo`lmaganda, o`zgaruvchan sharoitda tezkor va aniq harakat qilish talab etilganda muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun bunday holat pedagoglarda doimiy hisoblanadi. Demak, xuddi mana shu o`rinda moslashuvchan va boshqaruvchan anglangan operatsiyalar talab etiladi.

**Umummehnat ko`nikmalari** tabiati to`g`risida muammoni hal qilishda biz ko`nikmalar deganda operatsiya va harakatlarning nisbatan murakkab tizimini egallash, inson uchun yangi bo`lgan sharoitlarda qo`llash, faoliyati o`zlashtirilgan bilim va malakalar asosida maqsadga muvofiq rostlashni qabul qiluvchi psixologlar fikrlaridan kelib chiqib ish ko`rdik.

Bu fikrlarga E.A.Mileryan tomonidan bildirilgan: "umummehnat ko`nikmalari politexnik bilim va malakalarga asoslangan ishchining o`zgaruvchan sharoitlarda o`zi uchun yangi bo`lgan mehnat faoliyatida umumlashgan, turli mehnat sharoitlari uchun xos bo`lgan ishni bajarishga turli usul va uslublar yordamida erishish qobiliyatiga aytiladi" - degan so`zlari juda yaqin keladi.

Umummehnat va kasbiy malakalarni shakllantirish quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi:

- dastlabki bosqichda malakaning shakllanishi talabalarga o`zlashtirishlari lozim bo`lgan harakatni bajarish tartibi tushuntiriladi. Harakatni bajarish usulini bilish uni to`laqonli bajarishni ta`minlay olmasa-da, u malaka shakllanishi uchun zarur bo`ladi. Odatda, harakatlar bilan tanishish uni o`rganishga qadar, ya`ni, malaka shakllangunga qadar amalga oshadi. Lekin, harakat vazifasi bilan yuzaki tanishish va uni tavsiflash malaka shakllanishi uchun yetarli emas. Harakatlarning bajarilishini o`qituvchi rahbarligida chuqur va mustahkam o`zlashtirish lozim. Harakatlarga o`rgatishning dastlabki bosqichlarida pedagogning vazifasi harakat tartibini tushuntirish, ularning amaliy ahamiyatini ko`rsatish, talabalar bilimlarini to`ldirish, chuqurlashtirish va tizimlashtirish bilan, boshqacha qilib aytganda, unga

mashqlar tavsifi va maqsadi, qanday o`zlashtirish kerakligi to`g`risida aniq bilimlar berish bilan belgilanadi;

- ikkinchi bosqich - malakaning shakllanishi asosini tashkil etuvchi qoidalarni shakllantirish va bilimlarni o`zlashtirish, qayta tiklash bosqichi hisoblanadi;

- uchinchi bosqich - navbatdagi mashqlarni bajarish jarayonida turg`unlashib qolishi mumkin bo`lgan harakatlar, boshlang`ich xatolarni bartaraf qiluvchi namunalarni namoyish qilishdir. O`qituvchi u, yoki bu harakatlarni qanday amalga oshirish lozimligi, ish jarayonida talaba uchraydigan qiyinchiliklarni ko`rsatib beradi;

- to`rtinchi bosqich - harakatni amaliy o`zlashtirish, malakani shakllantirish bilan bog`liq. Malaka shakllanishi harakatni bajarish usulini takomillashtirishga qaratilgan mashqlar jarayonida amalga oshadi. Bunda talaba ongli holda qoidalardan foydalana boshlaydi. Bu o`rinda ayniqsa harakatlarni tahlil qilish, xatolarni o`rganish va ularning oldini olish muhim ahamiyatga ega bo`ladi;

- beshinchi bosqich - mustaqil va tizimli bajariladigan mashqlardan iborat bo`ladi. Bu mashqlarda murakkablikni oshirib borish bilan birgalikda ularning xilma-xilligiga e`tibor beriladi, shunga muvofiq faoliyat qiziqarli va ko`p hollarda ijodiy tavsifga ega bo`ladi.

Malakalar shakllanishida mashqlarni vaqt bo`yicha taqsimlash muhim ahamiyatga ega. Uzoq vaqt davomida uzluksiz bajariladigan mashqlar natijasi toliqish tufayli kutilmagan samarani bera olmasligi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, mashqlarni boshqa turdagi ishlar va dam olish bilan almashtirib olib borish maqsadga muvofiq.

Mashqlar samaradorligiga ular orasidagi tanaffuslar ham sezilarli ta`sir qiladi. Juda cho`zilib ketadigan tanaffuslar mashqlar natijasini yomonlashtiradi va ularga sarflanadigan vaqtni ko`paytiradi. Psixologik tadqiqotlarning ko`rsatishicha mashqlarni quyidagicha taqsimlash eng qulay hisoblanadi: ta`lim boshida tez-tez takrorlash va asta-sekin ular oralig`ini oshirib borish.

Malakalarning shakllanib borish darajasini harakatlarni bajarish tezligi va aniqligiga ko`ra bilish mumkin. Bundan tashqari harakat natijalari turg`unligi ham

muhim omil hisoblanadi. Yuqori darajada shakllangan malakalar harakatlarni bajarishdagi alohida muvaffaqiyatlar bilan emas, balki davomli ravishda yuqori natijalarga erishib borishi bilan belgilanadi. Agar, harakatlarni bajarishning yaxshi natijalari uni yangi, yanada murakkabroq harakatlar tizimiga kiritilganida ham saqlansa, bu to`laqonli shakllangan malakadan dalolat beradi va uning shakllanganligining yana bir muhim bosqichi hisoblanadi.

**Malakalarning ko`chishi va moslashuvchanligi xususiyatlari.** Mehnat ta`limi va tarbiyasi muammosi bilan keng jamoatchilik, jumladan, oilalar, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta`lim maktablari, o`rta maxsus va oliy o`quv yurtlari jamoasi shug`ullanib kelmoqda. Bugungi kunda o`qituvchilarning pedagogik va psixologik mahoratini oshirishga alohida e`tibor berib kelinmoqda. Bunda nafaqat o`qituvchilarni, balki shu bilan birga oliy ma`lumotli ishlab chiqarish ta`limi ustalarini, mehnat va kasb ta`limi o`qituvchilarini tayyorlashda ma`lum muvaffaqiyatlarga erishilmoqda.

Umummehnat ko`nikma va malakalarining shakllanishi ma`lum mehnat faoliyati tarkibiga kiruvchi harakatlarni egallashning murakkab majmuiy jarayoni hisoblanadi. Ularning shakllanishi jarayonida shaxsning har tomonlama rivojlanishi, umumiy va kasbiy qobiliyatlari, mehnat faoliyatida talab etiladigan iroda xislatlari, ma`naviy va jismoniy sifatlari kamol topadi. Mehnat ko`nikma va malakalarining egallanishi o`z-o`zini nazorat qilish va boshqarishga asoslangan hamda intellektual, sezgi harakat va iroda xislatlarini o`z tarkibiga oluvchi faol idrok etadigan jarayon hisoblanadi. Ko`nikma va malakalarni intellektual va ijodiy jarayonlarga qarama-qarshi qo`yib bo`lmaydi, ularni o`zaro bog`liqlikda qarash lozim.

Mashg`ulotlarni talaba tashabbuskorligi va fikrlash faolligini rivojlantiruvchi qilib tayyorlash qiyinroq, biroq bunda unga sharoitlarni mustaqil fikrlash asosida yechimini topishni talab qiluvchi masalalar taklif etiladi. Murakkabroq masalalarni yechishga bosqichma-bosqich o`tiladi, biroq talabalar mustaqilligini dastlabki mashg`ulotlardanoq faollashtirib borishi lozim. Mehnat ta`limi amaliyotiga muammoli uslublarni tadbiq qilish ham yuqori samara beradi.

Umummehnat ko`nikma va malakalarning muvaffaqiyatli shakllanishi sharoitlarini qarab chiqishda nafaqat ularning mustahkam egallanishi zaruriyatini balki malakalar moslashuvchanligi, ya`ni yangi sharoitlarga malakani ko`chira olishi va o`zgaruvchan sharoitlarga moslashishini ta`minlashni ham hisobga olish zarur bo`ladi. Ma`lumki, yangi malakalarning shakllanishiga talaba to`plagan tajribasi katta ta`sir ko`rsatadi. Tajriba qanchalik katta bo`lsa yangi ko`nikma va malakalarni egallash osonlashadi, yangi ish sharoitlariga moslashishi tezlashadi. To`plangan tajribaning amalda qo`llanilish holatlaridan biri - malakalarning ko`chishi, ya`ni ilgari hosil qilingan malakalarning keyingilarini o`zlashtirishiga ijobiy ta`sir ko`rsatishidir. Malakalarning ko`chishi, avvalo, ish usullarining umumiyligiga ko`ra, ilgari hosil qilingan malakalarning yangi sharoitga ko`chishida amalga oshadi. Misol uchun, tokarlik stanogida hosil qilingan malakalar boshqa metallga ishlov beruvchi stanoklarda ishlashga o`rganishni osonlashtiradi.

Zamonaviy taraqqiy etayotgan ishlab chiqarishning ilmiy-texnik asosi ishchilarning turli sohalardagi mehnatini yanada yaqinlashtirib boradi. Shunga muvofiq talabalarning o`quv yurtidagi politexnik ta`limi asosida o`zlashtirgan ko`nikma va malakalarini turli aniq kasblarga ko`chirishga qulay imkoniyat yaratadi.

Malakalarning ko`chishida ularni o`zlashtirishning anglanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma`lum bir malakani o`zlashtirishda talaba nafaqat mos ravishdagi harakatlarni, balki uni muvaffaqiyatga olib keluvchi usul va yo`llarni ham o`zlashtiradi. Keyingi faoliyatida u ilgarigi tajribadan foydalanishga, yo`l qo`yilgan xatolarni takrorlamaslikka intiladi va buning natijasida yangi malakalarni o`zlashtirishni osonlashtiradi.

Malakalar o`zgarib borish xususiyatiga ega: mashqlar takrorlab borilganda ular takomillashib boradi, avtomatizmga erishiladi. Mashq uzoq vaqt bajarilmaganida - uning noavtomatlashuvi yuz beradi.

Malakalar moslashuvchanligini ta`minlovchi ikkinchi muhim shart - bu malakaning o`zini turli sharoitlarda o`zlashtrish, turli masalalarni hal qilish uchun

qo`llaniladigan mashqlarni bajarishdan iborat bo`ladi. Bu mashqlar stereotip mashqlar ta`sirini kamaytirish uchun bajariladi. Harakatlarni ongli faol boshqarish, malakalarning umumiy nazorati ostida o`zgarishi malakaning shakllanishidagi dastlabki bosqichlarga qaytishiga olib keladi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Inson o`z hayotining ma`lum davrida boshqariladigan va aniq maqsadga yo`naltirilgan ta`lim va tarbiya jarayonida ishtirok etadi. Bu fikrga qanday qaraysig? O`z fikringizni bayon eting.
2. O`qitish jarayoni nechta bosqichdan iborat? Bu haqida nimalarni bilasiz?
3. Talabaning kasbiy ko`nikmalarni tez va oson o`zlashtirishi uning nafaqat umumiy qobiliyatlari, balki shu asosda shakllangan maxsus kasbiy qobiliyatlarning ham yuqori darajada ekanligini bildiradi. Bu fikrga qanday qaraysig? O`z fikringizni bayon eting.
4. Ko`nikma va malakalarni faoliyat tavsifiga ko`ra tasniflash mumkinmi? O`z fikringizni bayon eting.
5. Malakaning harakterli jihati nimalardan iborat?
6. Umummehnat ko`nikmalari tabiati to`g`risida nima deya olasiz?
7. Umummehnat va kasbiy malakalarni shakllantirishning asosiy bosqichlariga izoh bering.
8. Umummehnat ko`nikma va malakalarning muvaffaqiyatli shakllanishi haqida nima deya olasiz?

## 5.2. Ishlab chiqarish texnologiyasi, ta'lim texnologiyasi, mexnat jarayonlari, ishlab chiqarish va ta'lim texnologiyalari uyg'unligi, kasb-hunar ta'limi jarayonlarining samaradorlik mezonlari



***Tayanch so'z va iboralar:***

*Ishlab chiqarish ta'limi, o'quv ustaxonalari, boshlang'ich ko'rsatma berish, joriy ko'rsatma berish, yakuniy ko'rsatma berish, ishlab chiqarish darsi, o'quv-*

*tarbiyaviy jarayon, kasbiy ko'nikma va mahoratlarini oshirish, o'qitish – malakasi, kichik mutaxassis.*

Ishlab chiqarish ta'limi turli shakllarda joriy qilinadi. Bularga kasb-hunar kollejlari o'quv ustaxonasida ishlab chiqarish sayohati, amaliyoti va maslahatlar, ishlab chiqarish korxonalar ustaxonalarida amaliyotlar, ish o'rinlarida diplom oldi ishlab chiqarish amaliyoti va boshqalar kiradi. Muayyan kasbga o'rgatishda diplom kiradi.

Ishlab chiqarish ta'limini tashkil etishning asosiy shakllarini ko'rib chiqamiz.

**Ishlab chiqarish ta'limi** - o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulot bo'lib, uning maqsadi ishlab chiqarish sharoitlarida unumli mehnat uchun zarur bo'lgan boshlang'ich kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish hisoblanadi. Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarida bilimlarni yaxlitlashtirish va ularni talabaning amaliy faoliyati jarayonida har tomonlama qo'llash amalga oshadi. Bu ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarining tuzilmasini, mazmuni va o'qitish usullarini, shuningdek ularning davomiyligini aniqlab beradi.

Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlari tuzilmasida ko'rsatma berish muhim bo'lib ularga boshlang'ich ko'rsatma, joriy ko'rsatma va yakuniy ko'rsatmalar kiradi.

**Boshlang'ich ko'rsatma berish** quyidagi vazifalarni yechadi:

a) talabalar oldida turgan ishlar mazmuni bilan va uni bajarish mumkin bo'lgan vositalar bilan (asbob, moslama, jihoz va hokazo) tanishtirish;

b) mehnatning yakuniy natijasiga (maxsulotga) bo'lgan talablar va texnik hujjatlar bilan tanishtirish;

c) butun ishni va uning alohida qismlarini (usullar, operatsiyalar va x.k.) bajarish qoidalari va ketma-ketligini tushuntirish;

d) mumkin bulgan kiyrnchiliklar, xatolar haqida talabalarni ogoxlantirish;

e) zarur xollarda operatsiyalarning bajarilishi ustidan o'z-o'zini nazorat qilish usulini namoyish qilish.

**Joriy ko'rsatma berish** talabalar tomonidan amaliy ishlar bajarilayotganda o'tkaziladi. U odatda, yakka tartibda va guruh bo'yicha o'tkaziladi.

Joriy ko'rsatma berishda usta butun o'quv guruhi diqqatini o'rganilayotgan operatsiyani bajarishning eng samarali usullariga qaratadi, topshiriqni bajarishga sust tayyorlangan talabalarga yordam beradi va hokazo. Usta faoliyatining yutug'i ko'pincha butun guruh va har bir talaba ishi ustidan maqsadga yo'naltirilgan kuzatuvni tashkil etish mahoratiga bog'liq bo`ladi. Guruhni faollashtirishga musobaqa elementlari, o'yin vaziyatlarini kiritish bilan, alohida operatsiyalar bajarilishini bosqichma-bosqich baholash bilan erishiladi.

**Yakuniy ko'rsatma berish** bir necha didaktik va tarbiyaviy maqsadlarga ega: guruhda jamoaviy va yakka tartibdagi mehnat natijalarini ob'ektiv baxolash, ilg'or talabalarni aniqlash va ularni rag'batlantirish, u yoki bu mehnat operatsiyalarini bajarishda umumiy va yakka tartibdagi xatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini izlash va hokazo. Yakuniy ko'rsatmalarni to'g'ri berish talabalarga katta tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi, ularda o`z mexnati natijasi uchun javobgarlik, jamoaviylik, bajarilgan ishdan qoniqish hosil qilish, mehnatga bo'lgan estetik munosabat hissiyotini uyg'otadi va shakllantirishga ko'maklashadi.

O'rganilayotgan materialning maqsadlari va mazmuniga bog'liq ravishda ishlab chiqarish darslarining quyidagi turlari mavjud:

- maqsadi talabalarga o'rganilayotgan usul yoki operatsiyalarni bajarish uchun ishlab chiqarish - texnik bilim, boshlang'ich ko'nikma va maxorat berish bilan mehnat usul va operatsiyalarini o'rganish bo'yicha darslar;
- maqsadi talabalarni asta-sekin murakkablashib borayotgan o'quv ishlab chiqarishlari, mexnatni tashkil etish va texnologik jarayonni rejalashtirish, ko'nikma va mahoratlarni takomillashtirish va mustahkamlash, turli birikmalarda avval o'rganilgan operatsiyalarni bajarish bilan tanishtirish bilan kompleks ishlarni bajarish bo'yicha darslar.

**Maxsus tajriba maydonlarida ishlab chiqarish darsi.** O'quv sharoitlarida ko'pincha ko'nikma va maxoratlarni shakllantirish uchun ishlab chiqarishda xaqiqiy vositalardan foydalanishning imkoni bo'lmaydi.

Maxsus tajriba maydonlariga turli xil avtotransport vositalari bilan jixozlangan maydonchalar, qurilish mashinalari va mexanizmlari bilan jihozlangan o‘quv-qurilish maydonchalari, harakatlanuvchan katta yukli kranga ega bo‘lgan ochiq maydonchalar, geologik va geodezik ishlar uchun o‘quv maydonchalari va xokazolar kiradi.

Maxsus-tajriba - o‘quv maydonchalarida kasb-xunar kollejlari yo‘nalishlariga qarab, masalan, qishloq xo‘jalik kasb-hunar kolleji maydonchasida – qishloq xo‘jalik mashinalarini o‘rganish va ular bilan ishlar, maishiy xizmat kasb-hunar kollejida – tikuvchilik mashinalarini o‘rganish va ular bilan ishlar amalga oshiriladi.

**O‘quv ustaxonasida ishlab chiqarish ta’limi bo‘yicha mashg‘ulotlar.** O‘quv ustaxonasida ishlab chiqarish ta’limi – talabalar o‘quv va ishlab chiqarish faoliyati ko‘lamini kengaytirishning muxim shartlaridan biridir.

O‘quv ustaxonalarida ishlash o‘quv-tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshiradi, chunki o‘qitish sharoitlari ishlab chiqarish sharoitlariga yaqin va talabalarga murakkab maxsulot ishlab chiqarish jarayonini o‘zlashtirish imkonini beradi.

Talabalarning korxonada ishlab chiqarish ta’lim olishlaridan asosiy maqsad – ularning kasbiy ko‘nikma va mahoratlarini oshirish, kasbiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ilgor ishlab chiqarish tajribasi bilan tanishtirish, ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorlash va shular asosida kasb-hunar kollejlarini tugatgandan so‘ng ishlab chiqarishda mustaqil faoliyat ko‘rsatishga o‘rgatishdan iboratdir.

Talabalarni korxona ustaxonalarida o‘qitish – malakasi kichik mutaxassislarni tayyorlashdagi xal qiluvchi davr hisoblanadi. Bu yerda talabalar ishlab chiqarish holati, yangi jixozlar va texnologik moslamalar, zamonaviy texnologik jarayonlar bilan tanishadilar.

Korxonada ishlab chiqarish ta’limi talabalarning kompleks ishlarni bajarishda muxim ko‘nikmalarni mustahkamlashlari va takomillashtirishlariga,

texnologik jarayonlarni rejalashtirish mahoratiga ega bo‘lishlariga, turli maxsulotlarning assortimentlari bilan keng tanishib chiqishlariga yo‘naltirilgan.

Ishlab chiqarish amaliyoti tayanch ishlab chiqarish korxonasi ish o‘rinlarida tashkil etiladi. Korxona odatda, amaliyotga raxbarlik qilish uchun muhandis-texnik xodimlar va malakali mutaxassislarni ajratadi. Ta’lim olishning bu davrida talabalar korxonada mustaqil ishlashga to‘liq tayyorlanadilar.



### *Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:*

1. Ishlab chiqarish ta’limi qaysi shakllarda joriy qilinadi? Misollar bilan izohlab bering.
2. Ishlab chiqarish ta’limi tushunchasiga izoh bering.
3. Boshlang‘ich ko‘rsatma berish deganda nimani tushunasiz?
4. Joriy ko‘rsatma berish deganda nimani tushunasiz?
5. Yakuniy ko‘rsatma berish deganda nimani tushunasiz?
6. O‘rganilayotgan materialning maqsadlari va mazmuniga bog‘liq ravishda ishlab chiqarish darslarining qaysi turlari mavjud?
7. Maxsus tajriba maydonlarida ishlab chiqarish darsini o`tish metodikasi haqida nimalarni bilasiz?
8. O‘quv ustaxonasida ishlab chiqarish ta’limi bo‘yicha mashg‘ulotlarni o`tish mehanizmi haqida nimalarni bilasiz?

### *Foydalanilgan adabiyotlar*


1. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
2. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
3. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.
4. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.
5. www.inter-pedagogika.ru

6. www.didaktika.ru
7. www.School. edu. uz
8. www.Ppsy. ru
9. www.Bank/referat. ru

# MAVZU 6. KASB-HUNAR TA’LIMI TAMOYILLARI.

**_O’quv maqsadi_** ⇒

*Kasb-hunar ta’limi jarayonlari taxlili va asosiy didaktik tushunchalar, umumdidaktik tamoyillar: onglilik va faollik, ilmiy va sistemalilik, nazariya va amaliyot birligi, ta’lim - tarbiya birligi, ko`rsatmalilik davlat siyosatining asosiy tamoyillari va ularni kasb- hunar ta’limida qo‘llash mazmuniga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganish*

## 6.1. Kasb-hunar ta’limi jarayonlari taxlili va asosiy didaktik tushunchalar, bilim, ko‘nikma, malaka, kasbiy mahorat



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Ko`nikma va malaka tushunchalari , mehnat ko`nikmalari, mutaxassislikka tayyorlash, o`qitishning sub`yektiga aylanish, operatsiya (malaka)larning harakatga bog`liqligi, umummehnat ko`nikmalari, mashqlar samaradorligi.*

Kasb-hunar ta’limi jarayonlari-o‘qitish nazariyasining boshlang‘ich qoidalari bo‘lib, o‘qituvchi o‘quv jarayonini tashkil etishda bu qoidalarga amal qilishi kerak.

Kasb ta’limi jarayonlarini tizimlashtirishga bo‘lgan yondashishlarda ta’lim tamoyillarini inobatga olib, quyidagicha fikrlar bildirilgan:

- M.N.Skatkin ta’lim tamoyillarini quyidagicha belgilaydi: ilmiylik, har tomonlamalik, hayot bilan aloqadorlik, tabaqalashtirish, tizimlilik, o‘quv fanlari orasidagi o‘zaro aloqadorlik, tabaqalashtirish, tizimlilik, joriylilik;

- M.G.Ogorodnikov esa, o‘z tadqiqotlarida ilmiylilik, g‘oyaviylik, tarixiyik, tizimlilik, nazariya va amaliyotning birligi, ta’limning hayot bilan aloqasi kabi ta’riflarni asosiy sifatida tamoyillarini ajratadi.

- S.Ya.Batishev kasb ta’limi mazmunini ishlab chiqarish va mehnat jarayoni rivojlanishi bilan uzviy bog‘langan holda tasavvur etish kerak deb hisoblaydi va ta’limning quyidagi tamoyillarini belgilaydi: ilmiylik, tizimlilik va joriylilik, amaliy ta’lim bilan ishlab chiqarish mehnatining birligi .

- V.A. Skakun kasb ta’limi tamoyillarini quyidagicha talqin qiladi: ilmiylik va g‘oyaviylik, ta’lim, tarbiya va rivojlantirishning birligi, ilmiy-texnika taraqqiyotiga ta’limning bog‘liqligi, politexnizm, malakali ishchilarni tayyorlash, barcha tomonlarining bir-biriga aloqasi; ta’limning birligi va tabaqalanishi .

- A.P.Belyaeva ta’limda haqchillilik, ilmiylik, politexnikaviylik, tizimlilik, muqobillilik, politexnik va kasbiy ta’limning birligi hamda o‘zaro aloqasi; fanlararo va majmuaviy o‘zaro aloqadorlik, kasbiy safarbarlik, ta’limning egiluvchanligi va turg‘unligi, mujassamlangan ham tabaqalashganligini ta’limning asosiy tamoyillari sifatida talqin etadi.

***Bilim****,* bu – o‘quvchilar ongida muayyan tartibda mustahkamlangan, ularning shaxsiy mulkini tashkil etadigan va bundan ular zaruratga ko‘ra foydalana oladigan faktlar, ma’lumotlar, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tushunchalardir.

***Bilim*** – borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi va obyektiv reallikning inson ongida adekvat aks ettirilishi (tasavvur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar)dir. U kundalik, ilmiy, empirik, nazariy bilimlarga ajraladi.

***Kundalik bilim*** sog‘lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi va insonning atrof-muhitga moslashuvchi, uning xatti-harakatlari va oldindan ko‘ra bilishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning **vazifasi** – ta’lim-tarbiya jarayonini nazorat qilishga ko‘maklashish.

Ta'lim-tarbiyani uyushtirishda nazariy, empirik va ilmiy bilimlar roli va o'rni beqiyos. ***Ilmiy bilim*** ta'lim-tarbiyani takomillashtirish muammolari yechimlarini topishda qo'l keladi va u tizimli, asosli narsa-hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bo'ladi. U empirik va nazariy darajada bo'ladi. Bilimdan empirik va nazariy bilimlarni shakllantirishda foydalaniladi.

***Nazariy bilim*** empirik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsa va hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonuniyatlarni ochishni nazarda tutadi.

Bilim bilishni amalga oshiruvchi asosiy omil bo'lib, dunyoni bilishning negizini tashkil etadi va u tufayli ilm-fan, texnika-texnologiyalar rivojlanishi ta'minlanadi. Demak, bilimni obyektiv mavjudot haqidagi yoki muayyan sohaga oid ma'lumotlar majmui, deb ham ifodalash mumkin.

***Bilimlar***, bu – odamlarning ijtimoiy-siyosiy amaliyot jarayonida to'plangan umumlashgan tajribasidir.

***Ilmiy bilimlar***, obyektiv olamni ancha to'g'ri (batafsil) ifodalaydi. Ular doimiy emas, ular o'zgarib, rivojlanib, takomillashib boradi va natijada doimiy iste'moldagi bilimga aylanadi, ya'ni ular tadrijiy (evolyutsion) tarzda rivojlanib turadi. Bilimlar asosida tinglovchilarning kuzatuvchanlik, sinchkovlik, tafakkur, xotira singari bilish qobiliyatlari rivojlanadi, ularda e'tiqod hosil bo'ladi, ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi g'oyalar tizimi tarkib topadi.

***Bilimlar banki***, bu – ma'lumotlar majmualarini bo'lajak mutaxassislar tayyorlashda o'quv rejasidagi fanlar bloklari bo'yicha tizimlarga ajratib, ular asosida shakllantirilgan bilimlar majmuidir. Shuningdek, **bilimlar banki**, bu – izlanuvchilar tomonidan bir necha yo'nalishlar bo'yicha kompyuter xotirasiga kiritilgan nazariy va amaliy ma'lumotlar to'plami hamdir.

***Bilimlar bazasi*** – muayyan bir soha (yo'nalish, fan, bob, bo'lim, mavzu, tushuncha va shu kabilar) bo'yicha to'plangan bilimlar va ularning kompyuter xotirasida mujassamlashtirilishi va qayta ishlangan axborotlarni saqlashga mo'ljallangan bilimlar majmuidir.

***Ko'nikma****,* bu – o'zlashtirib olingan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq harakatlarga tayyorlikda ifodalangan ongli faoliyat.

***Ko'nikma****,* bu – malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda o'z-o'zidan bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va u tinglovchilarda ko'p marta takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladi.

***Ko'nikma*** – ongli faoliyat (harakat)ni tez, tejamli, to'g'ri, kam jismoniy va aqliy kuch sarflangan holda bajarish jarayoni natijasidir. U shaxsning bilimlari asosida tarkib topadi. Dastlabki shakllanish bosqichlarida bunday harakatlar jiddiylik bilan bajariladi, keyingi bosqichda diqqat bilan nazorat qilish kamayib boradi va, natijada, avtomatlashgan harakatga aylanadi.

Ko'nikmalar muntazam mashq qilish (takrorlash) orqali zarur darajada saqlanadi. Ana shu sababli uning ta'lim-tarbiyadagi ahamiyati beqiyos. Ma'lum vaqt takrorlanmaslik ko'nikma darajasining pasayishiga olib keladi. U katta hajmdagi mashqlar bajarish va malaka oshirish orqali tiklanadi.

***Ko'nikma*** – insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat, yoki harakatni amalga oshirish qobiliyatidir.

***Ko'nikma****,* bu – shunday aqliy va jismoniy harakatlar, usullar va yo'l-yo'riqlardan iborat bo'lib, ular yordamida rejalashtirilgan maqsadga erishiladi yoki muayyan bir faoliyat amalga oshiriladi.

Ba'zan ko'nikmalar shaxsga malaka hosil qiladi va uning malakali ishlashiga yordam beradi, ba'zilari, aksincha, shaxsdagi malakalik sifatiga salbiy ta'sir etadi va uni o'zgartiradi. Bunday hol malaka va ko'nikmalarning o'zaro ta'siri deb yuritiladi.

Ko`nikma deganda odamning bilim olishi, elementar tajriba va malakaga tayanib biron ishni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyati tushuniladi. Orttirilgan bilimlar odam hatti-harakatining nazariy asosi hisoblanadi. Bilimlarga asoslanib hatti-harakatlarning ketma-ketligi, alohida bosqichlari fikran hayoldan o`tkaziladi. Elementar tajriba talablarida aynan biror faoliyat haqida aniq tasavvur hosil qilish

imkonini beradi. Biron kasb yoki faoliyat haqida tasavvurga ega bo`lishda elementar tajriba bilan birga boshqalarning tajribasini tasavvur qilish ahamiyat kasb etadi. Bu yerda pedagogning shaxsiy namunasi, novator ishchi, xizmatchilarning ilg`or tajribasi, yetuk olim ijodkorlarning ish jarayoni misol bo`la oladi.

Har qanday malaka ko‘nikma bo‘la oladi, lekin har qanday ko‘nikma malaka bo‘la olmaydi. Ko‘nikmalar avtomatlashgan mohiyat kasb etsagina, malaka bo‘ladi. Masalan, tinglovchining turli harakatlarini shakllarni yozish jarayoni avtomatlashgan bo‘lgani uchun ko‘nikilgan harakat bo‘lib qolgan. Shuning uchun tinglovchi harflarni chiroyli va soz yoza oladi. Bu harakat tinglovchining ***malakalashgan ko‘nikmalaridir***. Juda ko‘p marta takrorlash tufayli tinglovchilarning harflar shakllarini yozishlar bilan bog‘liq harakatlari avtomatlashadi.

***Malaka*** – avtomatlashgan, o‘rganib qolingan, muayyan usul bilan bexato bajariladigan harakatdir.

***Malaka***, bu – shaxs harakatining amalga oshirilishi va boshqarilishining avtomatlashgan shaklidir. Shaxsning malakalari shu bilan harakterlanadiki, uning harakatlari oson, tez, go‘yo o‘z-o‘zidan bajarilayotgandek bo‘ladi. Shu tufayli ham bir hajmdagi ishni malakali va malakasiz turli muddat va turli sifat bilan bajaradi. Shaxsning malakalari uning faoliyatining barcha sohalari uchun xosdir. Faoliyatning biror sohasi uchun hosil qilingan malaka shaxsning faqat shu sohadagi mehnatini osonlashtirib qolmasdan, faoliyatning boshqa sohalaridagi harakatning tezligi va samarali bo‘lishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Turli sohalarga nisbatan bo‘lgan malakalar shaxsda birdaniga, qisqa muddatda vujudga kelmaydi. Shaxs malaka orttirishi uchun muayyan sohani tizimli ravishda takrorlab turishi talab qilinadi. Bundan tashqari **malaka** muayyan mehnat faoliyatini bajarish uchun lozim bo‘lgan nazariy va amaliy umumta’lim va kasbiy bilim hamda ko‘nikmalar majmuasining mavjudligi asosida ham shakllanadi.

***Malaka*** ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi hamdir. Malaka bir xatti-harakatning o‘zini bir xil sharoitlarning o‘zida ko‘p marta takrorlash natijasida hosil qilinadi.

Malaka qanchalik puxta bo‘lsa, odam ishni shunchalik tez va to‘g‘ri bajaradi. Ko‘nikma va malakalarning umumiy hamda farq qiluvchi tomonlari bor. Umumiyligi shundaki, ko‘nikma va malakalar ta’lim oluvchilarning olgan bilimlari asosida faoliyat usullarini tashkil etadi. Farqi shundaki, ta’lim oluvchilarning faoliyati har xil harakterda bo‘ladi.

Malaka – bilimlarga asoslanib mashq yordamida aylangan faoliyatning avtomatlashgan komponenti hisoblanadi. Malaka tez va aniq bajarish bilan bog`liq bo`lgan ko`nikmalarning avtomatlashgan elementlari sanaladi.

Mehnat ko`nikmalarini shakllanish jarayonida talabalar ko`rish yoki eshitish orqali faqat harakatlarning qanday bajarilishi haqida tasavvurga ega bo`ladilar. Bu faqat namuna, bajarilishi kerak bo`lgan ish haqidagi kirish instruktati hisoblanadi. Ko`nikmaning shakllanishi uchun talaba bu harakatlarni o`zi bajarib ko`rishi shart. Talaba bu harakatlarni «totib» ko`rishi jarayonida boshqalarning tajribasi o`zining shaxsiy tajribasiga aylana boradi. harakatlar tartibga tusha boshlaydi. Talaba harakat strukturasi haqida amaliy tasavvurni egallandi. Oldiniga harakatlar ayrim, har bir keyingi harakat oldidan o`ylash, chamalash, solishtirish orqali sokin yuz beradi. Ta`limning turli bosqichlarida talabalar mehnat ko`nikmalarining darajasi har xil bo`ladi. Elementar ko`nikmalar asta-sekin murakkab ko`nikmalarga aylanadi, murakkab ko`nikmalar ko`p marta qaytarilishi, yoki mashq qilishi natijasida malakalar paydo bo`ladi.

Kasbiy nuqtayi nazardan malaka bu xodimning kasbiy tayyorgarligi darajasi, undagi ma’lum ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning mavjudligi. U xodimning malakasini belgilovchi ko‘rsatkich bo‘lib, kategoriya yoki diplomning mavjudligi bilan belgilanadi.

Albatta, talabalarni mutaxassislikka tayyorlashda ko`zda tutilgan va o`quv rejasida mo`ljallangan hamma ko`nikma va malakalarni yetarli darajada shakllantirishning ba`zi ob`yektiv sabablarga ko`ra (o`quv jihozlarning yetarli

emasligi, talabalarning tabiiy o`ziga xosligi va hokazolar) iloji bo`lmas. Shuning uchun ham talabalarda umumlashgan politexnik ko`nikma va malakalarning shakllangan bo`lishiga erishish lozim.

***Kasbiy mahorat*** deyilganda, bitiruvchining yuqori darajada kasbiy ko`nikma va malakalarni egallaganligi tushuniladi, u shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo`yicha raqobatbardoshlik darajasi aks ettirishida namoyon bo`ladi.

**Kasbiy mahorat** - bu bitiruvchining yuqori darajada kasbiy ko`nikma va malakalarni egallaganligi bo’lib, u shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo`yicha raqobatbardoshlik darajasi aks ettirishida namoyon bo`ladi

Kasbiy mahorat ishchi kuchlarining yuqori darajadagi moslashuvchanligi, yangiliklarni tez o`zlashtirishi, yangi ishlab chiqarish sharoitlariga oz vaqt ichida o`ta olishi va faoliyat sohasini mustaqil tanlay olishi kabi sifatlar bilan belgilanadi.

Kasbiy mahorat va layoqat shaxsning shunday sifatlaridirki, ular bo`lajak mutaxassisning hayotiy hamda mehnat muvaffaqiyatlarini belgilab beradi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Kasb ta’limi tamoyillarini tizimlashtirishga bo‘lgan yondashishlarda olimlar tomonidan qanday fikrlar bildirilgan?
2. Ko`nikma va malaka tushunchalarini izohlang.
3. Talabalar umummehnat ko`nikma va malakalarining tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
4. Talabalar umummehnat ko`nikma va malakalarini rivojlantirish jarayoni haqida aytib bering.
5. Malakalarning ko`chishi va moslashuvchanligi xususiyatlari qanday xususiyatlar?
6. Talabalarda umummehnat va kasbiy ko`nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayonida qaysi ta`lim vositalaridan foydalanish mumkin?
7. Talanbalarda ko’nikma va malakaning shakllanish bosqichlarini izohlang.
8. Kasbiy mahorat deganda nimani tushunasiz? Tushuntirib bering.

## 6.2. Kasb-hunar ta'limida umumdidaktik tamoyillar: onglilik va faollik, ilmiy va sistemalilik, nazariya va amaliyot birligi, ta'lim - tarbiya birligi, ko`rsatmalilik



*Tayanch so'z va iboralar:*

*Prezident fikri, ta`lim va tarbiyaning birligi, nazariyaning amaliyot bilan birligi, ko`rgazmalilik tamoyili, tushunarlilik tamoyili, ta`limning tushunarli bo`lishi, o`z kuchiga bo`lgan ishonch, onglilik va faollik tamoyili.*

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan e`lon qilgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining o'ziga xos mustaqil yo`lini ta`limning barcha jabhalariga singdirish darkor. Buning uchun Respublikamiz sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishga oid ko`rsatkichlar, iqtisodiy yil yakunlariga oid fakt va materiallar, yanglilk ijodkorlari haqidagi ocherklardan foydalanish yaxlit natijalarga olib keladi.

***Ta`lim va tarbiyaning birligi tamoyili*** ta`lim jarayonida talabalarni yangi-yangi ilmiy bilimlar bilan qurollantirish va o`zlashtirilgan bilimlar asosida umuminsoniy sifatlarni shakllantirishni ta`minlaydi. O`quv predmetlarining har bir, hatto, ayrim mavzu va qismlari ham tarbiyalovchi harakterga ega.

***Ta`limda nazariyaning amaliyot bilan birligi tamoyili*** bevosita bilish faoliyatining psixologik asoslaridan kelib chiqadi. Ya`ni har qanday bilish jarayoni oldin tushunish, anglash keyin umumlashtirish va umumlashgan bilimlarni mustahkamlash va nihoyat mustahkam bilim, iqtidor ko`nikmalarini amalda qo`llashdan iborat.

O`quv tarbiya jarayonining hamma jabhalari o`quv faoliyatining mazmuni, o`qitish metodlari, ta`limning tashkiliy shakllari - barchalarida nazariya bilan amaliyotning birligi - tamoyiliga asoslanadi. Nazariy o`zlashtirilgan bilimlarning amaliy iqtidor va ko`nikmalarga aylanishining o`zi alohida bir murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning fiziologik asoslari chuqur o`rganilganida psixologik o`ziga xosliklar hisobga olingan taqdirdagina bilimlarni ko`nikmalarga aylanish

jarayoni boshqara olinadi. Faqat shundagina nazariy bilimlar bilan amaliyot o`rtasida bog`lanish zanjirlari, bog`lanish qonuniyatlari ochilishi mumkin.

***Ta`limda ko`rgazmalilik tamoyiliga*** amal qilish o`quv tarbiya jarayonining asosini tashkil etadi. Ta`lim va tarbiyada ko`rgazmalilikdan foydalaiish haqida Al-Forobiy ko`pgina ibratli so`zlarni aytib qoldirgan. Farobiyning fikriga qaraganda talabalarni, shogirdlarni uch toifaga bo`lish mumkin. Birinchi toifasi (guruhning 3-5 foizini tashkil etadi) o`quv materialini o`zlari mustaqil o`rgana olishadi. Uchinchi toifadagilarni (bular 8-10 foizni tashkil etadi) majburlab, zo`rlab o`qitish kerak, deydi. Va nihoyat ikkinchi toifa talabalarga (ular 85-90 foizni tashkil etadi) ta`lim berishda ko`rgazmalilikdan foydalanib, o`quv mehnatini jadallashtirish va birmuncha osonlashtirish imkoniyati tug`iladi.

***Ta`limda tushunarlilik tamoyili***. O`qituvchining tarbiyachi sifatidagi asosiy funksiyalaridan biri fan mavzulari bo`yicha darslik, dastur, o`quv qo`llanmalari, ilmiy-ommaviy va boshqa adabiyotlarda tarqalib yotgan axborotni to`plab, undan kerakli mazmunni tanlab olib, uni o`quv materialiga aylantirishdan iborat.

Bizda ta`limning tashkiliy shakli sifatida asosan sinf-dars tizimidan foydalaniladi. Birinchi sinfga 6-7 yoshdan olingan o’quvchilarning psixik rivojlalnish ko`rsatkichlari turlicha bo`lishi aniq. O`qituvchi tomonidan berilayotgan bilim va ko`nikmalarni o`zlashtirishga talabalarda imkoniyat mavjudmi, o`quv materialini o`zlashtirishga ular tayyormilar? Talabalarga o`quv materialini alglatish uchun nima qilmoq kerak?

Ilg`or pedagogik tajribalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, ***tushunarlilik tamoyilini*** darsni yaxshilashni tashkillashtirish, dars mazmuniga mos metodlardan foldalanish, talabalar aqliy faolligini rivojlantirish orqali amalga oshirish mumkin. Bu yerda talabalarda o`quv faoliyatini tashkil qilish ko`nikmalarini shakllantirish katta ahamiyatga ega.

O`qituvchi o`quv materialini talabalar tushunishi oson bo`lgan oddiy faktlardan boshlashi va shu tariqa ularni birmuncha murakkab materialni o`zlashtirishga tayyorlashi lozim. Shu bilan birga juda oson yoki o`quvchilarga

yaxshi ma`lum bo`lgan material ularning e`tiborini susaytiradi. O’qituvchining vazifasi talabalar tushuna oladigan, lekin, shu bilan birga ularni o`ylashga, tasavvur qilishga hamda ma`lum darajada qiyinchiligini yengishga majbur qiladigan materialni tanlashdan iborat bo`lmog`i lozim.

Ma`lumdan noma`lumga o`tish ham ta`limning tushunarli bo`lishini ta`minlaydl. Bu yerda har bir yangi dars materlali talabalar ilgari puxta o`zlashtirib olgan bilimlar asosida tushuntiriladi. O`qituvchi darsda o`quvchilarning o`zlashtirgan bilimlaridan hayotiy tajribalaridan foydalanadi, yangi materialni tushuntirishda ularga ma`lum bo`lgan misol va faktlarga asoslanadi.

Talabalar bilim egallashlarini osonlashtirish uchun o`quv materialini osondan qiyinga o`tilishini ta`minlash kerak. Shunday sharoit yaratilganida talabalarning o`z kuchiga bo`lgan ishonchi ortadi.

***Ta`limda onglilik va faollik tamoyilini*** amalga oshirish ham bilish jarayonining psixologik asoslariga to`la-to`kis tayanadi. Tartib va qoidalar yaxshi o`zlashtirilsada, ayrim hollarda shu bilimlarni bevosita qo`llash jarayonida talabalar qiynalishi mumkin.

O`qituvchi tushunarli bo`lishi uchun kitob va boshqa manbalardagi rasmlarni ko`rsatar ekan, talabalarda faol munosabat tug`diradi va o`zlashtirshi lozim bo`lgan material to`g`risida idrok hosil qildiradi. Konkret materiallardan olingan taassurot bolalar tafakkurini uyg`otadi.

Ta`lim tamoyillarini qarab chiqishni yakunlay turib, faqat ularning bir-birini to`ldirishi, bir-biriga muvofnq bo`lishigina ta`lim turi, vositalari, uslublari, tarkibiy tuzilishi va maqsadlarini muvaffaqiyatli belgilashini ta`kidlab o`tmoqchimiz. U yoki bu tamoyilni muhim deb ko`rsatish mumkin emas, chunki bir xil ta`limiy va tarbiyaviy maqsadlarning hal etilishi boshqalarning hisobiga bo`lganligi sababli umumiy samaradorlikning pasayishini keltirib chiqaradi.

Xuddi shuningdek, ayrim tamoyillarni yetarli darajada baholamaslik ta`lim samaradorligini pasaytiradi, ta`lim prinsnplarini yaxlit, mushtarak holda qo`llashgina zamonaviy maktab vazifalarnni muvaffaqiyatli hal etish imkoniyatini yaratadi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan e`lon qilgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining o'ziga xos mustaqil yo`lini ta`limning barcha jabhalariga singdirish nimalardan iborat?
2. Ta`lim va tarbiyaning birligi tamoyili deganda nimani tushunasiz? Izohlab bering.
3. Ta`limda nazariyaning amaliyot bilan birligi tamoyili nimalardan iborat?
4. Ta`limda ko`rgazmalilik tamoyili deganda nimani tushunasiz?
5. Ta`limda tushunarlilik tamoyili deganda nimani tushunasiz?Tushuntirib bering.
6. Ta`limda onglilik va faollik tamoyilini amalga oshirishda nimalarga e`tibor berish kerak?
7. Ta`lim tamoyillarini qarab chiqishni yakunlay turib, qanday hulosa qilish mumkin?
8. Ta'lim va tarbiya jarayonlarini bir-biridan ajratib bo'ladimi?

## 6.3. Ta'lim soxasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari va ularni kasb- hunar ta'limida qo'llash



***Tayanch so'z va iboralar:***

*Mustaqillikni qo'lga kiritish, keng qamrovli islohotlar, davlat siyosatining asosiy tamoyillari, insonparvar va demokratik tizim, uzluksizlik va izchillik, ta'limining majburiyligi, o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi, tizimining dunyoviy, tabaqalashtirilgan yondashuv, iste'dodni rag'batlantirish, davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish, respublika ta'lim tizimi.*

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlaridanoq Respublikada ta'limni tashkil etish sohasida tub islohotlarni amalga oshirish, uni yuksak darajada takomillashtirish va jahon ta'limi darajasiga ko'tarish

kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Ana Shu e'tiborning yorqin isboti ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari hamda ta'limning O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasidagi ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilinganligi bilan belgilanadi.

Respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar o`sib kelayotgan yosh avlodda intellektual qobiliyatlar va kasbiy bilimlarni rivojlantirishni ko`zda tutadi. Bundan kelib chiqqan holda mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi fanining maqsadi bo`lajak mutaxassislarning ixtisoslik fanlaridan ta'lim berish metodikasi, oliy ta'lim tizimida o`qitish shakllari hamda o`qitishning ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalariga oid bilim va ko`nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

**1. Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik tavsifda ekanligi.** Davlatimizda tashkil etilayotgan ta'lim va tarbiya jarayonida Shaxs, or-nomusi, qadr-qimmati, ma'naviy hamda ma'rifiy huquqlarini hurmat qilish, uning iqtidori va qobiliyatini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish, Shuningdek, xohish-istagi va ehtiyojlarini inobatga olish masalalari nazarda tutiladi.

**2. Ta'limning uzluksizligi va izchilligi.** Ta'lim jarayonida didaktik harakter kasb etib, o'quvchilarga berilayotgan bilim va shakllantirilayotgan ko'nikma va malakalarning uzluksiz, doimiy ravishda shaklanishini ta'minlaydi. Uzluksiz va izchillik ma'lumotlar, hodisalar va fan asoslarini o'rganishning tartibga solinishini, avvalgi va keyingi materiallar o'rtasida ketma-ketlikni ta'minlashni anglatadi. Har bir o'quv fani muayan mantiqiy izchillikda o'qitilishi lozim. Mazkur tamoyil shu holatni ifoda etishga xizmat qiladi.

**3. Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi.** Mazkur tamoyil O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limini olishning respublika fuqarolari uchun shartligini ifodalaydi. Respublika hududida umumiy o'rta, Shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi bepul bo'lib, ularning faoliyatini tashkil etish respublika va mahalliy byudjet mablag'lari hamda byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga

oshiriladi. O’rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalariga o’quvchilar tanlov asosida qabul qilinadilar.

**4. O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo’nalishini akademik litsey yoki kasb –hunar kollejida o’qishni tanlashning ixtiyoriyligi.** Ushbu tamoyil o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo’nalishini o’quvchining o’z qiziqishi, ehtiyoji hamda layoqatiga mosini (muayyan mutaxassislikda ixtisoslashtirilgan akademik litsey yoki ma’lum kasb-hunar kollejida tahsil olishni), erkin tanlash huquqiga egaligini ifoda etadi.

**5. Ta’lim tizimining dunyoviy tavsifda ekanligi.** Ushbu tamoyil respublika hududidagi mavjud ta’lim muassasalarida yoshlarga dunyoviy tavsifdagi ilmiy bilimlarni berishni nazarda tutadi. Ta’lim muassasalarida jangari, buzg’unchilik shuningdek, milliy nizolar hamda diniy adovatlarni keltirib chiqarishga xizmat qiluvchi g’oyalarning targ’ib etilishi, ular yoshlar ongiga singdirilishi qonun yo’li bilan ta’qiqlanadi. Yoshlarga diniy bilimlarni berish davlat akkreditatsiyasidan o’tgan (respublika Adliya vazirligi tomonidan ro’yxatga olingan) hamda diniy ta’lim-tarbiya berish huquqiga ega ta’lim muassasalari, shuningdek, maxsus diniy ma’lumotlarga ega ushbu faoliyat bilan shug’ullanish huquqini qo’lga kiritigan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

**6. Davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi.** Respublika fuqarolari istalgan ta’lim muassasalari (ta’lim muassasasi Nizomida ko’zda tutilgan talablarga muvofiq)da O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999 yil 16 avgustda qabul qilingan “Umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida”gi Qarori, shuningdek, bu borada o’rta maxsus , kasb-hunar va oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi hamda oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan DTS talablariga muvofiq ta’lim olish huquqiga egadirlar.

**7. Ta’lim dasturini tanlashga yagona tabaqalashtirilgan yondashuv.** Ular ta’lim bo’yicha yaratilgan dasturlar orasidan o’quv dasturini yaratishga qo’yiladigan talablarga muvofiq yaratilgan hamda eng maqbul deb topilgan

dasturni tanlab olish asosida ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, mutaxassislik, kasb-hunar ta'limi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, muayyan ta'lim muassasalari ma'lum mutaxassislik va kasb-hunar ta'limining o'ziga xos jihatlarini inobatga olish asosida yaratilgan dasturlar ta'lim jarayonini tashkil etishlari mumkin.

**8. Bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish.** Ta'limni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad yosh avlodga chuqur bilim berish, ulardagi mavjud layoqat va istedodlarni rivojlantirishda iboratdir. Bugungi kunda jamiyatimizda yoshlar orasidan bilimli, iqtidorli o'quvchilar (tinglovchilarni) ni aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilmoqda. Ushbu maqsad yo'lida faoliyat olib boruvchi qator jamg'armalar, chunonchi, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi "Umid" va "Ulug'bek" jamg'armalari tashkil etildi. Mazkur jamg'armalarning homiyligida yuzlab ta'lim beruvchi va tinglovchilar yetakchi xorijiy mamlakatlarda ta'lim olish huquqiga ega bo'ldilar.

**9. Ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.** Samarali ta'limni tashkil etish jamiyat taraqqiyotini, milliy va xalqning porloq kelajagini ta'minlaydi. Shu bois, ta'limni tashkil etish nafaqat davlatning, balki, umumxalq ishidir. Ta'lim muassasalarida tashkil etilgan ota-onalar qo'mitasi, o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish organlarining kuchi va imkoniyatlaridan, Shuningdek, otaliq (homiy) tashkilotlarning moliyaviy, ma'naviy qo'llab-quvvatlashlari evaziga ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Ushbu tamoyil mana shu g'oyani ochib berishga harakat qiladi.

**10. Ta'lim tizimi muayyan jamiyatda ijtimoiy-tarixiy jarayonda tarkib topgan ma'lum talablar asosida boshqariladigan hamda bir-biri bilan bog'langan barcha tipdagi o'quv-tarbiya muassasalarining yig'indisidan iborat ekanligi.** Ta'lim muassasasi yuridik shaxs bo'lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda faoliyat olib boradi.

Ta'lim tizimi ijtimoiy-tarixiy harakterga ega muayyan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti darajasida hamda siyosati mazmuni bilan bog'liq holda tarkib topadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida

(1997 yil 29 avgust) qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunda ko’rsatib o’tilganidek, respublika ta’lim tizimi quyidagilarni o’z ichiga oladi:

a) davlat ta’lim standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini;

b) ta’lim tizimining faoliyat ko’rsatishi va rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo’lgan ilmiy-tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;

c) ta’lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, Shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalarni va tashkilotlarni.

O’zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi yagona va uzluksiz bo’lib, mazkur tizim doirasida faoliyat yurituvchi muassasalar ta’limni bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun xizmat qiladilar.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. O’zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo’lga kiritgan dastlabki kunlaridanoq Respublikada ta’limni tashkil etish sohasida qanday islohotlar olib borildi?
2. Ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari haqida nimalarni bilasiz?
3. Ta’limning uzluksizligi va izchilligi deganda nimani tushunasiz?
4. Umumiy o’rta, shuningdek, o’rta maxsus kasb-hunar ta’limining majburiyligi nimalardan iborat?
5. Ta’lim tizimining dunyoviy tavsifda ekanligi tamoyili haqida aytib bering.
6. Davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi deganda nimani tushunasiz?
7. Ta’lim dasturini tanlashga yaqona tabaqalashtirilgan yondashuv deganda nimani tushunasiz?
8. Bilimli bo’lish va iste’dodni rag’batlantirish iborasini izohlab bering.
9. Ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg’unlashtirish deganda nimani tushunasiz? Izohlab bering.

10. Ta’lim tizimi ijtimoiy-tarixiy  harakterga egadeydilar. Izohlab bering.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*


1. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
2. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
3. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.
4. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.
5. www.inter-pedagogika.ru
6. www.didaktika.ru
7. www.School. edu. uz
8. www.Ppsy. ru
9. www.Bank/referat. ru

# MODUL II. O‘ RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIMI MAZMUNI VA UNGA QO`YILGAN TALABLAR

**MODULNING UMUMIY MAQSADI:** O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi mazmuni: davlat ta’lim malaka talablari, o‘quv rejalari va dasturlari, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi mazmuni: davlat ta’lim malaka talablari, o‘quv rejalari va dasturlariga oid nazariy bilim berish, ma’lum yo‘nalish bo‘yicha kichik mutahassislarni tayyorlashga qaratilgan malaka talablarining mazmuni, dastlabki ko‘nikmalarni shakllantirish

**MODULNING O‘QUV MAQSADLARI:**

- **ta’limiy maqsad**: talabalarga ikkinchi modul va uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, modulga oid tushunchalarni o‘zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;
- **tarbiyaviy maqsad**: talabalarda modulning o‘ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;
- **rivojlantiruvchi maqsad**: talabalarning kasbiy yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashini va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.

## MAVZU 7. O‘ RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIMI MAZMUNI

***O’quv maqsadi***

*O‘ rta maxsus kasb-hunar ta’limi mazmuni: davlat ta’lim malaka talablari, o‘quv rejalari va dasturlari,ma’lum yo‘nalish bo‘yicha kichik xodimlarni tayyorlashga qaratilgan malaka talablarining mazmuniga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganish*

### 7.1. O‘ rta maxsus kasb-hunar ta’limi mazmuni: davlat ta’lim malaka talablari, o‘quv rejalari va dasturlari.



### *Tayanch so'z va iboralar:*

*Farmon, professional ta'lim, malakali va raqobatbardosh kadrlar, xalqaro tasniflagich, kasbga o'qitish markazlari, tarmoq standarti, majburiy fanlar bloklari, kasbiy faoliyat, o'quv rejasi, o'quv dasturi.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishining beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun jahon andozalari talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish hamda ta'lim muassasalarida o'qitishning innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish vazifalari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313-son farmoni va 2019 yil 6 sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5812-sonli farmonlari 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, professional ta'lim dasturlari YuNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashmaganligi, o'quv jarayoniga O'zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to'laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rin egallashlariga to'sqinlik qilmoqda.

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish

orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida:

1. 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston Respublikasida Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda — Xalqaro tasniflagich) darajalari bilan uyg‘unlashgan yangi boshlang‘ich, oliy va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari joriy etiladigan ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etiladi.

2. Quyidagilar:

Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta’lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang‘ich professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta’lim muassasalari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta’lim dasturlari asosida o‘rta professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta’lim muassasalari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta’lim dasturlari asosida oliy ta’lim tizimi bilan integratsiyalashgan o‘rta maxsus professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta’lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta’lim muassasalari ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq;

Kasbga o‘qitish markazlarini tashkil etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimiga o‘tkaziladigan kasb-hunar kollejlari ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq;

Oliy ta’lim muassasalari quvvatlarini oshirish, istiqbolda xorijiy oliy ta’lim muassasalari va ularning filiallarini tashkil etish uchun beriladigan kasb-hunar kollejlari ro‘yxati 5-ilovaga muvofiq;

Oliy ta’lim muassasalarining ko‘p tarmoqli o‘quv markazlari va amaliyot poligonlarini tashkil etish uchun beriladigan kasb-hunar kollejlari ro‘yxati 6-ilovaga muvofiq;

Binolari umumiy o‘rta ta’lim muassasalari sifatida foydalaniladigan kasb-hunar kollejlari ro‘yxati 7-ilovaga muvofiq tasdiqlangan.

***Kasb-hunar ta'limi tarmoq standarti*** – yo'nalishlar bo'yicha kichik mutaxassislarni tayyorlashning zarur va yetarli mazmuni hamda pirovard maqsadlarini aniqlaydi, ta'lim oluvchilarning o'quv yuklamalari hajmi va standart sifatlari nazoratini belgilab beradi.

Oliy ta'limning birinchi bosqichida ta'lim dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzluksiz va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalarning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o'zlashtirishni nazarda tutishi zarur:

-gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy;

-matematik va tabiiy-ilmiy;

-umum kasbiy;

-ixtisoslik;

-qo'shimcha;

Kasbiy faoliyat uchun zarur ko'nikma va malakalarni bakalavriat ta'lim dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylikni ta'minlanishini ko'zda tutib, ishlab chiqilishi va talabalar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o'zlashtirilishini nazarda tutishi zarur:

-umummetodologik fanlar:

-mutaxassislik fanlari;

-ilmiy faoliyat.

Ta'lim- tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalashtiruvchi, asosiy hujjat o'quv rejalari hisoblanadi. O'quv rejasi kasb-hunar ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni, o'quv fanlarini alohida o'rganish sur'atini ta'minlovchi hujjat hisoblanadi.

O'quv rejasi – har bir yo'nalish uchun alohida tuzilib, vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Unda quyidagilar o'z ifodasini topadi:

1. Tayyorlov yo'nalish (ixtisoslik) kodi va uning nomlanishi.
2. O'qish muddati.
3. Tugatgandan so'ng olinadigan akademik darajasi.
4. Ta'lim shakli.

5. O‘quv davrining taqsimoti (jadvali)
6. O‘quv jarayonining rejasi:
6.1. O‘rganiladigan o‘quv predmetlari.
6.2. Har bir o‘quv predmetini o‘rganish uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdori.
6.3. O‘rganish uchun ajratilgan vaqtni-ma’ruza amaliy mashg‘ulot, laboratoriya ishlari, seminarlar, kurs loyihalari va mustaqil ta’limga qanday miqdorda taqsimlanganligi.
6.4. O‘quv predmetini qaysi bosqich, semestrlarda haftasiga qancha soatdan o‘rganish tartibi.
7. Davlat attestatsiyasi.
8. Tanlov fanlarining ro‘yxati.
9. Izoh.
10. O‘quv rejalari mazmuni va tuzilishiga mos holda quyidagi omillarga e’tiborni qaratmoq lozim:

- ta’lim va tarbiyaning maqsadli yo‘naltirilganligiga;
- mehnat va ishlab chiqarish jarayonining tuzilishiga;
- ta’lim- tarbiya jarayonining qonuniyatlariga.

O‘quv rejalarini ishlab chiqishda bo‘lg‘usi mutaxassislarda shakllantirilayotgan malaka mahoratlari darajasining o‘rganilayotgan o‘quv fanlari miqdoriga va o‘rganish davriga aniq mos tushishini e’tiborga tutmoq lozim. Bo‘lg‘usi mutaxassislarning bilim va ko‘nikmalarining shakllanishini, har bir fanni bosqichma-bosqich o‘rganishlari chuqurligi, qulay va muhimligini ham nazarda tutishi kerak bo‘ladi.

***Dastur*** o‘quv predmetining mazmuni, uni tahsil oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibi, axborot manbalarini o‘zida mujassamlashtiruvchi me’yoriy hujjatdir.

***O‘quv dasturi*** - shu nom bilan nomlangan o‘quv predmetiga tegishli bo‘ladi. O‘quv predmeti – ta’lim muassasasida o‘rganish uchun fan, texnika, san’at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan tanlab olingan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar tizimidir.

Ta’lim standartlarida belgilab berilganidek umumiy va maxsus talablar, bilim va ko‘nikmalar, o‘quv rejalaridagi umumkasbiy va maxsus fanlarda o‘zaro uzviyligini ta’minlash, fan dasturlarini zamon talablariga mos ravishda oddiydan murakkabga qarab tuzib chiqish, har bir fan dasturlarining mavzulariga mos ravishda qo‘shimcha ko‘rgazmali qurollar yaratish-o‘qituvchilarga murakkab vazifalarni qo‘yadi, talabalarning esa nazariy bilimlarini shakllantirib boradi.

O‘quv dasturiy hujjatlar tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqish o‘qitish jarayonini takomillashtirish va mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. O‘ rta maxsus kasb-hunar ta’limi mazmunini belgilaydigan hujjatlar haqida nimalarni bilasiz? Tushuntirib bering.
2. Professional ta’lim tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish to`g`risida nimalarni bilasiz? Tushuntirib bering.
3. Kasbga o‘qitish markazlarini tashkil etish to`g`risida nimalarni bilasiz? Tushuntirib bering.
4. Kasb-hunar ta’limi tarmoq standarti nima? Izohlab bering.
5. Kasbiy faoliyat uchun zarur ko‘nikma va malakalar haqida nimalarni bilasiz? Ular haqida aytib bering.
6. Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalashtirish deganda nimani tushunasiz? Izohlab bering.
7. O‘quv rejasi deganda nimani tushunasiz? Izohlab bering.
8. O`quv dasturi haqida nimalarni bilasiz? Tushuntirib bering.

## 7.2. Ma’lum yo‘nalish bo‘yicha kichik mutahassislarni tayyorlashga qaratilgan malaka talablarining mazmuni.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Kichik mutaxassis, nazariy va amaliy bilim, kasbiy bilim, ko’nikma va malakalar, kasbiy faoliyat sohasi, tayorlov yo’nalishlari, kasblar kodi, tasniflagich, tayyorlov yo’nalishlari, kasblar va ixtisosliklar, lavozimiy vazifalar, hajmdagi va darajadagi bilim, ichki va tashqi aloqalar.*

Kichik mutaxassislar tayyorlashga qo‘yilgan talablarning xujjatli asosini tasvirlaydigan o‘quv dasturlarida pedagogik maqsadlarning to‘liq va aniq belgilanishi talab qilinadi. To‘liqlik deganda mazmunning barcha zaruriy va qo‘yilgan maqsadga erishish uchun yetarli elementlarni kiritish tushuniladi. Aniqlik deganda real o‘quv jarayonida berilgan mazmunni joriy qilish yo‘lini ko‘rsatadigan elementlar va belgilar tasavvurlanadi.

**Kichik mutaxassis** — bu ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o’zlashtirishga, o’rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir:

**Kichik mutaxassis:**

- nazariy va amaliy bilimlar majmuasiga kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarga;

- mazkur jamiyatda o’zining muvaffaqiyatli hayot darajasini ta'minlaydigan umumiy va kasbiy madaniyat, ijtimoiy ahamiyatli xususiyatlar va shaxsii fazilatlarga ega bo’ladi.

Kasbiy faoliyat sohasi (KOC) kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarning qo’llanish doirasidir, uning nomlanishi iqtisodiy sohalar nomlari bilan moslashtirilgan.

O’MKXT ta'lim muassasalaridagi tayorlov yo’nalishlari aniq kasbiy faoliyat sohasida mutaxassislarga kasbiy ta'lim berish doirasidir. Mutaxassislar kasbiy faoliyatining aniq sohasi bo’yicha tayyorlov yo’nalishlari nomi mehnat faoliyatining mazmuni va xususiyati orqali aniqlanadi.

Kasb - maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasi, amaliy ko’nikma va

malakalarni egallagan, jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni ta'minlovchi insoniy mehnat faoliyatining (mashg’ulotining) turidir.

Ixtisoslik - birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko’nikma va malakalar majmuasi.

O’MKXT tayorlov yo’nalishlari va kasblar kodi kasbiy faoliyat sohalariga muvofiq kasblar va ixtisosliklar bo’yicha tayyorlov yo’nalishlari ixtisoslashtirilgan ro’yxatining raqamli belgisidir.

Amaldagi tasniflagichda quyidagi sakkiz soha nazarda tutilgan:

100000 -Ta'lim

200000 - Gumanitar fanlar va san'at;

300000 - Ijtimoiy fanlar;

400000 - Fan;

500000 – Muhandislik. ishlov berish va qurilish tarmoqlari;

600000 - Qishloq xo’jaligi;

700000 – Sog’liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot;

800000 - Xizmatlar.

Tasniflagichda ta'lim bosqichlari va ta'lim sohalari tayyorlov yo’nalishlari va kasblar quyidagicha ettita raham li kod bilan belgilanadi. Ta'limning xalqaro klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichi o’rta maxsus, kasb-hunar ta'limi 3 raqami bilan belgilanadi, masalan, 3144610, 3210210, 3380110 va h.k.

X - Mutaxassislik kodi

X - Tayyorlov yo’nalishi kodi

X - Ta'lim sohasi kodi

XX - Bil im sohasi kodi

XX - Ta'lim dasturi bosqichi kodi

Uzluksiz ta'lim tizimidagi o’rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi va oliy ta'lim (bakalavriat)da uzviylikni ta'minlash maqsadida o’rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo’nalishlari kodlari oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo’nalishlari kodlariga moslashtirilgan.

Tasniflagichdan quyidagi vazifalarni hal etishda foydalaniladi:

- hududiy bandlik dasturlarini ishlab chiqish;
- milliy va hududiy mehnat bozorlarida ijtimoiy mehnat sohasidagi jarayonlarini ta'minlash va tartibga solish;
- ish kuchining samaradorligini va ish kuchiga ketayotgan sarflarni aniqlash;
- mehnatga haq to'lashni tartibga solish va me'yorlashtirishni takomillashtirish;
- xalq xo'jaligining kadrlarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash va asoslangan uzluksiz ta'lim dasturini ishlab chiqish;
- mehnat statistikasi sohasida axborotning xalqaro miqyosda taqqoslanishini ta'minlash.

Tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning tasniflagich ro'yxati bo'lib, u qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish uchun ochiqdir. Amaldagi tasniflagichga zarur hollarda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazi tomonidan amalga oshiriladi deb ko'rsatilgan.

Kichik mutaxassislar quyidagi lavozimiy vazifalarni bajarishlari ko'zda tutiladi:

- kompyuter va boshqa texnikalardan, texnikaviy va fizikaviy fanlar sohasida foydalanish usullarini qo'llash bilan bog'liq texnik - texnologik topshiriqlarni bajarish;
- texnik jihoz va transportlarni ishlatish.
- mashinalar, mexanizmlar, qurilmalar, moslamalar hamda muhandislikka oid texnik jihozlar va asboblarga texnik xizmat ko'rsatish hamda ta'mirlash, metall konstruktsiyalarni o'rnatish, dastgohlarni o'rnatish va boshqa ishlarni amalga oshirish;
- xom ashyo qazib olish va qayta ishlash, metallurgiya, qurilish binolari va inshootlarni tamirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish sohasida o'z kasbiy bilimlarini tatbiq etish;
- bosish (qoliplash) ishlarini bajarish;
- oziq-ovqat, to'qimachilik mahsulotlari, yog'och va metall buyumlar, shu jumladan badiiy hunarmandchilik buyumlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash;

- bolalar boqchasi va boshlang’ich maktablarda ta'lim va tarbiya ishlarini amalga oshirish;

- sog’liqni saqlash, gigiena, insonlarga ham xo’rlik qilish, qishloq joylarida o’simlik va hayvonlarni parvarish qilish, etishtirish bo’yicha zarur ishlarni amalga oshirish;

- kadrlarni tanlab olish, joy-joyiga qo’yish va ularning ijtimoiy ta'minoti, soliqqa tortish va turizmga aloqador davlat xizmatlari, buxgalteriya hisobi, huquqiy, statistik, ish yuritish korxonalarini boshqarish va tijorat. Moliya va savdo-sotiq sohasidagi bilimlarni texnik qo’llash bilan bog’liq ma'muriy va ishlab chiqarish vazifalarini bajarish;

- odamlar va yuklarni milliy chegaralardan o’tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

- ijtimoiy masalalar bo’yicha yordam ko’rsatish va maslahat berish;

- sport va boshqa qiziqarli tadbirlarni tashkil etish va o’tkazish, madaniyat va san'at sohasida ijodiy faoliyat ko’rsatish, diniy marosimlarni o’tkazishda aholiga yordam ko’rsatish va shu kabilar.

Bu vazifalarni bajarish uchun tabiiyki, kichik mutaxassis ma'lum hajmdagi va darajadagi bilim, ish-harakat usullari (ko’nikma va malaka) hamda shaxsiy fazilatlarni o’zlashtirishi zarur bo’ladi. Mutaxassis egallagan lavozimidagi vazifalarni talab darajasida bajarishi uchun zarur va yetarli bilim, ish-harakat usullari hamda shaxsiy fazilatlar davlat ta'lim standartlarida o’z ifodasini topadi.

Pedagogik manbalarda kasb-hunar ta'limi davlat standarti quyidagicha talqin etiladi: bo’lajak kichik mutaxassislar egallashi zarur va yetarli bo’lgan mazmun darajasi va ko’lami; o’quvchilarning maksimal o’quv yuklamasi hajmi, bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo’yilgan talablar va hokazo.

Kasb-hunar ta'limi davlat standartining mohiyati uning ichki va tashqi aloqalari tahlil etilsagina to’liq ochilishi mumkin, standartlarning tashki aloqalari eng avvalo ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda o’z ifodasini topadi, bundan standart ijtimoiy buyurtmani talablar shaklida o’zida ifodalovchi me'riy hujjat ekanligi kelib chiqadi. Kasb-hunar ta'limi standartining ichki aloqadorligi esa uni o’zaro aloqador va

ta'sirdagi elementlardan tashkil topgan mustaqil tizim sifatida haralganda namoyon bo'ladi. Standartni tashkil etuvchi elementlarning xususiyatlari, o'zaro aloqadorligi uning mohiyatini ochib berishga imkon beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimda standartning rolini tushunish uchun uning funktsiyalarini bilish muhimdir. Shunday qilib, kasb-hunar ta'limi davlat standarti o'ziga xos kasbiy ta'lim sifatini boshqarish mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun u kasbiy ta'lim sifati bilan bog'liq ko'plab komponentlarni qamrab olishi kerak. Keng ma'noda kasb-hunar ta'limining sifati jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalariga qanchalik mos kelishi bilan aniqlanadi. Fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda kasb-hunar ta'limi o'quv-me'yoriy hujjatlari tez o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Kichik mutaxassis deganda nimani tushunasiz? Misollar bilan izohlab btring.
2. Kichik mutaxassis nimalarga ega bo`ladi?
3. Kasbiy faoliyat sohasiga nimalar kiradi? Misol keltiring.
4. Ixtisoslikning o`ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Amaldagi tasniflagichdagi nazarda tutilgan sakkiz soha haqida aytib bering.
6. Tasniflagich deganda nimani tushunasiz? Izohlab bering.
7. Kichik mutaxassislar qaysi lavozimiy vazifalarni bajarishlari ko'zda tutiladi?
8. Bu vazifalarni bajarish uchun kichik mutaxassis qanday hajmdagi va darajadagi bilimga ega bo`lishi kerak?

***Foydalanilgan adabiyotlar***


1. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi. O'quv qo'llanma. O'MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
2. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
3. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDPU, 2007y.

4. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.
5. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
6. www.inter-pedagogika.ru
7. www.didaktika.ru
8. www.School. edu. uz
9. www.Ppsy. ru
10. www.Bank/referat. ru

## MAVZU 8. KASB-HUNAR TA’LIMI MAZMUNIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

***O’quv maqsadi***

*Kasb-hunar ta’limi mazmunini tanlash mezonlari, umumiy politexnik va maxsus ta’lim moxiyati, vazifasi va tavsifi,nazariy va amaliy ta’lim mutanosibligiga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganish*

### 8.1. Kasb-hunar ta’limi mazmunini tanlash mezonlari, kasbiy ta’lim mazmunini shakllantirish tamoyillari



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Ilmiy bilim, amaliy faoliyat, ongli hatti-harakat, ta’lim jarayoni, samarali o‘qitish, bilimlarni qabul qilish, o‘quv materialining ma’zmuni, pedagogik jarayon, ta’limning mazmuni, ta’lim mazmunining tamoyillari.*

Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo‘lib, ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bog‘langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularning mazmunini o‘zlashtirib olishgina emas, balki bilimlarni amalda qo‘llay bilish ham zarur.

O‘quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlar berish jarayonida boshlanadi. Keyinchalik u tajriba va amaliy mashg‘ulotlarda davom ettiriladi. Bu mashg‘ulotlarda o‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida tajriba sharoitida olingan bilimlarning ishonarli ekanligini tekshiradilar, ularni mustahkamlaydilar va chuqurlashtiradilar hamda ularda ana shu bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmalari va malakalari hosil bo‘ladi.

Ishlab chiqarish ta’limi o‘quvchilar amaliy faoliyatining muhim bosqichidir. Ular egallab olgan nazariy bilimlari asosida, tanlagan kasblariga doir mehnat ko‘nikmalari va malakalarini hosil qiladilar. Shu bilan birga nazariy bilim ham to‘ldirilib, aniqlashtirilib boriladi.

Ma’lumki, insonning har bir hatti-harakati ongli ravishda amalga oshadi. Ana shu ongli hatti-harakat pedagogik adabiyotlarda quyidagi uch bosqichda amalga oshishi keltirilgan:

I. Bosqich. Mo‘ljalga olish bosqichi bo‘lib, unda shaxs o‘z oldiga qo‘ygan aniq maqsadini mo‘ljalga oladi, ya’ni rejalashtiradi, loyihalashtiradi. Maqsadga erishish yo‘llarini modellashtiradi.

II. Bosqich. Asosiy amalga oshirish bosqichida o‘z imkoniyati, shart-sharoit, mavjud bo‘lgan ko‘plab boshqa omillarni hisobga olgan holda amaliy hatti-harakatlar amalga oshirilib, ma’lum natijaga erishiladi.

III. Bosqich. Nazorat qilish va o‘zlashtirishlar kiritish bosqichi hisoblanib, unda ko‘zlangan maqsad bilan olingan natija qiyoslanadi va kerakli xulosaga kelinadi. Kerakli hollarda reja va amalga oshirish bosqichlarining mazmuni, tuzilmasi va shakliga o‘zgartirishlar kiritilib, ish-harakat usullari takomillashtiriladi.

Kishilar (inson) tomonidan amalga oshiriladigan barcha jarayonlar kabi ta’lim-tarbiya ishi ham ushbu yuqoridagi qonuniyatga to‘liq bo‘ysunadi. Demak ta’lim-tarbiya ishi ma’lum me’yorlar doirasida amal qiladi. Bu me’yorlarsiz ta’lim-tarbiya ishi mazmun, shakl, zamon va makon hamda natijalar tekisligida samarasiz bo‘ladi. Aslini olganda maxsus ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlar aniq maqsadni ko‘zlab, reja asosida kechadi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o‘ziga xos yo‘lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo‘ydi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning joriy etilishi yangi Davlat ta’lim standartlari o‘quv rejalari, dasturlari, darsliklarni hamda zamonaviy didaktik ta’minotni ishlab chiqishni va tatbiq etishni taqozo etdi.

Shu nuqtai nazardan Kadrlar tayyorlash milliy Dasturida ta’lim jarayoni, mazmunini isloh qilish asosan me’yoriy hujjatlar majmui, ya’ni davlat ta’lim standarti, o‘quv rejalari va dasturlari asosida, kadrlarga ta’lim va tarbiya berish milliy istiqlol g‘oyalariga muvofiq amalga oshirilishi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Kasb-hunar ta’limi ta’lim muassasalaridagi pedagogik jarayon o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual kasbga yo‘naltirilgan ta’lim olishiga, kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo‘yicha bir, yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini berishga qaratilgan o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatini, ta’lim oluvchilarning bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallash hamda ularni amaliyotga qo‘llashni o‘z ichiga qamrab oladi.

Samarali o‘qitishning muhim shartlari: ta’lim oluvchilarning qiziqish faoliyatining faolligini o‘quv jarayonining sifati deb qarash lozim. Bu esa, o‘z navbatida ta’lim oluvchining o‘qishga bo‘lgan munosabatini, uni samarali o‘zlashtirishga, bilim va malakasini oshirishga intilishi, o‘z navbatida mehnat qilishga bo‘lgan irodaviy jihatlarni rivojlantirishga va olgan bilimlaridan estetik qoniqishga olib keladi.

Ta’lim oluvchining harakteriga mos ravishda ularning bilim egallashga intilishi va faolligi darajalari turlicha bo‘ladi. Lekin, shu bilan birga ta’lim oluvchilar passiv bo‘lsa, o‘qitish jarayonini amalga oshirish qiyin kechadi.

Ta’lim oluvchining berilayotgan bilimlarni qabul qilish faolligi, uning shaxs sifatida shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Natijada ta’lim oluvchida o‘z-o‘ziga,

mehnatiga, boshqa shaxslarga, jamiyatga, ishlab chiqarishga, atrof muhitga munosabati shakllanib boradi.

Talim jarayoni samaradorligiga ta’sir qiluvchi eng muhim omillardan biri o‘quv materialining ma’zmuni va uning to‘g‘ri tanlanishi.

Beriladigan bilim mazmuni o‘quv dasturi, Davlat ta’lim standartida belgilangan bo‘lib, uning tarkibini ijtimoiy – iqtisodiy maqsadlar, davlat buyurtmasi, pedagogik tizim belgilaydi. Pedagogik jarayon faqat ta’limning mazmunliligiga emas, balki uning qonuniyligiga ham ta’sir ko‘rsatadi:

a) pedagogik jarayonning maqsadi va vazifalariga qarab mazmun belgilanmasa, ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirishlari qiyin kechadi va pedagogik jarayondagi nazariya bilan amaliyot orasida bog‘liqlik yo‘qoladi.

b) guruhdagi o‘quvchilarning shaxsiy imkoniyatidan kelib chiqib o‘qituvchi pedagogik jarayonning o‘zaro bog‘liqligini buzmagan holda dasturga mantiqiy o‘zgartirishlar kiritib ta’lim maqsadiga erishiladi. Ko‘pincha o‘quv jarayonining sifati butun pedagogik jarayonidan samaradorlikka bog‘liq.

Yangi demokratik jamiyat qurish jarayonida ta’limning mazmunini tanlashda jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, quyidagilarga amal qilinadi:

- ilmiy bilimlarni yetakchi roli to‘g‘risidagi qoidaga;
- insoniyatning madaniy-ma’rifiy merosi boyliklarini, umuminsoniy qadriyatlarini egallab olish haqidagi «Milliy dastur» ko‘rsatmalari;
- tarbiyalanuvchi shaxsni barkamol avlod qilib rivojlantirish, iymon-e’tiqodini, ilmiy dunyoqarashini tarkib toptirish;
- ilmiy hayot bilan, yangi demokratik jamiyat qurilishi tajribasi bog‘liqligi haqidagi qoidaga;
- ta’limning bir maqsadga qaratilganligi;
- ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillariga va didaktik tamoyillarga muvofiqligiga.

Shu nuqtai nazardan ta’lim mazmunining tuzilishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1.Ta’lim mazmunining davlat ijtimoiy-kasbiy rivojlanishi yo‘nalishlariga bog‘liqlik tamoyili.

2. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tamoyili.

3. Fanlararo kompleks aloqalar tamoyili.

4. Kasblarga yo‘naltirish tamoyili.

5. Ta’lim mazmunini tanlashda ustuvor va o‘zgaruvchan qismlarga bo‘lib tanlash tamoyili.

6. Ta’lim mazmunini unifikasiyalash va tabaqalashtirish tamoyili.

Yangi demokratik jamiyat qurayotgan respublikamizda ta’limning mazmuni quyidagi yo‘llar bilan takomillashtirish nazarda tutiladi:

- Fan- texnika taraqqiyotidagi va tajribadagi eng yangi muvaffaqiyatlarni aks ettirish orqali;
- ikkinchi darajali va ortiqcha murakkablashtirilgan materialdan qutilish, yangi eng zarur materiallarni ta’lim mazmuniga kiritish orqali ;
- o‘rganilayotgan fanlar ro‘yxatini va materiallar hajmini aniqlash hamda o‘quvchi-yoshlar, albatta, o‘zlashtirib olishi kerak bo‘lgan malaka va ko‘nikmalarning optimal hajmini belgilash orqali;
- o‘quv fanlariga oid asosiy tushunchalarni va yetakchi g‘oyalarni juda ham aniq bayon qilish orqali;
- o‘quvchilarni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, kompyuter savodxonligi, zamonaviy texnika va texnologiyalar sohasidagi va boshqa bilimlar bilan qurollantirish hamda shu texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari hosil qilish orqali.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Olgan bilimlarni amalda qo‘llay bilish uchun nimalarga ko`proq e`tibor berish lozim?
2. Ishlab chiqarish ta’limi o‘quvchilar amaliy faoliyatining muhim bosqichidir. Siz nima deb o`ylaysiz? Fikringizni to`liq bayon eting.

3. Ma'lumki, insonning har bir hatti-harakati ongli ravishda va uch bosqichda amalga oshadi. Siz nima deb o`ylaysiz? Fikringizni to`liq bayon eting.
4. Samarali o'qitishning muhim shartlari nimalardan iborat?
5. Ta'lim oluvchining berilayotgan bilimlarni qabul qilish faolligi, uning shaxs sifatida shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Siz nima deb o`ylaysiz? Fikringizni to`liq bayon eting.
6. Pedagogik jarayon faqat ta'limning mazmunliligiga emas, balki uning qonuniyligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Fikrning to`g`riligini isbotlang.
7. Demokratik jamiyat qurish jarayonida ta'limning mazmunini tanlashda jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, nimalarga amal qilinadi?
8. Ta'lim mazmunining tuzilishi qaysi tamoyillarga asoslanadi?
9. Demokratik jamiyat qurayotgan respublikamizda ta'limning mazmuni qaysi yo'llar bilan takomillashtirish nazarda tutiladi?

## 8.2. Umumiy politexnik va maxsus ta'lim moxiyati, vazifasi va tavsifi, umumtexnik, umumtexnologik va maxsus tayyorgarlik



***Tayanch so'z va iboralar:***

*Muammoning qidiruv usuli, namoyish qilish usullari, ta'lim vositalari, ta'lim tamoyillari, umumiy tamoyillar, pedagogik yondashuv, texnologik yondashuv, ilmiy – pedagogik faoliyat, tashkiliy – pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat.*

Ta'limning muammoni qidiruv usuli – ta'lim oluvchilarning bilimini mustaqil ravishda izlab topishga yo'naltirilgan ta'limiy faoliyat yo'lidir. Ushbu usulda o'qituvchilarning pedagogik mahoratining asosiy mazmunini ta'lim oluvchilarga berishni so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliy usullar yordamida amalga oshirishlar tashkil etadi. SHuningdek, o'qituvchining pedagogik mahorati oshishi va uning natijaviyligini ta'minlashdan muammoli ma'ruza ifodasi (izohi) orqali mulohaza yuritish, isbotlash, umumlashtirish, dalillarni tahlil qilish va rejaga mos tizimlashtirish, ta'lim oluvchini ushbu mavzudagi ma'lumotlarni

o‘zlashtirishi bo‘yicha o‘z ortidan ergashtirish bilan birga uni faolroq qilish kabi usullardan foydalanishlar ko‘zda tutiladi.

Ta’limning namoyish qilish usullari – bu ta’limning dars mashg‘ulotlari jarayonida o‘quv va ko‘rgazmali vositalardan foydalanish yo‘llaridan iborat bo‘lib, uning asosiy maqsadi dars samaradorligini oshirishdan iboratdir.

Mazkur usuldan foydalanishning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular so‘z bilan ifodalash usuli bilan u yoki bu darajada uyg‘unlashib ketadi va ushbu jarayonda ta’lim beruvchining pedagogik mahorati muhim rol o‘ynaydi. Bu muhim rol esa pedagogning ta’lim vositalari bilan oldindan tanishligi orqali yanada yuksaladi.

Mazkur usul bo‘yicha ta’lim berishdagi o‘qituvchi pedagogik mahoratining natijaviyligini ta’minlashdan og‘zaki va ko‘rgazmali usullari aloqadorligining xilma – xil shakllari mavjudligi va kerakli joylarda ularning har biridan samarali foydalanishi e’tiborga olinadi. Bunga sabab ta’limda mavzuning mazmuni, mavjud ko‘rgazmali vositalarning xarakteri va ta’lim oluvchilar tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib, har bir ta’lim jarayonning holatiga mos ular uyg‘unligidan oqilona foydalanish dars samaradorligini ta’minlashga imkoniyat yaratadi.

Ta’lim tamoyillari - bu o‘qish va o‘qitish jarayonida obektiv mavjud bo‘lgan va uni bir butun qilib turgan qismlari orasidagi zaruriy bog‘liqlikdan kelib chiqib, odamlar tomonidan ishlab chiqilgan va ta’lim jarayonida amal qilishlikka tavsiya etilgan harakatlar tarkibidir.

Demak, ta’lim tamoyillari – bu o‘qituvchining faoliyatini va ta’lim oluvchining bilish faoliyatini xususiyatini belgilovchi asosdir. U ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli normada, turli mazmunda va har xil yo‘sinda tashkil etiladigan ta’limning samaradorligini belgilaydi.

Ana shuning uchun ham mazkur jarayonda o‘qituvchining pedagogik mahorati juda zarur va unda ta’lim berishning muhim ob’ktiv qonuniyatlarini ta’lim tamoyillari o‘zida aks ettiradi.

Kasbiy ta`lim metodikasida o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirishga imkon beruvchi ko‘pgina umumiy tamoyillar mavjud. Ular: onglilik va faollik; ko‘rgazmalilik; tizimlilik va muntazamlilik; mustahkamlik; tushunarlilik; ilmiylik; nazariya bilan amaliyot birligi; ta’lim – tarbiyaning birligi; ta’lim – tarbiya tizimi va uning uzunligi; pedagogik texnologiya tamoyillari.

***Pedagogik yondashuv*** bu ta’lim – tarbiyadagi o‘zaro bog‘liqlik. Tarkibiy va tashkiliy jihatdan bir butun bo‘lgan jarayon va hodisalarni o‘rganuvchi pedagogik faoliyatdir.

Pedagogik yondashuvlar turlari ular qo‘llanilayotgan manbaga mos holda turlicha bo‘ladi. Ular ichidan pedagogik texnologiyalarning ta’lim – tarbiyada keng qo‘llanilishi bilan texnologik yondashuvga e’tibor kuchaymoqda.

***Texnologik yondashuv*** – bu ta’limning aniq kutilgan natijalariga ega bo‘lgan uzluksiz jarayondir. Uning komponentlari quyidagilardan iborat:

- tizimli yondashuv asosida o‘quv jarayonini loyihalash; o‘quv maqsadini mumkin qadar aniqlashtirish;
- ta’lim oluvchilarni ularning hatti – harakatlari asosida o‘qitish;
- teskari aloqa, bilim;
- ko‘nikma va malakalarning to‘la o‘zlashtirilishi rejalashtirilgan maqsadlarga
- erishishini kafolatlashi;
- o‘qitishning samaradorligiga erishishi.

***Ta’limning mulohazalarga asoslangan qarori*** – bu mazkur qarorni amalga oshirishdagi o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi vazifalarni belgilash va taklif –mulohazalarni hisobga olish hamda amaliyotda foydalanishga tavsiyalash ishlab chiqish natijasi.

Mazkur jarayon o‘qitishga har tomonlama mos tushuvchi ta’lim texnologiyalarini yaratishda, ilg‘or axborotli ta’lim texnologiyalarini hayotga joriy etishda, qarorlarni qabul qilish bo‘yicha ta’lim oluvchilar vazifalarini belgilashda, qarorni joriy etishda, taklif va mulohazalarni yig‘ishlarda mukammal qarorlar qabul qilishga didaktik asos bo‘la oladi.

***Ta'limning mulohazalarga asoslangan qarori*** - ilmiy – pedagogik, tashkiliy – pedagogik faoliyatda va ular natijalarini nazorat qilish yo'nalishidagi ishlarda qo'llanilishi samarali natijalarni beradi.

Pedagogik qobiliyat – bu o'qituvchining pedagogik faoliyatga xos bo'lgan zaruriy xususiyatlari majmuasidan iborat bo'lib, unda shu xususiyatlar negizida pedagogik faoliyat bilan mohirona shug'ullana olishlik layoqatining shakllanganligining muayyan darajasidir.

Mikro darajadagi o'qitish. Mikro darajadagi o'qitish - guruhlarda qaytuvchan aloqani tashkil etishga mo'ljallangan bo'lib, o'qitish metodlari orasidagi o'qitishning unumliligini oshirishdagi xamkasblik (pedagoglar orasidagi) metodidir. Xar bir ishtirokchi simpozium vaqtida o'quv jarayoni xaqida qisqa ma'lumot beradi. Lekin bu holat boshqa bo'limlar tomonidan etirozlarga sabab bo'lgan. Ushbu holatda o'qitish portfoliosini yaratish maqbul echim bo'lib hisoblandi. O'qitish porfoliosini yaratisho'qituvchilarni shaxsiy portfoliosini tashkil etish va rivojlantirishga turtki bo'ladi.Ishtirokchilar ta'limni samaradorligini oshiruvchi porfolioni qanday ishlatish va portfolioni tarkibiy qismlarini taxlil qilish to'g'risidagi asosiy tushunchalarga ega bo'ladilar. SHular orqali ular o'z portfoliolarini to'ldirish tartibi rejasini tuzib chiqadilar.

Mazkur jarayonda, ayniqsa o'qituvchining pedagogik mahoratining oshishi asosidagi ta'lim metodlarining samaradorligini oshirishda quyidagi qobiliyatlari muhim asos bo'la oladi:

- pedagogning bilish qobiliyati;
- pedagogning diqqatni taqsimlay olish qobiliyati;
- pedagogning istiqbolni belgilay olish qobiliyati;
- pedagogning kasbiy madaniyati va bilimdonligi qobiliyati; pedagogning kasbiy
- nazokati va kuzatuvchilik qobiliyati;
- pedagogning ma'naviy – ma'rifiy madaniyati va nutq qobiliyati; pedagogning obro' orttira olish qobiliyati;
- pedagogning tashkilotchilik qobiliyati;

- pedagogning tushuntira olish qobiliyati;
- pedagogning to‘g‘ri tushuntira olish qobiliyati;
- pedagogning to‘g‘ri muomala qilish qobiliyati va shu kabilar.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Ta’limning muammoni qidiruv usuliga nimalar kiradi?
2. Ta’limning namoyish etish usullariga misollar keltiring.
3. Ta’lim tamoyillariga nimalar kiradi?
4. Kasbiy ta`lim metodikasida o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirishga imkon beruvchi ko‘pgina umumiy tamoyillar mavjud. Ular haqida nima deya olasiz?
5. Pedagogik yondashuv deganda nimani tushunamiz?
6. Texnologik yondashuv deganda nimani tushunamiz?
7. Ta’limning mulohazalarga asoslangan qaroriga nimalar kiradi?
8. Ta’limning mulohazalarga asoslangan qaroriga nimalar kiradi?
9. O‘qituvchi pedagogik mahoratining oshishi asosidagi ta’lim metodlarining samaradorligini oshirishda qaysi qobiliyatlari muhim asos bo‘la oladi?

## 8.3. Nazariy va amaliy ta’lim mutanosibligi, amaliy ta’limning mazmuni: o‘quv amaliyoti (ishlab chiqarish ta’limi-ustaxonalarda ta’lim), ishlab chiqarish amaliyoti



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Nazariy dars, amaliy mashg‘ulot, mazmuniy jihatlar, rejada belgilash, o‘quv va didaktik materiallar, titul kog‘ozi, o‘quvchilar tahlili, o‘quv maqsadlari.*

Kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlardan nazariy dars va amaliy mashg‘ulotlar rejasini o‘quv rejasi yoki o‘quv materiali bilan aslo aralashtirib yubormaslik lozim. Nazariy dars va amaliy mashg‘ulotlar rejasi faqatgina "yo‘l ko‘rsatuvchidir", u o‘qitish yoki o‘rganish materiali sifatida tushunilmasligi darkor. Dars rejasi dars jarayonini faqatgina boshqarib boradi va o‘qitish hamda o‘rganish

materiallari o‘rnini  olmasligi kerak. Bunday reja o‘quv maqsadlarini, modul yoki mavzu, amaliy usullarni o‘qitish va o‘rganish materiallarini, shuningdek, qat’iy belgilangan vaqt chegarasini o‘zida mujassam etadi.

Nazariy dars va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish  davomida o‘qitish jarayonining ko‘zda tutilgan ketma-ketligini saqlab qolish va rejalashtirilgan o‘quv maqsadlariga erishishni ta’minlash lozim.

Olib borilgan dastlabki tajribalar shuni ko‘rsatdiki, amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun keng qamrovli  tayyorgarlik  ko‘rish  shart emas.  Bunday rejani tuzishda  amaliyot o‘qituvchisi o‘zi o‘zlashtirgan tajribalarga asoslanadi.

Maxsus fanlardan dars jarayonida  ishlatilishi mumkin bo‘lgan har qanday ma’lumotni ushbu rejaga kiritish tavsiya etiladi.

Avvalo, biz  muhim bandlariga bir nazar tashlaganda ko‘zga darhol tashlanishi va yaxshi o‘qilishi uchun katta shrift bilan yoziladigan rejani  tavsiya etamiz.




Biz hozir kasb-hunar kollejlarida o‘qitiladigan “Tikuvchilik korxonalari jihozlari” fani bo‘yicha tasvirlaydigan qismlarga bo‘lish namunasi (1- jadval) mazmuniy jihatlar asosida tuzilsada, metodik jihatlar bilan ham to‘ldirilishi mumkin.

| Bosqich | Baqt | Faoliyatlar va mazmunlar tasviri | O‘qitish yoki o‘rgatish usullari | O‘quv va didaktik materiallar |
|---|---|---|---|---|
| «Pfaff»firmasining moki bahyali tikuv mashinasiga iplarni taqish va tikuv jarayonini bajarish | 2 s | Tikuv mashinasiga ustki hamda ostki iplarni taqish va mashinada tikuv jarayonini bajarish | Muayyan holatni namoyish qilish va o‘rganishni mashq qilish | Tikuv mashinasining kinematik sxemasi. Tikuv mashinasi, ip va material, asboblar |

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan amaliy mashg‘ulot rejasining tuzilishini tasvirlaymiz.

**1. Bosqich.**

Bu ko‘rsatkich mashg‘ulot paytida yo‘nalishni oson olish uchun zarur. Bosqich biror o‘quv maqsadi belgilangan mavzuning boshi va yakuni bilan chegaradosh qismini o‘zida mujassam qilishi lozim.

**2. Vaqt.**

Bu yerda bosqich davomiyligini baholash va uni rejada belgilash lozim.

**3. Faoliyat.**

Bu yerda bosqich bilan bog‘liq faoliyatning turi belgilanishi lozim. Bunga quyidagilar kiradi:

| Nazariy dars uchun | Amaliy mashg‘ulot uchun 4-pog‘onali usul asosida |
|---|---|
| Mayl<br>Axborot | Mayl va axborot<br>Namoyish |
| 3. Mavjud bilimlarni boshqa vaziyatlarda qo‘llash | 3. Imitatsiya (ko‘rsatilgan tarzda takrorlash) |
| 4. O‘rganilgan mavzularni qayta ishlash uchun topshiriqlar<br>5. Tahlil qilish va sintez<br>6. Baholash yo‘llari | 4. Mashq qilish |

Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishning 4 pog‘onali usuli asosan o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga qaratilgan, bo‘lib, u 4 pog‘onali doirasida kechadi. Bu pog‘onalarga "Tushuntirish", "Namoyish etish", "Namoyish etilgan tarzda takrorlash" va "Mashq qilish" kiradi. Masalan, jadvalda keltirilgan amaliy mashg‘ulotni o‘tkazishda amaliyot o‘qituvchisi tikuv mashinasiga ip taqish ketma-ketligini tushuntirib beradi va mashinaga ustki va ostki iplarni taqib ko‘rsatadi. So‘ngra o‘quvchi shu ishni ko‘rsatilgan tarzda qaytarishi kerak. O‘quvchi ishni bajarayotganda o‘qituvchi uning xatolarini to‘g‘rilab turadi (maqtaydi yoki tanqid qiladi).

O‘quvchilar faoliyatini ushbu sohada ko‘rsatib borish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**4. Tasvir.**

Bu yerga katta va kichkina mavzular nomi kiritiladi. So‘ngra muhim asosiy tushunchalar va yaxshi ishlab chiqilgan savollar kiritiladi. To‘g‘ri javoblar ham bu yerga qo‘shib qo‘yiladi va alohida yoziladi.

**5. O‘quv va didaktik materiallar.**

Bu ko‘rsatkichga darsga mos keladigan va yordam berib, unga ko‘rgazmali tus beradigan o‘quv va didaktik materiallar kiritiladi.

| Nazariy darslar | Amaliy mashg‘ulotlar |
|---|---|
| Doska tasvirlari | Texnik chizmalar, sxemalar |
| Slaydlar | Nazorat ro‘yxatlari va foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar |
| Matnli hujjatlar (matnli kitoblardan nusxalar) | Ish rejalari |
| Javoblar varag‘i kiritilgan yozma matnlar yoki topshiriqlar | Baholash varaqalari |
| Modellar, maketlar | Asboblar, yordamchi vositalar, mahsulotlar |

Bir paytning o‘zida o‘quv va didaktik materiallarni ishlatib, biror mavzuni yoritish uchun quyidagi muayyan usullar qo‘llaniladi:

- ma’ruza, o‘quv suhbati, munozara;
- taqdimot, namoyish, o‘yin-mashg‘ulot, muayyan holatni o‘rganish;
- individual va guruh mashqlari.

Va nihoyat rejaning amalga oshirilgan bosqichlari asosida boshqa zarur hujjatlarni ham kiritish mumkin:

1. Titul kog‘ozi:
   - maxsus o‘quv kitobning nomi;
   - semestr;
   - o‘quv guruhlarining nomi;
   - ta’lim olish muddati.
2. O‘quvchilar tahlili.
3. Darsni o‘tkazish uchun dastlabki shart-sharoitlar tahlili.
4. Maxsus soha tahlili (maxsus soha bo‘yicha grafik tasvir).
5. O‘rganish maqsadlari jadvali.

**Rejani qayta tekshirish uchun ko‘rsatmalar.**

Bir marta tuzilgan reja quyidagicha qayta tekshirilishi lozim:

**1. O‘quv maqsadlarini o‘ylab ko‘rish.** Ushbu darsning o‘quv maqsadi kerakli maxsus sohaga mos kelishi tekshiriladi, ya’ni o‘quvchilar qanday amaliy ko‘nikmaga ega bo‘ldilar yoki qanday ko‘nikma va tushunchalarga ega bo‘lishlari kerak. Darsning yakuniy natijasi qanday bo‘lishi kerakligi o‘rganiladi.

**2. Guruhlar holatini o‘ylab ko‘rish.**

O‘quvchilar maxsus soha to‘g‘risida nimani bilishlari, ularning maxsus soha bo‘yicha qanday tushunchalarga ega ekanliklari, guruhning darsni o‘zlashtirishi borasida e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan qiyinchiliklar, guruhni kichikroq guruhlarga bo‘linishi kerakmi yoki yo‘qmi kabi masalalarni o‘rganish kerak.

**3. Belgilangan vaqt to‘g‘risida o‘ylab ko‘rish.**

Dars uchun qancha vaqt ajratish kerakligi (boshqa bunga tegishli faoliyatlarni ham inobatga olgan holda) kunning qaysi vaqtida dars o‘tkazilishi lozimligi, qaydlar yoki vazifalarni tayyorlash uchun qancha vaqt zarurligi o‘rganiladi.

**4. Jihozlar to‘g‘risida o‘ylab ko‘rish.**

Zaruriy asbob va moslamalar mavjudligi va ular yaroqliligi, sinf xonasi barcha talablarga javob berishi, tashqaridan boshqa resurslar - biror shaxs, videofilm yoki boshqa yordamlar kerakmi yoki yo‘qmi kabi muammolar o‘rganiladi.

**5. Maxsus soha bo‘limlarini o‘ylab ko‘rish.**

Maxsus soha tahlili maqsadga erishishda zarur bo‘lgan barcha mazmunlarni qamrab olish uchun yetarlimi? Darsni qismlarga bo‘lish zarurmi?

Dars ichidagi tanlash yoki mazmunlar 1-chi pog‘onada turishi lozim. Ularni biz o‘quv maqsadlariga erishishdagi minimumlar deb ataymiz.

Agar tasarrufdagi vaqt kutilganidan ko‘p bo‘lsa, u holda 3-va 4-pog‘onalardagi mazmunlarni qo‘shib qo‘yish mumkin. Amaliyot o‘qituvchisining ko‘plab boshqa sohalardagi bilimlarga ega bo‘lishi uning mazkur holatni oson boshqarib borishiga yordam beradi.

Ba’zan darsni qismlarga bo‘lish talab etiladi. Shunda quyidagi tuzilma vosita sifatida xizmat qilishi mumkin:

| Pog‘ona 1 | Pog‘ona 2 | Pog‘ona 3 | Pog‘ona 4 |
|---|---|---|---|
| ...bilishi shart... ...qila olishi shart... | ...o‘zlashtirishi mumkin... ...qila olishi mumkin... | ...bilishga yordam beradi... ...qila olishga yordam beradi... | ...bilish uchun qiziqarli... ...qila olish uchun qiziqarli... |

Bu yerda asosiy maqsad "o‘zlashtirilishi shart bo‘lgan bilimlar"ni va "o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan bilimlar"ni berishdan iboratdir. Bu orqali barcha muhim mazmunlar, dalillar, tushunchalar, tamoyillar va usullar dars rejasida qanchalik darajada saqlanib qolgan - qolmaganligi nazorat qilinadi.

Bundan kelib chiqib, tarkibiy qismga tegishli maqsadlarga murojaat qilish va ularga erishish jarayonini topshiriqlar va testlar orqali nazorat qilish tavsiya etiladi.

Bunga ko‘ra biror dars oxirida topshiriqlar yozma ko‘rsatilgan nazorat ishi olish va uning natijalarini baho varaqasiga qayd qilib borish kerak bo‘ladi. O‘quv maqsadlariga erishilmaganligi aniqlansa, u holda amaliyot o‘qituvchisi boshqa choralarni ko‘rishi, masalan: takrorlash darsini rejalashtirish lozim, shu bilan birga dars rejasiga tafakkur qilish uchun yordam sifatida kiritiladigan kiziqtirish va o‘rganish usullarini rivojlantirish mumkin.

**6. O‘quv va didaktik vositalarni rejalashtirilgan usullar hamohangligida nazorat qilish.**

*Rejalashtirilgan usullarga mos ravishda o‘quv va didaktik vositalarning mavjudligi, topshiriqlar, shuningdek, namoyishlar va mashqlar nazorat qilinishi kerak. Ular yetarli bo‘lmasa, u holda ularni yanada rivojlantirish va ishlab chiqish lozim.*

O‘tkazilgan dars yoki amaliy mashg‘ulotlardan so‘ng shaxsiy natijalarni tahlil qilib ko‘rish tavsiya etiladi. Buni biz dars jarayonlarining sifatini tahlil qilish, amalga oshirilgan rejaning ahamiyati va boshqa amaliyot o‘qituvchisi tomonidan o‘z hamkasblarining baholanishi, deb tushunamiz. Bu amaliyot o‘qituvchisiga o‘z natijalarini doimiy ravishda yaxshilab borishda ko‘mak beradi.

Ushbu tavsiyalarni va qoidalarni «Tikuvchilik korxonalari jihozlari va uskunalari» fanini o‘qitishda qo‘llanilganda yaxshi samara beradi.

Nazariy darsni quyidagi ketma-ketlikda o‘tkazish tavsiya etiladi:

1. qizitish va qiziqtirish(motivatsiya);
2. ma’lumot berish;
3. bilim berish;
4. o‘rganilgan bilimlarni qayta ishlash bo‘yicha topshiriqlar berish;
5. tahlil va sintezlar;
6. baholash.

Ushbu ketma-ketlik uchun vaqt odatda 45 yoki 80 daqiqani, tashkil etadi. Dars boshlanishidan avval darsga tayyorgarlik bosqichining natijalarini qisqacha tekshirib ko‘rish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

| **Dastlabki tayyorgarlik** | **Tahlillar natijalari** |
|---|---|
| Belgilangan vaqt: | Mazmunlarni o‘quvchilarga yetkazish uchun vaqt yetarlimi? |
| Xonalarga taalluqli sharoitlar: | Sinf xonasi bo‘shmi?<br>Stol va stullar yetarlimi? |
| Vositalar: | Doska, flipchart va kodoskoplar (proyektor) ishlaydimi?<br>Bo‘r mavjudmi? |
| Hujjatlar: | Dars rejasi bormi?<br>Yetarli tarqatma materiallar va topshiriq varoqlari mavjudmi? |



### *Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:*

1. Kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlardan nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar rejasi nimaga asosan tuziladi?
2. Nazariy dars va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda nimalarga e'tibor berish kerak?
3. Nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar rejasi loyihasining variantlariga nimalar kiradi?
4. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning 4 pog'onali usulini tushuntirib bering.
5. Bir paytning o'zida o'quv va didaktik materiallarni ishlatib, biror mavzu yoritiganda qaysi usullar qo'llaniladi?

### *Foydalanilgan adabiyotlar*


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.
2. 2017-2021yillarda O'zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi. O'quv qo'llanma. O'MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
4. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
5. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDPU, 2007y.
6. Olimov Q. T. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. –T.: 2006. 164 b.
7. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
8. www.inter-pedagogika.ru

# MAVZU 9. KASB-HUNAR TA'LIMINI REJALASHTIRISH.

***O'quv maqsadi***

*Kasb-hunar ta'limini rejalashtirishning umumiy masalalari, kasb-hunar ta'limini rejalashtiruvchi xujjatlar, o'quv-texnologik xujjatlar, istiqbolli, kalendar tematik reja, o'quv ustasining o'quv kuni uchun ish rejasi o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik: mashg'ulotlar maqsadi va mazmunini aniqlash, mashg'ulotlar moddiy-texnika bazasini tayyorlash, mashg'ulot turlari va ularga metodik tayyorgarliqini nazariy jihatdan o'rganish*

## 9.1. Kasb-hunar ta'limini rejalashtirishning umumiy masalalari, kasb-hunar ta'limini rejalashtiruvchi xujjatlar, o'quv-texnologik xujjatlar, istiqbolli, kalendar tematik reja, o'quv ustasining o'quv kuni uchun ish rejasi.



***Tayanch so'z va iboralar:***

*O'quv reja, DTSda keltirilgan talablar, o'quv rejasining moduli, fanning o'quv rejasi va dasturi, perspektiv mavzular rejasi, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, takomillashtirishni to'g'ri yo'lga q o'yish, texnik fikrlashning xususiyatlari, tarmoq standarti, o'quv predmeti, o'quv dasturlarining tarkibi.*

O'quv reja – har bir mutaxassislik bo'yicha malaka va DTSda keltirilgan talablarni ta'minlovchi muayyan ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni kurs va semestr davomida o'rganishning izchilligi va soatlaridagi qatnashishini belgilaydigan hujjat.

O'quv rejasiga kirgan fanlar mazmunini o'quv dasturlari va mavzular rejasi tashkil etadi. O'quv rejasi o'quv shakllarini, o'quv predmetlarining ro'yxatini va hajmini, ularning o'quv haftalari, yarim yilliklari bo'yicha taqsimlanishini belgilaydigan, bo'lajak mutaxassislarni o'quv predmetlari, kasbiy va umumta'lim tayyorgarligi orasida o'zaro bog'liqlikni ta'minlovchi meyoriy hujjat.

O‘quv rejasining moduli – uzluksiz ta’lim mazmunining asosiy invariant tarkibiy komponentlarini aks ettiruvchi o‘quv rejasini taqdim etish shakli Kasb – hunar kollejlarida fanlardan nazariy darslarni o‘qish:

- perspektiv mavzular rejasi;
- kundalik dars rejasi;
- dars konspekti;

Nazariy darslarni hisobga olib borish jurnallaridan muntazam foydalaniladi. Perspektiv mavzular rejasi o‘quv materialini t o‘ g‘ri taqsimlashda ayni fanni boshqa fanlar va ishlab chiqarish ta’limi bilan boglashda, darsga kerakli o‘quv materiallari va jixozlarni tayyorlashda yordam beradi, o‘qish jarayonining samaradorligini oshirish sharoitini yaratish imkonini beradi. Perspektiv mavzular rejasining asosini mavzular b o‘yicha darslar tizimi tashkil etadi. Mazkur rejani o‘qituvchi fanning o‘quv rejasi va dasturiga asosan darslar boshlanguncha t o‘zadi va unda quyidagilar ko‘zda tutiladi:

- mashg‘ulot o‘quv ishlarini bajarish uchun tashkiliy qism;
- darsda o‘quvchilarning mustaqil ishlashi;
- fanlararo va fan ichidagi bo g‘lanishlarni belgilash;
- tarbiyaviy ishni perspektiv reja bilan boglab olib borish;
- ishlab chiqarish ta’limi bilan bo g‘lanish;
- ko‘rgazmali qo‘llanmalar, didaktik materiallar va ta’limning texnik vositalarini belgilash;
- uyga topshiriq;
- ma’lumotnoma va metodik adabiyotlar.

Rejaning komponentlari o‘quv fani va mavzu materialining mazmuni, bilim yurtining o‘quv moddiy bazasi, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab aniqlanadi. Perspektiv mavzular rejasi metodika kengashida k o‘rib chiqiladi.

Perspektiv mavzular rejasi takroran foydalanadigan hujjat bo‘lib, unga muntazam ravishda o‘zgartish va q o‘shimchalar kiritib boriladi.

Agar bilimlarni shakllantirish va maqsadli tarbiyalash o‘quvchilarning bilish qobiliyatini takomillashtirsa, buni rivojlantiruvchi ta’lim deb tan olinadi. Endi namuna sifatida ayrim fanlar bo‘yicha dars rejalarini k o‘rib chikamiz.

Ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash hamda takomillashtirish. O‘qituvchi darsni o‘quvchilar o‘rganilayotgan materialni ravshan anglabgina qolmay, uni aniq takrorlab ham bera oladigan, bilimlarni kelgusi o‘quv ishlarida va amalda qullay oladigan yo‘sinda tashkil etishi kerak. Bilimlarni mustaxkamlash va takomillashtirishda o‘quvchilar ularni dastlab qanday o‘zlashtirgan b o‘lsalar, xuddi shunday aytib berishlari, ularga aniqlik mukammallik kiritishlari lozim. Ta’limiy ishning ana shu boskichida yangi o‘quv materiali bilan ilgari o‘zlashtirilgan materiallarni o‘zaro chambarchas, o‘quvchilar yakkol tushunadigan y o‘sinda bog‘lash ularning fandan olgan bilim va ko‘nikmalarini boyitadi, kengaytiradi va yanada shakllantiradi. O‘qitish davriga, o‘rganilayotgan material mazmuniga qarab bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaxkamlash hamda takomillashtirish har xil didaktik maqsadlarga ega bo‘lishi mumkin. O‘qitishning dastlabki boskichlarida, shuningdek, tasviriy materialni o‘rganishda bilimlarni mustaxkamlash va takomillashtirish eproduktiv harakterga ega bo‘lishi mumkin. bunda o‘quvchilar topshiriqni o‘qituvchi bergan namuna asosida bajaradilar, bilimlarni dastlab qanday idrok etgan b o‘lsalar, ana shu holda tatbiq qiladilar. SHundan keyin o‘quvchilar topshiriqlarga ijodiy yondoshadilar va o‘ziga xos yullar bilan bajaradilar,muammolarni xal qilishning yangi usullarini topadilar. Lekin bunday bilish faoliyati ularda muayyan bilimlar va ularni q o‘llash tajribasi b o‘lishini, sabab-natija bog‘lanishlarini chuqur tushunishni talab qiladi. O‘qituvchilarning bilim, k o‘nikma va malakalarini mustaxkamlash hamda takomillashtirish, asosan, ularning mustaqil ishlari orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilar maqsadga ongli va faol intiladilar, paydo b o‘ladigan qiyinchiliklarni biror kishining yordamisiz engadilar. O‘qituvchi mustaqil ishlashi uchun topshiriqlar touzadi, ularni bajarish tartibini rejalashtiradi,vaqti-vaqti bilan topshiriqlarning murakkiblik va kiyinlik darajasini o‘zgartirib turadi, ish vaqtida o‘quvchilarni k o‘zatib, zarur hollarda ularga yordam beradi.

Bilim ko‘nikma va malakalarni mustaxkamlash hamda takomillashtirishni to‘g‘ri yo‘lga q o‘yish o‘quvchilarda mehnat madaniyatini, darsga ma’suliyatli munosabatni tarkib toptiradi, fikrlashni, xususan texnik fikrlashni rivojlantiradi.

Texnik fikrlashning xususiyatlari o‘quv ishining metodik usullarini, xususan bilim, ko‘nikma vaa malakalarni mustaxkamlash hamda takomillashtirish tizimini belgilaydi. Bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaxkamlash hamda takomillashtirish tizimi har xil mash g‘larni bajarish, o‘rganilgan materialni o‘quv mash g‘ulotlarida takrorlash va uyga berilgan topshiriqlarni bajarishdan iborat.

Kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari tasniflagichi – o‘rta maxsus va kasb-xunar ta’limi muassassalarida kichik mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha tayyorlov yo‘nalishlari kasblarining va mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro‘yxati.

Davlat ta’lim standartlari (DTC)-umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va Oliy ta’lim mazmuniga hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi. Davlat ta’lim standartlarini bajarish O‘zbekiston Respublikasining barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir.

Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti (bundan keyin OTDTC) kadrlar tayyorlash sifatiga, ta’lim mazmuniga qo‘yilgan talablar; ta’lim oluvchilar tayyorgarligining zaruriy va yetarli ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yilgan malakaviy talablar; o‘quv yuklamasining maksimal hajmi; ta’lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartiblari hamda yo‘l-yo‘riqlarini belgilaydi.

Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti o‘quv jarayonini tartibga soluvchi, ta’lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholovchi me’yoriy hujjatlar: bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari, magistratura ixtisosliklari uchun Davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari, o‘quv fanlari dasturlari va boshqalarni tayyorlash uchun asosdir.

Kasb-hunar ta’limi tarmoq standarti – yo‘nalishlar bo‘yicha kichik mutaxassislarni tayyorlashning zarur va yetarli mazmuni hamda pirovard maqsadlarini aniqlaydi, ta’lim oluvchilarning o‘quv yuklamalari hajmi va standart sifatlari nazoratini belgilab beradi.

O‘zbekistonda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi asosiy me’yoriy hujjat tarmoq standarti hisoblanadi. Tarmoq standartlari asosida namunaviy o‘quv rejasi va namunaviy o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi. Namunaviy o‘quv rejasi va namunaviy o‘quv dasturlari asosida esa kollejda ishchi ( ichki) o‘quv rejasi va ishchi o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi.

Tarmoq standartining umumiy tuzilmasi:

1) qo‘llanish sohasi;
2) me’yoriy xujjatlar;
3) standartning maqsad va vazifalari;
4) ta’riflar;
5) kasbiy tavsifnoma;
6) kasbiy faoliyatning tarkibiy parametrlari;
7) kasbiy faoliyatning mazmuniy minimumi;
8) ta’lim dasturining tarkibi va mazmuni;
9) standart talablarining bajarilishini nazorat qilish.

O‘quv reja – har bir mutaxassislik bo‘yicha malaka va davlat ta’lim standartlarida keltirilgan talablarni ta’minlovchi muayyan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv faoliyati turlari, o‘quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni kurs va semestr davomida o‘rganishning izchilligi hamda soatlaridagi qatnashishini belgilaydigan hujjat. O‘quv rejasiga kirgan fanlar mazmunini o‘quv dasturlari va mavzular rejasi tashkil etadi.

Kasb hunar ta’limida o‘quv rejasining tuzilishi quyidagicha:

1) tayyorlov yo‘nalishining nomi va kodi;
2) kasbi va ixtisosliklari nomi va kodlari;
3) o‘quv jarayoni jadvali (nazariy va amaliy ta’lim, ta’til, ishlab chiqarish amaliyoti, davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi);
4) fanlarning nomi;
5) ajratilgan soatlar (nazariy, amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlari, seminarlar, kurs ishi, mustaqil ishlar);
6) semestrlar va haftalar bo‘yicha soatlar taqsimoti;

7) o‘quv amaliyoti;
8) ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyoti;
9) davlat attestatsiyasi;
10) kollej ixtiyoridagi soat.

O‘quv predmeti – ta’lim muassasasida o‘rganish uchun fan, texnika, san’at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan tanlab olingan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar tizimidir.

Dastur-o‘quv predmetining mazmuni, uni tahsil oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibi, axborot manbalarini o‘zida mujassamlashtiruvchi me’yoriy hujjatdir.

O‘quv dasturi - shu nom bilan nomlangan o‘quv predmetiga tegishli bo‘ladi.

O‘quv dasturlarining tarkibi quyidagicha:

1) kirish;
2) nazariy mashg‘ulotlar mazmuni;
3) amaliy mashg‘ulotlar mazmuni;
4) mustaqil ishlar namunaviy mavzulari;
5) fan mavzulari bo‘yicha o‘qitish rejasining tarkibi;
6) o‘qitishning texnik va didaktik vositalari;
7) o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining metodologik asoslariga nimalar kiradi?
2. Klassifikator nima va ularning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
3. Uzluksiz ta’lim bosqichlarini ayting?
4. Tarmoq standartining umumiy tuzilmasini izohlab bering.
5. Namunaviy o‘quv dasturi va o‘quv rejasini tavsiflang.

## 9.2. O‘quv mashg‘ulotlariga tayyorgarlik: mashg‘ulotlar maqsadi va mazmunini aniqlash, mashg‘ulotlar moddiy-texnika bazasini tayyorlash, mashg‘ulot turlari va ularga metodik tayyorgarlik.



### *Tayanch so‘z va iboralar*

*Mohirlik, ilmiylik, ijodiy jarayon, mehnati jarayoni, ichki va tashqi belgilar, didaktik talablar, tarbiyaviy talablar, tashkiliy talablar.*

**Mashg‘ulot turlari.** Kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlarni o‘qitish va o‘rgatish quyidagi mashg‘ulot turlarida amalga oshiriladi:

- Ma’ruza;
- Amaliy, laboratoriya, seminar mashg‘ulotlari;
- Integrallashtirilgan o‘quv mashg‘ulotlari;
- Bilimlarni mustahkamlash va kengaytirishga yo‘naltirilgan seminarlar;
- Kollokvium mashg‘ulotlari;
- O‘quv amaliyoti;
- Mustaqil ishlar;
- Kurs ishlari (loyihalari);
- Maslahatlar;
- To‘garaklar.

Har bir mashg‘ulot turining qisqacha mazmuniga to‘xtalamiz

**Ma’ruza** – rejali tashkillashtirilgan, aniq maqsadga qara-tilgan va ta’lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladigan ta’lim hamda tarbiya jarayonidir. Bu jarayonda ma’lum bir maxsus soha bo‘yicha nazariy bilimlar tizimli ravishda ta’lim oluvchi-larga yetkaziladi. Bu jarayonda ta’lim beruvchi nazariy bilim-larni amaliyotda qo‘llash yo‘llari bilan tanishtiradi. Nazariy dars asosan maxsus jihozlangan o‘quv xonalarida o‘tkaziladi. Bu xonalarda turli texnik vositalar ishlatilishi mumkin. Ma’ruza:

- umumlashtirilgan shakldagi ilmiy bilimlarga asos soladi;
- ma’ruzalar: informatsion, muammoli va aralash xillarga bo‘linadi;

- ma’ruzadagi bilimlar talabalarning mustaqil ishlari va amaliy mashg‘ulotlarda mustahkamlanadi.

**Amaliy, laboratoriya, seminar mashg‘ulotlari** – aniq maq-sadga qaratilgan va ta’lim beruvchi tomonidan boshqarib turi-ladiki, aniq bir topshiriqni bajarish uchun kerakli nazariy darsda olingan maxsus bilimlar asosida malaka va ko‘nikmalar shakllantirish maqsadida olib boriladigan rejali didaktik harakatga aytiladi.

Amaliy, laboratoriya, seminar mashg‘ulotlari kasb-hunar ta’li-mining tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quv ustaxonalarida, labora-toriyalarda, o‘quv poligonlarida ish o‘rnida joylashgan real vositalardan foydalanilgan holda o‘tkaziladi.

Amaliy, laboratoriya, seminar mashg‘ulotlari:

- bilimlarni chuqurlashtirib, kengaytiradi, aniqlashtiradi, mustahkamlaydi, kasbiy faoliyatni amaliy ko‘nikma va malakalariga aylantiradi.

**Integrallashtirilgan o‘quv mashg‘ulotlari** - bu nazariy va amaliy mashg‘ulot birgalikda muvofiqlashtirilgan shaklda o‘tkazilishidir. Bunday mashg‘ulotlar ikkala shaklga ajratilgan vaqtning umumiy miqdoriga rioya etilgan holda o‘tkaziladi. Nazariy va amaliy mashg‘ulotning har biriga qat’iy vaqt o‘rnatilmaydi. Bu ta’lim turi yangi bo‘lib, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

**Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlashga yo‘nal-tirilgan seminarlar** -bu ma’ruza mashg‘ulotiga qo‘shimcha bo‘lib, talabalarni yaxshi o‘zlashtirishlariga turtki beradi. Ma’ruza paytida berilgan bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish uchun kichik guruhlarga topshiriqlar berish va ularni bajartirishga qaratilgan mashg‘ulot hisoblanadi. Seminarlar aniq bir mavzuni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchi mashg‘ulotda maslahatchi yoki moderator rolini bajaradi. O‘qituvchi talabalarni mustaqil ishlarni bajarishga yo‘naltiradi. Talabalar berilgan topshiriq-larni referat, taqdimot yoki hisobot ko‘rinishida tayyorlab himoya qilishadi va baholanadi Seminar mashg‘ulotlar asosan amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun mo‘ljallangan.

**Kollokvium mashg‘ulotlari-** maxsus fanga oid ilmiy muam-molar bo‘yicha izlanishlar olib borish va ularni hal qilishga yo‘naltirilgan «kollokvium» shaklidagi mashg‘ulotlar ham o‘tka-zilishi talabalarning ijodiy va tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, «kollokvium» mashg‘ulotlari yakuniy nazoratga tayyorgarlik qilish uchun nazorat mavzularini muhokama qilish uchun ham o‘tkazilishi mumkin.

**O‘quv amaliyoti**–bu kasb-hunar kollejlarida talabalarning mashg‘ulotlarni o‘tkazishi va yakunida o‘qituvchi bilan darsni tahlil qilish orqali yutuq va kamchiliklarini aniqlashdir. Asosiy e’tibor talabaning dastlabki shaxsiy mahoratlarini va kompetensiyalarini namoyon qilishga imkoniyat yaratishdan ibo-ratdir. Ushbu turdagi shaxsga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni tash-kil etishga asosan talabaning mustaqil harakatlari va fikrla-rini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim shakllarini tanlash talab etiladi.

**Mustaqil ishlar** - ma’ruza bilimlarini chuqurlashtirib, kengaytiradi va bilimlarni mustahkamlash, ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish uchun nazariy baza hozirlaydi.

**Kurs ishlari (loyihalari).** Fanga oid topshiriq yoqi loyiha-larni talabalarga bajartirish orqali ularda amaliy ko‘nikma-larni shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar.

**Maslahatlar.** Talabalarga qo‘shimcha mashg‘ulotlar yoki masla-hatlar tashkil qilish orqali ularda bilim va ko‘nikmalarni chuqur o‘zlashtirishga qaratilgan mashg‘ulotlar.

**To‘garaklar.** Talabalarga darsdan tashqari vaqtda kasbiy ijodiy va maxsus topshiriqlarni bajartirish orqali ularda mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulot turi.

Mashg‘ulotlar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

**A). Yakka tartibda ishlash**

Bu ta’lim shakli o‘quv jarayonini individuallashtirish va talabalarni faollashtirishga ko‘maklashadi. Yakka tartibdagi ishni keng ko‘lamdagi o‘quv

topshiriqlarini mustaqil bajarishga yo‘naltirilgan individual ish bilan almashtirmaslik lozim.

Ushbu shakldagi o‘quv mashg‘ulotlarini ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- natijalarni solishtirish (tanlovlar, musobaqalar);
- o‘zlashtirishni aniqlash;
- axborotni mustaqil izlash va to‘plash;
- qayta shug‘ullanish va takrorlash;
- o‘quv yozuvchilari, topshiriqlarni individual bajarish;
- ...

**B). Juftlikda / hamkorlikda ishlash**

Bu o‘quv mashg‘uloti - o‘qitishning dialogga ko‘mak-lashuvchi ijtimoiy shaklidir. U muvofiqlashtirish qobiliyatini o‘rganishga yordam berishi hamda fikr almashish va o‘zaro yordam tufayli qiziqtirishni va natijani yaxshilash mumkin. Bu shaklda o‘qitishni qisqa muddatda ham qo‘llash mumkin. Juftlikda / hamkorlikda ishlashda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarga kutilmaganda vaqtga bo‘lgan ehtiyojning oshishi, talabaning bajarilgan ishga qo‘shgan shaxsiy hissasiga nisbatan yetarlicha baholanmaganligi yoki talabalarning ishga / mazmunga bog‘liq bo‘lmagan mavzular bilan bandligi kiradi. Buni bartaraf etish uchun o‘qituvchi talabalardan bajarilgan ish natijalari to‘g‘risida hisobot so‘rashi, zarur hollarda o‘zining fikrini bildirishi va natijani izohlashi lozim.

**D). Kichik guruhlarda ishlash.** Kichik guruhlarda ishlash zamonaviy ta’limning eng samarali shakli hisoblanadi:

- bu o‘qitish shaklida bir necha kishi (guruhning maqbul miqdori – 3-7 kishi) guruhning yagona maqsadini ko‘zda tutgan holda masala va muammolarni mustaqil yechadi, guruhda barcha talabalar o‘zaro munosabatda bo‘ladi;
- guruhda ishlashning shakllari.



### *Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:*

1. Mashg‘ulotning asosiy belgilaridan biri ilmiylikdir. Ilmiylik deganda nimani tushunasiz? O‘z fikringizni bildiring.
2. Nima uchun mashg‘ulotni ijodiy jarayon deydilar?
3. Nima uchun mashg‘ulotni jamoaning mehnati jarayoni deb aytadilar?
4. Mashg‘ulotning ichki va tashqi belgilariga nimalar kiradi?
5. Mashg‘ulotga qo‘yiladigan didaktik talablar haqida nima deya olasiz?
6. Mashg‘ulotga qo‘yiladigan tarbiyaviy talablar qatoriga nimalar kiradi?
7. Mashg‘ulotga qo‘yiladigan tashkiliy talablar jumlasiga nimalar kiradi?

### *Foydalanilgan adabiyotlar*


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
2. 2017-2021yillarda O‘zbekistan  Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.  O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
4. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
5. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma.  –T.: TDPU, 2007y.
6. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.
7. Olimov  Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus  fanlarni o‘qitish metodikasi. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.- Toshkent: Fan, 2004.  – 119 b.
8. www.inter-pedagogika.ru
9. www.didaktika.ru
10. www.School. edu. uz

# MAVZU 10. O‘QUV REJALARI, O‘QUV DASTURLARI

**O’quv maqsadi** ⇒ *O‘quv rejalari, dasturlari,namunaviy o‘quv dasturlari va ularning kasbiy ta’limdagi axamiyati ma’ruza matni, o‘quv qo`llanma va darsliklar, ularning tuzilishiga qo‘yiladigan asosiy talablarga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganish*

## 10.1. O‘quv rejalari, dasturlari, ta’lim mazmuni, metodlarini talabalarning yoshiga, imkoniyatiga, qiziqishlariga qarab tanlash, o‘quv rejalari va uni tuzishga qo‘yiladigan talablar



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*O’quv rejasi, davlat ta'lim standartlari, kasbiy ta`lim metodikasi, o’quv dasturi, tarmoq standarti, o`quv soatlari taqsimoti, o`quv jarayoni, ta’lim dasturlari, kasbiy faoliyat, ta’lim-tarbiya jarayoni, malaka mahoratlari, huquqiy-me'yoriy hujjat, o’quv reja, fan-texnika taraqqiyoti, ilg’or ishlab chiqarish texnologiyalari, davlat ta'lim standartlari, o`quv soatlari taqsimoti, mavzular rejasi, darslik, o`quv qo`llanma.*

O’quv rejasi ta'lim oluvchi bilimi va kasbiy tayyorgarlik mazmunining yetarli va zarur darajasini ta'minlaydigan o’quv jarayoni va o’quv yuklamalari hajmi, muddatlari va tayyorlanuvchi mutaxassis sifati, nazorat shakllarini belgilab beruvchi huquqiy-me'yoriy hujjatdir.

Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar uchun mo’ljallangan yangi o’quv rejalari quyidagi 7 ta blokdan iborat qilib tuzilgan (bloklar va ularga ajratilgan vaqt miqdori ish beruvchilarning talablari, fan-texnika taraqqiyoti, ilg’or ishlab chiqarish texnologiyalari, talim muassasalarining mustaqillik darajalari va boshqa shu kabi omillarga ko’ra o’zgarishi mumkin):

Kasb-hunar kollejlari uchun (100 % q 6480/4560 soat):

1. Umumta'lim fanlari (43.7 % =2833/2020 soat);
2. Umumkasbiy fanlar (7 % = 452/316 soat);

3. Maxsus fanlar (20 % = 1346/946 soat);
4. O’quv amaliyoti (10.1 % = 661/465 soat);
5. Ishlab chiqarish amaliyoti (14.2 % = 921/648 soat);
6. Davlat attestatsiyasi (1.6 % = 102/72 soat);
7. Kasb-hunar kolleji ixtiyoridagi vaqt (2.5 % = 165/80 soat).

Akademik litseylar uchun (100 % = 6480/4560 soat):

1. Umumta'lim fanlari (25.8 % = 1673/1178 soat);
2. Chuqurlashtirilgan fanlar (42.6 %.= 2760/1942 soat);
3. qo’shimcha chuqurlashtirilgan fanlar (16.2 % = 1053/740 soat);
4. Maxsus fanlar (3.3 % = 210/148 soat);
5. Fakultativ kurslar (5 % = 324/228 soat);
6. Yakuniy va davlat attestatsiyasi (5.5 %=358 x 252 soat);
7. Kasbiy tayyorgarlik amaliyoti (1.6 % = 102/72 soat vakt).

Bizning fikrimizcha, o’quv rejalaridagi bloklarga qat’iy emas, balki ma`lum oraliqdagi vaqt miqdorini belgilash maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Davlat ta'lim standartlari asosida o’quv rejalari ishlab chiqiladi. O’quv rejasi har bir yo’nalish uchun alohida tuzilib, vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Unda quyidagilar o’z ifodasini topadi:

1. tayyorlov yo’nalish (ixtisoslik) kodi va uning nomlanishi;
2. o’quv muddati;
3. tugatgandan so’ng olinadigan akademik darajasi;
4. ta'lim shakli;
5. o’quv davrining taqsimoti (jadvali);
6. o’quv jarayonining rejasi;
7. o’rganiladigan o’quv predmetlari: har bir o’quv predmetini o’rganish uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdori;
8. o’rganish uchun ajratilgan vaqtni ma'ruza, amaliy mashg’ulot, laboratoriya ishlari, seminarlar, kurs loyihalari va mustaqil ta'limga qanday nisbatda taqsimlanganligi;

9. o’quv predmetini qaysi bosqichda, semestrlarda haftasiga qancha soatdan o’rganish tartibi;

10. davlat attestatsiyasi.

11. tanlov fanlarining ro’yxati;

12. izoh kabilar. Shu o’rinda o’quv rejalarining tayanch, namunaviy va ishchi turlari bo’lishi mumkinligini yodda tutib, ularni bir-biridan farqlay olish zarur. O’quv rejalari o’z navbatida o’quv dasturlarini ishlab chiqishga asos bo’lib xizmat qiladi.

O‘quv rejalari mazmuni va tuzilishiga mos holda quyidagi omillarga e’tiborni qaratmoq lozim:

- ta’lim va tarbiyaning maqsadli yo‘naltirilganligiga;
- mehnat va ishlab chiqarish jarayonining tuzilishiga;
- ta’lim-tarbiya jarayonining qonuniyatlariga.

O‘quv rejalarini ishlab chiqishda bo‘lg‘usi mutaxassislarda shakllantirilayotgan malaka mahoratlari darajasining o‘rganilayotgan o‘quv fanlari miqdoriga va o‘rganish davriga aniq mos tushishini e’tiborga tutmoq lozim. Bo‘lg‘usi mutahassislarning bilim va ko‘nikmalarini shakllanishini, har bir fanni bosqichma-bosqich o‘rganishlari chuqurligi, qulay va muhimligini ham nazarda tutishi kerak bo‘ladi.

O’quv dasturi shu nom bilan nomlangan o’quv predmetiga tegishli bo’ladi. O’quv predmeti ta'lim muassasasida o’rganish uchun fan-texnika, san'at ishlab chiqarish faoliyatini muayyan sohasidan tanlab olingan bilim, ko’nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar haqidagi ma'lumotlar tizimidir.

Ta’lim standartlarida belgilab berilganidek umumiy va maxsus talablar, bilim va ko‘nikmalar, o‘quv rejalaridagi umumkasbiy va maxsus fanlarda o‘zaro uzviyligini ta’minlash, fan dasturlarini zamon talablariga mos ravishda oddiydan murakkabga qarab tuzib chiqish, har bir fan dasturlarining mavzulariga mos ravishda qo‘shimcha ko‘rgazmali qurollar yaratish-o‘qituvchilarga murakkab vazifalarni qo‘yadi, o‘quvchilarning esa nazariy bilimlarini shakllantirib boradi.

Kichik mutaxassislar tayyorlashga qo‘yilgan talablarning hujjatli asosini tasvirlaydigan o‘quv dasturlarida pedagogik maqsadlarning to‘liq va aniq

belgilanishi talab qilinadi. To‘liqlik deganda mazmunning barcha zaruriy va qo‘yilgan maqsadga erishish uchun yetarli elementlarni kiritish tushuniladi. Aniqlik deganda real o‘quv jarayonida berilgan mazmunni joriy qilish yo‘lini ko‘rsatadigan elementlar va belgilar tasavvurlanadi.

O‘quv dasturiy hujjatlar tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqish o‘qitish jarayonini takomillashtirish va mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

*Kasb-hunar ta’limi tarmoq standarti – yo‘nalishlar bo‘yicha kichik mutaxassislarni tayyorlashning zarur va yetarli mazmuni hamda pirovard maqsadlarini aniqlaydi, ta’lim oluvchilarning o‘quv yuklamalari hajmi va standart sifatlari nazoratini belgilab beradi.*

Ta'lim muassasasida o`qitishning mazmunini aniqlovchi asosiy hujjat-o`quv rejasi va dastur hisoblanadi.

**O`quv rejasi** - bu davlat hujjati bo`lib, mazkur o`quv muassasida o`quv – tarbiyaviy jarayonning mazmunini, hajmini, turini, ketma-ketligini, davrini va muddatini aniqlab beradi. Bu hujjatda ko`rsatilgan o`quv fanining ro`yxati, ularni o`rganish ketma-ketligi, soatlar miqdori, maslahat va imtihonlar, shuningdek imtihonlar ro`yxati har bir guruh uchun majburiy hisoblanadi va uni O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligi ruxsatisiz o`zgartirib bo`lmaydi.

O`quv rejasi o`ziga umumta'lim va professional- texnik ta'lim zanjirini biriktiradi va bu fanlar bo`yicha fan tartibi, haftadagi soatlar miqdori, ta'lim davri keltiriladi. Barcha bu tavsiflar soatlar setkasida namoyon bo`ladi.

**O`quv soatlari taqsimoti** – o`qitiladigan o`quv predmetining zanjirlar bo`yicha ro`yxatini va o`quv yo`qlamasining haftadagi, yarim yillikdagi, o`quv yilidagi va butun ta'lim davridagi muddatining soatlardagi qiymatini o`rnatadi.

**Umumlashtirilgan mavzular rejasi** – ishlab chiqarish mavzusini va o`quv yili strukturasi (O`quv mashg`ulotlar, imtihonlar, ta'til va h. k. ) ni muvofiqlashtiradi.

**Fanlarning o`quv dasturlari** – bu davlat hujjati bo`lib, nazariy va ishlab chiqarish ta'limining mavzularini o`rganishda mazmunini, majburiy hajmini, ketma-ketligini aniqlab beradi. O`quv dasturi har bir o`quv rejasi uchun ishlab chiqiladi.

**Darslik** – ma'lum soha bo`yicha o`quv hujjatlari asosida tuziladi. Unda ma'lum predmet bo`yicha ilmiy bilimlar asosi bayon qilinadi.

**O`quv qo`llanma** – bosma, grafikaviy tasviriy va boshqa materiallardan iborat bo`lib, ta'lim va tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun mo`ljallanadi. O`quv qo`llanmasining namunali varianti (yoki uning qismi) quyidagilarni ko`zda tutadi:

**kirish** (qo`llanmaning ma'lum nomlanishi, uning bo`limi, qismi, mavzusi ko`rsatilgan holda vazifani qo`yish);

**bayon etish** (topshiriqni echish jarayoni, isbot yo`llari, muhokama va boshqalar);

**xulosa (**qo`yilgan topshiriqni echishning tizimlashgan va argumentlangan natijasi).

O`quv jarayoni ta'limning oxirgi natijalariga erishish maqsadida o`qituvchi va o`quvchining maqsadli faoliyatidir.

**O`quv jarayoni** – o`zaro bog`langan elementlardan tashkil topgan murakkab pedagogik tizimni: maqsadi, mazmunini, shakli, uslubi va o`qitish vositalarini namoyon qiladi. O`qitishning psixologik – pedagogik qonunchiligiga bo`ysunadi, ta'limning didaktik tamoyillariga kat'iy rioya qilishni talab qiladi.

**O`quv rejasida** ko`rsatilgan fanlar ularni o`rganish tartibi, har bir o`quv faniga ajratilgan vaqt, konsultatsiya va imtixonlar barcha o`quv guruhlari uchun majburiydir.

O`quv rejasi o`quv yurtining turi, maqsadi va vazfalarini, o`quvchilarning soni va o`qish muddatini belgilovchi davlat hujjatlari asosida ishlab chiqiladi.

**O`quv rejasiga** kirgan hujjatlarni malaka tavsifnomasi, mavzular rejasi va o`quv dasturlari tashkil etadi.

Oliy ta’limning birinchi bosqichida ta’lim dasturlari umumiy o‘rta va o‘rta

maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzluksiz va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalarning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o‘zlashtirishni nazarda tutishi zarur:

- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy;
- matematik va tabiiy-ilmiy;
- umum kasbiy;
- ixtisoslik;
- qo‘shimcha;

Kasbiy faoliyat uchun zarur ko‘nikma va malakalarni ta'lim dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini ko‘zda tutib, ishlab chiqilishi va talabalar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o‘zlashtirilishini nazarda tutishi zarur:

- umummetodologik fanlar:
- mutaxassislik fanlari;
- ilmiy faoliyat.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalashtiruvchi, asosiy hujjat o‘quv rejalari hisoblanadi. O‘quv rejasi kasb-hunar ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni, o‘quv fanlarini alohida o‘rganish sur'atini ta'minlovchi hujjat hisoblanadi.

O‘quv rejasi – har bir yo‘nalish uchun alohida tuzilib, vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Unda quyidagilar o‘z ifodasini topadi:

1. tayyorlov yo‘nalish (ixtisoslik) kodi va uning nomlanishi;
2. o‘qish muddati;
3. tugatgandan so‘ng olinadigan akademik darajasi;
4. ta'lim shakli;
5. o‘quv davrining taqsimoti (jadvali);
6. o‘quv jarayonining rejasi. U quyidagilardan iborat:
   a) o‘rganiladigan o‘quv predmetlari;
   b) har bir o‘quv predmetini o‘rganish uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdori;

c) o‘rganish uchun ajratilgan vaqtni-ma’ruza amaliy mashg‘ulot, laboratoriya ishlari, seminarlar, kurs loyihalari va mustaqil ta’limga qanday miqdorda taqsimlanganligi;
d) o‘quv predmetini qaysi bosqich, semestrlarda haftasiga qancha soatdan o‘rganish tartibi;

7. davlat attestatsiyasi;
8. tanlov fanlarining ro‘yxati;
9. izoh kabilar.

O‘quv rejalari mazmuni va tuzilishiga mos holda quyidagi omillarga e’tiborni qaratmoq lozim:

- ta’lim va tarbiyaning maqsadli yo‘naltirilganligiga;
- mehnat va ishlab chiqarish jarayonining tuzilishiga;
- ta’lim- tarbiya jarayonining qonuniyatlariga.

O‘quv rejalarini ishlab chiqishda bo‘lg‘usi mutaxassislarda shakllantirilayotgan malaka mahoratlari darajasining o‘rganilayotgan o‘quv fanlari miqdoriga va o‘rganish davriga aniq mos tushishini e’tiborga tutmoq lozim. Bo‘lg‘usi mutaxassislarning bilim va ko‘nikmalarining shakllanishini, har bir fanni bosqichma-bosqich o‘rganishlari chuqurligi, qulay va muhimligini ham nazarda tutishi kerak bo‘ladi.

**Yangi o`quv reja va dasturlarida** materiallar o`quv yillari bo`yicha taqsimlangan ikkinchi darajali materialllar chiqarib tashlangan, o`quvchilarning yangi texnika bo`yicha bilim va malakalar bilan qurollantirish, o`quv ustaxonalarida, laboratoriyalarida o`qitish, yangi texnologik jarayonlar bilan tanishtirish ko`zda to`tilgan. Asosiy e'tibor ularda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, mehnatga ongli munosabatni tarbiyalash ishlariga qaratilgan.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. O'quv rejasi ta'lim oluvchi bilimi va kasbiy tayyorgarlik mazmunining yetarli va zarur darajasini ta'minlaydigan o'quv jarayoni va o'quv yuklamalari hajmi, muddatlari va tayyorlanuvchi mutaxassis sifati, nazorat shakllarini belgilab beruvchi huquqiy-me'yoriy hujjatdir. Isbotlab bering.
2. Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar uchun mo'ljallangan yangi o'quv rejalari nechta blokdan iborat qilib tuzilgan?
3. Davlat ta'lim standartlari asosida qaysi hujjatlar ishlab chiqiladi?
4. Kasb-hunar ta'limi tarmoq standartining asosiy vazifalari nimalardan iborat.
5. O`quv rejasining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. O`quv soatlari taqsimoti haqida nima deya olasiz?
7. Darslik va o`quv qo`llanmaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
8. Kasbiy faoliyat uchun zarur ko'nikma va malakalarning asosiy vazifalari nimalardan iborat? Izohlab bering.

## 10.2. Namunaviy o'quv dasturlari va ularning kasbiy ta'limdagi ahamiyati, dasturlarni tuzish tartibi va unga qo'yiladigan asosiy talablar



***Tayanch so'z va iboralar:***

*O'quv dasturi, o'quv predmeti, xujjat asosini tasvirlash, o'zlashtirilish usullari, axborot manbalari, talablarni qanoatlantirish, o'quv dasturlarining tuzilishi, fanlar bloklari, bloklarni o'zlashtirilish.*

Ta'lim standartlarida belgilab berilganidek umumiy va maxsus talablar, bilim va ko'nikmalar, o'quv rejalaridagi umumkasbiy va maxsus fanlarda o'zaro uzviyligini ta'minlash, fan dasturlarini zamon talablariga mos ravishda oddiydan murakkabga qarab tuzib chiqish, har bir fan dasturlarining mavzulariga mos ravishda qo'shimcha ko'rgazmali qurollar yaratish-o'qituvchilarga murakkab

vazifalarni qo‘yadi, talabalarning esa nazariy bilimlarini shakllantirib boradi.

Kichik mutaxassislar tayyorlashga qo‘yilgan talablarning xujjatli asosini tasvirlaydigan o‘quv dasturlarida pedagogik maqsadlarning to‘liq va aniq belgilanishi talab qilinadi. To‘liqlik deganda mazmunning barcha zaruriy va qo‘yilgan maqsadga erishish uchun yetarli elementlarni kiritish tushuniladi. Aniqlik deganda real o‘quv jarayonida berilgan mazmunni joriy qilish yo‘lini ko‘rsatadigan elementlar va belgilar tasavvurlanadi.

O‘quv dasturiy hujjatlar tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqish o‘qitish jarayonini takomillashtirish va mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Dastur o’quv predmetining mazmuni, uni o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalarini o’zida mujassamlashtiruvchi me'yoriy hujjatdir. O’quv dasturlari namunaviy va ishchi turlarga bo`linadi. Namunariy o’quv dasturi shu o’quv predmetiga oid ishchi o’quv dasturi, yillik taqvimiy mavzular rejasi, darslik va o’quv-metodik qo’llanmalar va didaktik materiallar ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

O‘quv dasturlari qo‘yidagi talablarini qanoatlantirishi kerak:

1) fan tarixi, rivojlanishining xususiyatlarini aks ettirish, fanga ulkan hissa qo‘shgan olimlar va tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish;
2) fanning hozirgi darajasiga muvofiq bilim berish;
3) insonparvarlik, elparvarlik va ezgulik g‘oyalariga amal qilish;
4) rivojlanayotgan davlatlarda amalda bo‘lgan yoki ishlab chiqilayotgan mutanosib o‘quv dasturlariga nisbatan ilg‘orlik;
5) Markaziy Osiyoda yashagan yoki faoliyat ko‘rsatgan, o‘zbek tilida ijod qilgan olimlar va tarixiy shaxslarning fan rivojlanishiga qo‘shgan hissasini chuqur va ilmiy asoslangan tarzda bayon qilish;
6) fan haqida tizimli, mantiqiy muqobil hamda umumiy o‘rta va oliy ta’limga taalluqli mutanosib fan dasturlari bilan muvofiqlashtirilganlik;
7) o‘quvchilarni fanga qiziqtirish va qiziqishini o‘stirish, osondan murakkab tomon bayon uslubini qo‘llash;

8) fanni hayot bilan, nazariyani amaliyot bilan uzviy bog‘laydigan metodikasiga rioya qilish;

9) O‘zbekistonning o‘z taraqqiyot yo‘lidan rivojlanish strategiyasi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan kelib chiqib, novatorlik, pedagogik texnologiyalar, ta’lim sohasi innovatsiyalariga ochiqlik.

**O‘quv dasturlarining tuzilishi.** Oliy ta’limning birinchi bosqichida ta’lim dasturlari umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi bilan uzluksiz va uzviylik ta’minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va o‘quvchilarning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o‘zlashtirishni nazarda tutishi zarur:

- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy;
- matematik va tabiiy-ilmiy;
- umum kasbiy;
- ihtisoslik;
- qo‘shimcha.

Kasbiy faoliyat uchun zarur ko‘nikma va malakalarni bakalavriat ta’lim dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik ta’minlanishini ko‘zda tutib, ishlab chiqilishi va o‘quvchilar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o‘zlashtirilishini nazarda tutishi zarur:

- umummetodologik fanlar;
- mutaxassislik fanlari;
- ilmiy faoliyat.

Agar bilimlarni shakllantirish va maqsadli tarbiyalash o‘quvchilarning bilish qobiliyatini takomillashtirsa, bu rivojlantiruvchi ta’lim deb tan olinadi.

Dastur-o‘quv predmetining mazmuni, uni tahsil oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibi, axborot manbalarini o‘zida mujassamlashtiruvchi me’yoriy hujjatdir.

O‘quv dasturi - shu nom bilan nomlangan o‘quv predmetiga tegishli bo‘ladi.

O‘quv dasturlarining tarkibi quyidagicha:

1. kirish;
2. nazariy mashg‘ulotlar mazmuni;

3. amaliy mashg‘ulotlar mazmuni;
4. mustaqil ishlar namunaviy mavzulari;
5. fan mavzulari bo‘yicha o‘qitish rejasining tarkibi;
6. o‘qitishning texnik va didaktik vositalari;
7. o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Namunaviy o‘quv dasturi deganda nimani tushunasiz?
2. O‘quv predmeti deganda nimani tushunasiz? Misollar bilan izohlab bering.
3. O‘quv dasturiy hujjatlar tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqishda nimalarga e`tibor berishkerak?
4. O‘quv dasturlariga  qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat?
5. O‘quv dasturlarining tuzilishi haqida nima deya olasiz?

## 10.3. Ma’ruza matni, o‘quv qo`llanma va darsliklar, ularning tuzilishiga qo‘yiladigan asosiy talablar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan asosiy talablar



***Tayanch so`z va iboralar:***

*O‘qitishni tashkil etish, o‘quv muassasalari faoliyati, ta’lim oluvchilar, o`qitish amaliyoti, ma’ruza matni, mafkuraviy qarash, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari, izchil rivojlantirishni ta’minlash, Milliy dasturning maqsad va vazifalari.*

Ma’ruza - o‘qitishni tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

- yo‘naltiruvchilik-o‘quvchilarni o‘quv materialining asosiy holatlariga, uni kelgusi ish faoliyatidagi o‘rni va ahamiyatiga diqqat qilishlariga imkon beradi;
- axborotlilik- o‘qituvchi ma’ruza vaqtida holat, asosiy ilmiy dalillar va xulosalar mohiyatini ochib beradi;

- metodologiklik- ma’ruza vaqtida o‘qitish usullari taqqoslanadi, ilmiy izlanishning asoslari namoyon etiladi;
- tarbiyalovchilik-ma’ruza o‘quv materialiga hissiy-baholash munosabatida bo‘lishni uyg‘otish;
- rivojlantiruvchilik - bilim olish qiziqishlarini, ya’ni mantiqiy fikrlash va isbotlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

**Ma’ruza**. Bugungi kunda zamonaviy o‘quv muassasalari faoliyatida o‘qitish shakllaridan biri bo‘lmish ma’ruzadan foydalanish keng tarqalgan. Ma’ruza darslarini tashkil etish ancha murakkab va ko‘p mehnat talab qiladigan faoliyatdir. Ma’ruza darsi tajribali, yuksak darajada pedagogik mahoratga ega bo‘lgan ta’lim beruvchining intellektual salohiyati asosida tashkil etiladi. Ma’ruzada faqat fan, o‘quv predmeti asoslari borasidagi ma’lumotlarni bermasdan, ta’lim oluvchilarni ijtimoiy-g‘oyaviy jihatdan tarbiyalab borish ham talab etiladi. Ma’ruzadan ko‘zlangan **asosiy maqsad** ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bilim va faoliyat malakasini oshirish hamda dunyoqarashini yuksaltirishdan iborat.

O`qitish amaliyotida ma’ruzaning quyidagi turlaridan keng foydalanilmoqda:

- ma’ruza-hikoya;
- ma’ruza-suhbat;
- ma’ruza-munozara;
- ommaviy ma’ruza.

Ma’ruzalar yozma shaklda ifoda etiladi. Shu bois ma’ruza o‘qituvchi tomonidan ma’ruza mavzui yuzasidan reja va ma’ruza matni tayyorlanadi. Umumiy qoidaga binoan ma’ruza bir dars davomida oxiriga yetmay qolsa, u keyingi mashg‘ulotda davom ettiriladi. Har bir mavzu bo‘yicha ma’ruza materiallari tushuntirib bo‘lingan, ta’lim oluvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi. Shuningdek, har bir mavzu yuzasidan foydalanish lozim bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati taqdim etiladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadi – ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ilgari surilgan maqsadning to‘laqonli ro‘yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishiini nazarda tutadi. Dasturda bu boradagi vazifalarning quyidagilardan iboratligi ko‘rsatiladi:

- «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta’lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida, raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini yagona o‘quv, ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta’minlash;
- ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;
- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, pedagogik faoliyatining nufuzi va ijtimoiy maqomini ko‘tarish;
- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;
- ta’lim oluvchilarni ma’naviy axloqiy tarbiyalashning va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;
- ta’lim va kadrlar tayyorlash, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;
- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta’limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko‘rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;
- ta’lim, fan, ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta’minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini,

shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

- uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimiga budjetdan tashqari mablag‘lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- kadrlar tayyorlash sohasida o‘zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Har bir bosqichda muayyan vazifalarning hal etilishi nazarda tutiladi. Ushbu vazifalar quyidagilardan iboratdir:

Birinchi bosqich (1997-2001 yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy shart-sharoitlarni yaratish.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar) - Milliy dasturni to‘liq ro‘yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish. Bu bosqichda, shuningdek, ta’lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to‘ldirish ta’minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadini ro‘yobga chiqarishning ikkinchi bosqichda ta’lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o‘quv-tarbiya jarayonining yuqori sifatli o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash, uzluksiz ta’lim tizimini axborotlashtirish vazifalarining ham hal etilishi alohida urg‘u beriladi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) to‘plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish. Bu bosqichda, yana shuningdek,

- ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash;

- o‘quv-tarbiya jarayoni yangi o‘quv-uslubiy majmualar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan to‘liq ta’minlanishi;
- milliy (elita) oliy ta’lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Ma’ruza deb nimaga aytiladi?
2. Ma’ruza qanday vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi?
3. O`qitish amaliyotida ma’ruzaning qaysi turlaridan keng foydalanilmoqda?
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy maqsadi nimadan iborat?
5. Kadrlar tayyorlash jarayonidagi kasbiy-malakaviy o`zgarishlar haqida nimalarni bilasiz?
6. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

***Foydalanilgan adabiyotlar***


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
2. 2017-2021yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
4. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
5. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.
6. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.
7. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
8. www.inter-pedagogika.ru

9. www.didaktika.ru
10. www.School. edu. uz
11. www.Ppsy. ru
12. www.Bank/referat. ru

## MODUL III. KASB-HUNAR KOLLEJI TIZIMIDA NAZARIY VA ISHLAB CHIQARISH TA`LIM SHAKLLARI

**MODULNING UMUMIY MAQSADI:** Nazariy mashg‘ulotlarning asosiy shakllari o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida masofaviy o‘qitish, nazariy mashg‘ulotlarning asosiy shakllari, ishlab chiqarish ta’limini tashkil qilishning asosiy shakllari, ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida xo‘jalik yuritishning yangi shakllari, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida masofaviy o‘qitish, ishlab chiqarish amaliyoti: maqsad va vazifalari, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilish va o‘tkazish, ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilishga oid nazariy bilim berish dastlabki ko‘nikmalarni shakllantirish**.**

***MODULNING O‘QUV MAQSADLARI:***

- **ta’limiy maqsad**: talabalarga kasbiy ta`lim metodikasi fani va uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, uchinchi modulga oid tushunchalarni o‘zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;
- **tarbiyaviy maqsad**: talabalarda fanning o‘ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;
- **rivojlantiruvchi maqsad**: talabalarning kasbiy yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashi va pedagogik-psixologik qobiliyatlarini rivojlantirish.

## MAVZU 11. KASB-HUNAR TA`LIMIDA NAZARIY TA`LIM SHAKLLARI.

***O’quv maqsadi*** ⇒ *Nazariy mashg‘ulotlarning asosiy shakllari o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida masofaviy o‘qitishiga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganish*

## 11.1. Nazariy mashg‘ulotlarning asosiy shakllari, ishlab chiqarish ta’limini tashkil qilishning asosiy shakllari, ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida xo‘jalik yuritishning yangi shakllarini o‘qitish



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Ishlab chiqarish ta’limi, tashkil etish shakllari, ko‘rsatma berish, vazifalarni yechish, amaliy ishlar, usta faoliyatining yutug‘i, umumiy va yakka tartibdagi xatoliklar, ishlab chiqarish darslarining turlari, maxsus tajriba maydonchalari, o‘quv ustaxonasi, ishlab chiqarish korxonalari.*

Ishlab chiqarish ta’limi turli shakllarda joriy qilinadi. Bularga kasb-hunar kollejlari o‘quv ustaxonasida ishlab chiqarish sayohati, amaliyoti va maslahatlar, ishlab chiqarish korxonalar ustaxonalarida amaliyotlar, ish o‘rinlarida diplom oldi ishlab chiqarish amaliyoti va boshqalar kiradi. Muayyan kasbga o‘rgatishda diplom kiradi.

Ishlab chiqarish ta’limini tashkil etishning asosiy shakllarini ko‘rib chiqamiz:

**Ishlab chiqarish ta’limi** - o‘quv ustaxonalaridagi mashg‘ulot bo‘lib, uning maqsadi ishlab chiqarish sharoitlarida unumli mehnat uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish hisoblanadi. Ishlab chiqarish ta’limi mashg‘ulotlarida bilimlarni yaxlitlashtirish va ularni talabaning amaliy faoliyati jarayonida har tomonlama qo‘llash amalga oshadi. Bu ishlab chiqarish ta’limi mashg‘ulotlarining tuzilmasini, mazmuni va o‘qitish usullarini, shuningdek ularning davomiyligini aniqlab beradi.

Ishlab chiqarish ta’limi mashg‘ulotlari tuzilmasida ko‘rsatma berish muhim bo‘lib ularga boshlang‘ich ko‘rsatma, joriy ko‘rsatma va yakuniy ko‘rsatmalar kiradi.

**Boshlang‘ich ko‘rsatma berish** quyidagi vazifalarni yechadi:

a) talabalar oldida turgan ishlar mazmuni bilan va uni bajarish mumkin bo‘lgan vositalar bilan (asbob, moslama, jihoz va hokazo) tanishtirish;

b) mehnatning yakuniy natijasiga (maxsulotga) bo‘lgan talablar va texnik hujjatlar bilan tanishtirish;

c) butun ishni va uning alohida qismlarini  (usullar, operatsiyalar va x.k.) bajarish qoidalari va ketma-ketligini tushuntirish;

d) mumkin bo`lgan kiyinchiliklar, xatolar haqida talabalarni ogohlantirish;

e) zarur xollarda operatsiyalarning bajarilishi ustidan o‘z-o‘zini nazorat qilish usulini namoyish qilish.

**Joriy ko‘rsatma berish** talabalar tomonidan amaliy ishlar bajarilayotganda o‘tkaziladi. U odatda, yakka tartibda va guruh bo‘yicha o‘tkaziladi.

Joriy ko‘rsatma berishda usta butun o‘quv guruhi diqqatini o‘rganilayotgan operatsiyani bajarishning eng samarali usullariga qaratadi, topshiriqni bajarishga sust tayyorlangan talabalarga yordam beradi va hokazo. Usta faoliyatining yutug‘i ko‘pincha butun guruh va har bir talaba ishi ustidan maqsadga yo‘naltirilgan kuzatuvni tashkil etish mahoratidan bog‘liq bhladi. Guruhni faollashtirishga musobaqa elementlari, o‘yin vaziyatlarini kiritish bilan, alohida operatsiyalar bajarilishini bosqichma-bosqich  baholash bilan erishiladi.

**Yakuniy ko‘rsatma berish**  bir necha didaktik va tarbiyaviy maqsadlarga ega: guruhda jamoaviy va yakka tartibdagi mehnat natijalarini ob’ektiv baxolash, ilg‘or talabalarni aniqlash va ularni rag‘batlantirish, u yoki bu mehnat operatsiyalarini bajarishda umumiy va yakka tartibdagi xatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini izlash va hokazo. Yakuniy ko‘rsatmalarni to‘g‘ri berish talabalarga katta tarbiyaviy ta’sir o‘tkazadi, ularda uz mexnati natijasi uchun javobgarlik, jamoaviylik, bajarilgan ishdan qoniqish hosil qilish, mehnatga bo‘lgan estetik munosabat hissiyotini uyg‘otadi va shakllantirishga ko‘maklashadi.

O‘rganilayotgan materialning maqsadlari va mazmuniga bog‘liq ravishda ishlab chiqarish darslarining quyidagi turlari mavjud:

- maqsadi talabalarga o‘rganilayotgan usul yoki operatsiyalarni bajarish uchun ishlab chiqarish  - texnik bilim, boshlang‘ich ko‘nikma va maxorat berish bo‘lgan mehnat usul va operatsiyalarini o‘rganish bo‘yicha darslar;

- maqsadi talabalarni asta-sekin murakkablashib borayotgan o‘quv ishlab chiqarishlari, mexnatni tashkil etish va texnologik jarayonni rejalashtirish, ko‘nikma va mahoratlarni takomillashtirish va mustahkamlash, turli birikmalarda avval o‘rganilgan operatsiyalarni bajarish bilan tanishtirish bo‘lgan kompleks ishlarni bajarish bo‘yicha darslar.

**Maxsus tajriba maydonlarida ishlab chiqarish darsi.** O‘quv sharoitlarida ko‘pincha ko‘nikma va maxoratlarni shakllantirish uchun ishlab chiqarish xaqiqiy vositalardan foydalanishning imkoni bo‘lmaydi.

Maxsus tajriba maydonlariga turli xil avtotransport vositalari bilan jixozlangan maydonchalar, qurilish mashinalari va mexanizmlari bilan jihozlangan o‘quv-qurilish maydonchalari, harakatlanuvchan katta yukli kranga ega bo‘lgan ochiq maydonchalar, geologik va geodezik ishlar uchun o‘quv maydonchalari va xokazolar kiradi.

Maxsus-tajriba - o‘quv maydonchalarida kasb-xunar kollejlari yo‘nalishlariga qarab, masalan, qishloq xo‘jalik kasb-hunar kolleji maydonchasida – qishloq xo‘jalik mashinalarini o‘rganish va ular bilan ishlar, maishiy xizmat kasb-hunar kollejida – tikuvchilik mashinalarini o‘rganish va ular bilan ishlar amalga oshiriladi.

**O‘quv ustaxonasida ishlab chiqarish ta’limi bo‘yicha mashg‘ulotlar.** O‘quv ustaxonasida ishlab chiqarish ta’limi – talabalar o‘quv va ishlab chiqarish faoliyati ko‘lamini kengaytirishning muxim shartlaridan biridir.

O‘quv ustaxonalarida ishlash o‘quv-tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshiradi, chunki o‘qitish sharoitlari ishlab chiqarish sharoitlariga yaqin va talabalarga murakkab maxsulot ishlab chiqarish jarayonini o‘zlashtirish imkonini beradi.

Tayanch ishlab chiqarish korxonalari ustaxonalarida mashg‘ulotlar. Talabalarning korxonada ishlab chiqarish ta’lim olishlaridan asosiy maqsad – ularning kasbiy ko‘nikma va mahoratlarini oshirish, kasbiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ilgor ishlab chiqarish tajribasi bilan tanishtirish, ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorlash va shular asosida kasb-hunar kollejlarini

tugatgandan so‘ng ishlab chiqarishda mustaqil faoliyat ko‘rsatishga o‘rgatishdan iboratdir.

Talabalarni korxona ustaxonalarida o‘qitish – malakasi kichik mutaxassislarni tayyorlashdagi xal qiluvchi davr hisoblanadi. Bu yerda talabalar ishlab chiqarish holati, yangi jixozlar va texnologik moslamalar, zamonaviy texnologik jarayonlar bilan tanishadilar.

Korxonada ishlab chiqarish ta’limi talabalarning kompleks ishlarni bajarishda muxim ko‘nikmalarni mustahkamlashlari va takomillashtirishlariga, texnologik jarayonlarni rejalashtirish mahoratiga ega bo‘lishlariga, turli maxsulotlarning assortimentlari bilan keng tanishib chiqishlariga yo‘naltirilgan.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Ishlab chiqarish ta’limi qaysi shakllarda joriy qilinadi?
2. Ishlab chiqarish ta’limini tashkil etishning asosiy shakllari haqida nimalarni bilasiz?
3. Boshlang‘ich ko‘rsatma berish deganda nimani tushunasiz?
4. Joriy ko‘rsatma berishning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Yakuniy ko‘rsatma berish haqida aytib bering.
6. O‘rganilayotgan materialning maqsadlari va mazmuniga bog‘liq ravishda ishlab chiqarish darslarining qaysi turlari mavjud?
7. Maxsus tajriba maydonlarida ishlab chiqarish darsini o`tish metodikasi haqida nima deya olasiz?
8. O‘quv ustaxonasida ishlab chiqarish ta’limi bo‘yicha mashg‘ulotlar qanday o`tiladi?

## 11.2. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida masofaviy o‘qitish, ishlab chiqarish amaliyoti: maqsad va vazifalari, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilish va o‘tkazish, ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*O‘qitish maqsadi, o‘qitish mazmuni, ta’lim oluvchilar, o‘qitadiganlar, o‘qitish vositalari, o‘qitish metodlari, ilmiy o‘quv material bazasi, identifikatsiyaviy-nazorat tizimi, o‘qitish shakllari, moliyaviy-iqtisodiy tizim, me’yoriy-huquqiy tizim, marketing tizimi.*

Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

*O‘qitish maqsadi* davlat ta’lim standartlari asosida shakllanib, bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini o‘z ichiga oladi. Bu ierarxik tizimda bo‘lib: o‘qitish maqsadi, o‘quv fani maqsadi, mavzuning o‘quv maqsadi, mavzuning tayanch tushunchalari o‘quv maqsadidan shakllanadi.

*O‘qitish mazmuni* an’anaviy o‘qitish tizimiga to‘g‘ri keladi.

Masofaviy o‘qitishda barcha mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorlash imkoniyati yo‘q. O‘qitishning bunday turida o‘qitilishi taqiqlangan yo‘nalishlar ro‘yxati qonun dalolatnomalari bilan tasdiqlanib, bu yo‘nalishlarda ushbu tizimni qo‘llash taqiqlanadi.

*Ta’lim oluvchilar.* Masofaviy o‘qitish tizimida ta’lim oluvchilarning nomlanishi hali aniqlanmagan. Ba’zan ularni tinglovchilar deb ataydilar. Masofaviy o‘qitish tizimi ta’lim oluvchilarning yetarli tayyorgarligini va ish o‘rinlarining texnik ta’minotini talab etadi.

*O‘qitadiganlar*. Bu o‘qituvchilar, asosan ta’lim jarayonini tashkil etish samaradorligi bulardan bog‘liq bo‘ladi. Ammo, masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi xususiyatlari o‘qituvchilar bajaradigan faoliyatlarini turli tuman funksiyalarini, serqirraligini va bajaradigan rollarining xilma-xilligini talab etadi. Aynan shuning uchun chet davlatlarda o‘qituvchilar tavsiflanishi kengaytirilgan:

- o‘qituvchi – o‘quv – uslubiy qo‘llanmalarning ishlab chiquvchisi;
- o‘qitish uslublari bo‘yicha maslahatchi (fasiliteyter);

- o‘quv kurslarining interaktiv uslublari bo‘yicha mutaxassis (tyuter);
- o‘qish natijalarini nazorat qilish bo‘yicha mutaxassis (invigilator).

*O‘qitish metodlari (usullari*). «Methodas» so‘zini yunon tilidan_tarjima qilsak, uning ma’nosi – o‘zini tutish, yo‘l, ma’nosini anglatadi._O‘qitish metodlari deganda o‘qitish maksadiga erishish uchun, ta’lim oluvchilarning faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari haqida nazariy tushuncha beruvchi didaktik kategoriya tushuniladi.

Masofaviy o‘qitish tizimida, xuddi an’anaviy o‘qitish tizimidagidek, o‘qitishning besh metodi qo‘llaniladi: axborot – retseptiv, reproduktiv, muammoli bayon, evristik va tadqiqot.

*O‘qitish vositalari.* O‘qitish mazmuni va o‘qitish vositalari bir-biri bilan bog‘liq. Har bir o‘qitish vositasi o‘z didaktik imkoniyatlariga ega. O‘qituvchi bu didaktik imkoniyatlarni bilishi va ulardan kerakli didaktik maqsadlarga erishish uchun kerakli o‘qitish vositalari majmuasini (keyC) shakllantirishi kerak. O‘qitish vositalari quyidagilardan iborat: kitoblar (qog‘oz va elektron shaklda); tizimdagi o‘quv materiallar; kompyuter o‘quv tizimlari oddiy va multimedia variantda; audio o‘quv axborotlari; video o‘quv axborotlari; masofaviy laboratoriya amaliyotlar va virtual stendlar; trenajyorlar; uzoqdagi bilim bazalari; ekspert o‘quv tizimidagi va geoaxborot tizimidagi didaktik materiallar. O‘qitish vositalari - o‘qitishning texnik vositalari: magnitofon, videomagnitofon, kinoproektor, diaproektor, kodoskop, videoproektor, kompyuterlar orqali amalga oshiriladi.

*Ilmiy o‘quv material bazasi*. Barcha rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimning me’yoriy faoliyat ko‘rsatishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy maqomi o‘quv muassasasining o‘quv materiali bazasi bilan chambarchas bog‘lik. An’anaviy o‘quv muassasasining o‘quv material bazasi o‘quv jarayoni uchun kerak bo‘lgan barcha moddiy va texnik vositalar majmuasini o‘z ichiga oladi. Bular: o‘quv va yordamchi binolar, laboratoriya anjomlar, asbob uskunalar, o‘qitishning texnik vositalari, darsliklar, o‘quv-uslubiy materiallar.

*Identifikatsiyaviy-nazorat tizimi*. Masofaviy o‘qitish tizimida nazorat qilishning xususiyati, o‘qitish tizimida o‘quvchi shaxsini aniqlash – identifikatsiya

qilish va falsifakatsiya (boshka shaxs o‘rnida faoliyat ko‘rsatish) uchun imkoniyat bermaslikdir. Shuning uchun bu tizimda bilim sifatini ko‘p mezonli va ob’ektiv nazorat shakllarini videokonferensiyalar kabi turlarini o‘tkazish ahamiyati ortadi.

*O‘qitish shakllari*. Bu o‘qitishning tashkiliy shaklini tanlashdir. O‘qitish shakllarining quyidagilari rivojlangan: ma’ruzalar, seminarlar, laboratoriya mashg‘ulotlari, kurs ishlari, sinovlar, imtihonlar, maslahatlar, mustaqil ish.

O‘qitish shakllarining barcha turlari, o‘quv jarayoni muloqotda bo‘lish davrida va muloqotda bo‘lmagan davrida o‘z xususiyatiga ko‘ra qo‘llaniladi.

*Moliyaviy-iqtisodiy tizim*. Bu masofaviy o‘qitish tizimida eng ahamiyatli omillardan biri bo`lib, bozor iqtisodi sharoitida u faqat o‘z-o‘zini moddiy ta’minlab qolmay, balkim, o‘quv tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga olib keladi. Shuning uchun har bir o‘qituvchi o‘qitish tizimi iqtisodiyoti bilan tanish bo‘lishi kerak.

Chet el tajribalari bu masofaviy o‘qitish tizimining samaradorligini ko‘rsatdi, ammo har bir konkret holatni iqtisodiy va pedagogik nuqtai nazardan baholash lozim.

*Me’yoriy-huquqiy tizim.* O‘qitish tizimining rivojlanish asosi sifatida bu sohadagi qonunchilikning rivojlanishi va mukammalligi xizmat qiladi.

O‘quv qonunchiligining predmeti – pedagogik munosabatlardir, qolganlari esa, ya’ni, boshqaruv, mulkiy, moliyaviy va hokazo ishlab chiqarish harakteriga ega. O‘qitish muassasasining faoliyati «Ta’lim to‘g‘risidagi qonun», Nizom, Davlat ta’lim standartlari, namunaviy o‘quv dasturlar, rejalar, yo‘riqnomalar, buyruqlar, kollegiya va ilmiy kengash qarorlariga asoslanadi.

*Marketing tizimi.* Bozor iqtisodi sharoitida tizim samaradorligini ta’minlash uchun, har bir muassasa, shu jumladan o‘quv muassasasi ham marketing xizmatini tashkil qilishi kerak. Har bir muassasa, shu jumladan o‘quv muassasasining marketing xizmatini tashkil qilish bozor iqtisodi sharoitida samarali faoliyat qilish uchun kerak.

Masofaviy o‘qitish tizimida marketing an’anaviy vazifalarni bajaradi, ya’ni, ishlab chiqarishni boshqarish va mahsulotni sotish, talablarni aniqlashga yo‘naltirilgan, o‘quv muassasasi faoliyatini iste’molchi bozoriga moslashtiradi.

Masofaviy o‘qitish tizimini tashkil etishda marketingning quyidagi asosiy tamoyillardan foydalaniladi:

- ta’lim xizmatlari bozorida talabni va uning o‘sish dinamikasini hisoblash, yo‘nalishlarni aniqlash, kerak bo‘lgan mutaxassislarning soni va sifatini aniqlash;
- ta’lim xizmatlari ishlab chiqarishini bozor talablariga maksimal darajada moslash (o‘quv rejalar va o‘quv dasturlar, o‘quv-uslubiy adabiyot, o‘qituvchilar tayyorlash va h.z);
- masofaviy o‘qitish tizimini tashkil etishda iste’molchi, jamiyat va ta’lim muassasasi manfaatlarini uyg‘unlashtirish;
- ta’lim xizmatlarini targ‘ibot qilish (milliy va xalqaro masshtabda).

Ishlab chiqarish ta'limi malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining asosiy tarkibiy qismidir.

Ma'lumki:

a) o’quvchini malakali mutaxassis bilan bevosita hamkorlikda ishlash jarayonida, ya'ni usta-shogird tizimida;

b) maxsus muassasalarda tashkil etilgan kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonida o`z aksini topadi.

Usta-shogird yo’li uzoq vaqt talab etilganligi va samaradorligining nisbatan pastligi sababli hozirgi vaqtda kamroq qo’llaniladi.

Ishlab chiqarish ta'limi kasb-hunar ta'limi muassasalarida malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim qismidir. Shuning uchun ham kasbiy tayyorgarlik uchun ajratilgan umumiy vaqtning 40-45 foizi ishlab chiqarish ta'limiga beriladi. U mohiyatiga ko’ra ta'lim-tarbiya jarayonida namoyon bo’ladigan muhandis-pedagog (o’qituvchi) bilan o’quvchilarning o’zaro bog’liq va bir-birini toqazo qiladigan faoliyatlarida o’z aksini topadi. Bunday faoliyatning natijasi bo’lib, o’quvchilarda tarkib topgan amaliy bilimlar, kasbiy ish-harakat usullari (ko’nikma, malaka) hamda shaxsiy fazilatlar

hisoblanada. Ishlab chiqarish ta'limi ta'lim-tarbiya ishining barcha umumiy qonun-qoidalarga qat'iy amal qiladi, shu bilan birga uning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjuddir.

O'quvchilarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etishlari ishlab chiqarish ta'limining asosiy o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu o'z navbatida uning mazmunini, tashkil etish shaklini, o'qitish vositasi va uslubini aniqlaydi.

Har qanday ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lganidek, ishlab chiqarish ta'limida ham o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatining ikki tomoni, ya'ni ichki va tashqi tomonini hisobga olish muhimdir. Ishlab chiqarish ta'limida o'quvchilar faoliyatining tashqi tomoni - ularning o'quv-bilish faoliyatlarida ma'lum kasbiy ish-harakat usullarini bajarishda, mahsulot tayyorlashlarida mexanizmlarni rostlash va sozlashda, mashinalarni ishga va saqlashga tayyorlashda hamda texnika xavfsizlik qoidalariga amal qilgan holda ularni ishlatishlarida o'z aksini topadi. Ichki (intellektual) faoliyat esa usta ko'rsatmalarini qabul qilish, idrok etish, fikr yuritish, berilgan vazifalarni rejalashtirish, ularni bajarishning maqbul variant va usullarini belgilash, bajarilgan ish sifatini aniqlash va baholash hamda o'z hatti-harakatlarini nazorat qilish kabilarda namoyon bo'ladi. O'quvchilar faoliyatining bu ikki tomonini o'zaro birgalikda uzviy bog'liq holda o'quv materialiga jalb etish natijasida ularda amaliy jihatdan muhim kasbiy ish-harakat usullari muvaffaqiyatli shakllanadi.

O'quvchilarning yuqorida ko'rsatilgan o'quv-bilish faoliyatlarining ichki va tashqi tomonini boshqarish, ma'lum kerakli tomonga o'zgartirib, yo'naltirish ishlab chiqarish ta'limini amalga joriy etuvchi muhandis- pedagoglar faoliyatining mohiyatini tashkil qiladi, ya'ni nimani qanday o'qitish kerakligini aniklaydi.

Shuningdek, muhandis-pedagog-yo'riqchining ish faoliyatiga o'quv materialining mazmuni, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, mashg'ulot o'tkaziladigan sharoit, yo'riqchining kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasi va shunga o'xshash ko'plab omillar ham ta'sir qiladi.

Odatda kasb-hunar muassasalarida ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlari laboratoriyalarda, o'quv ustaxonalarida, o'quv-mashq qilish maydonlarida hamda korxonalarda o'tkaziladi. Shu o'rinda har qanday mashg'ulot kabi ishlab chiqarish

ta'limi mashg'ulotlari ham muhandis-pedagogning ko'plab omillariga muvofiq hal etadigan ijodiy ishi ekanligini unutmaslik lozim. Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarini yuqorida zikr etilgan joylarda tashkil qilishning o'ziga xos afzalligi va kamchiliklari mavjud bo'lib, ularni oqilona tashkil etish va o'tkazish uchun muhandis-pedagog eng avvalo o'quv materialining mazmunini, mashg'ulot maqsadi va o'tkazish shart-sharoitlarini bilishi lozim. Ishlab chiqarish ta'limining maqsadi va mazmuni tayyorlov yo'nalishi bo'yicha mutaxassislik malaka tavsifnomasi hamda o'quv dasturlarida o'z ifodasini topadi.

Ishlab chiqarish ta'limi dastlab o'quv laboratoriyalari va ustaxonalarida tashkil etilib, ularda o'quvchilar ilk bor kasbiy mahorat sirlarini egallashga kirishadilar.

Korxonalarda tashkil etilgan ishlab chiqarish mashg'ulotlari o'quvchilar o'zlari tanlagan mutaxassislik bo'yicha kasbiy bilim va ish-harakat usullarini zamonaviy asbob-uskunalar, moslamalar va ish qurollaridan foydalanilgan holda tarkib topishiga sharoit yaratadi.

Bunday mashg'ulotlar haqiqiy amaliyotga mumkin qadar yaqin sharoit tashkil etilganligi sababli o'quvchilarni tanlagan kasbiy mehnatini ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan yaqindan tanishtiradi. Mustaqillik darajasi va ijodiy faolligini oshiradi.

- har qanday ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlari (darslari) quyidagi uch bosqichdan iborat bo'ladi:

- muhandis-pedagogning boshlang'ich (kirish) ko'rsatma yoki yo'l-yo'riq berish;

- o'quvchilarning mustaqil ish bajarishlari, mashq qilishlari, ayni bir muhandis-pedagog faoliyati, ya'ni joriy yo'l-yo'riq berish;

- mashg'ulotda o'quvchilar faoliyatini baholash uchun yakuniy yo'l-yo'riq berish.

Yo'l-yo'riq berish (instruktaj) - o'qituvchi yoki muhandis-pedagogning o'quvchilarga berilgan topshiriq (vazifa)ni xavfsizlik texnikasi qoidalariga to'liq rioya qilgan holda amalda bajarish tartibi haqida o'quvchilar diqqat-e'tiboriga havola etiladigan yo'l-yo'riqlar, talablar va o'zgarishlar mazmuniga ega bo'lgan fikrini bayon qilish shaklidir. Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida, ayniqsa, muhandis-pedagog foydalanadigan ish qurollari, asbob-uskuna va moslamalarining sifati, ulardan to'g'ri foydalanish tartibi, rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va sanitariya qoidalari,

pedagogning bajariladigan ish sifati hamda tayyorgarligiga bo'lgan talablarining buzilishining oldini olish haqida ko'rsatmalari muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarning darsga qiziqishi va o'quv materialiga diqqat-e'tiborini qaratish uchun usta hayotiy misollar, asosli dalillar keltirishi, ushbu mashg'ulotda tarkib topishi ko'zlangan bilim va ish-harakat usullarining hayotiy faoliyat uchun ahamiyatini ko'rsatib o'tishi lozim. Odatda ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarida kirish yo'riqnomasini ishlab chiqish quyidagi tartibda olib boriladi: yangi o'rganiladigan mavzu va mashg'ulot maqsadi bayon etiladi; oldin o'tilgan mavzular bo'yicha o'quvchilar egallagan bilimlari va ish-harakat usullarining shakllanganlik darajasi aniqlanadi; bajarilishi ko'zda tutilgan vazifa, topshiriq yoki ishning amaliy ahamiyati, xususiyatlari va bajarilish tartibi bayon etiladi; texnik-texnologik chizma va haritalar hamda talablar ko'rsatiladi; foydalaniladigan material, asbob-uskuna, moslamalar va shunga o'xshashlar bilan qanday foydalanish kerakligi tushuntiriladi; vazifani bajarishning maqbul (oqilona) shart-sharoitlari, usullari va tartibi bayon etiladi; vazifani bajarishda o'quvchi yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatoliklar va ularni o'z vaqtida oldini olish chora-tadbirlari ko'rsataladi. Shu o'rinda kirish yo'riqnomasini o'quvchilar qanday darajada o'zlashtirganliklarini tekshirish, har bir o'quvchiga shaxsiy vazifa berish va ularni ish o'rinlariga taqsimlash, shuningdek, vazifani bajarishda rioya qilinishi lozim bo'lgan mehnat va texnika xavfsizligi qoidalariga alohida e'tibor beriladi.

O'quvchilarning mustaqil ishlari yoki mashq qilishlari pedagogik jihatdan ilmiy asoslangan, didaktik qonun-qoidalariga binoan tuzilgan bo'lib, texnologik jihatdan ma'lum ketma-ketlikda ko'zlangan bilim va usullarini egallashni nazarda tutadi. Mashg'ulotda usta o'quvchilarning hatti-harakatlarini doimiy kuzatib borib, ishiga rahbarlik qiladi, kerak bo'lgan vaqtda bir necha marta ma'lum ish o'rinlarini aylanib chiqadi, o'quvchilar faoliyatini nazorat qiladi. Shuningdek, bunday ko'rsatma berish vaqtida barcha o'quvchilar bir vaqtda vazifani bajarishga kirishganliklarini tekshirish, ularning har birlari o'z ish o'rinlarini qanday tashkil etganliklarini nazorat qilish, o'quv, texnik-texnologik, tashkiliy-iqtisodiy va shunga o'xshash didaktik materiallar hamda hujjatlardan to'g'ri foydalanishlarini tekshirish kabi maqsadlarini ko'zda tutadi. Bir so'z bilan aytganda, joriy ko'rsatma berish, o'quvchilarni amaliy bilimlar va kasbiy ish-

harakat usullarini egallashlari hamda texnologik jarayon va operatsiyalarni sifatli bajarishga haratilgan bo'ladi.

Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarining bu bosqichida muhandis-pedagog quyidagilarga alohida e'tibor berishi kerak:

Bunday mashg'ulotlarda yakuniy ko'rsatma berish ham muhim ahamiyatga ega.

Yakuniy ko'rsatma berishning mazmuni, tashkil etish shakli va uslubi muayyan aniq mashg'ulot natijalariga ko'ra aniqlanadi va uning maqsadi o'quvchilarning yutuq va kamchiliklarini ko'rsatishdan iborat bo'ladi. Yuqorida ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarining umumiy o'ziga xos bosqichlari va tarkibiy elementlari bo'lgan ko'rsatmalarning mohiyat-maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan qisqacha tanishtirishga harakat qilamiz. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, bunday ko'rsatma berish sxemasi qat'iy majburiy bo'lmay, balki, o'quv materialining xususiyatlariga, muhandis-pedagogning tayyorgarlik darajasi va tajribasiga, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga, mashg'ulot o'tkazish shart-sharoitlariga harab mos ravishda ijodiy hal etilishi mumkin.

Kasb-hunar kollejlarida kasbiy tayyorgarlik maxsus tashkil etilishi, kasbiy tayyorgarlik va malakali o'qituvchilar zamonaviy vositalar yordamida amalga oshirilganligi yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Malakali mutaxassislar tayyorlashda o'quv jarayoni umumilmiy, umumkasbiy va maxsus fanlar turkumlaridan tashkil topadi.

1. Ishlab chiqarish ta'limining maqsadi - o'quvchilarda ma'lum bir aniq ixtisoslik bo'yicha kasbiy mahorat asoslari bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishdan iborat.

2. O'quvchilarning ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarga buysundirilgan mehnatlari ishlab chiqarish ta'limining asosi hisoblanadi.

3. O'quvchilarda o'zlashtirilayotgan kasb (ixtisoslik)ga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish - ishlab chiqarish ta'limining mazmunini tashkil etadi.

4. Ishlab chnharish ta'limi jarayoni nazariya bilan amaliyotning uzviy aloqadorligida amalga oshiriladi.

5. Ishlab chiqarish ta'limi nazariy ta'limga nisbatan faol jarayon bo’lib hisoblanadi. Shu sababli o’qituvchining vazifasida axborot uzatish funktsiyasi bo’lib, rahbarlik qilish, yo’naltirish va yo’l- yo’riq ko’rsatish vazifalari kuchaytirilgan bo’ladi.

6. Ishlab chiqarish ta'limining sifatli o’tishi uchun o’qitishning texnik vositalari, eng avvalo, moddiy-texnik baza, jihozlar, shuningdek, o’quv-ishlab chiqarish ob'ektlarining to’g’ri tanlanganligi hal qiluvchi ahamiyatga egadir.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi nimalarni o‘z ichiga oladi?
2. Masofaviy o‘qitish tizimida o‘qitishning nechta metodi qo‘llaniladi?
3. O‘qitish shakllarining barcha turlari, o‘quv jarayoni muloqotda bo‘lish davrida va muloqotda bo‘lmagan davrida o‘z xususiyatiga ko‘ra qo‘llaniladi. Isbotlab bering.
4. O‘quv qonunchiligining predmeti deganda nimani tushunasiz?
5. Masofaviy o‘qitish tizimini tashkil etishda marketingning qaysi asosiy tamoyillaridan foydalaniladi?

***Foydalanilgan adabiyotlar***


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
2. 2017-2021yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
4. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
5. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.
6. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.

7. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
8. www.inter-pedagogika.ru
9. www.didaktika.ru
10. www.School. edu. uz
11. www.Ppsy. ru
12. www.Bank/referat. ru

# MAVZU 12. KASB-HUNAR TA’LIMIDA NAZARIY TA’LIM METODLARI.

***O’quv maqsadi***

*O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi metodlari tasnifi: og‘zaki metodlari, amaliy metodlari, ko‘rsatmali ta’lim metodlari ma’ruza va unga qo‘yiladigan asosiy talablar, oliy ta’limni tashkil etish shakllari, ma’ruza va unga qo‘yiladigan asosiy talablar ma’ruzalarning turlari, kirish ma’ruzasi, yakunlovchi ma’ruza, kuzatuv ma’ruzalarga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganish*

## 12.1. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi metodlari tasnifi: og‘zaki metodlar, amaliy metodlar, ko`rsatmali ta’lim metodlari, ta’lim metodlarini tanlash mezonlari, kasb-hunar ta’limida pedagogik texnologiyalardan foydalanish



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*O‘qitish metodlari, ish qobiliyati, ta’limning davomiyligi, metodni amalga oshirish, o‘quv-moddiy sharoitlar, ta’lim oluvchilar, nazariy fan maqsadi, suhbatlar o‘tkazaish, tarqatma materialar tarqatilish, o‘zlashtirilgan bilimlar, ta’lim maqsadi, amaliy faoliyat, didaktik vazifa, samaradorlik darajasi, muammolarni mustaqil yechish, amaliy ta’sir, talabalar soni, o‘quv-moddiy sharoitlar.*

Hozirgi pedagogik amaliyotida faol metodlarining 300 dan ortiq turlari mavjudligi e'tirof etiladi.

Ushbu ta'lim metodlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishda turli yondashuvlar va metodikalar mavjud. Ammo bugungi zamonaviy ta'lim sharoitida talabalarni ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan faol metodlarni qo'llashni talab etadi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, faol metodini tanlash nafaqat ta'lim maqsadiga, balki o'quv materiali mazmuniga ham bog'liq bo'ladi.

Ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish va o'quv amaliy faoliyatlarini faollashtirishda ko'mak beruvchi ta'lim metodlarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Faol ta'lim metodlarni maqsadli yo'naltirilgan tanlash belgilangan o'quv maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Har qanday ta'limning maqsadi – ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikmalari va malakalarini shakllantirishdan iboratdir. O'quv faoliyatida ta'lim maqsadining barcha jihatlari amalga oshar ekan, turli ta'lim metodlarni birgalikda qo'llash zarur. Shuning uchun, ta'lim metodini tanlashda eng asosiy omil bo'lib aniq o'quv mashg'ulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi.

Faol metodini tanlashda uning samaradorlik darajasini e'tiborga olish ham ahamiyatga ega. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quv materiali og'zaki bayon etilganda talabalar ma'lumotning 5-10 %ni eslab qoladilar. O'quv adabiyotlaridan mustaqil o'qish ma'lumotning 10-15 %ni, ko'rgazmali materiallar esa ma'lumotlarning 20-25 %ni o'zlashtirishga imkon beradi. Amaliy metodlar eng samarali metod hisoblanib, talabalar ongida ma'lumotning 75 % saqlanib qoladi. Lekin, o'quv-materiallarini talabalar tomonidan mustaqil o'rganish, amaliy mashg'ulotlarini mustaqil bajarish metodlari undan ham samaraliroq hisoblanadi, bunda 90 % bilim o'zlashtiriladi va ko'nikma shakllanadi. Demak, talabalarni mustaqil o'rganish, izlanish, muammolarni mustaqil yechish, amaliy ta'sirlariga yo'naltirilgan faol metodlarni qo'llash yaxshi samara beradi.

O'qitish jarayonida guruhdagi talabalar soni muhim ahamiyatga ega. Agar guruhda talabalar ko'pchilik bo'lmasa, eng faol metoddan foydalanib, o'qitishni

jadallashtirish mumkin. Agar talabalar ko‘p bo‘lsa, faol metodlardan foydalanish unga yaxshi natija bermaslik mumkin. Talabalarning har biri bilan ishlash uchun vaqt yetishmaydi.

Faol ta’lim metodlarini tanlashda ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish imkoniyatlarini, ya’ni ularning yoshi, tayyorgarlik darajasi, hamda, jamoadagi o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xosligini ham inobatga olish muhim. O‘quv mashg‘ulotiga tayyorgarlik vaqtida, ta’lim metodini tanlayotib, biz, albatta, talabalarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatini hisobga olishimiz lozim. Fanga tegishli mavzularining o‘qitish ketma-ketligi va davomiyligi faol metod tanlashga ta’sir ko‘rsatadi. Faol metodlarning ba’zilari talabalarni faollashtirishga qancha ko‘p vaqt talab qilsa, topshiriqlar yoki amaliy faoliyatlari bajarilishiga ham shuncha vaqt talab qiladi. O‘quv mashg‘ulotda vaqt shunchalik chegaralangan bo‘lishi mumkinki, qo‘llashda ko‘p vaqt talab qiladigan faol metodidan foydalanishi imkonini bermaydi. Ba’zi faol metodlarni qo‘llashda alohida sharoitlar talab qilinmaydi, ammo maxsus o‘quv-moddiy sharoitlar talab qiladigan faol metodlardan foydalanmoqchi bo‘lsak, u holda didaktik ta’minotni amalga oshirishimiz kerak.

O‘qitish metodlarini tanlashda ta’lim oluvchilarning o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish juda muhim: yoshi, tayyorgarlik darajasi, hamda jamoadagi o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xosligini. Talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati va uni e’tiborga olish muhimdir. O‘quv mashg‘ulotiga tayyorgarlik vaqtida, ta’lim metodini tanlayotib, biz albatta, talabalarning ish qobiliyatini hisobga olamiz.

Ta’lim berish metodlari deganda pedagogning ish usullarini tushunmoq lozim.

O‘qitish jarayoni murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, nihoyatda xilma-xil va turli xarakterdagi faktorlarga bog‘liq. O‘qituvchi o‘qitish metodlarining bitmas tuganmas xazinasiga ega. O‘qitish metodlarini har xil klassifikatsiyalarini tahlil qilmay, ularning ba’zilarini keltirib o‘tamiz:

1) O‘qitishda talabaning harakatlari xarakteristikasiga ko‘ra:

a) faol metodlar;

b) passiv metodlar.

2) O‘quv ishining turlariga qarab:

a) bilimlarni o‘zlashtirishning dastlabki metodi;

b) bilimlarni takomillashtirish metodi;

c) bilimlarni tekshirib ko‘rish va baholash metodi;

3) Bilim manbalariga qarab:

a) og‘zaki metodlar;

b) ko‘rgazmali metodlar;

c) amaliy metodlar.

O‘qitish metodlari o‘quv jarayonining amalga oshirish ya’ni o‘qitish va o‘qish usullari bo‘lganligidan, har bir metodni ikki tomondan o‘qituvchi faoliyati va talabalar faoliyati nuqtai nazaridan qarash kerak. Shuning uchun ham o‘qitish metodini bilim manbalari bo‘yicha quyidagicha guruhlaymiz.

| **Og‘zaki metodlar** | **Ko‘rsatmali metodlar** | **Amaliy metodlar** |
|---|---|---|
| A) Suhbat.<br>Maqsadni tushuntirish talabalarga muammoli savol berish, talabalarning javoblarini muhokama qilish.<br>B) O‘quv adabiyoti bilan mustaqil ishlash.<br>Maqsadni tushuntirish. Topshiriqning mazmuni va Talabalarning ish tartibini aniqlash, talabalar ishiga rahbarlik qilish, yakun | A) Ko‘rgazmali o‘quv adabiyotlari: rasmlar va sxemalarni, videotasvirlar, multimediyalar, tajribaviy mehnat usullarini namoyish qilish.<br>Maqsadni tushuntirish, topshiriqni aniqlash, texnika vositalarini boshqarish, tajribalarni amalda ko‘rsatish.<br>B) Talabalarning ob’ekt va jarayonning mustaqil | A) Laboratoriya va amaliy ishlar.<br>Maqsadni tushuntirish, talabalar ishining tartibini va mazmunini aniqlash hamda rahbarlik qilish. Yakun yasash.<br>B)Mashqlar.<br>Maqsadni tushuntirish, |

| | | |
|---|---|---|
| yasash.<br>C) Ovoz yozishdan va radio, televidiniedan multimedia resurslaridan foydalanish.<br>Maqsadni tushuntirish kompyuter, texnika va multimedia vositalarini boshqarish. Talabalarni idrok etishiga rahbarlik qilish va yakun yasash. | kuzatishlari.<br>Maqsadni tushuntirish, kuzatish ob’ektlarini aniqlash, talabalarning kuzatishlariga rahbarlik qilish, yakun yasash. | talabalar ishining tartibini va mazmunini tushuntirish, yakun yasash.<br>C)Talabalarning ijodiy ishlari.<br>Maqsadni tushuntirish, muammo qo‘yish, talabalar ishiga rahbarlik qilish va yakun yasash. |

**Quyida ta’lim texnologiyalari (faol metodlar) turlari keltirilgan**

| | | |
|---|---|---|
| - faol tinglash<br>- Apollon texnikasi/metodi<br>- Jamoaviy bloknot<br>- Parlament debatlari<br>- Suhbatli so‘rov (fo-rumda ko‘rib chiqish<br>- 3 qadamli intervyu<br>- Savol berish san’ati<br>- Imkoniyatlar bozori<br>- Guruh uchun bosh-qotirma<br>- Impulsli referat | - shaxsiy tajribada o‘qish<br>- modelga o‘qish<br>- yo‘naltiruvchi matn metodi<br>- 635 metodi, assotsilo-gramma<br>- Moderatsiya<br>- O‘yinlar<br>- Referat (ma’ruza)<br>- Rolli o‘yin<br>- Vaziyatli o‘qish<br>- Jamoali o‘qitish<br>- O‘quv kursi | - aqliy hujum<br>- tahlil-sintez<br>- tarixiy genetik metod<br>- tajriba<br>- sayohat<br>- .... |

| | | |
|---|---|---|
| - Deduktiv va induktiv metodlar<br>- Davra bo‘yicha suhbat/davra stoli | - «yorug‘lik chaqnashi» usuli<br>- Loyiha usuli | |

**Og‘zaki metodlar**. Agar talabalar asosiy o‘quv axborotini o‘qituvchining o‘quv mulohazalari va isbotlari jarayonida yoki darslik mavzulari asosida olsalar, bunday metodlar og‘zaki metodlar jumlasiga kiradi. (tushuntirish, hikoya, suhbat, va h.o.).

Og‘zaki metodlardan foydalanish jarayonida ko‘rgazmali qurollardan foydalanish mumkin. Ammo, ular yordamchi rol o‘ynaydilar.

Bayon etish darsida ko‘rgazmali vositalardan foydalanish yoki foydalanmasligiga bog‘liq bo‘lmagan holda tuziladi. Masalan, o‘qituvchi tikuv mashinasining tuzilishini va ishlash tartibini tushuntirayotganda kinematik sxemadan foydalanishi mumkin. Lekin isbot mantiqini kinematik sxema belgilamaydi, balki u tushunchani o‘zlashtirishda yordam beradi xolos.

Og‘zaki metodlardan foydalanish muvaffaqiyatining asosiy ko‘rsatkichlari-talabalarning yangi bilimlarni eslab qolishlari va aytib bera olishlaridir. Og‘zaki metodlarda talabalar o‘qituvchi mulohazalari jarayonini takrorlaydilar, unga taqlid qiladilar.

Talaba o‘qituvchining tushuntirish mantiqiga qanchalik yaqinlashsa, materialni shunchalik muvaffaqiyatliroq o‘zlashtiradi.

Og‘zaki metodlardan asosan yangi materialni o‘rganish paytida foydalaniladi va bilimlarni egallashning boshqa usullari bilan qo‘shib olib borilsagina ular ta’limda yaxshi samara beradi.

**Ko‘rgazmali metodlar** deganda ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan ko‘rgazmali qurollar va texnika vositalariga ko‘p darajada bog‘liq bo‘lgan o‘quv materialini o‘zlashtirish formalari tushuniladi.

Ta’limning ko`rgazmali vositalari bilimlarni o‘rganish va o‘zlashtirish xarakterini belgilaydi. Masalan, tikuv mashinasi detallari namunalari ko‘rsatilishi

mexanizmlarining ishlashi virtual yoki model orqali, yoki tikuv mashinasida bajariladigan texnologik jarayon videotasviri namoyish qilinishi mumkin, deylik.

Asosiy maqsad dars mazmuni, albatta. O'qituvchi esa, qo'shimcha tuzatish kiritishi mumkin xolos.

Ta'limning bunday metodlaridan foydalanilganda talabalarning bilish faoliyati ko'rgazmali vositalar yordamida shakllanadigan yoki, esga tushiradigan hissiy obrazlarga, tasavvurlarga bog'liq bo'ladi. Ko'rgazmali qurollar bilimlarni tizimiga solish va boyitishda, shuningdek talabalarning fikr yuritish faoliyatini faollashtirishda yordam beradi.

Ta'limning ko'rgazmali metodlari talabalarning bilim faoliyatida obrazli va mantiqiy, konkret va abstrakt, hissiy va aqliy jihatlarning nisbatini chuqur tushunishni talab etadi.

**Amaliy metodlar.** Mashqlar, mustaqil topshiriqlar, amaliy va tajriba ishlari asosida o'quv materialini egallash formalari ta'limning amaliy metodlari jumlasiga kiradi. Ana shu metodlar yordamida amaliy ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Bunda ko'nikmani shakllantirish jarayoni o'quv faoliyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ko'nikmalarni egallashning muvaffaqiyati uni shakllantirish sharoitiga bog'liq.

Birinchi shart-ko'nikma nima maqsadda shakllantirilishini anglashdir. Har qanday ko'nikma-avtomatlashgan darajaga yetkazilgan harakatlar tizimidir. Agar talaba o'quv materialini o'zlashtirishda ularning ahamiyatini tushunmasa, bu harakatlarni shakllantirish qiyin bo`ladi. Masalan: tikuv mashinasi kiyimni qaysi qismlarini tikishga mo'ljallanganligini va buning uchun kiyim materialiga mos ravishda ip va ignalar tanlanishi tartibini bilmasa, shu ishlarni bajarishdagi harakatlarini shakllashtirish qiyin bo'ladi.

Ikkinchi shart-mashqlarning tizimli bo'lishi. Odatda ko'nikmalarni egallashdagi kamchiliklarga o'quv mashqlari tizimini tashkil etish va o'tkazishdagi kamchiliklar sabab bo'ladi, ya'ni mashqlarni o'tkazish uchun kerakli vositalar bilan ta'minlanmaganligi.

Uchinchi shart-amaliy harakatlarni anglagan holda bajarish. Talabalar harakatlarning muayyan fikriy rejasiga asoslanishlari, ish jarayonlarining izchilligini yaxshi tushunishlari, mexanik tarzda takrorlashga va yodlab olishga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

To‘rtinchi shart-dastlabki amaliy harakatlar va jarayonlarga puxta tayyorlanish. Ular ongli ravishda reja asosida bajarilsa, ko‘nikma tezroq muvaffaqiyatliroq shakllanadi. Buning uchun talabalar nazariy bilimlarini yaxshi egallashlari kerak.

Beshinchi shart-mashqlarni mustaqil bajarish va o‘zini-o‘zi nazorat qilish. Talaba ko‘nikmani mustaqil bajara boshlaganida u o‘z harakatlarini nazorat qiladi. O‘qituvchi talabaga o‘z-o‘zini nazorat qilish usullarini o‘rgatishi zarur. Masalan, talaba kiyimni bironta detaliga bezak berish jarayonini amaliy o‘rgangandan keyin, uyda o‘zi mustaqil ravishda bajarishga va baho berishga o‘rganadi.

Oltinchi shart-bajarilgan mashqlar, amaliy ishlar tahlili va ularni baholash. O‘quv ko‘nikmalari va malakalarida ijobiy va salbiy jihatlar bo‘ladi. Talabalar yo‘l qo‘yadigan tipik xatolar namoyon bo‘ladi. Lekin sinfda yaxshi ishlarni namoyish qilish kerak. Ijobiy namuna asosida o‘qitish afzalroqdir.

Agar ko‘nikmani shakllantirish shartlariga rioya qilinsa, o‘qitishning amaliy metodlari o‘quv materialining muvaffaqiyatli egallanishiga olib keladi.

O‘quv maqsadlarning noaniq qo‘yilishi, shu bilan bog‘liq o‘qitishdan kutilgan natijalarga erishishning noaniqligi, an’anaviy o‘quv jarayonini tashkil etishning asosiy kamchiligi hisoblanadi. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti sharoitida, oliy ta’lim muassasasi, o‘qitishdan kutiladigan natija yo‘qligidek, ortiqcha daxmazaga yo‘l qo‘ya olmaydi. O‘qitish natijasi aniq va maqsadga erishiladigan bo‘lishi lozim, aks holda, tayyorlangan mutaxassislarga ehtiyoj ham noaniq bo‘ladi va ular talab qilib olinmaydi. An’anaviy o‘quv jarayoniga tayangan oliy ta’lim muassasasi, hozirgi zamon ishlab chiqarish va boshqa sohalarning aniq talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga qodir bo‘lmaydi. Shuning uchun, o‘quv jarayonini takomillashtirish, talabalar qiziqishini oshirish, o‘qitish natijalarini kafolatlanishning eng samarali yo‘llarini izlash ishlari uzluksiz davom

ettirilmoqda. O‘qitish sifatini oshirish, ob’ektiv zaruriyatga aylanganligi tufayli, alohida o‘qitish uslublaridan pedagogik texnologiyaga o‘tish muammosining dolzarbligi ortib bormoqda.

O‘qitish amaliyotida, o‘qitishning turli tuman yo‘llari, usullari va shakllari keng qo‘llaniladi. Ammo, o‘qitishda yagona samarali (integral) yondashuvni izlash jadallik bilan hamon davom ettirilmoqda. O‘qitishni, o‘ziga xos ishlab chiqarish, texnologik jarayonga aylantirilishi mumkin bo‘lgan didaktik yondashuvlar, didaktik vositalarni izlash davom etmoqda.

O‘qitish texnologiyasi kasbiy yondashuv asosida aniqlanadi. Ular odatda, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari hisoblanadi.

«Pedagogik texnologiya» atamasi, ishlab chiqarish - texnologik sohasidan olingan, o‘ziga xos ma’lum qoida va tamoyillarga ega bo‘lgan, «texnologiya» tayanch iborasini o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqarish sohasida, mahsulotni tayyorlash uchun, ishlab chiqarishni tayyorlash talab etiladi, u turli xildagi ilmiy-tadqiqot, konstruktorlik, texnologik, tashkiliy-rejaviy tadbirlarni qamrab oladi.

Ishlab chiqarishni tayyorlashning *birinchi bosqichida* ilmiy-tadqiqotlar natijasi bo‘yicha konstruktorlik tayyorgarligi amalga oshiriladi, ta’limda esa, davlat ta’lim standartlari (ta’lim sohasi «konstruksiyasi»ni aniqlovchi) tayyorlanadi.

Ishlab chiqarishni tayyorlashning *ikkinchi bosqichida* konstruktorlik tayyorgarlik ishlari bajarilgandan so‘ng ishlab chiqarishning texnologik tayyorgarligi amalga oshiriladi, uning o‘zagini – detallarini tayyorlash, mashina uzellari va agregatlarini yig‘ish, texnologik jarayonlarni ishlab chiqishni tashkil etadi. Texnologik jarayonlar – texnologik xaritalar va ularning to‘plamlari ko‘rinishida rasmiylashtiriladi. Texnologik jarayonning texnologik xarita ko‘rinishida aks ettirilishi, yuqori malakaga ega bo‘lmagan ishchiga, yuqori sifatli mahsulot tayyorlash imkoniyatini yaratadi, chunki texnologik xaritada mahsulot tayyorlashning barcha bosqichlari – materiallar, tayyorlash, jihozlar, texnologik operatsiyalar mazmuni va ketma-ketligi, ishlov berish sharoitlari, asboblar, vaqt me’yorlari, sifat nazorati vositalari keltiriladi. Ishlab chiqarish - texnologik

jarayon, - eng kam va modiy ham insoniy resurslar xarajatlari ishlab chiqarishning eng yuqori mehnat unumdorligi va rentabelligi bilan zaruriy sifatdagi mahsulot olinishiga imkoniyat yaratadi.

Texnologik jarayonni ishlab chiqmasdan, zamonaviy samarali ishlab chiqarishni tashkil etish mumkin emas. Ishlab chiqarish sohasiga o‘xshab, ta’lim sohasida davlat ta’lim standartlari yaratilgandan so‘ng (ta’lim «konstruksiya»si barpo etilishi) – texnologik tayyorgarlik amalga oshiriladi (namunaviy o‘quv rejalar, fanlarning namunaviy o‘quv dasturlarini darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlash, laboratoriya jihozlari, o‘qitishning texnik vositalarini loyihalash, tayyorlash va sotib olish, o‘quv ishlarini hisoblash uchun vaqt me’yorlarini o‘rnatish va h.k.), u ta’lim jarayonini tartibga soladi, ta’lim muassasasini va kadrlar tayyorlash sifatini baholaydi.

Pedagogik texnologiya negizida, pedagogik ilmiy usul va malakalar, ishlab chiqarishning usul va malakalaridek, o‘quv jarayonini ro‘yobga chiqaruvchi ob’ektiv mantiqiy imkoniyatlar sifatida mavjud bo‘lishi mumkinligi haqidagi tasavvur yotadi.

Ishlab chiqarish sohasida ushbu imkoniyatlar qanday ro‘yobga chiqarilsa, pedagogik jarayonda ham shunga o‘xshash holat sodir bo‘ladi. Yuqori malakali pedagog o‘zining pedagogik qobiliyati tufayli bu imkoniyatlarni aniqlaydi va ularni ishlab chiqadi.

O‘qitish jarayonining mavjud ob’ektiv qonuniyatlarini o‘rganish va qo‘llash, o‘qitishda zaruriy natijaga erishish, ma’lum darajada, hattoki pedagog va talabaning qobiliyatiga bog‘liq emas degan xulosaga olib keladi.

Pedagogik jarayon qanchalik chuqur ishlangan va ob’ektlashgan bo‘lsa, uni ro‘yobga chiqarish uchun, shunchalik kam qobiliyat talab etiladi. Ushbu, ommaviy ta’limning butun amaliyotda o‘z tasdig‘ini topdi. Bundan tashqari kompyuterli o‘qitishni joriy etish amaliyoti, odamni bevosita ishtirok etmasligida ham, o‘qitishning usullari va uslublari tizimini amalga oshirilishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Pedagogik texnologiyaning xususiyati shu bilan belgilanadiki, unda qo‘yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o‘quv jarayoni yaratiladi va ro‘yobga chiqariladi.

Pedagogik texnologiyaning afzalligi ham, ahamiyati ham shu bilan belgilanadi. Bu ommaviy o‘qitish sharoitida, talabalarni to‘la o‘zlashtirishini ta’minlovchi yagona to‘g‘ri yo‘ldir.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Hozirgi pedagogik amaliyotida faol metodlarining turlari haqida nima deya olasiz? Misollar keltiring.
2. Ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish va o‘quv amaliy faoliyatlarini faollashtirishda nimaga e`tabor berish kerak?
3. Har qanday ta’lim maqsadining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. O‘qitish metodlarini tanlashda nimalarga e`tibor berish lozim?
5. Ta’limning davomiyligi haqida nimalarni bilasiz?
6. O‘quv-moddiy sharoitlari haqida ma`lumot bering.
7. Mashg‘ulotlarni qiziqarli o`tishda nimalarga e`tabor berish lozim?
8. Nazariy fan maqsadini bayon etishda nimalarga e`tibor berish lozim?
9. Tarqatma materialar tarqatilishda  nimalarga e`tibor berish lozim?
10. Pedagogik izlanishlar deganda nimani tushunasiz?

## 12.2. Kasb ta’limida ma’ruza va unga qo‘yiladigan asosiy talablar, oliy ta`limda ta’limni tashkil etish shakllari, ma’ruza va unga qo‘yiladigan asosiy talablar



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Ma`ruza, ma`ruzaning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati, ma`ruzaning asosiy belgilari, ijodiy faoliyat, ichki va tashqi belgilar, didaktik talablar, samaradorlik shartlari.*

Jamiyatimiz har tomonlama ma’lumotli, fan asoslarini chuqur egallagan, o‘z bilimlarini ishlab chiqarishga mohirlik bilan tatbiq qila oladigan kishilarni taqozo etadi. Bunday kishilarni tarbiyalashda ma`ruza muhim rol o‘ynaydi. Shu tufayli ma`ruzaga bo‘lgan talab ham doimo o‘sib boradi. Hozirgi mustaqillik sharoitida ma`ruzaning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatini oshirish deganda nimani tushunasiz?

Ma`ruzaning asosiy belgilaridan biri ilmiylikdir. Ma`ruzada o‘rganiladigan bilimilar hozirgi zamon fani yutuqlarini o‘zida aks ettirishi, ta’lim jarayoni maqsadi hamda bolalarning real o‘qish imkoniyatlariga mos bo‘lishi zarur. Bolalarning real o‘qish imkoniyatlariga mos kelmaydigan nihoyatda jo‘n yoki murakkab bilimlar o‘quvchilarning fan asoslarini o‘rganishga qiziqishlarini susaytiradi. Qanday usul, vositalar yordamida o‘quvchilarning qiziqishlari tarbiyalanadi?

Ma`ruzalarda o‘quvchilarning ijodiy faoliyati qancha taraqqiy etsa, fan sohasida qo‘llaniladigan usullardan qancha ko‘p foydalanilsa, ma`ruzaning samaradorligi shuncha oshadi. Ma`ruzaning samaradorligini qanday tushunasiz?

Ma`ruzani ijodiy tashkil etish, vaqtdan unumli foydalanish, mashg‘ulotlarni operativ o‘tkazish, bolalarda jamoada ishlay olish ko‘nikmalarini shakllantirishi, o‘zaro yordam va bolalar o‘rtasida hamkorlik o‘rnatish yo‘llari bilan mashg‘ulotlar jamoa mehnati jarayoniga aylantiriladi.

**Ma`ruzaning ichki va tashqi belgilari.** Ma`ruza dars berishning boshqa shakllaridan o‘zining ichki va tashqi xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi. Muayyan yoshdagi va ma’lum tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘quvchilar guruhi, rejim, mashg‘ulotlarni ma’lum xonada o‘tkazish kabilar ma`ruzaning tashqi xususiyatlari, ma`ruzaning maqsadi, logikasi, ta’lim mazmunini his qilish, qiziqish, anglash, tushunish uning ichki xususiyatlari sanaladi. Ma`ruza ana shu ikki xil - tashqi va ichki xususiyatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida tashkil etiladi.

Bir xil tayyorgarlikka ega, yoshlari teng o‘quvchilarning doimiy jamoasi bilan ma’lum xona, rejim, jadval, ilmiy - pedagogik asoslangan dastur asosida o‘tkaziladigan mashg‘ulotga ma`ruza deyiladi.

**Ma`ruzaga qo‘yiladigan didaktik talablar.** Ta’limning boshqa shakllariga o‘xshab ma`ruzaga ham qator didaktik talablar qo‘yiladi. Yu.K.Banbanskiy, N.A.Sorokin ma`ruzaga qo‘yiladigan talablarni uch guruhga ajratishadi: didaktik talablar, tarbiyaviy talablar, tashkiliy talablar.

Didaktik yoki ta’limiy talablar sirasiga quyidagilar kiradi:

1. Har bir ma`ruzaning ma’lumot berish, rivojlantirish, tarbiyaviy maqsadini aniq belgilash, uning ma`ruzalar tizimidagi o‘rnini qat’iy aniqlash.
2. Ma`ruzalarning optimal mazmunini, o‘rganiladigan bilimlar ko‘lami, shakllantiriladigan ko‘nikma va malakalarni oldindan aniqlab qo‘yish.
3. Ma`ruzani tashkil eitshga oid ratsional ta’lim metodlarini interfaol usullarini tanlash, o‘quvchilar faolligini rag‘batlantirish, o‘quv topshiriqlari, mustaqil ishlarni ta’limga optimal tatbiq etish.
4. Ta’lim prinsiplarini (ilmiylik, faollik, izchillik, predmetlararo aloqa va sh .k.) og‘ishmay amalga oshirish.

Ma`ruzaga qo‘yiladigan tarbiyaviy talablar qatoriga quyidagilar kiradi:

1.Ma`ruzada o‘rganiladigan o‘quv materiallari bo‘yicha tarbiyaviy xulosalar chiqarish.

2.Nazariy bilimlar asosida ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish.

3.Bolalarda o‘qishga oid motivlarni uyg‘otish, bilish, o‘qish o‘rganishga havas ishtiyoq qiziqishni shakllantirish.

4.Ma`ruza jarayonida pedagogik takt qoidalariga rioya qilish.

Ma`ruzaga qo‘yiladigan tashkiliy talablar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1.Ma`ruza uchun puxta yo‘nalgan konspekt yoki reja tuzish.

2.Ma`ruzaning logikasiga (ma`ruza etaplarining o‘zaro bog‘liqligi ma`ruzada amalga oshiriladigan ishlar, o‘quv topshiriqlarining o‘zaro aloqadorligiga rioya qilish).

3.Ma`ruza tempini o‘quvchilarning tayyorgarligiga moslashtirish.

4.Ma`ruza uchun ajratilgan vaqtdan ratsional foydalanish.

5.Ma`ruzada ongli intizomni tashkil etish.

Ma’ruza - o‘qitishni tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

- yo‘naltiruvchilik-o‘quvchilarni o‘quv materialining asosiy holatlariga, uni kelgusi ish faoliyatidagi o‘rni va ahamiyatiga diqqat qilishlariga imkon beradi;
- axborotlilik- o‘qituvchi ma’ruza vaqtida holat, asosiy ilmiy dalillar va xulosalar mohiyatini ochib beradi;
- metodologiklik- ma’ruza vaqtida o‘qitish usullari taqqoslanadi, ilmiy izlanishning asoslari namoyon etiladi;
- tarbiyalovchilik-ma’ruza o‘quv materialiga hissiy-baholash munosabatida bo‘lishni uyg‘otish;
- rivojlantiruvchilik - bilim olish qiziqishlarini, ya’ni mantiqiy fikrlash va isbotlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

## *Ma’ruzaning samaradorlik shartlari*

**Samaradorlik shartlari**

***Ta’lim berish vositalaridan foydalanish***

- Видео
- Grafoproektor
- Flip-chart

***Faol ta’lim usullarini qo‘llash***

- Muammoli ma’ruza
- Anjuman-ma’ruza
- Konspektsiz ma’ruza – fikrni so‘z bilan ifodalash
- Mualliflik ma’ruzasi
- Munozarali ma’ruza
- Qaytar aloqadan foydalanilgan maruza
- Aniq vaziyatlarni ko‘rib chiqish ma’ruzasi
- n….

**Didaktik talablarni bajarish**

- ma’ruzaning batafsil rejasini tuzish;
- ta’lim oluvchilar uchun aniq tuzilmaga keltirilgan mashg‘ulot (kirish, asosiy savollar, asosiy joylar, yakun va xulosalarni ajratib ko‘rsatish);
- mustaqil o‘qish uchun mavzu, maqsad, vazifa va ma’ruza rejasi, adabiyotlarni ma’lum qilish;
- rejaning har bir qismidan so‘ng umumlashtiruvchi xulosalar qilish;
- ma’ruzaning bir qismidan boshqa qismiga o‘tishda mantiqiy bog‘liqlikni ta’minlash;
- yozish zarur bo‘lgan joylarni: asosiy tushuncha, ifoda, vaqt, dalillar va boshq. aytib turish.

*Pedagogik texnikani qo‘llash*

*Ma’ruzaga o‘quvchilar ishtiroki qismini kiritish*

Oliy maktabda ta’lim fan/kursning qiziqtiruvchi bosqichi kirish ma’ruzasi hisoblanadi. Uning maqsadi-o‘quv fani/kursi to‘g‘risida birinchi umumiy tasavvurni berish va o‘quvchilrni ish jarayonida, oldindagi o‘quv faoliyati natijalariga va ularni nazorat tizimi va baholashiga yo‘naltirish hisoblanadi.

*Pedagogik vazifalar quyidagilardan iborat:*

- o‘quvchilarni fan/kursning ahamiyati, vazifasi va uning o‘rni, o‘quv fanlar tizimida hamda kasbiy tayyorgarligidagi o‘rni bilan tanishtirish;

• tuzilmaga qisqacha sharh berish, fanni va amaliyot rivojlanishini, bunda mashhur olimlarning nomini aytib, bu sohadagi erishilgan yutuqlarni yoritib berish;

- ushbu bilimlar sohasidagi tadqiqot istiqbollari yo‘nalishlarini bayon  etish;
- fan/kurs doirasida uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlarini yoritish;
- tavsiya etilayotgan o‘quv - uslubiy adabiyotlar tahlilini amalga oshirish;
- hisobot/baholash shakllari va vaqtni aniqlash.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Ma`ruzaning samaradorlik shartlariga nimalar kiradi?
2. Aqliy harakatlar deganda nimani tushunasiz?
3. Dars berishda pedagogik vazifalar nimalardan iborat?
4. Siz o‘qiyotgan darslikda ma`ruzaga berilgan ta’rifni yana bir marta o‘qib, unga sharh yozing.
5. Ma`ruzaning ichki va tashqi belgilarini sanab bering.
6. Ta’limning uch maqsadi (ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) maqsadlarini belgilab bering.
7. O‘zingiz tanlagan o‘quv predmeti bo‘yicha biror mavzuda ma`ruza o‘tish rejasini tuzing.

## 12.3. Ma’ruzalarning turlari, kirish ma’ruzasi, yakunlovchi ma’ruza, kuzatuv ma’ruza, ma’ruzaning vazifalari, ma’ruzada aniq faktlar, ma’lumotlarning o‘rni, ma’ruzani bayon qilish uslublari, ma’ruza matnini tayyorlashga qo‘yiladigan asosiy talablar, ma’ruzada induktiv va deduktiv uslublarni qo‘llashning ahamiyati, ma’ruza jarayonida pedagogning kasbiy mahorati.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Individual ta’lim shakli, individual-guruhli ta’lim shakli, sinf-dars ta’lim shakli, ma’ruza-seminar ta’lim shakli, sinfdan tashqari ta’lim shakli, auditoriyadan tashqari ta’lim shakli, ta`lim muassasasi va ta`lim muassasasidan tashqari ta’lim shakli.*

Jahon kasbiy ta`lim metodikasi fani va amaliyotida ta’limni tashkil etishning turli shakllari bor. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta’limni tashkil etishga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

**Kirish ma’ruzasida ta’lim berish texnologiyasi**

An’anaviy ta’lim berish tizimida o‘quv materialini tuzib chiqishning birligi “mavzu” hisoblanadi. O‘quvchi uchun o‘quv materialining haqiqiy birligi bo‘lib, o‘quv mashg‘uloti xizmat qiladi, mavzu esa uni o‘rganishning o‘qituvchi tomonidan e’lon qilinadigan faqat nomlanishidir.

Shu bois, o‘quvchilar alohida o‘quv birliklari o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro aloqani aniq anglamasdan mavzuni o‘rganadilar: bu yerda o‘quv materialini “bo‘laklab-mavzuviy” o‘rganish xususiyati ko‘rinib turibdi.

Hozirgi vaqtda o‘quv materialini tuzilmaga solish modul asosida amalga oshirilmoqda. Bu ham o‘quvchida birdaniga harakatning to‘liq yo‘nalishini, ya’ni barcha qismlar (o‘quv yoki modul birliklar) o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash ular tomonidan berilgan o‘quv materiali chegarasida BMK izchillikda egallash degani emas.

Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirishning psixologik nazariyasiga muvofiq, bu muammo o‘qitish tuzilmasiga qiziqtiruvchi bosqichni kiritish orqali hal etish mumkin. Uning vazifasi - ta’lim oluvchilarda kutilayotgan o‘quv materialini egallash uchun qiziqish (bizning holatda-o‘quv fani/kurC) ta’minlash, modomiki harakatning to‘liq yo‘nalishi o‘quv materialini barcha tashkil etuvchilari o‘rtasidagi aloqani aniqlashi mumkin.

Ayni vaqtda ta’limning quyidagi shakllari ajratilib ko‘rsatiladi:

- individual;
- individual-guruhli;
- sinf-dars;
- ma’ruza-seminarli;
- sinfdan tashqari;
- auditoriyadan tashqari;
- ta`lim muassasasi va ta`lim muassasasidan tashqari.

Ulardan ta’lim oluvchilarni qamrab olishi, ta’lim oluvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o‘qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko‘ra quyidagi asosiy turi iste’molda foydalanib kelinmoqda:

- individual;
- individual-guruhli;
- sinf-dars;
- ma’ruza-seminar.

Qadim zamonlarda mavjud bo‘lgan o‘qitishning eng qadimgi shakli **individual** ta’lim hisoblanadi. Bu orqali hayotiy tajribalarni ajdodlardan-avlodlarga uzatish ibtidoiy jamiyatdayoq yuzaga kelgan edi. Yozuv paydo bo‘lishi bilan qavm boshlig‘i turli belgilar yordamida o‘zining tajribalarini keyingi avlodga uzatgan. Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning bevosita va individual aloqasiga hozirda misol sifatida repetitorlikni ko‘rsatish mumkin. Ta’limni tashkil etishning

individual shakli antik davr va o‘rta asrlarda yagona usul bo‘lgan, undan ba’zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanib kelingan.

Individual ta’lim bir qator **afzalliklarga** ega. Shuning uchun bu usulni bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib qolgan. Uning ustunligi o‘quv faoliyati mazmuni, metodi va suratini to‘la individuallashtirish, aniq bir masalani hal etishda uning har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishdan iborat. Individual ta’lim beruvchining yuqori pedagogik malakaga ega bo‘lishini talab etadi.

Individual ta’limning **kamchiliklari**: vaqtning tejamli emasligi; ta’lim beruvchi ta’sirining cheklanganligi (bunda ta’lim beruvchining vazifasi ta’lim beruvchiga topshiriq berish va uni tekshirishdan iborat bo‘ladi); boshqa ta’lim oluvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu ta’lim oluvchining yoki ta’limning ijtimoiylashishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi); jamoada ishlash tajribasini shakllanmasligi va shu kabilardan iboratdir.

Ta’lim individual-guruhli shaklda ta’lim beruvchi mashg‘ulotlarni bir ta’lim oluvchi bilan emas, balki tayyorlik darajasi turlicha bo‘lgan turli yoshdagi bolalar guruhi bilan olib boradi. Bunda ta’lim beruvchi navbat bilan har bir ta’lim oluvchidan o‘tilgan materialni so‘raydi, yangi mavzuni (materiallarni) tushuntiradi, mustaqil ishlashi uchun individual topshiriqlar beradi, boshqa ta’lim oluvchilar o‘z ishlari bilan shug‘ullanadilar. O‘qishni bunday tashkil etishda, ta’lim oluvchilar mashg‘ulotlarga yilning turli davrlarda hamda kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo‘lgan.

Birinchi universitetlar paydo bo‘lishi bilan **ta’limning maruza-seminar shakli** yuzaga kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri mazkur tizim deyarli o‘zgarmagan. Ma’ruza, seminar va laboratoriya ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo‘yicha amaliyot hozirgacha ma’ruza-seminar tizim sifatida o‘qishning asosiy shakllaridan biri bo‘lib kelmoqda. Maruza-seminar tizimi o‘zining sof ko‘rinishida oliy va oliy maktabdan keyingi ta’lim amaliyotida qo‘llaniladi.

O‘zbekistonda uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining tatbiq etilishi bilan ma’ruza-seminar tizimidan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ham

ulardan foydalana boshlandi. Oxirgi paytlarda ma’ruza-seminar tizimi elementlaridan o‘rta maktablarning katta sinflarida ham qo‘llanila boshlandi.

Demak, qadim zamonlardanoq jamiyatning yetuk kishilari o‘qitish ishini tashkil qilishning ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga javob beradigan shakllarini topishga uringanlar.

Darsda bilimlarning o‘zlashtirilishi, malaka va ko‘nikmalarning hosil qilinishi murakkab dinamik jarayondir. O‘quv materialini o‘rganishning turli vazifalari, yo‘llari, usullari va vositalari vujudga keladi. Buning natijasida darsning juda ko‘p turlari, uning har xil variantlari paydo bo‘ladi.

Ayni vaqtda ta’lim tizimida eng ko‘p qo‘llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O‘tilgan materialni mustahkamlash darsi.
3. Ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish darsi;
4. Takroriy-umumlashtiruvchi dars.
5. Aralash dars.

Muayyan dars turi asosida olib boriladigan mashg‘ulotlarda ikkinchi, uchinchi bir dars turining qismlari bo‘lishi mumkin. Misol uchun ta’lim muassasalarida eng ko‘p qo‘llaniladigan dars turlaridan biri yangi bilimlarni bayon qilish darsida quyidagi holatlar amalga oshirilishi mumkin:

- yangi bilimlarni bayon qilish;
- yangi bilimlarni mustahkamlash;
- yangi bilimlar ustida mashq o‘tkazish;
- yangi bilimlarga bog‘liq holda uyga vazifalarini topshirish va hokazo.

Demak, dars umumiy jarayon davomida bir dars turi asosida tashkil etilmaydi. Shunga qaramay darsning maqsadi ta’lim oluvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo‘lsa, butun didaktik usullar ana shunga bo‘ysundiriladi. Shu sababli ham bunday dars **yangi bilim berish darsi** deb ataladi.

Muayyan dars turi bilan ish ko‘rilayotganda boshqa bir dars turi unsurlarining asosiy dars tuzilishini tashkil qilishi mumkin. Darsning tarkibiy tuzilishi u yoki bu dars turining umumiy holati, uning qismlari mohiyatini anglatadi.

Dars jarayonida qo‘llanilayotgan har qanday didaktik usul dars tuzilishini ifodalashga har doim ham xizmat qilavermaydi. Didaktik usullar ta’lim metodi bilan baholangandagina dars tuzilishining o‘zgarishiga, ta’lim metodlarining o‘zgarishi ham dars tuzilishining o‘zgarishiga olib keladi. Dars jarayonining muayyan qismida dars shakli hamda metodlarining o‘zgarishi darsning yangi bosqichini boshlaganligini anglatadi.

Bugungi kunda zamonaviy o‘quv muassasalari faoliyatida o‘qitish shakllaridan biri bo‘lmish ma’ruzadan foydalanish keng tarqalgan. Ma’ruza darslarini tashkil etish ancha murakkab va ko‘p mehnat talab qiladigan faoliyatdir. Ma’ruza darsi tajribali, yuksak darajada pedagogik mahoratga ega bo‘lgan ta’lim beruvchining intellektual salohiyati asosida tashkil etiladi. Ma’ruzada faqat fan, o‘quv predmeti asoslari borasidagi ma’lumotlarni bermasdan, ta’lim oluvchilarni ijtimoiy-g‘oyaviy jihatdan tarbiyalab borish ham talab etiladi. Ma’ruzadan ko‘zlangan **asosiy maqsad** ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bilim va faoliyat malakasini oshirish hamda dunyoqarashini yuksaltirishdan iborat.

O`qitish amaliyotida ma’ruzaning quyidagi turlaridan keng foydalanilmoqda:

- ma’ruza-hikoya;
- ma’ruza-suhbat;
- ma’ruza-munozara;
- ommaviy ma’ruza.

Ta’lim-tarbiyada qat’iy mantiqiy izchillikka rioya qilish kerak bo‘lgan jarayondan iborat bo‘lib, bunda o‘rganilgan bilimlar va shakllangan tasavvurlar oldingi o‘rganilganlardan kelib chiqadi, ularni mustahkamlaydi, chuqurlashtiradi va keyingi ta’lim-tarbiyaviy jarayonga zamin hozirlanadi. Mazkur tamoyil o‘qish jarayonida didaktikaning umumiylikdan xususiylikka (deduksiya) va, aksincha,

xususiylikdan umumiylikka (induksiya) qoidasini va o‘quv fanlarining bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lishini ta’minlaydi;

Ma’ruzalar yozma shaklda ifoda etiladi. Shu bois ma’ruza o‘qituvchi tomonidan ma’ruza mavzui yuzasidan reja va ma’ruza matni tayyorlanadi. Umumiy qoidaga binoan ma’ruza bir dars davomida oxiriga yetmay qolsa, u keyingi mashg‘ulotda davom ettiriladi. Har bir mavzu bo‘yicha ma’ruza materiallari tushuntirib bo‘lingan, ta’lim oluvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi. Shuningdek, har bir mavzu yuzasidan foydalanish lozim bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati taqdim etiladi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Ayni vaqtda ta’limning qanoqa shakllari ajratilib ko‘rsatiladi?
2. Qadim zamonlarda mavjud bo‘lgan o‘qitishning eng qadimgi shakli individual ta’lim hisoblanadi. Misollar bilan isbotlab bering.
3. Individual ta’lim bir qator afzalliklarga ega. Misollar bilan isbotlab bering.
4. Ayni vaqtda ta’lim tizimida eng ko‘p qo‘llaniladigan dars turlariga izoh bering.
5. Bugungi kunda zamonaviy o‘quv muassasalari faoliyatida o‘qitish shakllaridan biri bo‘lmish ma’ruzadan foydalanish keng tarqalgan. Isbotlab bering.
6. O`qitish amaliyotida ma’ruzaning qaysy turlaridan keng foydalanilmoqda?

***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
2. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
3. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.

4. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.
5. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
6. www.inter-pedagogika.ru
7. www.didaktika.ru

## MAVZU 13. O‘QUV JARAYONIDA TA’LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI.

***O’quv maqsadi*** ⇨ *Didaktik tamoyillaridan biri ko`rgazmalilik usuli, o‘quv-ishlab chiqarish vositalariga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganish*

### 13.1. Ko`rgazmalilik-didaktik tamoyillardan biri sifatida, zamonaviy ta’lim vositalarining turlari va tavsifi.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*O‘qitishning ko‘rsatmaliligi, ko‘rsatmalilik tamoyili, real hayotga yaqin, ta'lim-tarbiya tizimi, o’qitishning texnik vositalari, o’qituvchining jonli muloqoti, o’quv xonalarini jihozlash, tasviriy ko’rsatmalardan foydalanish, ko’rsatmali qo’llanmalarga quyidigan talablar.*

O‘qitishning ko‘rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar o‘quvchilarda o‘rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan bog‘liq muayyan hissiy amaliy tajriba bo‘lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli suratda o‘zlashtiradilar hamda ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish mumkin. Bu tamoyil o‘qitish jarayonida turli sezgilardan: ko‘rish,eshitish, badan bilan sezish va boshqalardan foydalanishni talab etadi. Buyumni qanchalik har tomonlama idrok qilinsa,o‘quvchilarning shu buyum haqidagi bilimi ham shunchalik to‘la va chuqur bo‘ladi.

Ko‘rsatmalilik tamoyili o‘qitish maqsadlariga mos bo‘lib, materialning mazmuni bilan belgilanadi. Bu materialni o‘rganish esa o‘quvchilarni chinakkam ilmiy va hayotiy muhim bilimlar bilan qurollantirishi kerak. Ko‘rsatmalilik bu bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirib olishga hamda ularning hayot bilan, mehnat amaliyoti bilan bog‘lanishiga yordam beradi.

Mashg‘ulotlarda turli xil ko‘rsatmali qurollarni qo‘llash o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini aktivlashtiradi, ularning diqqatini safarbar etadi. Shuning uchun ko‘rsatmalilik vositalari o‘qitishning hamma bosqichlarida: o‘quvchilarning yangi materialni idrok qilishlarida, bilimlarni mustahkamlashda, tekshirish hamda amaliy faoliyatda va ishda qo‘llashlarida, mehnat ko‘nikmalari va malakalarini hosil qilishda tatbiq etiladi. Bilimlarni iloji boricha ko‘rgazmali va real hayotga yaqin qilib tatbiq etish - bir tomondan tilning tushunarligini va o‘qitish jarayonida audio-vizual vositalardan foydalanishni talab qilsa, ikkinchidan u bevosita ish jarayonida va real holatda o‘qitishni talab etadi.

Hozirgi paytda ta'lim-tarbiya tizimida o’qituvchining tahsil oluvchilar bilan jonli muloqot va munosabati muhim ahamiyatga ega bo’lganligiga qaramay, u yagona axborot manbai bo’la olmasligi hayotiy haqiqat. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya ishini osonlashtiradigan va samaradorligini oshirish omillaridan keng foydalaniladi. Ana shunday omillardan biri o’qitishning texnikaviy vositalaridir.

O’qitishning texnik vositalari deganda ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlik faoliyatini ta'minlab, uning samaradorligini oshirish, ta'minlash maqsadida foydalaniladigan qurilmalar tizimi tushuniladi.

Barcha o’qitishning texnik vositalarini shartli ravishda uch asosiy guruhga bo’lish mumkin.

Audiovizual vositalar (kinoproektsiya, diaproektsiya va epiproektsiyalar, ovoz yozib olish, televidenie, radio);

Jihozlar, uskuna va asboblar;

Dasturli (kompyuterli) ta'lim vositalari.

O’qitishning texnik vositalaridan ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etuvchi komponentlari bilan uzviy bog’liqlik va munosabatlarini hisobga olgan holda

foydalanish zarur. Aks holda mashg’ulot samarasini umuman yo’qqa chiqarish ham mumkin.

Mashg’ulotda o’qitishning texnik vositalaridan foydalanish yordamchi harakterga ega bo’lib, ularni tanlash, ishlatish vaqti va joyi darsning umumiy rejasida maqsadlarga muvofiq ravishda belgilanadi.

Hozirgi paytda ta'lim-tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega bo’lganligiga qaramay, u yagona axborot manbai bo’la olmasligi xayotiy haqiqat.

O’quv xonalarini o’qitishning texnik vositalari bilan jihozlashda quyidagi texnikaviy-pedagogik talablar qo’yiladi:

- o’quv xonalarini o’qitishning texnik vositalari bilan jihozlashda o’quv jarayonida ulardan majmuaviy tarzda foydalanishni hisobga olish zarur;
- o’quv xonasining istalgan joyidan yaxshi ko’rish va eshitish imkoniyatining mavjudligi;
- o’quv xonasida, shovqin, yoritilganlik, namlik me'yorlarini ta'milanishi;
- oddiy, arzon, xavfsiz, uzoq muddat buzilmay ishlashi.

Ta'lim-tarbiya ishida texnik vositalardan foydalanish avvalo didaktik printsiplarga amal qilishni ko’zda tutadi. Masalan, ko’rsatmalilik printsipi real ob'ekt bilan mavhum tasavvurning birligini ifodalaydi.

Real ob'ekt yoki uning tasvirini ko’rish (idrok etish) inson uchun uni bilishning dastlabki va eng oddiy akti hisoblanadi, aniq tasavvurlar va mavhum tushunchalar hosil qilish uchun asos vazifasini o’taydi.

Ta'lim-tarbiya ishida ko’rsatmalilik tamoyiliga amal qilish zaruriyati insonning fikrlash xususiyatidan kelib chiqadi. Insonning fikrlash xususiyati ma'lumdan mavhum tomon rivojlanadi. Tushuncha va mavhum qonun-qoidalar aniq kuzatishlarga asoslansa, ularning mohiyat mazmuni ancha oson va tez shakllanadi. Inson tafakkurining rivojlanishi uning yoshiga, Hayotiy tajribasi kabilarga bog’liq bo’lib, ta'lim-tarbiya jarayonida hisobga olinishi, aniq dalillar va obrazlardan ajralib qolmasligini talab etadi.

Tasviriy ko’rsatmalardan quyidagi hollarda foydalaniladi:

-o’rganiladigan ob'ekt juda katta yoki kichik bo’lganda:

-o’rganiladigan ob'ektni bevosita ko’rish mumkin emas:

-tushuncha va xulosalarni grafik tarzda ifodalash mumkin bo’lganda:

-murakkab ob'ektlarni soddalashtirish yoki ishlash tartibini ko’rsatish zarur bo’lganda:

-ob'ektning eng harakterli zamon va makondagi holatni qayd etish va ko’rsatishda va shu kabilarda.

Ko’rsatmali qo’llanmalarga quyidagi talablar qo’yiladi:

-barcha talabalarga yaxshi ko’rinadigan darajada katta bo’lishi:

-o’quv xonasining istalgan joyidan bemalol o’qilishi:

-muhim detallar va yozuvlarning boshqa diqqatni o’ziga tortuvchi rang bilan alohida bo’yalishi:

-tasvirlar imkon qadar ob'ektning asl rangiga mos bo’lishi:

-tasvirlarning estetik did bilan rasmiylashtirilishi:

-matnning haddan tashqari ko’p bo’lmasligi:

-tasvirlangan ob'ektlarning tabiiy vaziyatda ko’rsatilishi:

-masshtabga rioya qilishi:

-arzon, qulay, uzoq vaqt o’z holatida saqlanishi va shu kabilar.

Shu o’rinda ko’rsatmali qo’llanmadan foydalanish maqsad bo’lmay, balki natijaga erishish vositasi ekanligini unutmaslik zarur.

Ko’rsatmali qo’llanmalardan foydalanishda o’quv materialining mazmuni va vaqtini hisobga olish zarur. Mashg’ulotda ko’rsatmali qo’llanmalardan haddan tashsari ko’p ham foydalanish yaxshi natija bermaydi. Namoyish qilinayotgan materiallarni idrok etish jarayonida tahsil oluvchilar sezgi organlarining (ko’rish, eshitish, hidlash, ta'm bilish) ko’proq jalb etish zarur. O’qituvchining so’zi bilan ko’rsatmalilikning uyg’unligi katta ahamiyatga ega. Ko’rsatmali qo’llanmadan foydalanishganda beriladigan izoh. Tahsil oluvchilar diqqat-e'tiborini asosiy materiallarga qaratilishini ko’zda tutadi.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad, maxsus soha va usullarga mos holda tanlash muhim o’rin tutadi. Eng  muhimi shundaki, amaliyot o’qituvchisi o’quv va ko’rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan  maqsadga

muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo'lishi lozim. Masalan: tikuv mashinasi ishida sodir bo'ladigan nuqsonlarni bartaraf eta bilishi, asosiy sozlanishlarni bajarishi va mashinani ishchi holatiga keltira olish kerak, ya'ni o'z kasbiy sohasining moyhir ustasi bo'lishi kerak. Amaliyot o'ituvchisi o'z kasbiy sohasi uchun qanday materiallar, qanday yangiliklar borligiga, shuningdek, qaysi maxsus sohalarda uning o'zi yangiliklar qila olishi mumkinligi yuzasidan umumiy tushunchaga ega bo'lishi lozim. Ko'pincha o'qituvchilar doska tasvirlari, flipchart tasvirlari va proektor slaydlari kabi vizual vositalarni o'zlari ishlab chiqadilar.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. O'qitishning ko'rsatmaliligi deganda nimani tushunamiz?
2. Ko'rsatmalilik tamoyili haqida nimalarni bilasiz?
3. Mashg'ulotlarda turli xil ko'rsatmali qurollarni qo'llash o'quvchilarning fikrlash faoliyatini aktivlashtiradi deydilar. Siz o`zingizning fikringizni bildiring.
4. Hozirgi paytda ta'lim-tarbiya tizimida o'qituvchining tahsil oluvchilar bilan jonli muloqot va munosabati muhim ahamiyatga ega deydilar. Siz o`zingizning fikringizni bildiring.
5. Barcha o'qitishning texnik vositalarini shartli ravishda nechta asosiy guruhga bo'lish mumkin?
6. O'quv xonalarini o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlashda qaysi texnikaviy-pedagogik talablar qo'yiladi?
7. Tasviriy ko'rsatmalardan qanday hollarda foydalaniladi?
8. Ko'rsatmali qo'llanmalarga qanday talablar qo'yiladi?

## 13.2. Ta’limda o‘quv-ishlab chiqarish vositalari, ta’lim vositalarining rivojlanish istiqbollari, ta’lim vositalari tizimini shakllantirish texnologiyasi hamda ulardan majmuaviy foydalanish.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Nazariy va amaliy mashg’ulotlar, didaktik materiallar sifatida, Oquv va didaktik materiallarni tayyorlash, vaqt va texnik imkoniyatlar, amaliy ko’rsatmalar berish, vositalardan foydalanilanish, tarqatiladigan materiallar tarkibi, doska suratlari, slaydlarni tayyorlash.*

Nazariy va amaliy mashg’ulotlar uchun manba materiali sifatida ishlatiladigan vositalarimiz quyidagicha farqlanadi:

Ko’pincha o’quv materiallari bir paytning o’zida didaktik materiallar sifatida, ya'ni o’qitish,o’rganish uchun ishlatiladi.

O`quv materiallari — ular amaliyot o’qituvchilari tomonidan darsni ko’rgazmali o’tkazish va bilim berish uchun qo’llaniladi

Didaktik materiallar — ular talabalar tomonidan o’rganish uchun qo’llaniladi va o’qituvchisi tomonidan tayyorlanadi

Oquv va didaktik materiallarni tayyorlash deganda, o’qituvchi tomonidan ularning tanlanishi va nazariy yoki amaliy mashg’ulotlar maqsadiga moslashtirilishi tushuniladi.

Agar tayyor vositalar yo’q bo’lsa, u holda ularni o’qituvchining o’zi tayyorlashiga to’g’ri keladi.

O’quv va didaktik materiallarni tayyorlashda amaliyot o’qituvchisi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarini inobatga olgan holda e'tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

-ish varaqalari, tarqatmalar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska tasvirlari uchun eskizlar;

-yozma topshiriqlar, yozma va og’zaki testlar uchun so’rov qog’ozlari;

- baholash varag’i, nazorat qog’ozi;
- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar.

Nazariy darslarni o’tkazish paytida amaliy ko’rsatmalar berilgan quyidagi vositalar ishlatiladi:

| **Turi** | **Ishlatish uchun ko‘rsatmalar** |
|---|---|
| O’quv kitoblari | Kitobning muayyan betlarini belgilab,dars rejasiga kiritiladi |
| Tarqatma materiallar | Oq’uv kitoblaridan yoki boshqa manbalardan saylanma nusxalar tayyorlanadi va ko’paytiriladi. |
| Doska tasvirlari | Mavzu va grafiklarga eskizlar tayyorlash |
| Slaydlar | Ular nusxalash apparatida yoki kompyuterda tayyorlanadi |
| Modellar | Ustaxonadagi har bir predmet yaroqli – ham yaxshi ham yomon mahsulotlari ko’rsatilishi lozim. |

Amaliy mashg’ulotlar yoki amaliy ish jarayonlari paytida amaliy ko’rsatmalar bilan to’ldirilgan quyidagi vositalardan foydalaniladi:

| Turi | Ishlatish uchun ko’rsatmalar |
|---|---|
| Texnik chizmalar (kinematik sxemalar,konstruktiv chizmalar) | buning uchun asl nusxalari maxsus jildlarda to’planadi. |
| Ekspluatatsion ko’rsatmalar | nusxalardan tarqatmalar va slaydlar tayyorlash uchun ishlatiladi. |
| Ish rejalari va boshqa hujjatlar | faqat nusxalar ishlatiladi,asl nusxalari esa toza saqlanadi |
| Modellar,real jihozlar asboblar va | yaroqli va yaroqsiz jihozlar,yaxshi va yomon |

| | |
|---|---|
| mahsulotlar | mahsulotlar sifatiga nisbatan yuzaga kelgan farqni ko'rsatib berishi mumkin. |

O'qituvchi uchun materiallar nafaqat sohaga tegishli ma'lumotlarni, balki tashkiliy ishlar, usul va natijalarni baholash borasidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi.

Talabalar uchun materiallar esa qoida bo'yicha faqatgina sohaga tegishli jihatlarni o'z ichiga oladi.

Didaktik materiallar faqatgina talabaga mo'ljallangan bo'lsa, o'qitish materiallardan farq qilishi mumkin. Masalan:topshiriqlar varaqlari, savolnomalar, yo'naltiruvchi usul savollari va muayyan tarqatma materiallar.

Talabalarga tarqatiladigan materiallar tarkibida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- sodda tilda yozilgan o'quv mazmunlari;
- matnlarda bo'sh qoldirilgan joylar (talabalar tomonidan to'ldirilishi uchun);
- talabaning erkin fikrlashiga imkoniyat beruvchi savollar;
- ustaxonada ishlash uchun mo'ljallangan, ish bosqichlari ko'rsatilgan tushunarli chizmalar(eskizlar) va jadvallar;
- material, jihoz, asbob-uskunalar va yordamchi vositalar haqida ma'lumotlar.

Matn tayyorlash bo'yicha eng yangi usullardan biri bu matnlarni ranglar bilan ajratish sanaladi:

- oq qog'ozlar: mazmuniy jihatlar borasida matnlar (o'qituvchi va talabalar uchun);
- yashil qog'ozlar: talabalarga topshiriqlar;
-vqizil qog'ozlar: o'qituvchining uslubiy hujjatlari va topshiriqlarning javob varaqalari.

Ranglarni kodlash hujjatlaridan foydalanishni yengillashtiradi. Xuddi shu usuldan mazkur seminar hujjatlarini tayyorlashda ham foydalaniladi.

O'qitish jarayonidagi eng muhim vositalar doskalar, flipchartlar va kodoskop (proektor) hisoblanadi. O'qituvchi bu vositalar orqali ko'rgazmali tus beriladigan namunalar yaratishi kerak. Bo'r bilan yoziladigan doska uchun avval qog'ozda ishlangan va matnlar bilan to'ldirilgan suratlar, flipchartlar uchun esa qoida bo'yicha taqdimot namunalari bo'lishi mumkin. Proektor slaydlari to'g'ridan-to'g'ri tayyorlanishi mumkin.

Doska suratlari uchun namunalar asosan o'quv kitoblaridan olinishi yoki shaxsiy qarashlaridan kelib chiqqan holda tayyorlanishi mumkin. Bunda ko'p vaqt sarf etmasdan oddiy shakllar orqali tuzilgan grafiklar, sxemalar, diagramma va shu kabilarni doskaga chizish mumkin. Matnlar uchun namunalar tayyorlash shart emas.

Shunga o'xshash tarzda flipchart suratlarini tayyorlash mumkin. Bu usul nazariy dars yoki amaliy mashg'ulot tayyorlanishni yengillashtiradi.

Flipchart bloklarini birga olib yurish mumkinligi tufayli tasvirlar qog'ozlarga to'g'ridan-to'g'ri tushirilishi mumkin.

Proektor slaydlari qo'lda, fotonusxalar yoki kompyuter yordamida maxsus shaffof plyonkada tayyorlanadi.

Slaydlarni tayyorlash uchun:

- oddiy atsetat yoki qog'ozi-shaffof sun'iy qog'oz;
- nusxa olish mumkin bo'lgan maxsus qatlamli slaydlar;
- flamaster, permanent va suvda eruvchan slaydlarni tozalash uchun spirt;
- surat chizish moslamalari (shablon, chizg'ich va boshsalar)lar ishlatiladi.

Slaydlarni qo'lda tayyorlash uchun:

- surat yoki matnni qog'ozga eskizlanadi
- slaydni uni ustiga qo'yib, skrepka bilan mahkamlab
- namunadagi surat slaydga ko'chiriladi.



### *Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:*

1. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun manba materiali sifatida ishlatiladigan vositalarimiz qanday farqlanadi?
2. O'quv va didaktik materiallarni tayyorlashda nimalarga e`tibor berish lozim?
3. Nazariy darslarni o'tkazish paytida qanday amaliy ko'rsatmalar ishlatiladi?
4. Amaliy mashg'ulotlarda qanday amaliy ko'rsatmalardan foydalaniladi?
5. Talabalarga tarqatiladigan materiallar tarkibida qanday ma'lumotlar bo'lishi lozim?
6. Slaydlarni tayyorlash uchun nimalarga e`tibor berish lozim?

### *Foydalanilgan adabiyotlar*


1. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi. O'quv qo'llanma. O'MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
2. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
3. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDPU, 2007y.
4. Olimov Q. T. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. –T.: 2006. 164 b.
5. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
6. www.inter-pedagogika.ru
7. www.didaktika.ru
8. www.School. edu. uz
9. www.Ppsy. ru
10. www.Bank/referat. ru

# MAVZU 14. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA ISHLAB CHIQARISH TA`LIMI.

***O'quv maqsadi*** ⇒ *Ijtimoiy foydali mexnat bilan ijtimoiy foydali unumli mexnatni qiyosiy taxlili, ishlab chiqarish texnologiyasiga oid ma'lumotlarni nazariy jihatdan o'rganish*

## 14.1. Ijtimoiy foydali mexnat bilan ijtimoiy foydali unumli mexnatning qiyosiy taxlili, kollejlarda ishlab chiqarish ob'ektlari.



***Tayanch so'z va iboralar:***

*Fan-texnika taraqqiyoti, mehnatdagi asosiy o'zgarish, asosiy funksiya, ishlab chiqarish faoliyati, mupakkab muammolar, ijtimoiy foydali mexnat, o'zaro hamkorlik, ijtimoiy foydali mexnat, shaxs faoliyati, moslashuv prinsiplari.*

Fan-texnika taraqqiyoti davrida o`quvchilarning mehnat qilish sharoiti o'zgaradi, chunki ishlab-chiqarish jarayonida o`quvchining bajaradigan faoliyati, dunyoqarashi, o'rni o'zgaradi. Ushbu o'zgarishlar ishlab-chiqarish bosqichlarining rivojlanishi yangi mayllarning o'sishiga olib keladi. O`quvchi ushbu rivojlanishdan foydalangan holda yangicha ishlashni hohlaydi. O`quvchilarda yuzaga kelayotgan o'zgarishlarning kuchayishida ishlab-chiqarish omillari kuchli rol o'ynaydi. Buning asosida jismoniy mehnat, ya'ni insonning bajaruvchilik funksiyasi yotadi.

Mehnatdagi asosiy o'zgarish, avvalambor, o`quvchilarning jipsligidan kelib chiqadi. Malumki, ishlab-chiqarish jarayonida inson, asosan 5 ta asosiy funksiyani bajaradi:

- o`quvchi o'z jismoniy harakati bilan aylantiruvchi va harakatlantiruvchi harakatlar hosil qilish uchun mehnat qurollarini ishlatadi;
- mehnat qurollarini boshqaradi va ularga ta'sir ko'rsatadi;
- ularni to'g'rilaydi va tamirlaydi;
- ularni loyihalashtiradi va ishlab-chiqarish jarayoniga tatbiq qiladi.

Mehnatni boshqarishda zamonaviy o`quvchiga 1- va 2-funksiyalar doirasidagi ko‘rsatkichlar ahamiyatli bo‘lishi bilan bir qatorda mehnatning mazmuni va ijodiyligini oshirishda 3-4-funksiyalar ham muhimdir.

O`quvchilarning kasbiy ishlab chiqarish faoliyatiga moslashuv jarayoni ta’lim tizimining uzviy davomi deb hisoblash mumkin. Ijtimoiy foydali mexnat bilan ijtimoiy foydali unumli mexnat faoliyatiga moslashuv yordamida inson hayotiga, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishiga ma’lum ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ishlab chiqarishga moslashuvning ijtimoiy uyg‘unlashuvi esa, texnikani taraqqiy ettirishning muhim omili hisoblanadi.

Bo‘lajak kichik mutaxassislarni tayyorlashdagi mupakkab muammolar qatorida ijtimoiy foydali mexnat bilan ijtimoiy foydali unumli mexnat faoliyatiga moslashuv ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ayniqsa, ta’limni modernizasiyalash bilan bog‘liq islohotlarning joriy bosqichida  ijtimoiy foydali mexnat bilan ijtimoiy foydali unumli mexnat faoliyatiga moslashuv muammosi yanada yorqin va aniq namoyon bo‘lmoqda. Bo‘lajak  kichik mutaxassislar tayyorlashning mazmuni kasbiy, amaliy, psixologik, metodik, tadqiqiy faoliyat turlari bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayoniga moslashuv bilan boyib bormoqda.

Bugungi ijtimoiy foydali mexnat bilan ijtimoiy foydali unumli mexnatga moslashuv "ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oluvchi ijtimoiy tizim elementi" sifatida yondashadiki, buning natijasida kasbiy moslashuv vujudga keladi. Kasbiy moslashuv deganda shunday dunyoqarash mavjudki, ijtimoiy shaxs, jamiyat ehtiyojini qondirish maqsadida harakat qiluvchi insonning mohiyat kuchi rivojlanishi yo‘llari va natijalarining tarixiy aniq tizimi tushuniladi.

"Ishlab chiqarishga moslashuv" tushunchasini oydinlashtirishda inson faoliyatining natijasi sifatidagi talqinini tushunishgina emas, balki uning tashuvchisi sifatida insonning o‘ziga urg‘u beriladi, muayyan moddiy-ma’naviy qadriyatlar esa, subyekt kasb-hunarni rivojlantirishning vositasi va usullari sifatida qaraladi. Shu jihatdan olganda moslashuv atamasini "individning meyoriy rivojlanishi" sifatida tushunish mumkin. Ijtimoiy foydali mexnat bilan ijtimoiy foydali unumli mexnatga moslashuv ikki asosiy shaklda namoyon bo‘ladi:

birinchidan, inson tomonidan yaratiladigan moddiy va ma’naviy boyliklarga ishtiroki natijasi, ikkinchidan, - inson shaxsining haqiqiy boyliklari.

Inson kuchi-qudrati mehnat faoliyati, ong, axloqiy ijtimoiy munosabatlarning yaxlit tizimi bilan belgilanadi, jamiyatning birinchi tahliliy kesimiga muvofiq, bir tomondan, ijtimoiy turmush, bazis bilan va ikkinchi tomondan ijtimoiy ong va usquna bilan belgilanar ekan, - an’anaviy ravishda jamiyatning moddiy va ma’naviy tayyorgarligi ilgari suriladi. Ishlab chiqarish jarayoniga moslashuv o‘z navbatida sifat jihatlari faoliyati bilan bog‘liqdir.

Faoliyat, umuman olganda – bu jonli tizimlarning tashqi muhit bilan o‘zaro hamkorligi asosidagi adaptiv yo‘naltirilgan faolligidir. Inson faoliyatiga kelganda esa, uni odamlarning ijtimoiy yo‘naltirilgan faoliyati sifatida belgilash mumkin. Moslashuv esa - mana shu faoliyat usulining o‘zginasidir. Haqiqatdan ham istalgan ishlab chiqarishga moslashuv, u ijtimoiy faoliyat bo‘ladimi, individual faoliyat bo‘ladimi, qanday bo‘lmasin faoliyatni taqozo etadi, biroq har qanday faoliyatni emas, balki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, texnikaviy sohalaridagi ijobiy o‘zgartirishlarni nazarda tutuvchi "faoliyat usuli"nigina ishlab chirarishga moslashuv sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Ishlab chiqarishda ijtimoiy foydali mexnat bilan ijtimoiy foydali unumli mexnat moslashuvini rivojlantirish usuli sifatidagi faoliyat, eng avvalo, ma’naviy, kasbiy-ijodiy faoliyatni o‘z ichiga oladi. Mana shu faoliyat davomida madaniy qadriyatlar yaratiladi. Aynan ishlab chiqarish jarayoniga moslashuv insonning aktiv faoliyati shaklida ijtimoiy rivojlanish va inson shaxsi shakllanishining omiliga aylanadi. Chunki, shaxs faqat ma’naviy faoliyat jarayonida shakllanadi.

Shaxsning chinakam ijtimoiy foydali mexnat bilan ijtimoiy foydali unumli mexnatining ishlab chiqarishga moslashuvi to‘g‘risida ko‘plab ta’limiy sifatlar, shu jumladan qadriyatlar bipgalikda, jamuljam namoyon bo‘lgan taqdirdagina so‘z yuritish mumkin. O‘zligini anglash faoliyati shaxsning yuksak faolligi ko‘rsatkichlaridan biri ekanligini qo‘shimcha qilmoqchimiz. Busiz shaxsning mustahkam qadr-qimmatli yo‘nalishlarini va yangicha tafakkurni tarbiyalash mumkin emas. O‘zligini anglash faoliyatning umumiy darajasi, qadriyatlarni

tushunishdagi muayyan birlik kishilarning o‘zaro bir-birlarini tushunishlari uchun ham shart-sharoit yaratadi, mezonlarning umumiyligini belgilab beradi. Ana shu mezonlar yordamida shaxs o‘zini, o‘z fazilatlari va nuqsonlarini baholaydi, tegishlicha jamiyatdagi munosabatlar shakllanadi, o‘zaro ishonch va ijodiy faoliyat uchun qulay muhit yaratiladi. Shunday qilib, o‘zini anglash faoliyati – bu inson tomonidan o‘z turmush tarzini, aniq hayotiy vaziyatlardagi hatti-harakatlarini erkin tanlashining, u yoki bu ijtimoiy masalalarni hal etish chog‘ida o‘z nuqtai nazarini aniqlashning ma’naviy shart-sharoitidir.

Shaxs faoliyati ma’naviy ishlab chiqarish sohasi bilan belgilangan holda ham ongning, ham o‘z-o‘zini anglashning shakllanishi va namoyon bo‘lishini, shuningdek tafakkur faoliyatini qamrab oladi.

Kasbiy faoliyat meyorlari dunyoqarash bilan bog‘liq ko‘rsatmalarning maxsus uzatuvchisi bo‘lishi mumkin. Kasb-kor faoliyati va unga moslashuv meyorlari kasb-hunar faoliyati va muomala jarayonida dunyoqarash tusini kasb etib, odatiy faoliyat meyorlari va kasb-kor tafakkuri meyorlarining o‘zaro munosabati muammolari orqali shakllanadi.

Kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatiga moslashuvini shakllantirishning asosiy sharti, bizning fikrimizcha, unda ijtimoiy foydali mexnat bilan ijtimoiy foydali unumli mexnat faoliyatining moslashuvga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirishgina emas, balki uning o‘z "mendan" iborat kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatiga moslashuvini idrok etishga tayyorligi ham hisoblanadi.

O‘quvchi ijodiyoti muammolarini tadqiq etuvchi Drager kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvning quyidagi prinsiplarini ko‘rsatadi:

- ijodiy tafakkur va harakat birligi;
- ijodiy faoliyatda individuallik va ijtimoiylikning birligi;
- onglilik va intellektuallik birligi.

Ijodiy fikrlash muammoni ko‘ra bilishdan, vazifa bilan uni hal etishning mavjud bo‘lmagan yo‘li o‘rtasidagi, tan olingan ijtimoiy, yoki individual zaruriyat bilan uni amalga oshirishning mavjud bo‘lmagan imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyatni anglashdan boshlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy foydali mexnat bilan ijtimoiy foydali unumli mexnat moslashuvi haqida yuqorida keltirilgan aniqlashlarni tahlil qilish uning ijtimoiy tomonlarining asosiy belgilarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Ular quyidagilardir:

- birinchidan, ijtimoiy foydali mexnat bilan ijtimoiy foydali unumli mexnat faoliyatiga moslashuv o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini ifodolaydi va o‘quvchining malakasi ishlab chiqarish faoliyatining sifat ko‘rsatkichi hisoblanadi;
- ikkinchidan, ijtimoiy foydali mexnat bilan ijtimoiy foydali unumli mexnat faoliyatiga moslashuv o‘quvchi tafakkurining shakllanish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi;
- uchinchidan, ijtimoiy foydali mexnat bilan ijtimoiy foydali unumli mexnat faoliyatiga moslashuv o‘zida nafaqat yakunni, balki kasbiy faoliyat jarayonida o‘quvchining qayta o‘zgarishi jarayonini ifodalaydi.

Kasb-hunar kollejlarida ishlab chiqarish obyektlari - ilmiy tadqiqotlar - texnika - kasb ta’limi - ishlab chiqarish integrasiyasi ta’lim integrasiyasining asosiy yo‘nalishi sifatida didaktik moslangan ko‘rinishda ham namoyon bo‘ladi. Ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish obyektlari ixtisoslik turkumidagi o‘quv predmetlari doirasida umumiy va kasbiy ta’lim mazmunining shakllanish manbalaridan biri hisoblanadi va asosiy ilmiy bilimlar majmuida o‘z aksini topadi. Zamonaviy ilmiy bilimlarga oid g‘oyalardan biri ularni ishlab chiqarish obyektlari hisoblanadi. Ishlab chiqarish obyektlari o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimining rivojlanishida ham o‘z aksini topishi zarur.

Fan - texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida ishlab chiqarish obyektlarining shakllanish manbalari kasb ta’limida o‘rganiluvchi tabiiy, texnik, pedagogik, metodik, gumanitar va boshqa fanlar orqali o‘zlashtirib olinuvchi umumiy ilmiylik tusini beruvchi tushunchalar hisoblanadi. Zero ta’limining, jumladan kasb ta’limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan ishlab chiqarish obyektlari ko‘p tushunchalarga umumiy ilmiy tus berish va uni shakllantirish asosida namoyon bo‘lmoqda.



### *Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:*

1. Nima uchun fan-texnika taraqqiyoti davrida o`quvchilarning mehnat qilish sharoiti o‘zgaradi?
2. Ishlab-chiqarish jarayonida inson, asosan nechta asosiy funksiyani bajaradi?
3. O`quvchilarning kasbiy ishlab chiqarish faoliyatiga moslashuv jarayoni ta’lim tizimining uzviy davomi deb hisoblash mumkinmi? Misollar bilan isbotlang.
4. Bugungi ijtimoiy foydali mexnat bilan ijtimoiy foydali unumli mexnatga moslashuv qandayamalga oshirilmoqda? Misollar keltiring.
5. "Ishlab chiqarishga moslashuv" tushunchasini oydinlashtirishda inson faoliyatining natijasi sifatidagi talqinini misollar bilan tushuntirib bering.
6. Faoliyat deganda nimani tushunamiz?
7. Shaxsning chinakam ijtimoiy foydali mexnat bilan ijtimoiy foydali unumli mexnatining ishlab chiqarishga moslashuvi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
8. Kasbiy faoliyat meyorlari dunyoqarash bilan bog‘liq ko‘rsatmalarning maxsus uzatuvchisi bo‘lishi mumkin. Siz nima deysiz? O`zfikringizni bildiring.
9. Ijtimoiy foydali mexnat bilan ijtimoiy foydali unumli mexnat moslashuvining asosiy belgilarini ajratib ko‘rsating.

## 14.2. Ishlab chiqarish texnologiyasi, shartnoma tuzishning me’yoriy-xuquqiy asoslari, o‘quvchilar mexnatini rag‘batlantirish yo‘llari



### *Tayanch so‘z va iboralar:*

*Mehnatdagi asosiy o‘zgarish, zamonaviy ishchi, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, ishlab chiqarish amaliyoti, ijtimoiy hamkorlik, ishlab chiqarish korxonalari, kasb-hunar sohasidagi hamkorlik, shartnomalarning ob’yektlari, kengashlar faoliyati, mehnat bozorini baholash.*

Oxirigi yillarda turli xil stanoklarda ishlay oluvchi, uni tamirlay oluvchi, mahsulot sifatini yuqori qilish uchun lozim asboblar orasidan qulayini tanlay olib ishlatadigan ishchilarga talab ortib bormoqda. Ushbu ishchilar mehnat qilish jarayonlari va koʻp imkoniyatdan qulayini tanlay olishi kerak.

Bunday ishchilar, yaʼni, tamirlovchilar eski tushuncha boʻyicha oliy bajaruvchi emas.

Ushbu ishchilar bajaruvchanlik bilan bir qatorda yangi texnologiyaning rivojlanishi va ishlab-chiqarishni boshqarishda muhim rol oʻynaydi.

Ularga qulay vaziyatlarni topish jarayonida quyidagi talablar qoʻyiladi:

- pnevmatika, dinamika, elektrotexnikani, fizikani hech boʻlmaganda oʻrta maktab taʼlim oluvchisi darajasida bilishlari kerak;
- yaxshi texnologik tayyorgarlikka ega boʻlishlari kerak;
- metall va nometall materiallarning nomlanishi va xususiyatlarini bilishlari kerak;
- kesuvchi asboblarning zoʻriqishiga chidamliligini bilishlari kerak;
- avtomatik liniyada ishlovchi har xil tipdagi stanoklarda ishlagani uchun ularning ishga tayyorgarligi hamda ularning rejalashtirilganligini bilishlari kerak. Ular shunday holatlarga tushadilarki, oqibatda turli xil nosozliklarni yechishga toʻgʻri keladi. Shuning uchun ular yuqori malakali boʻlishlari kerak;
- jamoa uchun sharoit yaratib berish, tamirlash ishini qisqa vaqtda tugallashlari kerak;
- ular ijtimriy -iqtisodiy bilimlarga ega boʻlishlari kerak;
- brigadaning ish rejasini tuza olishlari kerak;
- ular jamoa bilan yaxshi muomalada boʻlishlari, yaʼni tillasha olishlari kerak;
- ular qanday oʻzgarishlarlarga tayyor turishlari va boshqa brigadaga oʻtib ishlash lozim boʻlganda ishlab keta olishlari shart;
- ishchilarning bajaruvchanlik funksiyasi kamayib, aqliy mehnati ulushlari ortishi kerak;

- ishchilar mehnatida aqliy mehnat va fizik funksiyaning organik birikmasi, ya’ni, hisoblash, to‘g‘rilash, analitik va nazorat funksiyalarini bajaruvchi, texnik jarayonni o‘lchovchi va tekshiruvchi, avtomatlashtiruvchi asboblar yordamida boshqara ola bilishlari lozim;

- yuqori malakali va keng tarmoqli ishchilar funksiyalarining qo‘llay olishlari kerak;

- madaniyat, texnika va fanning rivojlanishida mehnat umumdorligining oshishi;

- umumiy faoliyati va ishlab-chiqarish holatlariga moslashuvchanlik;

- o‘rganish jarayonida tizimli ravishda malakasini oshirish evaziga keyingi ish faoliyati malakasining oshishini taminlab berish.

Yuqori malakali ishchilar zamonaviy ishlab-chiqarishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, ularning rasionalizatorlik va ijodkorlik xususiyatlari asqotadi. Bunday ishchilarning paydo bo‘lishi shundan darak beradiki, insonning ishlab-chiqarish va texnik jarayondagi rivojlanishi, bilimlarining kengayishi, chuqurlashishi va malakasining oshib borishini taqozo etadi.

Ijtimoiy hamkorlik – deganda jamiyat, yoki malum ommaning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa ehtiyojlarini qondirishga oid faoliyat bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishda bir-biriga ko‘mak berish tushiniladi. Ijtimoiy muloqot ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirishning asosiy mexanizmi hisoblanib, u ijtimoiy, iqtisodiy, manaviy-marifiy, texnik- texnologik va shu kabi yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin. Hayotiy tajribalar va tahlillarimiz ijtimoiy hamkorlik bevosita kasb-hunar ta’limi sohasi uchun ham xos xususiyat ekanligidan dalolat bermoqda. Bu holat bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada yorqinroq namoyon bo‘lib, hamkorlikni teng huquqliligi, manfaatdorligi asosida amalga oshiriladi.

**Ta'lim muassasalarining o'quvchilar ishlab chiqarish amaliyoti haqida namunaviy shartnoma**

_________ ________________2020 y.

Buxoro yengil sanoat va pedagogika kasb-hunar kolleji direktori ______________________ bundan keyin «o'quv muassasi», bir tomondan va Qurilish tresti boshlig'i___________ ikkinchi tomondan, bundan keyin «Korxona» quyidagi shartnomani tuzishdi:

1. «O'quv muassasi» yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun dasturlar va o'quv rejasiga asoslanib, «qurilish ishlari» kasbi bo'yicha 20 o'quvchidan iborat A-21 guruhini 10 dekabr 2013 yildan 15 yanvar 2014 yilgacha ishlab chiqarish amaliyotini o'tashga yo'llaydi. O'quvchilar ro'yxati ilova qilinadi.

2. «O'quv muassasi», «Ishlab chiqarish amaliyoti Nizomi»ga binoan o'quvchilarning dastlabki kasbiy tayyorgarligini, texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni, ish sharoiti qoida tartiblarini saqlashni, uskunalarni ehtiyotgarlik bilan boshqarishlariga bo'lgan munosabatlarini ta'minlaydi. O'quvchilar ishlab chiqarish amaliyoti davrida «Korxona»ning ichki tartib qoidalariga to'liq bo'ysinishadi.

«O'quv muassasasi» ustoz orqali o'quvchilarning o'quv ishlarini tashkil qiladi va ularga uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi.

3. «Korxona» bajaradi:

a) o'quvchi - amaliyotchilarga zarur bo'lgan jihozlar bilan jihozlangan ish joylarni, ishlab chiqarish topshiriqlari, hujjatlar va boshqalar bilan ta'minlaydi. O'quvchilarni kasbga oid bo'lmagan boshqa ishlarga jalb qilmaydi va ularning bo'sh, bekorchi bo'lishlariga yo'l qo'yilmaydi;

b) «Korxona»da qabul qilingan meyorlar, talablar bo'yicha o'quvchilarni maxsus kiyimlar, shaxsiy xavfsizlik vositalari bilan ta'minlaydi. Ish sharoitini sanitariya gigiyena talablari asosida ta'minlaydi.

c) o'quvchilarning bajargan ish natijalarini qat'iyy hisobga olib boradi. O'quvchilarning ishlab topgan xaqlari qaydnomasi asosida har oyda «O'quv muassasa» hisob raqamiga pullarni o'tkazib turadi;

d) o‘quvchilarning va ustozning yo‘l xarajatlarini to‘laydi.

4. Agarda, shartnomada ko‘rsatilgan talablar «Korxona» tomonidan bajarilmasa u holda «O‘quv muassasa» o‘qtuvchilarni ishlab chiqarish amaliyotidan chaqirib olishlari mumkin.

5. Agarda, ishlab chiqarish amaliyoti davrida o‘quvchilar «Korxona» ichki qoidalarini buzishsa, u holda «Korxona» rahbariyati ularni ishlab chiqarish amaliyotidan chetlatib, «O‘quv muassasasi»ga qaytarib yuborishlari mumkin.

6. Tomonlarning qo‘shimcha shartlari _______________

7. Tomonlar tomonidan paydo bo‘lgan kelishmovchiliklar qabul qilingan meyorlar asosida hal qilinadi.

8. Shartnoma muddati ___________dan__________gacha

Korxona rahbari                    O‘quv muassasasi rahbari

O`quvchilar mexnatini rag`batlantirish yollari ko`p qirralidir. Manfaatlarni muvofiqlashtirishda eng avval moddiy rag‘bat sifatida ish haqi, tomonlar kelishishi, shart-sharoit, tomonlar burchi va huquqlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga binoan ishlab chiqiladi va u ish beruvchilar va ta’lim muassasalari bilan cheklanib qolmasdan, boshqa ko‘plab tomonlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Chunki, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi: yuqori malakaliligi, keng ixtisosligi, yangi shart-sharoitga tez fursatlarda moslashishi, mustaqilligi, ishbilarmonliligi, faolligi, ijodkorligi kabilar bozor munosabatlari sharoitida mutaxassisni ijtimoiy himoyalash omillari sifatida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Demak, yuqorida sanab ko‘rsatilgan xislatlar kasbiy tayyorgarlik ko‘rish jarayonida shakllanishi zarur. Bunga faqat davlat tomonidan ajratilgan mablag‘ bilan to‘liq erishish imkoniyati mavjud emasligi isbot talab etmaydigan hayotiy haqiqatdir. Shuning uchun ham mustaqil respublikamizda kechayotgan tub o‘zgarish va bozor munosabatlari bilan uyg‘un (mos, mushtarak, adekvat) likni ta’min etuvchi ijtimoiy hamkorlik mexanizmini ishlab chiqish hamda amalda joriy etish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Ishlab chiqarishning mutaxassis kadrlarga qo‘ygan talablari shubhasiz kasb-hunar ta’limida asosiy mo‘ljal (maqsad va vazifa) bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonda bevosita inson omilining ishtirok etishi o‘z novbatida ijtimoiy muloqot, munosabat va o‘zaro kelishuvni talab etadi.

Kasb-hunar kollejining ijtimoiy hamkorlik sohasidagi ishning natijasi va samaradorligining indiktorlari sifatida quyidagi ko‘rsatkichlar xizmat qilishi mumkin:

- bitiruvchilarning mehnat bozorida talab qilinishi. Ishga joylashishning aniq-ravshan foizlari haqida gapirishi ancha qiyin, chunki mehnat bozoridagi vaziyat juda o‘zgaruvchan va ko‘p omillarga bog‘liq. Shunga qaramay, masalan, ta’lim muassasasining yangi sheriklik aloqalari o‘rnatishi bo‘yicha ish boshlangan paytidan boshlab o‘tgan davr mabaynida bitiruvchilarning ishga joylashish ko‘rsatkichlari dinamikasi bo‘yicha ijtimoiy hamkorlikning mutaxassislar tayyorlash sifatiga ta’siriga qandaydir baholar berish mumkin;
- kasb-hunar kollejining ta’lim xizmatlari bozorida talab qilinishi va sh.k.

Ijtimoiy hamkorlik tizimi ishining samaradorligiga mazkur o‘quv muassasasi ishlayotgan ta’lim xizmatlari bozori segmentining kengayib borayotganligiga qarab baho berish mumkin. Bu o‘rinda so‘z o‘quvchilar kontingentining ko‘payishi, qo‘shimcha tarzda turli toifadagi tinglovchilarning-talabalar va o‘quvchilardan tortib ishsizlargacha va kasb-hunar bo‘yicha qayta tayyorlovdan o‘tishga intilayotgan aholigacha jalb etish haqida boradi. Tabiiyki, turli ta’lim dasturlari milliy va mitaqaviy ta’lim muassasa va bandlik xizmatlari byudjetlaridan tortib to fuqarolarning shaxsiy mablag‘larigacha turli moliyalashtirish manbalariga ega bo‘lishlari mumkin.

- Har xil turdagi ta’lim xizmatlarini amalga oshirish hisobiga byujetdan tashqari moliyalashtirishning amalga oshirilishi.

Turli toifadagi ijtimoiy hamkorlarning vakillari bilan shartnomalarning mavjudligi kasb-hunar kolleji ishining samaradorlik ko‘rsatkichlaridan biri sifatida xizmat qilishi mumkin. Tabiiyki, shartnomaviy munosabatlar amaliy xususiyatini

baholash mumkin bo'lishi uchun bunday ko'rsatkich boshqa indikatorlar bilan bir majmuada qaralishi lozim. Bunday shartnomalarga quyidagi bitimlar kiradi:

- o'quvchilarga amaliy bilim berish;
- o'quv muassasasi xodimlarining ishlab chiqarish korxonalarida malaka oshirishi;
- bitiruvchilarni ishga joylashtirilishi;
- o'quv-uslubiy va o'quv-tarbiyaviy ishlar sohasida hamkorlik;
- ijtimoiy hamkorlar ishtirokida o'qituvchilar attestasiyasi;
- uzluksiz ta'lim va hokazo.

Kasb-hunar kollejining hisobot-rejalashtirish va meyoriy hujjatlarida ijtimoiy hamkorlik bo'yicha tadbirlarning mavjudligi. Agar,, kasb-hunar kollejida ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish borasidagi ishlar hujjatlarda qayd etib qo'yilsa, bu yo'nalishdagi faoliyat ancha tezroq boradi.

Aks holda mehnat bozorini baholash, o'qituvchilar stajirovkasini tashkil etish, ishlab chiqarish korxonalari vakillarining attestasiyaning har xil turlarida ishtirok etishi va boshqalar oddiy istaklarga aylanib qolishi yoki izchil xususiyatga ega bo'lmay tarqoq lavhalar tarzida amalga oshirilishi mumkin.

Shunday qilib, ta'lim muassasalarida ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) ta'lim muassasalarida ijtimoiy hamkorlikning shakllantirilishi va rivojlantirilishi, eng avvalo, ta'lim muassasalari rahbariyatining tashabbusiga bog'liq;

2) ijtimoiy hamkorlikning samaradorligi ish beruvchilar bilan ta'lim tizimi o'rtasidagi doimiy va tezkor aloqalar mavjud bo'lgandagina namoyon bo'ladi;

3) ta'limda ijtimoiy hamkorlikning shakllanishi va rivojlanishiga quyidagi holatlar to'sqinlik qilmoqda:

- respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv darajalarda ta'lim muassasalari bilan ish beruvchilar o'rtasida o'zaro ta'sirning oqilona mexanizmi ishlab chiqilmaganligi;

- ta'lim muassasalarining ish beruvchilar (ularning vakillari) bilan o'zaro birgalikda faoliyat ko'rsatish mexanizmi kadrlar tayyorlash uchun mas'ul bo'lgan muassasalar bilan ulardan oqilona foydalanish uchun mas'ul bo'lgan korxonalar o'rtasida shartnomaviy munosabatlarni kuchaytirish hamda ta'lim muassasalari dasturlarini korxonalarning o'zgarib borayotgan malakaviy talablariga moslashtirish jihatdan ishlab chiqarishni davom ettirishga bo'lgan muhtojlik;
- ish beruvchilarning o'zlari uchun malakali kadrlar tayyorlashdan iqtisodiy manfaatdorligini oshirish mexanizmini ishlab chiqilmaganligi;
- ta'lim muassasalari tomonidan kadrlar tayyorlashning bozor boshqaruvi mexanizmlarining zaifligi faoliyat ko'rsatmoqda.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ijtimoiy hamkorlik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari ish beruvchilarning malakali kadrlarga bo'lgan talabining shakllanish tamoyillariga ham bog'liq ish beruvchilarning malakali kadrlarga bo'lgan talabi quyidagi tamoyillar bilan belgilanadi:

- korxonalar ishlab chiqarishning yangi xodimlardan yuksak bilimlarga va kasb-hunar ko'nikmalariga ega bo'lishni talab qiluvchi texnologiyalarni o'zlashtirishi bilan;
- malaka talab qilmaydigan mehnat ulushining kamayishi va yuksak malakali xodimlarga bo'lgan ehtiyojning o'sishi bilan;
- ishlab chiqarish jarayonlarining moslashuvchanlik darajasining o'sishi va xodimlarning oraliq kasblar va mutaxassisliklarni egallashlari zarurligini taqozo etishi bilan.

***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Fan-texnika taraqqiyoti davrida ishchilarning mehnat qilish sharoiti haqida nimalarni bilasiz? Izohlab bering.
2. Mehnatdagi asosiy o'zgarishlar nimadan iborat? Tushuntirib bering.
3. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida kasbiy ta'lim tizimini isloh qilish deganda nimani tushunasiz?

4. Ta’lim muassasalarining o‘quvchilar ishlab chiqarish amaliyoti haqida namunaviy shartnoma to’g’risida nimalarni bilasiz? Izohlab bering.
5. Manfaatlarni muvofiqlashtirish deganda nimani tushunasiz? Izohlab bering.
6. Ishlab chiqarishning mutaxassis kadrlarga qo‘ygan talablar nimadan iborat? Izohlab bering.
7. Ta’lim muassasalarida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy hamkorlik ishlari nimadan iborat?
8. Kengashlar faoliyati haqida nimalarni bilasiz? Tushuntirib bering.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
2. 2017-2021yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
4. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
5. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.
6. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.
7. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
8. www.inter-pedagogika.ru
9. www.didaktika.ru
10. www.School. edu. uz

# MODUL IV. KASB-HUNAR KOLLEJLARINING O`QUV XONALARI, LABORATORIYALARI HAMDA O‘QUV USTAXONALARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR VA ULARDA O`QUVNI TASHKIL QILISH

MODULNING UMUMIY MAQSADI: Kasb-hunar kollejlari o‘quv xonalari, laboratoriyalari hamda o‘quv ustaxonalarini tashkil qilish bo‘yicha umumiy talablar, kasb-hunar ta’limi o‘quv ustaxonalaridagi ta’lim va tarbiyaning vazifalari hamda ularning jixozlanishiga qo‘yiladigan talablar, kasb-hunar ta’limi o‘quv ustaxonalarida mashg‘ulotlarni tashkil etish va ularni o`tkazishga qo‘yiladigan talablariga oid nazariy bilim berish, to`rtinchi modulga oid dastlabki ko‘nikmalarni shakllantirish

MODULNING O‘QUV MAQSADLARI:

**ta’limiy maqsad**: talabalarga to`rtinchi modul va uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, to`rtinchi modulga oid tushunchalarni o‘zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;

**tarbiyaviy maqsad**: talabalarda to`rtinchi modulning o‘ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;

**rivojlantiruvchi maqsad**: talabalarning kasbiy yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashini va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.

## MAVZU 15. KASB-HUNAR KOLLEJLARI O‘QUV XONALARI, LABORATORIYALARI HAMDA O‘QUV USTAXONALARIGA QO`YILADIGAN TALABLAR VA ULARNI JIHOZLASH.

***O’quv maqsadi***

*Kasb-hunar kollejlari o‘quv xonalari, laboratoriyalari xamda o‘quv ustaxonalarini tashkil qilish bo‘yicha umumiy talablar, kasb-hunar ta’limi o‘quv ustaxonalaridagi ta’lim va tarbiyaning vazifalari xamda ularning jixozlanishiga qo‘yiladigan talablari, o‘quv ustaxonalarida mashg‘ulotlarni tashkil etish va ularni o`tkazishga qo‘yiladigan talablar va ularni jixozlanishiga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganish*

## 15.1. Kasb-hunar kollejlari o‘quv xonalari, laboratoriyalari hamda o‘quv ustaxonalarini tashkil qilish bo‘yicha umumiy talablar, kasb-hunar ta’limi o‘quv ustaxonalaridagi ta’lim va tarbiyaning vazifalari hamda ularning jixozlanishiga qo‘yiladigan talablar.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Moddiy-texnika bazasi, o‘quv ustaxonalari, ishlab chiqarish ta’limi, yangi majmualar, qulay sharoit yaratish, o‘quv ustaxonalarini rejalashtirish, jihozlarni joylashtirish, ish o‘rni, qoidaga rioya qilish, mashg‘ulotlarini samarli o‘tkazish, ish rejimini.*

Kasb-hunar ta’limining moddiy-texnika bazasi yaxshi ta’minlangan va ulardan maqbul foydalanilgan holdagina, sifat jihatdan ko‘zlanganday mutaxassis kadrlar tayyorlash imkoniyati tug‘iladi. Shu bois o‘quv muassasalarni o‘zida ham, korxona sexlarida ham yaxshi jihozlangan ustaxona, maydonlar tashkil qilinishi nazarda tutiladi. Tahsil oluvchilar bu yerda ish o‘rnini oqilona tashkil etish malakalarini egallaydilar, shuni bajarish uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalar, moslamalar, mexanizmlar bilan tanishadilar, operatsiyalar va hatti-harakatni bajarish tartibini, ishlab chiqarishi madaniyatini egallaydilar, o‘quv vaqtidan oqilona foydalanish xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish va texnologik talablarga rioya qilishni o‘rganadilar. Ta’lim muassasalarida o‘quv ustaxonalarining mavjudligi tahsil oluvchilarni frontal o‘qitish uchun zarur sharoitlar yaratadi, nazariy mashg‘ulotlarni amaliyot bilan oqilona bog‘lab o‘rganilishiga imkon beradi, materiallarni o‘quv dasturiga muvofiq izchillikda o‘rganishni ta’minlaydi.

O‘quv ustaxonalarini tashkil qilish, ularni jihozlash va rejasini tuzish, ta’lim muassasasining turi, tayyorlanadigan mutaxassislik harakteri va ishlab chiqarish xususiyatlarga muvofiq holda amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish ta’limi maqsadlarida foydalaniladigan o‘quv ustaxonalari va yordamchi xizmat binolari puxta o‘ylab joylashtirilishi hamda o‘quv va texnologik talablarga to‘liq javob berishi kerak. O‘quv-ishlab chiqarish ustaxonalarining tarkibi hamda maydoni sanoat, qurilish, transport, maishiy xizmat ko‘rsatishning

tegishli sohalarini loyihalashtirishning texnologik me’yoriga, shuningdek, qurilish me’yor va qoidalariga javob berishi kerak.

Kasb-hunar kollejlarining yangi majmualarini, o‘quv ustaxonalarini qurishda ta’lim muassasalarini loyihalashtiruvchi tashkilotlarning loyihalariga amal qilish lozim. O‘quv ustaxonalarini birinchi qavatga joylashtirish, kelgusida uning kengaytirish mumkinligini nazarda tutgan holda rejalashtiriladi. Ustaxonalarda bajariladigan ishlar natijasida shovqin chiqishini hisobga olib, ularni imkon boricha binoning alohida qanotiga yoki nazariy mashg‘ulotlar o‘tkaziladigan binolardan uzoqroqda joylashtirish kerak.

O‘quv ustaxonalarida ishlash uchun eng qulay sharoit yaratish maqsadida quyidagilar bo‘lishi zarur:

- havoning harorati qish paytida 15-16ºC dan past bo‘lmasligi, yozda esa 20ºC dan oshmasligi kerak. Ustaxona binosida havo almashinishi tabiiy yoki sun’iy ravishda amalga oshiriladi.

Ustaxona poli iliq, yuzasi tozalash uchun qulay, sirpanmaydigan bo‘lishi talab etiladi. Devorlar ochiq rangga, ship esa binoni yaxshiroq yoritilishi uchun oq rangga bo‘yaladi.

O‘quv ustaxonalari va maydonlari bilim yurtida tayyorlanadigan kasb va ixtisosliklarga ko‘ra me’yorlanadi. Kasb-hunar kollejlari o‘quv ustaxonalarining rejalashtirishda quyidagi umumiy talablarga amal qilinadi:

1. O‘quv ustaxonalari mashg‘ulotlarni amaliy ta’lim dasturiga muvofiq o‘tkazishga moslashtirilgan bo‘lishi kerak;
2. Har bir bo‘lim maydoni va asbob-uskunalari miqdoriga ko‘ra hamda egallanadigan kasb, ixtisoslikka muvofiq 25-30 yoki 12-15 nafar talabalar guruhini bir vaqtni o‘zida o‘qitishga mo‘ljallanadi;
3. O‘quv ustaxonalari guruhlarni frontal o‘qitishga mo‘ljallangan bo‘lishi kerak;
4. O‘quv ustaxonalarida tayyorlanadigan har bir kasb va ixtisoslikning o‘ziga xos hususiyatlarini hisobga olgan holda, alohida bo‘limlar, shuningdek

asboblar va materiallar saqlanadigan omborxona, mexanika bo‘limi va hakozolar tashkil etiladi;

5. Texnologik jarayon jihatidan bog‘liq bo‘lgan bo‘limlarni bir-biriga yaqinroq joylashtirish zarur;
6. Silliqlaydigan, jilvirlaydigan va charxlaydigan dastgohlar odatda alohida binoga o‘rnatiladi. Agar buning iloji bo‘lmasa, bunday dastgohlar ustiga havoni so‘rib oluvchi ventilyaisya o‘rnatiladi;
7. Ish jarayonida ko‘p miqdorda gaz, chang yoki kuchli shovqin chiqaradigan bo‘limlar to‘liq izolyatsiya qilinadi;
8. Ustaxonalar dasturning mazkur mavzusi o‘rganilayotganda osib yoki o‘rnatilib qo‘yiladigan kerakli ko‘rsatmali qurollar, jadvallar, o‘quv ishlab chiqarish ishlarining ro‘yxati bilan ta’minlanadi;
9. Ustaxona devorining bir tomoniga guruh talabalariga tegishli ko‘rsatgichlar o‘rnatiladi;
10. Ustaxonaning barchaga yaxshi ko‘rinadigan joyiga birinchi yordam ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan dori-darmon solingan aptechka va qaynatilib sovutilgan suvli bak qo‘yiladi;
11. Tahsil oluvchilarning ish o‘rnidagi individual asbob-uskunalari kmoplekti va zarur jihozlar uchun maxsus moslamalar bo‘lishi kerak;
12. Ustaxonada tozalash uchun ishlatiladigan materiallar, qirindi, qipiqni yig‘ishga mo‘ljallangan qopqoqli yashik; ularni yig‘ishtirib olish uchun xokandoz, belkurak, ustaxonani tartibga keltirish uchun cho‘tkalar bo‘lishi kerak;
13. Ustaxonada yong‘inga qarshi zaruriy inventar bo‘lishi shart.

O‘quv ustaxonalar tahsil oluvchilar ishlab chiqarish ta’limi dasturi talablariga muvofiq topshiriqlarni bajarishlari uchun zarur bo‘ladigan, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablariga javob beradigan individual va ommaviy foydalanishga mo‘ljallangan asosiy va yordamchi o‘quv-ishlab chiqarish asbob-uskunalari bilan jihozlanadi.

O‘quv ustaxonasiga jihozlarni joylashtirishda quyidagilar nazarda tutiladi:

1. O‘qituvchi o‘z ish o‘rnida turib, tahsil oluvchilar guruhiga jamoaviy yo‘l-yo‘riq berish imkoniyatini;
2. Tahsil oluvchilarning maqbul ishlari uchun eng qulay va havfsiz sharoitni;
3. Ishlash, ta’mirlash vaqtida shuningdek materiallar tashishda har tomondan kelishning qulayligini faqat ishchi turadigan dastgoh orasidan o‘tish joylarining kengligi 05-08 m, dastgohlar qatori orasidagitish yo‘lining kengligi eng kamida 1,2 m aravacha, elektrokar va boshqa transport vositalari o‘tadigan joyning kengligi 2 mdan qilib belgilanadi. O‘quv ustaxonasidagi barcha turdagi jihozlarning xavfli joylar to‘r, kojuxlar bilan to‘sib qo‘yiladi.

Ish o‘rni deganda o‘quv ustaxonasi yoki sexning alohida ishchi ixtiyorida bo‘lgan va u ishlab chiqarish topshirig‘ini bajarishida kerak bo‘ladigan jihoz, moslama, asbob va materiallarning maqsadga muvofiq holda joylashtirilgan ma’lum qismi nazarda tutiladi. Odatda ish o‘rni quyidagilarni o‘ziga qamrab oladi:

- ishchi foydalanadigan mehnat vositalari o‘rnatilgan, normal ishlash uchun zarur bo‘lgan maydon;
- ish bajariladigan jihozlar, mexanizm va moslamalar;
- material, yarim tayyor mahsulot, tayyor mahsulotlar, chiqindilarni joylashtirish, saqlash uchun maxsus qurilmalar;
- asbob-uskunalar, moslamalar va texnikaga oid hujjatlarni joylashtirish va saqlash uchun maxsus qurilmalar;
- har bir ish o‘rniga mo‘ljallangan ko‘tarma-transport vositalari;
- normal va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta’minlovchi qurilmalar.

Shunday qilib ish o‘rni amaliy mashg‘ulotlar dasturini to‘liq va sifatli bajarishiga sharoit yaratadigan qilib tashkil etilishi zarur. Mehnatni ilmiy tashkil etish asosida ish o‘rnini tashkil etish eng avvalo oqilona mehnat jarayonini, tahsil oluvchilar toliqishini kamaytirishni nazarda tutadi.

Tahsil oluvchilar ish o‘rnida qoidaga rioya qilishlari uchun quyidagi talablarga amal qilinadi:

- ishga kerakli bo‘lgan barcha predmetlar zarur bo‘lgan paytda darhol topish uchun qo‘l ostida bo‘lish kerak;
- ish jarayonida tez-tez ishlatiladigan asbob-uskunalar, materiallarni ishchiga yaqinroqqa, kamroq ishlatiladiganlari esa uzoqroqqa joylashtiriladi;
- foydalaniladigan barcha jihoz va materiallar taxminan bel balandligida joylashtiriladi;
- asbob va moslamalarni qaysi qo‘l bilan olish qulay bo‘lsa, o‘sha tomonga joylashtiriladi;
- bir predmetni ikkinchisi yoki ishlov berilayotgan mahsulotning ustiga qo‘yish mumkin emas;
- hujjatlar foydalanish uchun qulay, shu bilan birga iflos bo‘lmaydigan joyda saqlanadi;
- yarim mahsulot, materiallar, tayyor mahsulotlar o‘tish yo‘llarini to‘smaydigan hamda halaqit bermaydigan, holatda saqlanishi zarur, yengil narsalarni og‘irlaridan yuqoriroqqa qo‘yiladi.

O‘qituvchining ish o‘rni mashg‘ulotlarini samarli o‘tkazish va ish vaqtining bekor ketishini kamaytirishni ta’minlashga yordam berishi kerak. U iloji boricha talabalarni to‘liq ko‘ra oladigan, 25-30 smbalandlikda joylashtiriladi.

Fiziologik, psixologik nuqtai nazardan olib qaraganda, kasbiy ta’lim-tarbiya jarayoni tahsil oluvchilarning o‘sib-rivojlanayotgan organizmi uchun sezilarli yuklanish beradi. Shuning uchun ham o‘quv rejimini yuqori ish qobiliyatini ta’minlaydigan, tahsil oluvchi sog‘ligiga zarar yetkazmaydigan qilib tashkil etiladi. Tahsil oluvchilarning ish rejimini belgilashda ish qobiliyatini quyidagi bosqichlari inobatga olinadi:

I-bosqichda tahsil oluvchi vazifani olib, ishga kirishadi, asta-sekinlik bilan mehnat unumdorligi oshib boradi;

II-bosqichda yuqori unumdorlikka erishiladi;

III-bosqichda ish unumdorligi pasayib, charchash holati vujudga keladi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Kasb-hunar ta'limining moddiy-texnika bazasi ta'minlash?
2. O'quv ustaxonalarini tashkil qilishda nimalarga e`tabor berish kerak?
3. O'quv ustaxonalarida ishlash uchun qulay sharoit yaratish maqsadida nimalarga e`tabor berish zarur?
4. Kasb-hunar kollejlari o'quv ustaxonalarini rejalashtirishda qaysi talablarga amal qilinadi?
5. O'quv ustaxonasiga jihozlarni joylashtirishda nimalarga e`tibor beriladi?
6. Ish o'rni deganda nimani tushunasiz?
7. Tahsil oluvchilar ish o'rnida qoidaga rioya qilishlari uchun qaysi talablarga amal qiladilar?
8. Tahsil oluvchilarning ish rejimini belgilashda ish qobiliyatining qaysi bosqichlari inobatga olinadi?



## 15.2. Kasb-hunar ta'limi o'quv ustaxonalarida mashg'ulotlarni tashkil etish va ularni o`tkazishga qo'yiladigan talablar va ularni jixozlash.

***Tayanch so'z va iboralar:***

*Ta'lim jarayoni ishtirokchilari, o'qitish joyi, sinf-dars tizimi, ijtimoiy talablar, didaktik tamoyillar, mantiqiy va emotsional his-tuyg'ular, malakani shakllantirish, didaktik talablar, tarbiyaviy talablar, rivojlantiruvchi talablar.*

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (o'qituvchi va tahsil oluvchilar)ning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasbiy ta'limning tashkiliy shaklini anglatadi. Hozirgi paytda kasbiy ta'limning tashkiliy shakllari quyidagi hususiyatlariga binoan turlanadi:

1. Tahsil oluvchilar soniga ko'ra-ommaviy, jamoaviy, guruhli, individual.

2. O‘qitish joyiga ko‘ra-ta’lim-tarbiya muassasalarida va ta’lim muassasalaridan tashqarida (o‘quv ustaxonalarida, mashq maydonlarda, korxonalarda, uy ishlari, sayohat va shu kabilar).
3. O‘quv vaqtining davomiyligiga ko‘ra-45 minutlik, juftlik (90 min), qisqartirilgan (70 minutlik), qo‘ng‘iroqsiz.

Amaliyotda sinf-dars tizimi keng ko‘lamda qo‘llanilganligi sababli dars ta’lim tarbiya ishining asosiy shakli deb yuritiladi. Sinf-dars tizimining asosiy o‘ziga hos jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

- deyarli bir xil tarkib, yosh va tayyorgarlik darajadagi tahsil oluvchilar ishtirok etadi;
- ta’lim-tarbiya jarayoni o‘zaro bog‘liq alohida-alohida qismlar ko‘rinishiga ega bo‘ladi;
- har bir dars o‘quv rejasiga kirgan ma’lum bir o‘quv predmetiga oid bo‘ladi;
- darslar muntazam ravishda almashib turadi;
- kasb ta’lim darslariga o‘qituvchi muhandis-pedagog, tajribali mutaxassis kabilar rahbarlik qiladi;
- tahsil oluvchilar turli ko‘rinishdan o‘quv-bilish faoliyatida ishtirok etadilar.

Quyidagilar sinf-dars tizimining ijobiy tomonlari hisoblanadi:

- qat’iy tashkiliy tuzilmaga egaligi;
- iqtisodiy ko‘rsatgichlarining nisbatan yuqoriligi. Chunki bir o‘qituvchi bir vaqtni o‘zida ko‘p sonli tahsil oluvchilar bilan ishlaydi;
- o‘zaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishga qulay sharoit yaratiladi.

Shu bilan birga sinf-dars tizimining quyidagi kamchiliklari ham e’tirof etilgan:

-o‘rtacha tahsil oluvchiga mo‘ljallanganligi;

-har bir tahsil oluvchilar bilan individual ishlash imkoniyatining yo‘qligi.

Ijtimoiy talablar, kasb ta’limining maqsad va vazifalari, tahsil oluvchilarning talab hamda ehtiyojlari, ta’lim-tarbiya qonuniyatlari, tamoyillari kabilarga ko‘ra kasbiy ta’lim darslariga quyidagi talablar qo‘yilishi kelib chiqadi:

1. Fan-texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining so‘nggi yutuqlari, ilg‘or pedagogik tajribalardan imkon qadar foydalanish, ta’lim-tarbiya qonuniyatlariga asosanib dars tuzilmasini maqbullashtirish:
2. Darsda barcha didaktik tamoyillarning maqbul nisbatini ta’minlash:
3. Tahsil oluvchilarning qiziqishi, ehtiyojlari, moyilligini hisobga olgan holda mahsulli o‘quv-bilish faoliyatiga shart-sharoit yaratish;
4. O‘quv materialini mukammal o‘zlashtirilishi uchun fanlararo aloqadorlikka amal qilish;
5. Tahsil oluvchilar tomonidan ilgari o‘lashtirilgan bilimlar va ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda ish ko‘rish;
6. Tahsil oluvchilarning barcha ijobiy jihatlarini rag‘batlantirish, o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish yo‘li bilan rivojlantirishga erishish;
7. Darsning barcha bosqichlarida mantiqiy va emotsional his-tuyg‘ularga asoslanish;
8. Didaktik materiallar va vositalardan samarali foydalanish;
9. Nazariy materialni amaliyot bilan uzviy bog‘lab o‘rganish;
10. Zaruriy bilim, ish harakat usullari, oqilona fikrlash va amaliy faoliyat ko‘rsatish usullarini tarkib topdirish:
11. Tahsil oluvchilarda uzluksiz ravishda o‘qib-o‘rganish, o‘z bilimi va kasbiy mahoratini oshira borish malakasini shakllantirish:
12. Darslarni mukammal rejalashtirish natijalarini oldindan bashorat etish va tashhislash.

Kasb ta’limiga oid zamonaviy darslarda bir-biri bilan uzviy bog‘liq ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni uyg‘unlashtirish bu sohadagi aniq maqsadlarni ham aniqlashtirib olishni talab etadi.

Kasb ta’limida zamonaviy darslarga quyidagi didaktik talablar qo‘yiladi:

a) har bir darsning ta’limiy vazifasini aniq belgilab olish;

b) ijtimoiy talab va tahsil oluvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim mazmunini maqbullashtirish;

c) o‘quv-bilish faoliyatini samarali pedagogik texnologiyalar asosida tashkil

etish;

d) ta'limning turli shakl, metod va vositalarining oqilona uyg'unligini ta'minlash;

e) dars tuzilmasini ijodiy yondoshgan holda shakllantirish;

f) tahsil oluvchilarning turli o'quv-bilish faoliyatlarini uyg'unlashtirish;

h) ta'lim jarayoni ishtirokchilari orasida tezkor teskari aloqani ta'minlash, ta'sirchan boshqaruv mexanizmini ishlatish;

g) darsni ilmiy-uslubiy asosda tashkil etish.

Darsga qo'yiladigan tarbiyaviy talablar quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

-o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlariga aniqlab, ulardan oqilona foydalanish:

-ta'lim mazmuni va maqsadlaridan kelib chiqadigan tarbiyaviy vazifalarni qo'yish;

-tahsil oluvchilarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash;

-tahsil oluvchilarga aniq va do'stlarga munosabatda bo'lish;

Darsga qo'yilgan rivojlantiruvchi talablar:

-tahsil oluvchilarda o'quv-o'rganish bo'lgan ijobiy rag'batni shakllantirish va rivojlantirish;

-tahsil oluvchilarning psixologik xususiyatlari va rivojlanganlik darajasini o'rganish va hisobga olish;

-o'quv mashg'ulotlarini odimlash (ilgarilab borish) darajasida o'tkazish;

-tahsil oluvchilarni aqliy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishlarini oldindan bashorat etish va bo'ladigan o'zgarishlarga mos ravishda tezkor o'zgartirishlar kiritish.

Bundan tashqari kasb ta'limi metodikasida tashkiliy, psixologik, boshqaruvchilik, maqbul muloqot o'rgatish, hamkorlik qilish sanitariya-gigiena, etik va shu kabi talablar ham hisobga olinadi.



### *Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:*

1. Ta'lim jarayoni ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyati nimadan iborat?
2. Kasbiy ta'limning tashkiliy shakllari qaysi hususiyatlarga binoan turlanadi?
3. Sinf-dars tizimining asosiy o'ziga hos jihatlari nimalardan iborat?
4. Sinf-dars tizimining ijobiy tomonlari nimalardan iborat?
5. Ijtimoiy talablar haqida nimalarni bilasiz? Tushuntirib bering.
6. Kasbiy ta'lim darslariga quyiladigan talablar nimalardan iborat?
7. Zamonaviy darslarga quyiladigan didaktik talablar nimalardan iborat?
8. Darsga qo'yiladigan tarbiyaviy talablar nimalardan iborat?
9. Darsga qo'yilgan rivojlantiruvchi talablar nimalardan iborat?

### *Foydalanilgan adabiyotlar*


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.
2. 2017-2021yillarda O'zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi. O'quv qo'llanma. O'MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
4. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
5. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDPU, 2007y.
6. Olimov Q. T. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. –T.: 2006. 164 b.
7. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.

8. www.inter-pedagogika.ru
9. www.didaktika.ru
10. www.School. edu. uz
11. www.Ppsy. ru
12. www.Bank/referat. ru

## MAVZU 16. O‘QUV USTAXONALARIDA MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH.

***O’quv maqsadi***

*O‘quv ustaxonalarida xavfsizlik texnikasi qoidalari, o‘quv ustaxonalarida o‘quvchilarga kasb-hunar o‘rgatishni tashkil qilish usullariga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganish*

### 16.1. O‘quv ustaxonalarida xavfsizlik texnikasi qoidalari, o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘quv ustaxonasidagi ish o‘rni, asbob uskunalar, moslamalar ularni saqlash va unga qo‘yiladigan talablar.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*O‘quv ustaxonalari, tajribalar o‘tkazish xonalari, jihozlar, asboblarning tuzilishi, xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari, himoya vositalarini, baxtsiz hodisa, elektr sxemalari, ish o‘rinlari, yonish o‘chog‘i, chang tutqich qurilmalari.*

O‘quv ustaxonalarida xavfsizlik texnikasi qoidalariga e`tibor berish, ish o‘rinlarida mikroiqlim sharoitlarini aniqlash va o‘lchash usullarini hamda o‘lchov asboblarini to`g`ri tuzish va ishlash tamoyillarini, o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘quv ustaxonasidagi ish o‘rni, asbob uskunalar, moslamalar ularni saqlash va unga qo‘yiladigan talablarni to`g`ri o‘rganish, shu bilan birga binolarda va ish o‘rinlarini yoritilganligini o‘lchash va tahlil qilish, ish o‘rinlarida shovqin va titrashni tahlil qilish, uni o‘lchash, elektr xavfsizligi bo‘yicha tahlillar va yong‘in

xavfsizligini ta’minlovchi texnik vositalar bilan tanishish va ishlash pritsiplarini o‘rganish asosiy vazifalardan biridir.

Usta xona ishlarini bajarishda, oliy va o‘rta ta’lim muassasalarining tajribalar o‘tkazish xonalarida, o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘quv ustaxonasidagi ish o‘rinlarida va usta xona binolarida, mehnat muhofazasi hamda texnika xavfsizligi bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlardan o‘tgandan keyingina talaba - o‘quvchilarga mustaqil mashg‘ulotlarni bajarishga ruxsat etiladi.

Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlardan o‘tganligi to‘g‘risida talaba - o‘quvchilar va yo‘l-yo‘riqni o‘tkazishga tashkilotning mas’ul shaxsi, “yo‘l-yo‘riqdan o‘tganligi to‘g‘risida qaydnoma daftari”ga qayd etilishi va imzolanishi shart.

Navbatdagi ustaxona ishini bajarishda o‘quvchi jihozlarni, asboblarni tuzilishi va ulardan foydalanish bilan tanishib, usta xona ishini bajarishga huquq beruvchi, bilimlari bo‘yicha navbatdagi nazoratdan o‘tgandan keyingina kirishishi mumkin.

Usta xona qurilmalarida ishlarni bajarish jarayonida quyidagi *xavfli va zararli* ishlab chiqarish omillari vujudga kelishi mumkin:

- elektr qurilmani yuqori kuchlanish bilan ta’minlanishi;
- havoning changlanishi;
- zaharli gazlarni ajralishi;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushuvchi yorug‘lik bilan ko‘zni ko‘rishiga zararli ta’sir etishi;
- yuqori sathli shovqin va tebranishlar;
- ochiq alanga, portlash xavfi va boshqalar.

Usta xona qurilmalari va tajriba o‘tkazish xonalarida xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarini xavfsiz ko‘rsatkichlariga keltirish uchun quyidagi *himoya vositalarini* ko‘zda tutish lozim bo‘ladi:

- nol o‘tkazgich va elektr qurilmani avtomatik o‘chirish;
- chang, gaz ajralib chiquvchi joylarni mahkam berkitish (germetiza-siyalash);
- yong‘inga qarshi kurash texnik vositalari;
- so‘ruvchi umum havo almashtiruvchi shamollatgich;

- yorug‘likdan himoya ekrani;

- tovushdan himoyalovchi (izolyatsiyalovchi);

- shovqin kamerasi.

Usta xona xonasida qo‘yidagilar bo‘lishi shart:

- tibbiy yordam ko‘rsatish uchun dori qutisi (aptechka) bilan ta’min-langan (jihozlangan) bo‘lishi;

- usta xona xonasining har 50 $m^2$ maydoni hisobidan bitta o‘t o‘chirgich OU-5 bo‘lishi;

- xonaga avtomatik yong‘in xabarchilari o‘rnatilgan bo‘lishi kerak.

Baxtsiz hodisa sodir bo‘lganda talaba - o‘quvchi jabrlangan kishiga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishni bilishi va amalga oshirishi shart. Usta xona ishini bajarish jarayonida mehnat muhofazasi qoidalari buzilgan taqdirda talaba - o‘quvchilar javobgardirlar.

Barcha nazarda tutilgan himoya vositalari va o‘t o‘chirgichlarni mavjudligi va ishga yaroqliligini tekshirish lozim.

Ish joyida elektr qurilmalarni ajratib ulagichiga va tajriba xonasidagi umum-elektro-rubilnikka (elektro ajratgichga) ulanishga imkoni bor, yo‘qligini tekshirish lozim.

Ishga aloqador bo‘lmagan asboblar va ish joyidagi ortiqcha predmetlarni yig‘ishtirib olinganligini tekshiring.

Usta xona darslarida professor - o‘qituvchilarning topshirig‘ini yoki tajriba (eksperiment) dasturida ko‘zda tutilgan ishlarni bajarish lozim.

Faqatgina soz tajriba qurilmasi, o‘lchov asboblari va uskunalar bilan ishlashga ruxsat etiladi.

Elektr sxemalarini yig‘ish (o‘rnatish) faqat belgilangan elektr jihozlarida o‘tkaziladi.

Tok o‘tkazuvchi simlarni ulashda (biriktirishda) uning sirti ishonchli izolyatsiyalangan (himoyalangan), ularning uchlari yaxshi (mustahkam) kavsharlangan bo‘lishi shart.

Elektr jihozlar yerga ulangan yoki nol o‘tkazgichga ulangan taqdirdagina ularga kuchlanishni uzatish mumkin.

Elektr tokidan jarohatlanishning oldini olish uchun qo‘l bilan klemmaga (o‘tkazgich) va boshqa tok o‘tkazuvchi detallarga tegish taqiqlanadi.

Faza nol tugunlarida qarshilikni o‘lchash dielektrik qo‘lqopda, rezina gilamchada yoki dielektrik oyoq kiyimlari o‘tkaziladi.

Agarda asboblar, jihozlar ishlayotganida biror bir nosozliklar vujudga kelsa, tezda ular o‘chiriladi (ishdan to‘xtatiladi).

Usta xona xonasidagi ko‘rgazmali boksni ya’ni idishni havo - mexanik ko‘pik mahsulotlari bilan ¾ hajmdan ko‘p bo‘lmagan holda to‘ldirish talab qilinadi.

Usta xonadagi ish o‘rinlarida yong‘in chiqadigan holatni vujudga kelishining oldini olish uchun chekish, ochiq alangadan foydalanish taqiqlanadi.

Yong‘inni o‘chirish jarayoni bo‘yicha usta xona ishini, tajriba xonasidan tashqarida ochiq maydonlarda o‘tkazish tavsiya etiladi.

Elektr qurilmasining qobig‘iga kuchlanish paydo bo‘lganligi sezilsa, tezda uni tokdan ajratish lozim.

Bu to‘g‘rida esa professor - o‘qituvchiga tezda xabar berish talab qilinadi.

Yonish o‘chog‘idagi olovni o‘chirishda o‘t o‘chirish vositasi ishlamay qolgan holatda, tezda olovni o‘chirish uchun, yonish kamerasining qopqog‘ini bekitish bilan amalga oshiriladi.

Baxtsiz hodisa sodir bo‘lganda jabrlanuvchiga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatiladi.

Asboblar, jihozlar elektr ta’minotidan ajratiladi (o‘chiriladi).

Ish joyi tartibga keltirilib, ma’lumotnomalar, uslubiy va boshqa adabiyotlar, asboblar, uskunalar professor - o‘qituvchiga yoki laborantga topshiriladi.

Ish joyining harorati, atmosfera bosimi, nisbiy namligi va havoning harakatlanish tezligi aniqlanadi.

O‘quv ustaxonalarida havoni changdan tozalash uchun har xil chang tutqich qurilmalaridan foydalaniladi. Ularning ish uslubi, ko‘rinishi, o‘lchamlari va changni tutish imkoniyatlari ham turlicha. Shuning uchun changni fizik

o‘lchamlari va kimyoviy xususiyatlariga qarab kerakli chang tutqich qurilmasi tanlab olinadi.

O‘quv ustaxonalarida foydalanish uchun tavsiya qilingan chang tutqich qurilmalarni tozalash darajasi bo‘yicha dag‘al va mayin tozalagichlarga ajratiladi.

Ish joylarining yoritilganlik me’yorlari va yoritilganlikni aniqlovchi asboblar bilan tanishish, ish joylari yoritilganligini aniqlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilish lozim.

Ishlab chiqarish xonalari va ish joylarini yoritish sun’iy va tabiiy usulda amalga oshiriladi. Ish joylarini sun’iy yoritishning asosiy ko‘rsatkichlariga yoritilganlik, yorug‘lik oqimi, yorug‘lik kuchi, ravshanlilik, yorug‘likni yutish, qaytarish, o‘tkazish koeffitsientlari, yoritilganlikni pulsatsiya va notekislik koeffitsienti, fon, kontrast kabilar kiradi. Tabiiy yoritilganlik esa, tabiiy yoritilganlik koeffitsienti bilan baholanadi. Yoritilganlikning me’yoriy miqdori ishning turiga va ish razryadiga bog‘liq holda belgilanadi.

Yuqori xavfli xonalar unda quyidagi sharoitlardan birining mavjudligi bilan xarakterlanadi:

-tok o‘tkazuvchi pollar (metall, tuproq, beton);

-namlik (havoning nisbiy namligi) 75% dan yuqori yoki tok o‘tkazuvchi changlar;

-havo haroratining yuqoriligi (+30$^0$S dan yuqori);

-ishchilarni bir vaqtda elektr uskunasining metall korpusiga va binoning yerga biriktirilgan metall konstruksiyalariga va uskunalarga tegishi mumkinligi.

-havoning nisbiy namligi 100 % ga yaqin;

-kimyoviy aktiv muhitlar (kislota va ishqorlar bug‘lari);

-bir vaqtda yuqori xavfli xonalar uchun ko‘zda tutilgan sharoitlardan ikki yoki undan ortig‘ini mavjudligi;

Bu kategoriyalarga xonadan tashqarida, ochiq maydonda ishlatilayotgan elektr qurilmasini ham tenglashtirish mumkin.

Yuqori xavfli bo‘lmagan xonalarga yuqori xavfli va o‘ta xavfli xonalardagi sharoit belgilari bo‘lmagan xonalarni kiritish mumkin.

Ko‘pchilik qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish xonalari yuqori xavfli xonalarga (poli tuproqli xonalar) yoki o‘ta xavfli (molxonalar, chuchqaxonalar, issiqxonalar va boshqalar) xonalarga bo‘linadi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. O‘quv ustaxonalarida xavfsizlik texnikasi qoidalariga e`tibor berishda nimalarga amal qilish lozim?
2. Usta xona ishlarini bajarishda nimalarga amal qilish lozim?
3. Usta xona qurilmalarida ishlarni bajarish jarayonida qanday xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari vujudga kelishi mumkin?
4. Usta xona qurilmalari va tajriba o‘tkazish xonalarida gaysi himoya vositalarini ko‘zda tutish lozim bo‘ladi?
5. Usta xona xonasida qaysi xavfsizlik vositalari bo‘lishi shart?
6. Usta xonadagi ish o‘rinlarida yong‘in chiqadigan holatni vujudga kelishining oldini olish uchun nimalarga e`tibor berish kerak?
7. Yonish o‘chog‘idagi olovni o‘chirishda o‘t o‘chirish vositasi ishlamay qolgan holatda, tezda olovni o‘chirish uchun nima qilish kerak?
8. O‘quv ustaxonalarida havoni changdan tozalash uchun nimalardan foydalaniladi?
9. Yuqori xavfli xonalar unda qanday sharoitlardan mavjudligi bilan xarakterlanadi?

## 16.2. O‘quv ustaxonalarida o‘quvchilarga kasb-hunar o‘rgatishni tashkil qilish usullari, o‘quvchilarga mashqlarni bajarish bo‘yicha boshlang`ich, joriy va yakuniy yo`riqnoma (instruktaj) berishning vazifalari va uning usullari.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*O’quv ustaxonalari, xavfsizlik texnikasi, o’quv ustaxonalari jihozlari, o’zlashtirilishi zarur bo’lgan bilim, tanlagan kasblar va ixtisosliklar, o’quv ishlarini tanlash, chiqarish ta'limi mashg’ulotlari, kirish yo’riqnomasini ishlab chiqish, o’quvchilarning mustaqil ishlari, kasbiy tayyorgarlik.*

O’quv ustaxonalarining jihozlariga qo’yiladigan bosh talab ularning o’quv dasturlariga mos kelishi, konstruktsiyalarining zamonaviyligi, universalligi, energiya sarfining kamligi, tannarxining nisbatan arzonligi, o’lchamlarining katta bo’lmasligi, ishlatish va xizmat ko’rsatishga o’nay bo’lishi, xavfsizlik texnikasi qoidalarini ta'min etishi kabilardir. Shuningdek, o’quv jihozlari korxonalar texnik jihozlariga mos bo’lib, ilg’or tajribalarni o’zlashtirishga imkon berishi zarur.

O’quv ustaxonalari jihozlarining nomenklaturasi va soni maxsus me'yornomalarda ko’rsatiladi. Ustaxonalarda asosiy jihozlar bilan birga yordamchi jihozlar ham bo’lib, ular o’quvchiga qisqa muddatli yordamchi operatsiyalarni bajarishga, shuningdek, har bir ish o’rnini tashkiliy texnik ta'minlashga imkon berishi kerak.

Ishlab chiqarish ta'limi dasturida o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishi zarur bo’lgan bilim, ish-harakat usullari va ish turlarining ro’yxati ko’rsatiladi. U yoki bu mavzuni o’rganish jarayonida o’quvchilar tomonidan bajariladigan ish ob'ektlari kollej muhandis-pedagoglari tomonidan o’rnatiladi. O’quvchilar tomonidan kasbiy bilim, ko’nikma va malakalar tizimini ongli va puxta o’zlashtirilishini ta'minlash uchun mutaxassislik bo’yicha mustaqil ishlar muhim ahamiyat kasb etadi va o’quv ishlarini jiddiy o’ylab tanlashni ko’zda tutadi.

Ma'lumki, o’quv ishlarining ro’yxati o’quvchilarning tanlagan kasblari va ixtisosliklari bo’yicha ishlab chiqarish ta'limi dasturiga binoan qanday aniq o’quv-ishlab chiqarish vazifalarini bajarishlari zarurligini aniqlash maqsadida ishlab chiqiladi.

O’quv ishlarini tanlashda quyidagi talablarga amal qilish zarur:

- buyum tayyorlash o’quv dasturidagi mos mavzularni o’rganish ketma-ketligini ta'minlashi zarur;

- o’quv ishlari sifatida shunday buyum tanlab olinishi kerakki, u ma'lum qiymatga ega bo’lsin, ya'ni amalda qo’llash uchun yarokli bo’lsin;

- buyumlarning o’lchamlari unchalik katta bo’lmay, o’quvchilarning o’zlari ularni o’rnidan qo’zg’atish, bir joydan ikkinchi joyga olib borish, o’rnatish kabi ishlarni mustaqil holda bajara olsinlar.

Ishlab chiqarish ta'limi dastlab o’quv laboratoriyalari va ustaxonalarida tashkil etilib, ularda o’quvchilar ilk bor kasbiy mahorat sirlarini egallashga kirishadilar.

Korxonalarda tashkil etilgan ishlab chiqarish mashg’ulotlari o’quvchilar o’zlari tanlagan mutaxassislik bo’yicha kasbiy bilim va ish-harakat usullarini zamonaviy asbob-uskunalar, moslamalar va ish qurollaridan foydalanilgan holda tarkib topishiga sharoit yaratadi.

Bunday mashg’ulotlar haqiqiy amaliyotga mumkin qadar yaqin sharoit tashkil etilganligi sababli o’quvchilarni tanlagan kasbiy mehnatini ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan yaqindan tanishtiradi. Mustaqillik darajasi va ijodiy faolligini oshiradi.

Har qanday ishlab chiqarish ta'limi mashg’ulotlari (darslari) quyidagi uch bosqichdan iborat bo’ladi:

- muhandis-pedagogning boshlang’ich (kirish) ko’rsatma yoki yo’l-yo’riq berish;

- o’quvchilarning mustaqil ish bajarishlari, mashq qilishlari, ayni bir muhandis-pedagog faoliyati, ya'ni joriy yo’l-yo’riq berish;

- mashg’ulotda o’quvchilar faoliyatini baholash uchun yakuniy yo’l-yo’riq berish.

Yo’l-yo’riq berish (instruktaj) - o’qituvchi yoki muhandis-pedagogning o’quvchilarga berilgan topshiriq (vazifa)ni xavfsizlik texnikasi qoidalariga to’liq rioya qilgan holda amalda bajarish tartibi haqida o’quvchilar diqqat-e'tiboriga havola etiladigan yo’l-yo’riqlar, talablar va o’zgarishlar mazmuniga ega bo’lgan fikrini bayon qilish shaklidir. Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida, ayniqsa, muhandis-pedagog foydalanadigan ish qurollari, asbob-uskuna va moslamalarining sifati, ulardan to’g’ri foydalanish tartibi, rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va sanitariya qoidalari,

pedagogning bajariladigan ish sifati hamda tayyorgarligiga bo’lgan talablarining buzilishining oldini olish haqida ko’rsatmalari muhim ahamiyatga ega.

O’quvchilarning darsga qiziqishi va o’quv materialiga diqqat-e'tiborini qaratish uchun usta hayotiy misollar, asosli dalillar keltirishi, ushbu mashg’ulotda tarkib topishi ko’zlangan bilim va ish-harakat usullarining hayotiy faoliyat uchun ahamiyatini ko’rsatib o’tishi lozim. Odatda ishlab chiqarish ta'limi mashg’ulotlarida kirish yo’riqnomasini ishlab chiqish quyidagi tartibda olib boriladi:

- yangi o’rganiladigan mavzu va mashg’ulot maqsadi bayon etiladi;
- oldin o’tilgan mavzular bo’yicha o’quvchilar egallagan bilimlari va ish-harakat usullarining shakllanganlik darajasi aniqlanadi;
- bajarilishi ko’zda tutilgan vazifa, topshiriq yoki ishning amaliy ahamiyati, xususiyatlari va bajarilish tartibi bayon etiladi;
- texnik-texnologik chizma va haritalar hamda talablar ko’rsatiladi;
- foydalaniladigan material, asbob-uskuna, moslamalar va shunga o’xshashlar bilan qanday foydalanish kerakligi tushuntiriladi;
- vazifani bajarishning maqbul (oqilona) shart-sharoitlari, usullari va tartibi bayon etiladi;
- vazifani bajarishda o’quvchi yo’l qo’yishi mumkin bo’lgan xatoliklar va ularni o’z vaqtida oldini olish chora-tadbirlari ko’rsatiladi.

Shu o’rinda kirish yo’riqnomasini o’quvchilar qanday darajada o’zlashtirganliklarini tekshirish, har bir o’quvchiga shaxsiy vazifa berish va ularni ish o’rinlariga taqsimlash, shuningdek, vazifani bajarishda rioya qilinishi lozim bo’lgan mehnat va texnika xavfsizligi qoidalariga alohida e'tibor beriladi.

O’quvchilarning mustaqil ishlari yoki mashq qilishlari pedagogik jihatdan ilmiy asoslangan, didaktik qonun-qoidalariga binoan tuzilgan bo’lib, texnologik jihatdan ma'lum ketma-ketlikda ko’zlangan bilim va usullarini egallashni nazarda tutadi. Mashg’ulotda usta o’quvchilarning hatti-harakatlarini doimiy kuzatib borib, ishiga rahbarlik qiladi, kerak bo’lgan vaqtda bir necha marta ma'lum ish o’rinlarini aylanib chiqadi, o’quvchilar faoliyatini nazorat qiladi. Shuningdek, bunday ko’rsatma berish vaqtida barcha o’quvchilar bir vaqtda vazifani bajarishga kirishganliklarini tekshirish,

ularning har birlari o'z ish o'rinlarini qanday tashkil etganliklarini nazorat qilish, o'quv, texnik-texnologik, tashkiliy-iqtisodiy va shunga o'xshash didaktik materiallar hamda hujjatlardan to'g'ri foydalanishlarini tekshirish kabi maqsadlarini ko'zda tutadi. Bir so'z bilan aytganda, joriy ko'rsatma berish, o'quvchilarni amaliy bilimlar va kasbiy ish-harakat usullarini egallashlari hamda texnologik jarayon va operatsiyalarni sifatli bajarishga haratilgan bo'ladi.

Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarining bu bosqichida muhandis-pedagog quyidagilarga alohida e'tibor berishi kerak:

Bunday mashg'ulotlarda yakuniy ko'rsatma berish ham muhim ahamiyatga ega.

Yakuniy ko'rsatma berishning mazmuni, tashkil etish shakli va uslubi muayyan aniq mashg'ulot natijalariga ko'ra aniqlanadi va uning maqsadi o'quvchilarning yutuq va kamchiliklarini ko'rsatishdan iborat bo'ladi. Yuqorida ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarining umumiy o'ziga xos bosqichlari va tarkibiy elementlari bo'lgan ko'rsatmalarning mohiyat-maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan qisqacha tanishtirishga harakat qilamiz. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, bunday ko'rsatma berish sxemasi qat'iy majburiy bo'lmay, balki, o'quv materialining xususiyatlariga, muhandis-pedagogning tayyorgarlik darajasi va tajribasiga, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga, mashg'ulot o'tkazish shart-sharoitlariga harab mos ravishda ijodiy hal etilishi mumkin.

Kasb-hunar kollejlarida kasbiy tayyorgarlik maxsus tashkil etilishi, kasbiy tayyorgarlik va malakali o'qituvchilar zamonaviy vositalar yordamida amalga oshirilganligi yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Malakali mutaxassislar tayyorlashda o'quv jarayoni umumilmiy, umumkasbiy va maxsus fanlar turkumlaridan tashkil topadi:

1. Ishlab chiqarish ta'limining maqsadi - o'quvchilarda ma'lum bir aniq ixtisoslik bo'yicha kasbiy mahorat asoslari bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishdan iborat.

2. O'quvchilarning ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarga buysundirilgan mehnatlari ishlab chiqarish ta'limining asosi hisoblanadi.

3. O'quvchilarda o'zlashtirilayotgan kasb (ixtisoslik)ga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish - ishlab chiqarish ta'limining mazmunini tashkil etadi.

4. Ishlab chnharish ta'limi jarayoni nazariya bilan amaliyotning uzviy aloqadorligida amalga oshiriladi.

5. Ishlab chiqarish ta'limi nazariy ta'limga nisbatan faol jarayon bo'lib hisoblanadi. Shu sababli o'qituvchining vazifasida axborot uzatish funktsiyasi bo'lib, rahbarlik qilish, yo'naltirish va yo'l- yo'riq ko'rsatish vazifalari kuchaytirilgan bo'ladi.

6. Ishlab chiqarish ta'limining sifatli o'tishi uchun o'qitishning texnik vositalari, eng avvalo moddiy-texnik baza, jihozlar, shuningdek, o'quv-ishlab chiqarish ob'ektlarining to'g'ri tanlanganligi hal qiluvchi ahamiyatga egadir.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. O'quv ustaxonalarining jihozlariga qo'yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?
2. O'quv ustaxonalari jihozlarining nomenklaturasi va soni maxsus me'yornomalarda ko'rsatiladi?
3. O'quv ishlarini tanlashda qanday talablarga amal qilish zarur?
4. Har qanday ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlari (darslari) nechta bosqichdan iborat bo'ladi? Har bir bosqichga izoh bering.
5. Yo'l-yo'riq berish (instruktaj) deganda nimani tushunasiz? Misollar bilan izohlab bering.
6. Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarida kirish yo'riqnomasini ishlab chiqish qanday tartibda olib boriladi?
7. Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarining bu bosqichida muhandis-pedagog nimalarga alohida e'tibor berishi kerak?
8. Malakali mutaxassislar tayyorlashda o'quv jarayoni nimalardan tashkil topadi?

### *Foydalanilgan adabiyotlar*


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.
2. 2017-2021yillarda O'zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi. O'quv qo'llanma. O'MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
4. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
5. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDPU, 2007y.
6. Olimov Q. T. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. –T.: 2006. 164 b.
7. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
8. www.inter-pedagogika.ru
9. www.didaktika.ru
10. www.School. edu. uz
11. www.Ppsy. ru
12. www.Bank/referat. ru

# MAVZU 17. O‘QUV-ISHLAB CHIQARISH ISHLARINI ME’YORLASHTIRISH.

***O’quv maqsadi*** ⇒ *Me’yorlashtirish maqsadlari va metodlari, o‘quvchilar ishiga vakt me’yorini belgilash, shogirdpik vaqt me’yorini belgilash, me’yorlashga qo‘yiladigan talablariga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganish*

## 17.1. Me’yorlashtirish maqsadlari va metodlari, o‘quvchilar ishiga vaqt me’yorini belgilash, shogirdlik vaqt me’yorini belgilash, me’yorlashga qo‘yiladigan talablar.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Nazorat qilish, o‘zlashtirishlar kiritish, me’yorlar doirasi, me’yoriy hujjatlar majmui, klassifikator, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari, ta’lim bosqichlari, davlat ta’lim standartlari, tarmoq standarti, majburiy fanlar bloklari, kasbiy faoliyat, o‘quv rejasi, ta`lim omillari.*

Asosiy amalga oshirish bosqichida o‘z imkoniyati, shart-sharoiti mavjud bo‘lgan ko‘plab boshqa omillarni hisobga olgan holda amaliy xatti-harakatlar amalga oshirilib, ma’lum natijaga erishiladi.

Nazorat qilish va o‘zlashtirishlar kiritish bosqichida ko‘zlangan maqsad bilan olingan natija qiyoslanadi va kerakli xulosaga kelinadi. Kerakli hollarda reja va amalga oshirish bosqichlarining mazmuni, tuzilmasi va shakliga o‘zgartirishlar kritilib, ish-harakat usullari takomillashtiriladi.

Kishilar (inson) tomonidan amalga oshiriladigan barcha jarayonlar kabi ta’lim-tarbiya ishlari ham ushbu yuqoridagi qonuniyatga to‘liq bo‘ysunadi. Demak ta’lim-tarbiya ishi ma’lum me’yorlar doirasida amal qiladi. Bu me’yorlarsiz ta’lim-tarbiya ishi mazmun, shakl, zamon va makon hamda natijalar tekisligida

samarasiz bo'ladi. Aslini olganda maxsus ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar aniq maqsadni ko'zlab, reja asosida kechadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning joriy etilishi yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarni hamda zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqishni va tadbiq taqozo etdi.

Shu nuqtai nazardan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim jarayoni, mazmunini isloh qilish asosan me'yoriy hujjatlar majmui (davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari va dasturlari) asosida, kadrlarga ta'lim va tarbiya berish milliy istiqlol g'oyalariga muvofiq amalga oshirilishi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Klassifikator – bu O'zbekiston Respublikasining axborotlarni kodlashtirish va tartibga solish yagona tizimining tarkibiy qismidir.

*Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari (klassifikatori) tasniflagichi*-Oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati. Unda quyidagi sakkizta bilim sohasi ko'zda tutiladi:

1. Ta'lim
2. Gumanitar fanlar va san'at
3. Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq
4. Fan
5. Muhandislik, ishlov berish va urilish tarmoqlari
6. Qishloq xo'jaligi
7. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
8. Xizmatlar.

Klassifikatorda ta'lim bosqichlari (bakalavriat, magistratura), bilim va ta'lim sohalari, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari yettita raqamli kod bilan belgilanadi.

- mutaxassislik kodi;
- yo'nalish kodi;

- ta’lim sohasi kodi;
- bilim sohasi kodi;
- ta’lim dasturlari bosqichi kodi.

Ta’limning xalqaro standart klassifikatsiyasiga binoan ta’lim bosqichlari bakalavriat yo‘nalishlarida 5 raqami, magistratura mutaxassisliklarida – 5 A (raqam va harf)bilan belgilanadi. Masalan: bakalavriat kodi 5140100, 5211300, 5520400 va hokazo; magistrlar 5 A 140101, 5A211301, 5A520403 va hokazo.

*Kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari tasniflagichi* – urta maxsus va kasb-xunar ta’limi muassassalarida kichik mutaxassislar tayyorlash buyicha tayyorlov yunalishlari kasblarining iva mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ruyxati

*Davlat ta’lim standartlari (* DTC)- umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va Oliy ta’lim mazmuniga hamda sifati ga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi. DTS larini bajarish O‘zbekiston Respublikasining barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir.

Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti (bundan keyin OTDTC) kadrlar tayyorlash sifatiga, ta’lim mazmuniga qo‘yilgan talablar; ta’lim oluvchilar tayyorgarligining zaruriy va yetarli ta’lim muassaslari bitiruvchilariga qo‘yilgan malakaviy talablar; o‘quv yuklamasining maksimal hajmi; ta’lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartiblari hamda yo‘l-yo‘riqlarini belgilaydi.

OT DTS o‘quv jarayonini tartibga soluvchi, ta’lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholovchi me’yoriy hujjatlar: bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari, magistratura ixtisosliklari uchun DTS, o‘quv rejalari, o‘quv fanlari dasturlari va boshqalarni tayyorlash uchun asosdir.

*Kasb-hunar ta’limi tarmoq standarti* – yo‘nalishlar bo‘yicha kichik mutaxassislarni tayyorlashning zarur va yetarli mazmuni hamda pirovard maqsadlarini aniqlaydi, ta’lim oluvchilarning o‘quv yuklamalari hajmi va standart sifatlari nazoratini belgilab beradi.

Oliy ta’limning birinchi bosqichida ta’lim dasturlari umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi bilan uzluksiz va uzviylik ta’minlanishini inobatga

olgan holda ishlab chiqilishi va talabalarning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o‘zlashtirishni nazarda tutishi zarur:

-gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy;

-matematik va tabiiy-ilmiy;

-umum kasbiy;

-ixtisoslik;

-qo‘shimcha;

Kasbiy faoliyat uchun zarur ko‘nikma va malakalarni bakalavriat ta’lim dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik ta’minlanishini ko‘zda tutib, ishlab chiqilishi va talabalar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o‘zlashtirilishini nazarda tutishi zarur:

-umummetodologik fanlar:

-mutaxassislik fanlari;

-ilmiy faoliyat.

Ta’lim - tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalashtiruvchi, asosiy hujjat o‘quv rejalari hisoblanadi. O‘quv rejasi kasb-hunar ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni, o‘quv fanlarini alohida o‘rganish sur’atini ta’minlovchi hujjat hisoblanadi.

O‘quv rejasi – har bir yo‘nalish uchun alohida tuzilib, vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Unda quyidagilar o‘z ifodasini topadi:

1. Tayyorlov yo‘nalish (ixtisoslik) kodi va uning nomlanishi.
2. O‘qish muddati.
3. Tugatgandan so‘ng olinadigan akademik darajasi.
4. Ta’lim shakli.
5. O‘quv davrining taqsimoti (jadvali)
6. O‘quv jarayonining rejasi.
    a. O‘rganiladigan o‘quv predmetlari.
    b. Har bir o‘quv predmetini o‘rganish uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdori.

c. O‘rganish uchun ajratilgan vaqtni-ma’ruza amaliy mashg‘ulot, laboratoriya ishlari, seminarlar, kurs loyihalari va mustaqil ta’limga qanday miqdorda taqsimlanganligi.
d. O‘quv predmetini qaysi bosqich, semestrlarda haftasiga qancha soatdan o‘rganish tartibi.

7. Davlat attestatsiyasi.
8. Tanlov fanlarining ro‘yxati.
9. Izohlar kabilar.

O‘quv rejalari mazmuni va tuzilishiga mos holda quyidagi omillarga e’tiborni qaratmoq lozim:

- Ta’lim va tarbiyaning maqsadli yo‘naltirilganligiga;
- Mehnat va ishlab chiqarish jarayonining tuzilishiga;
- Ta’lim- tarbiya jarayonining qonuniyatlariga.

O‘quv rejalarini ishlab chiqishda bo‘lg‘usi mutaxassislarda shakllantirilayotgan malaka mahoratlari darajasining o‘rganilayotgan o‘quv fanlari miqdoriga va o‘rganish davriga aniq mos tushishini e’tiborga tutmoq lozim. Bo‘lg‘usi mutaxassislarning bilim va ko‘nikmalarining shakllanishini, har bir fanni bosqichma-bosqich o‘rganishlari chuqurligi, qulay va muhimligini ham nazarda tutishi kerak bo‘ladi.

*Dastur* - o‘quv predmetining mazmuni, uni tahsil oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibi, axborot manbalarini o‘zida mujassamlashtiruvchi me’yoriy hujjatdir.

*O‘quv dasturi* - shu nom bilan nomlangan o‘quv predmetiga tegishli bo‘ladi. O‘quv predmeti – ta’lim muassasasida o‘rganish uchun fan, texnika, san’at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan tanlab olingan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar tizimidir.

Ta’lim standartlarida belgilab berilganidek umumiy va maxsuss talablar, bilim va ko‘nikmalar, o‘quv rejalaridagi umumkasbiy va maxsus fanlarda o‘zaro uzviyligini ta’minlash, fan dasturlarini zamon talablariga mos ravishda oddiydan murakkabga qarab tuzib chiqish, har bir fan dasturlarining mavzulariga mos

ravishda qo‘shimcha ko‘rgazmali qurollar yaratish-o‘qituvchilarga murakkab vazifalarni qo‘yadi, talabalarning esa nazariy bilimlarini shakllantirib boradi.

Kichik mutaxassislar tayyorlashga qo‘yilgan talablarning xujjatli asosini tasvirlaydigan o‘quv dasturlarida pedagogik maqsadlarning to‘liq va aniq belgilanishi talab qilinadi. To‘liqlik deganda mazmunning barcha zaruriy va qo‘yilgan maqsadga erishish uchun yetarli elementlarni kiritish tushuniladi. Aniqlik deganda real o‘quv jarayonida berilgan mazmunni joriy qilish yo‘lini ko‘rsatadigan elementlar va belgilar tasavvurlanadi.

O‘quv dasturiy hujjatlar tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqish o‘qitish jarayonini takomillashtirish va mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Ta’lim-tarbiya ishlari qanday qonuniyatga to‘liq bo‘ysunadi?
2. Kadrlar tayyorlash jarayonidagi kasbiy-malakaviy o`zgarishlar haqida nimalarni bilasiz?
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta’lim jarayoni, mazmunini isloh qilish qaysi hujjatlar majmui asosida fvflga oshiriladi?
4. Oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro‘yxatining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Klassifikatorda ta’lim bosqichlari nimalardan iborat?

***Foydalanilgan adabiyotlar***


13. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
14. 2017-2021yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
15. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv

qo‘llanma. O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
16. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
17. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.
18. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.
19. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
20. www.inter-pedagogika.ru
21. www.didaktika.ru
22. www.School. edu. uz
23. www.Ppsy. ru
24. www.Bank/referat. ru

## MAVZU 18. KASB-HUNAR TA`LIMI O`QUV USTASINING HISOBI VA HISOBOTI.

***O’quv maqsadi*** ⇒ *O‘quv rejalari va dasturlarning bajarilishini hisobga olish, o‘quvchilarning o‘zlashtirishi, davomati va xulq - atvorini hisobga olish, kasb-hunar ta’limi o‘quv ustasining xisobotiining mazmuniga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganish*

## 18.1. O‘quv rejalari va dasturlarning bajarilishini hisobga olish, o‘quvchilarning o‘zlashtirishi, davomati va xulq - atvorini hisobga olish, kasb-hunar ta’limi o‘quv ustasining hisoboti.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Faollashtirish darajalari, o‘quv materialini o‘rganish, bilim olish va o‘rganish faoliyati, uzviylik va uzluksizligini ta’minlash.*

Talabalarda maxsus fanlarni o‘qitishda ta’lim oluvchilarni faollashtirish darajalari bo‘yicha nazariy bilimlarni shakllantirish.

Ta’limni faollashtirish uchun quyidagilarga asosiy e’tiborni qaratish lozimligi hamda fikrlar bildirilgan:

- o‘quv muammolarni yechishga qaratilgan faol metodlarni qo‘llash;
- maqsadli va amaliy o‘yinlar o‘tkazish;
- davra suhbati va ochiq munozaralar tashkil etish;
- namunali noa’naviy yoki munozara darsi, tarbiyaviy tadbir muhokamasini o‘tkazish;
- ta’lim jarayonida zamonaviy va axborot pedagogik texnologiyalardan foydalana olish.

Ta’lim oluvchilar o‘quv materialini o‘rganish muhimligini ongli ravishda tushunib yetishlari, shuningdek samarali o‘zlashtirish uchun ularda xohish-istak, qiziqish va ishonch bo‘lishi kerak. Faol ta’lim sharoitida o‘zlashtirilgan bilim egallangan ko‘nikma va malakalar mazmunan tizimli va mantiqan tugallangan tarzda shakllantirilib turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo‘llanishga imkon beradi.

Ta’lim oluvchilarni faollashtirish ularning mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Ba’zi tadqiqotlarda ta’lim oluvchilarning bilim olish va o‘rganish faoliyati quyidagi darajalarda bo‘lishi keltirilgan:

1. Faollilik va mustaqillikning dastlabki darajasida o‘qituvchi ta’lim oluvchilarga ilgari o‘zlashtirilgan tayanch bilim, ko‘nikmalar va shaxsiy fazilatlarni eslatadi. Yangi o‘quv materialini tushuntiradi. Bu jarayonda ta’lim oluvchilarning o‘rganishga xohish, qiziqishi emas, balki unga o‘quv jarayonini

tashkil etish shakllari, xonalar jihozlanishi nazariya bilan amaliyotning ta’minlanishi kabilar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

2. Kommunikativ faollik va mustaqillik darajasida ta’lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilarining o‘zaro fikr va tajriba almashishlari talab darajasida yo‘lga qo‘yilgan bo‘ladi. Bunda o‘quv materiallarini barcha ta’lim oluvchilar deyarli bir xil darajada o‘zlashtiradilar, ularning fanga bo‘lgan qiziqishi doimiy va barqaror ijobiy emotsiyalar bilan mustahkamlanadi. Ta’lim oluvchilar mustaqil holda o‘zlashtirilgan o‘quv materialiga izohlar beradilar, amaliy harakat metodlarini bajarib ko‘rsatadilar. O‘qituvchi o‘quv materialini ta’lim oluvchilar tomonidan yetarli darajada o‘zlashtirilganligiga ishonch hosil qilganlaridan so‘ng yangi o‘quv materialini o‘tishga kirishadilar.

3.Ijodiy faollik va mustaqillik darajasida o‘qituvchi tayanch bilimlarni eslatmaydi, qayta takrorlamaydi, balki aksincha nisbatan muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirib, turli murakkab savollar va topshiriqlar berib, ularning mustaqil tarzda yangi yechimlarini topishga yo‘naltiradi. Ta’lim oluvchilar o‘quv materialini mustaqil o‘rganishga yo‘naltirilgan ijodiy izlanuvchi sifatida o‘rganish faoliyatida ishtirok etadilar.

Aynan shu bosqichda zamonaviy ta’lim talablariga mos faoliyat amalga oshiriladi. Ta’lim oluvchilarni faollashtirish uchun o‘qituvchi:

- ta’lim oluvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasini aniqlashi;
- o‘quv materialini muammoli vaziyatlar, o‘quv muammolari yoki topshiriqlar shaklida ishlab chiqishi;
- muammoli vaziyatlar o‘quv muammolari va topshiriqlarni turli darajalarga ajratishi;
- asosiy o‘quv materialini mantiqiy ketma-ketlikka tizimli bayon etilishini ta’minlashi;
- murakkab o‘quv muammolari va topshiriqlarni ta’lim oluvchilarning bajarishlarida to‘la imkoniyat yaratish uchun turli ta’lim metodlari va vositalarini qo‘llashi kerak.

Ta’lim oluvchilar bilim olish va o‘rganish faoliyatini faollashtirish muhim vosita sifatida qabul qilinar ekan, u quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

a) ta’lim-tarbiya jarayonini erkinlashtirish, sub’ekt-sub’ekt munosabati asosida hamkorlikda o‘qishni yo‘lga qo‘yish va ta’lim oluvchilar qobiliyatini aniqlash orqali o‘qishga moyillik hamda qiziqishni faollashtirish;

b)ta’lim-tarbiya mazmunini integratsiyalash orqali o‘qitish maqsadi, vazifasi, mazmuni, metodi, shakli va vositalarini o‘zaro aloqadorligi, uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash;

c) ta’lim-tarbiya jarayonida eng qulay faol metodlarni qo‘llash;

d) ta’lim va tarbiya jarayoniga texnologik yondoshuv asosida, ta’lim oluvchilarda bilim olish va o‘rganish faolligini ta’minlovchi muammoli-vaziyatlar, muammoli-topshiriqlarni va o‘yinli texnologiyalarni keng qo‘llashga erishish;

e) muammoli va o‘yinli texnologiyalarini, o‘quv-texnologik kompleksni tashkil etish va undan maqsadli foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

Yuqorida qayd etilgan talablar ta’lim oluvchilar faoliyatlarini faollashtirish orqali ularning ijodkorligini, o‘quv – topshiriqlarni bajarish uchun farazlarni ilgari surishni va shu asosda yechimlarni topishga intilishga keng yo‘l ochadi. Shuni ta’kidlash joizki ta’lim berish jarayoni-ikki yoqlama jarayon bo‘lib o‘qituvchi ham, talaba ham faol ishtiroki talab etiladi, o‘qituvchi ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishga intilsa, u albatta, talabalarni faollashtirish va rag‘batlantirishni yo‘lga qo‘yish lozim.

Shuningdek, kasb-hunar kollejlarida bo‘lajak kichik mutaxassislarda bilim va malakalarni shakllantirish jarayonida ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlash, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va o‘quv faoliyatini faollashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Ta’limni faollashtirish uchun nimalarga asosiy e’tiborni qaratish lozim?

2. Ba’zi tadqiqotlarda ta’lim oluvchilarning bilim olish va o‘rganish faoliyati qaysi darajalarda bo‘lishi keltirilgan?

3. Ta’lim oluvchilarni faollashtirish uchun o‘qituvchi nimalarga ko`proq e`tibor berishi lozim?

4. Ta’lim oluvchilar bilim olish va o‘rganish faoliyatini faollashtirish qanday ko‘rinishda namoyon bo‘ladi?

### *Foydalanilgan adabiyotlar*


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
2. 2017-2021yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Abdiquddusov O., Rashidov H. Kasb-xunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
4. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
5. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.
6. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.
7. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
8. www.inter-pedagogika.ru
9. www.didaktika.ru
10. www.School. edu. uz
11. www.Ppsy. ru
12. www.Bank/referat. ru

# MAVZU 19. AMALIY TA`LIM SHAKLLARI, USUL VA VOSITALARI.

***O'quv maqsadi***

*Hozirgi zamon o`qitish vositalarining yaratilishi, tavsifnomasi mazmuni, an`anaviy va noan`anaviy dars berish uslublamazmuni darslarni aniq yo'naltirilgan savollar asosida olib borish uslubi, guruhlarni juftlik yoki kichik guruhlarga bo'lib dars o'tish uslubi, dars jarayonida modellashtiruvchi o'yinlarni qo'llash, modellashtiruvchi o'yin usulining afzalliklari, kursni o'rganishda tadqiqot uslubi mazmuniga oid ma'lumotlarni nazariy jihatdan o'rganish*

## 19.1. Hozirgi zamon o`qitish vositalarining yaratilishi, tavsifnomasi, o`qitish vositalarining rivojlanish istiqbollari, kasbiy ta`limda turli pedagogik uslublarni qo`llashning ahamiyati, zaruriyati.



***Tayanch so'z va iboralar:***

*Muloqot va munosabat, o'qitishning texnik vositalari, vositalridan foydalanish, texnikaviy-pedagogik talablar, ko'rsatmalilik tamoyili, tasviriy ko'rsatmalar, ko'rsatmali qo'llanmalar, texnik muammolar.*

Hozirgi paytda ta'lim-tarbiya tizimida o'qituvchining tahsil oluvchilar bilan jonli muloqot va munosabati muhim ahamiyatga ega bo'lganligiga qaramay, u yagona axborot manbai bo'la olmasligi hayotiy haqiqat. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya ishini osonlashtiradigan va samaradorligini oshirish omillaridan keng foydalaniladi. Ana shunday omillardan biri o'qitishning texnikaviy vositalaridir.

O'qitishning texnik vositalari deganda ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlik faoliyatini ta'minlab, uning samaradorligini oshirish, ta'minlash maqsadida foydalaniladigan qurilmalar tizimi tushuniladi.

Barcha o'qitishning texnik vositalarini shartli ravishda uch asosiy guruhga bo'lish mumkin:

1) audiovizual vositalar (kinoproeksiya, diaproeksiya va epiproeksiyalar, ovoz yozib olish, televidenie, radio);

2) jihozlar, uskuna va asboblar;
3) dasturli (kompyuterli) ta’lim vositalari.

O‘qitishning texnik vositalaridan ta’lim-tarbiya jarayonining tashkil etuvchi komponentalari bilan uzviy bog‘liqlik va munosabatlarini hisobga olgan holda foydalanish zarur. Aks holda mashg‘ulot samarasini umuman yo‘qqa chiqarish ham mumkin.

Mashg‘ulotda o‘qitishning texnik vositalridan foydalanish yordamchi harakterga ega bo‘lib, ularni tanlash, ishlatish vaqti va joyi darsning umumiy rejasida maqsadlarga muvofiq ravishda belgilanadi.

Hozirgi paytda ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchining jonli muloqoti muhim ahamiyatga ega bo‘lganligiga qaramay, u yagona axborot manbai bo‘la olmasligi xayotiy haqiqat.

O‘quv xonalarini o‘qitishning texnik vositalari bilan jihozlashda quyidagi texnikaviy-pedagogik talablar qo‘yiladi:

1) o‘quv xonalarini o‘qitishning texnik vositalari bilan jihozlashda o‘quv jarayonida ulardan majmuaviy tarzda foydalanishni hisobga olish zarur;
2) o‘quv xonasining istalgan joyidan yaxshi ko‘rish va eshitish imkoniyatining mavjudligi;
3) o‘quv xonasida, shovqin, yoritilganlik, namlik va kabilar me’yorini ta’milashi;
4) oddiy, arzon, xavfsiz, uzoq muddat buzilmay ishlashi.

Ta’lim-tarbiya ishida texnik vositalardan foydalanish, avvalo, didaktik tamoyiloarga amal qilishni ko‘zda tutadi. Masalan, ko‘rsatmalilik tamoyilinireal ob’ekt bilan mavhum tasavvurning birligini ifodalaydi.

Real ob’ekt yoki uning tasvirini ko‘rish (idrok etish) inson uchun uni bilishning dastlabki va eng oddiy akti hisoblanadi, aniq tasavvurlar va mavhum tushunchalar hosil qilish uchun asos vazifasini o‘taydi.

Ta’lim-tarbiya ishida ko‘rsatmalilik tamoyiliga amal qilish zaruriyati insonning fikrlash hususiyatidan kelib chiqadi. Insonning fikrlash hususiyati ma’lumdan mavhum tomon rivojlanadi. Tushuncha va mavhum qonun-qoidalar

aniq kuzatishlarga asoslansa, ularning mohiyat mazmuni ancha oson va tez shakllanadi. Inson tafakkurining rivojlanishi uning yoshiga, hayotiy tajribasi kabilarga bog‘liq bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonida hisobga olinishi, aniq dalillar va obrazlardan ajralib qolmasligini talab etadi.

Tasviriy ko‘rsatmalardan quyidagi hollarda foydalaniladi:

- o‘rganiladigan ob’ekt juda katta yoki kichik bo‘lganda;
- o‘rganiladigan ob’ektni bevosita ko‘rish mumkin emas;
- tushuncha va hulosalarni grafik tarzda ifodalash mumkin bo‘lganda;
- murakkab ob’ektlarni soddalashtirish yoki ishlash tartibini ko‘rsatish zarur bo‘lganda;
- ob’ektning eng harakterli zamon va makondagi holatni qayd etish va ko‘rsatishda va shu kabilarda.

Ko‘rsatmali qo‘llanmalarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- barcha talabalarga yaxshi ko‘rinadigan darajada katta bo‘lishi;
- o‘quv xonasining istalgan joyidan bemalol o‘qilishi;
- muhim detallar va yozuvlarning boshqa diqqatni o‘ziga tortuvchi rang bilan alohida bo‘yalishi;
- tasvirlar imkon qadar ob’ektning asl rangiga mos bo‘lishi;
- tasvirlarning estetik did bilan rasmiylashtirilishi;
- matnning haddan tashqari ko‘p bo‘lmasligi;
- tasvirlangan ob’ektlarning tabiiy vaziyatda ko‘rsatilishi;
- masshtabga rioya qilishi;
- arzon, qulay, uzoq vaqt o‘z holatida saqlanishi va shu kabilar.

Shu o‘rinda ko‘rsatmali qo‘llanmadan foydalanish maqsad bo‘lmay, balki natijaga erishish vositasi ekanligini unutmaslik zarur.

Ko‘rsatmali qo‘llanmalardan foydalanishda o‘quv materialining mazmuni va vaqtini hisobga olish zarur. Mashg‘ulotda ko‘rsatmali qo‘llanmalardan haddan tashqari ko‘p ham foydalanish yaxshi natija bermaydi. Namoyish qilinayotgan materiallarni idrok etish jarayonida tahsil oluvchilar sezgi organlarining (ko‘rish, eshitish, hidlash, ta’m bilish) ko‘proq jalb etish zarur. O‘qituvchining so‘zi bilan

ko‘rsatmalilikning uyg‘unligi katta ahamiyatga ega. Ko‘rsatmali qo‘llanmadan foydalanishganda beriladigan izoh. Tahsil oluvchilar diqqat-e’tiborini asosiy materiallarga qaratilishini ko‘zda tutadi.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad, maxsus soha va usullarga mos holda tanlash muhim o‘rin tutadi. Eng muhimi shundaki, amaliyot o‘qituvchisi o‘quv va ko‘rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo‘lishi lozim. Masalan: tikuv mashinasi ishida sodir bo‘ladigan nuqsonlarni bartaraf eta bilishi, asosiy sozlanishlarni bajarishi va mashinani ishchi holatiga keltira olish kerak, ya’ni o‘z kasbiy sohasining mohir ustasi bo‘lishi kerak. Amaliyot o‘qituvchisi o‘z kasbiy sohasi uchun qanday materiallar, qanday yangiliklar borligiga, shuningdek, qaysi maxsus sohalarda uning o‘zi yangiliklar qila olishi mumkinligi yuzasidan umumiy tushunchaga ega bo‘lishi lozim. Ko‘pincha o‘qituvchilar doska tasvirlari, flipchart tasvirlari va proektor slaydlari kabi vizual vositalarni o‘zlari ishlab chiqadilar.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Hozirgi paytda ta’lim-tarbiya tizimida o‘qituvchining tahsil oluvchilar bilan jonli muloqot va munosabati muhim ahamiyatga ega. Siz nima deb o`ylaysiz? O`z fikringizni bayon eting.
2. O‘qitishning texnik vositalari deganda nimalarni tushunasaiz?
3. Barcha o‘qitishning texnik vositalarini shartli ravishda nechta asosiy guruhga bo‘lish mumkin? Batafsil tushuntirib bering.
4. Mashg‘ulotda o‘qitishning texnik vositalridan foydalanish qaqnday harakterga ega bo‘lishi mumkin?
5. O‘quv xonalarini o‘qitishning texnik vositalari bilan jihozlashda qanday texnikaviy-pedagogik talablar qo‘yiladi?
6. Ta’lim-tarbiya ishida ko‘rsatmalilik tamoyiliga amal qilish zaruriyati insonning

fikrlash hususiyatidan kelib chiqadi, deydilar. Siz bunga qanday qaraysiz? O`z fikringizni bayon eting.

7. Tasviriy ko‘rsatmalardan qanday hollarda foydalaniladi?
8. Ko‘rsatmali qo‘llanmalarga qanday talablar qo‘yiladi?

## 19.2. An`anaviy va noan`anaviy dars berish uslublari, kichik guruhlarga bo‘lib ishlash, debatlar, bahs munozaralarni tashkil etish usullari.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*An`anaviy ta`lim, o`quv materiali, mashg`ulotning bosqichlari, ta`lim metodlari, kasb-hunar ta'lim tizimi, kasbiy ta'limning shakllanishi, ta'lim sohasidagi muammolar, kasbiy faoliyat, o`qitish metodikasi, metod va usullar, o`qitishning tashkiliy ko`rinishlari, afzalliklar, kamchiliklar, noan`anaviy modellar.*

**An`anaviy dars** — muayyan muddatga mo`ljallangan, ta`lim jarayoni ko`proq o`qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta`lim modelidir. O`quv materiali yangi va ancha murakkab bo`lganda, an`anaviy dars — ko`p hollarda ta`lim jarayonining birdan — bir metodi bo`lib qolmoqda.

Ma`lumki, an`anaviy darsda ta`lim jarayonining markazida o`qituvchi turadi. SHu bois, ba`zida an`anaviy darsni markazida o`qituvchi turgan o`qitish usuli deb ham atashadi.

An`anaviy dars o`tish modelida ko`proq ma`ruza, savol —javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. SHu sabab, bu hollarda an`anaviy dars samaradorligi ancha past bo`lib, o`quvchilar ta`lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar.

*An`anaviy dars o`tishda mashg`ulotning bosqichlarini quyidagicha rejalashtirish mumkin.*

1. *Kirish.* O`tilgan materialni takrorlash; darsning maqsadini tushuntirish; yangi darsning mavzusi va mashg`ulot rejasi bilan tanishtirish.

2. *YAngi mavzuni yoritish.* YAngi mavzuni kichik — kichik bo`lakchalarga bo`lib berish; rang —barang misollarni imkoni boricha ko`rgazmali taqdim qilish;

mavzudan chetlashmaslik; materialning murakkab tomonlarini qayta tushuntirish;

o`quvchilarning tushunganlik darajasini tekshirib borish; teskari aloqani ta`minlash.

3. *«Teta—poya» mashq.* Biror misol (yoki masalani) o`quvchilar bilan qadamba — qadam hal qilish va tahlil qilish:
4. *Yo`naltirib turiluvchi mashq.* O`quvchilar mashq (yoki masalani) mustaqil bajarishadi, o`qituvchi esa ularni nazorat qilib, tuzatish kiritib boradi.
5. *Mustaqil bajariladigan mashq.* O`quvchilar mashqni mustaqil holda o`qituvchi yordamisiz bajarishadi.
6. *O`quvchilarning tushunganlik darajasini tekshirish.* Nazorat savollari bilan murojaat etish va mavzuni o`zlashtirish darajasini aniqlash.
7. *YAkunlash.* Dars mavzusining asosiy tushunchalarini va o`quv maqsadlarini jamlash.

Ko`rinib turibdiki, an`anaviy dars mashg`ulotida barcha dars bosqichlari qadamba-qadam amalga oshiriladi va hech qanday g`ayrioddiylik mavjud emas. Bu o`quvchini darsga bo`lgan ishtiyoqining sustligini va dars o`tishdagi bir xillikni ta`minlaydi. SHunday bo`lsada, an`anaviy o`qitishda o`ziga xos ijobiy va salbiy xususiyatlar mavjuddir. Zero, a*n`anaviy ta`lim metodlari quyidagi* **afzalliklarga** *ega:*

- ma`lum ko`nikmalarga ega bo`lgan va aniq ma`lum tushunchalarni, fanni o`rganishda foydali ekanligi. Bu an`anaviy ta`limda ilmiylik tamoyilining amal qilayotganligi va o`quvchida tizimli bilimlarning hosil bo`layotganligidir;
- o`qituvchi tomonidan o`qitish jarayonini va o`qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi, ta`limning tarbiyaviy harakterini ifodalaydi.

Bunda talabalar sust ishtirok etsalar ham, dars mashg`ulotida ular yuqori intizom na`munalari ko`rsatadilar;

- vaqtdan unumli foydalanish natijasida barcha mashg`ulot bosqichlarining to`liq amalga oshishi va vaqt taqsimotining izchillik bilan namoyon bo`lishi kuzatiladi.

*An`anaviy ta`lim metodlari bugungi kunda qator* **kamchiliklar***ga* ham egaki, bu o`quv jarayonida noan`anaviy ta`lim metodlarini qo`llash ehtiyojlarini paydo qiladi. Bu kamchiliklar quyidagilardir:

- o`quvchilar passiv ishtirokchi bo`lib qoladilar, dars mashg`uloti markazida hamda asosiy boshqaruvchilik rolida o`qituvchining turganligi bunday passivlikka olib keladi;
- o`qituvchining to`la nazorati barcha o`quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi. CHunki, o`quvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan barcha xatti-harakatlar qat`iy talab asosida sodir bo`ladi. Bu o`quvchida ijodiy tashabbusni uyg`otmaydi;
- o`quvchilar o`qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydilar. CHunki, har bir dars bosqichi muayyan qoidalarga asoslanganligi va bu bosqichlar o`qituvchining ixtiyorida sodir bo`layotganligi muloqotning har xil shakllarini namoyon bo`lishiga ehtiyoj tug`dirmaydi;
- eslab qolish darajasi hamma o`quvchilarda bir —xil bo`lmaganligi sababli, sinf bo`yicha o`zlashtirish darajasi past bo`lib qolishi mumkin. YA`ni, an`anaviy ta`limda mashg`ulotga va bilish jarayoniga o`quvchilarni qiziqtiruvchi har xiluslublarni, xotirani mustahkomlovchi o`yinli texnologiyalarni qo`llash imkoniyatlaridan foydalanilmasligi mazkur oqibatlarni keltirib chiqaradi;
- mustaqil o`rganish va mustaqil qarorlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi. Talabani ijodiy fikrlashga undovchi kuchning mavjud emasligi tabiiy ravishda yangi g`oyalarni ishlab chiqish uchun sharoitlarni yuzaga keltirmaydi.

O`qitishning **noan`anaviy modellari**ni shartli ravishda 3 ga ajratish mumkin.

Bu modellar asosan o`quvchi shaxsiga qaratilgan bo`lib, ularni boshqacha qilib markazda o`quvchi turgan ta`lim modellari deb ham atashadi.

**Modellashtirish** — real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko`rinishini (modelini) sinfxonada yaratish va ularda o`quvchilarni shaxsan qatnashishi va faoliyati evaziga ta`lim olishini ko`zda tutuvchi metod.

**Hamkorlikda o`rganish modeli**—o`quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta`lim olishini ko`zda tutadigan metod.

**O`rganishning tadqiqot modeli** — o`quvchilarni muayyan muammoni yechishga yo`naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko`zda tutuvchi metod.

*Noan`anaviy (ta`lim jarayoni markazida o`quvchi bo`lgan) o`qitish metodlarning* **afzalliklari:**

- o`qitish mazmunini yaxshi o`zlashtirishga olib kelishi;
- o`z vaqtida aloqalarning ta`minlanishi;
- tushunchalarni amaliyotda qo`llash uchun sharoitlar yaratilishi;
- o`qitish usullarining turli xil ko`rinishlari taklif etilishi;
- motivatsiyaning yuqori darajada bo`lishi;
- o`tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi;
- muloqotga kirishish ko`nikmasining takomillashishi;
- o`z—o`zini baholashning o`sishi;
- o`quvchilarning predmetning mazmuniga, o`qitish jarayoniga bo`lgan ijobiy munosabati;
- mustaqil fikrlay oladigan o`quvchining shakllanishiga yordam berishi;
- nafaqat mazmunini o`zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashni ham rivojlantirishi;
- muammolar yechish ko`nikmalarining shakllanishi;
- mashg`ulotga tayyorgarlik uchun juda ko`p vaqt talab etilishi;
- o`quvchilarni har doim ham keraklicha nazorat qilish imkoniyatining pastligi;

- juda murakkab mazmundagi material o`rganilayotganda ham o`qituvchi rolining past bo`lishi;
- «Kuchsiz» o`quvchilar bo`lganligi sababli «kuchli» o`quvchilarning ham past baho olishi;
- o`qituvchining o`zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko`nikmalariga ega bo`lishining talab etilishi.

SHunday qilib, bugungi kunda dars mashg`ulotlarida ham an`anaviy, ham noan`anaviy o`qitish modellaridan foydalaniladi. Bunda mavzuning xususiyatiga, o`zlashtiriladigan materialning mazmuniga va o`quv maqsadlarining tarkibiga va nazorat tizimining qanday tashkil etilish jihatlariga e`tibor beriladi.

Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, an`anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli — tuman o`quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o`quvchilarning o`zlashtirish darajasini ko`tarilishiga olib kelar ekan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o`qituvchi tomonidan o`quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta`lim jarayonida faolligi muttasil rag`batlantirilib turilishi, o`quv materialini kichik — kichik bo`laklarga bo`lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot, rolli o`yinlar metodlarini qo`llash, rang—barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o`quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang — barang baholash usullaridan foydalanish, ta`lim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. An`anaviy dars deb nimaga aytiladi?
2. An`anaviy darsda ta`lim jarayonining markazida kim turadi?
3. An`anaviy dars o`tish modelida ko`proq qaysi usul turadi?
4. An`anaviy dars o`tishda mashg`ulotning bosqichlarini qanday rejalashtirish mumkin?
5. An`anaviy ta`lim metodlari qanday afzalliklarga ega?
6. Modellashtirish metodi haqida nimalarni bilasiz?

7. Noan`anaviy ta`lim metodlari qanday afzalliklarga ega?



## 19.3. Darslarni aniq yo'naltirilgan savollar asosida olib borish uslubi, guruhlarni juftlik yoki kichik guruhlarga bo'lib dars o'tish uslubi, dars jarayonida modellashtiruvchi o'yinlarni qo'llash, modellashtiruvchi o'yin usulining afzalliklari, kursni o'rganishda tadqiqot uslubi.

***Tayanch so'z va iboralar:***

*Ta'lim jarayoni, tashkiliy shakllar, hususiyatlarga binoan turlanish, asosiy o'ziga hos jihatlar, tizimining ijobiy tomonlari, kasb ta'limining maqsad va vazifalari, zamonaviy dars, didaktik talablar, tarbiyaviy talablar, rivojlantiruvchi talablar.*

Kasb-hunar kollejlarida o'quvchilarga ta'lim berishning shakllari xilma-xildir. Masalan: nazariy bilimlar o'quvchilarga asosan dars jarayonida ekskursiyalar, konsultatsiyalar jarayonida beriladi. Amaliy bilimlar esa, o'qitishning boshqa shakllarini talab etadi. Bunda labaratoriya, o'quv ustaxonalari, yer uchaskasida amalga oshiriladigan amaliy mashgulotlarga kiradi. Pedagogik amaliyot ham o'quvchilarga ilmiy bilimlar berishning eng muhum shakllaridan biridir.

O'quvchilarga ta'lim berish shakllari qanchalik xilma-xil bo'lmasin bular ichida yetakchi rolni dars o`ynaydi. Dars deb - o'quvchilarning qat'iy guruhi bilan o'qituvchi rahbarligida o'tkaziladigan mashg'ulot turiga aytiladi. Dars qat'iy jadval va davlat dasturi asosida o'tiladi. Dars o'quvchilarga chuqur bilim berishnigina nazarda tutib qolmay, balki ularda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni shakllantirishni mehnat ko'nikma va malakalar berishni ham nazarda tutadi.

Ta'limning dars shakli fan asoslarini muntazam, chuqur, puxta o'zlashtirishga yordam beradi. O'qituvchi darsda o'quvchilarning xilma-xil ishlarini ishlarini tashkil qilish orqali yangi bilimlar beradi, ular bilimni qanchalik o`zlashtirayotganini nazorat qilib boradi va bu bilan o'quvchilarning bilimini puxta egallashlariga erishadi.

Kasb-hunar kolleji amaliyotida yuqoridagilardan tashqari kino dars, muammoli dars, dars viktorina, dars KVN kabi shakllari ham qo‘llaniladi. O‘qituvchi istiqbol rejasini tuzar ekan, o‘quv materialining mazmuni va vazifalariga qarab yuqoridagi dars tiplaridan u yoki bunisini tanlaydi. Har-bir darsga tayorgalik ko‘rayotganida esa, o‘qituvchi o‘quv jarayoniga qo‘yiladigan g‘oyaviy-pedagogik, fizologik-gigenik, psixologik va metodik talablarga so‘zsiz rioya qiladi.

Ta’lim jarayoniga qo‘yiladigan g‘oyaviy, siyosiy, pedagogik talablar, avvalo, bilimlarning ilmiy bilishini va o‘quvchilardan ma’naviy va axloqiy xislatlar va mustahkam e’tiqodni shakllantirishni nazarda tutadi. Buning ma’nosi shuki har bir dars tarbiyalovchi harakterga ega bo`lishi lozim. O‘qituvchi dars mazmunidan foydalanib o‘quvchilarda vatanparvar va milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirish va ularga axloq normalarini singdirib borishi lozim.

Darsga qo‘yiladigan fizologik-gigenik talablar o‘quvchilarning jismoniy va psixologik xususiyatlariga xos gigenik sharoit yaratishni nazarda tutadi. Masalan: bo‘yi, ko‘rish va eshitish qobiliyatlariga qarab ularni partaga to‘g‘ri joylashtirish, xonani yetarli darajada yoritish va shamollatib turish, kerakli jihozlarni to‘g‘ri tanlash va joylashtirish, ko‘rgazmali qurollarning ochiq rangda yozilganligi va o‘quvchilarga ko‘rinarli bo‘lishi shular jumlasidandir.

Darsga qo‘yiladigan psixologik talablarga esa, o‘quvchi tomonidan darsning maqsadi va uning amaliy ahamiyatini tushunib yetish, darsni o‘quvchilarning yoshi individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish, har bir dars davomida tegishli tushuncha hukm va xulosalar hosil qilishga erishish kabilar kiradi.

Metodik talablarga esa, darsni to‘g‘ri tashkil etish xilma-xil o‘qitish metodlaridan unumli foydalanish, darsning har bir etapini bir-biriga uzviy bog‘lay olish, o‘quvchilar diqqatini materialga jalb qila bilish va to‘la tushunib olishlariga erinmaslik kabilar kiradi. Har bir dars aniq maqsad va tuzilishga ega bo‘lishi lozim. Darsning maqsadi o‘quvchiga qanday va qancha bilim berish shu bilimlar asosida ularda nimani tarbiyalash kerak degan savolga javob beradi. Darsning

aniq maqsadiga ega bo`lish uchun to`g`ri rejalashtirishga olib keladi. Reja asosida o‘tilgan dars bilimlar tizimining ketma-ketligiga va ular o‘rtasida uzviy bog`lanishni hosil bo‘lishiga imkon beradi. Sizningcha dars samaradorligini oshirish uchun nima ishlar qilish kerak?

Dars tuzilishi deganda uning bosqichlarini va har bir bosqichning to‘g‘ri bajarilishini tushunamiz. Darsning tuzilishi o‘quvchilarning ish qobiliyatiga faol ta’sir qiladi. Shunday ekan, uni pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilishni o‘ylash lozim. Darsning har bir bosqichi uchun ajratilgan vaqt to‘g‘ri va oqilona foydalanish dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Dars jarayonida mashg‘ulot turini almashtirib turish esa, o‘quvchilar diqqatining barqaror bo‘lishini ta’minlaydi.

Talabalar faolligini ta`minlovchi asosiy omillardan biri hamkorlikda ishlash texnologiyalarini ishlab chiqish ekan, “Kichik guruhlar faoliyati qanday tashkil etiladi?” degan tabiiy savol paydo bo`ladi.

Eng avvalo, ta`limning guruhli shakli «ta`lim beruvchi — ta`lim oluvchi» dialogidan voz kechishni va «ta`lim beruvchi — guruh —ta`lim oluvchi» ko`rinishidagi uch tomonlama o`zaro munosabatga o`tishni nazarda tutadi. O`quv guruhi, tarkibi bo`yicha harakatchan kichik guruhlarga bo`linadi va ularning har — biri o`zicha o`quv materialini o`zlashtiradi. Tajriba shuni ko`rsatadiki, shu tufayli o`qituvchi bilan ta`lim oluvchilar o`rtasida ancha mustahkam aloqa o`rnatiladi, shaxsiy va bir vaqtning o`zida ta`lim jarayonida jamoaviy ruhiy holat kuchayadi.

Ta`lim oluvchilarning hamkorlikdagi harakati tashkillashadi, bu esa, o`quv-bilish jarayonini faollashtirishga, ularda empatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga ko`maklashadi.

Vazifani hamkorlikda bajarish jarayonida, ta`lim oluvchilarda, o`rtoqlari tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilishga motivatsiya paydo bo`ladi. Ta`lim oluvchilar bir-biriga savollar beradilar, shuning uchun, ular savollarni aniq shakllantirishni bilishlari zarur, javoblarni - argumentlashtirishni, tushunishga erishish uchun esa, ular bir birlarini diqqat bilan eshitishlari kerak.

Guruhlarda ishlash paytida, zarurati bo`lganda, ta`lim oluvchilar yordam berishlarini so`raydilar va boshqalarga yordam berishni o`rganadilar. O`rtacha qobiliyatga ega yoki xarakteri bo`yicha qo`rqoq bolalar o`z bilimlari va mahoratlarini namoyon qilish imkoniyatini oladilar. Kichik guruhlarda ishlash, ularni stress holatlardan xalos etadi, ya`ni noto`g`ri javob berganda butun jamoa oddida izza bo`lishdan qo`rqishdan holi bo`ladi. Guruh a`zolari, javobni do`stona baholab, ularda o`ziga ishonch tuyg`usini uyg`otish imkonini beradilar. 4-5 kishidan iborat guruhda, qo`rqoq kishi, 25 kishilik guruh oldida o`zini tutishga nisbatan, o`zini ancha erkin his etadi.

Guruhlarda ishlashga tayyorgarlik ko`rish paytida quyidagilarga e`tibor berish zarur.

Birinchidan, guruhlar qanday tuzilganda yaxshi natija beradi?

• *Belgilari bo`yicha:*

- ixtiyoriy yoki noformal belgilari bo`yicha tuzilgan aralash guruhli;
- yoki o`quv yutuqlari darajasi bo`yicha tuzilgan, ya`ni: baravarlashtirish, qo`llab-quvvatlash, rivojlantirish guruhlari;
- yoki psixologik jihatdan bir-biriga to`g`ri kelish darajasi bo`yicha tuzilgan yoki biron-bir boshqa belgilari bo`yicha tuzilgan.

• Soni bo`yicha:

- 2 dan to 5 kishigacha uncha katta bo`lmagan vazifalarni bajarish uchun;
- 5 dan to 7 kishigacha — murakkab vazifalar uchun.

• *Vaqt bo`yicha:*

Kichik guruhlar, belgilangan vazifani bajarish uchun qancha vaqt ajratilgan bo`lsa, shuncha vaqt faoliyat ko`rsatadi.

Albatta, agar muammoli tadqiqot qilish kerak bo`lgan vazifa qo`yilsa, uni bajarish uchun bir nechta o`quv mashg`uloti kerak bo`ladi. Demak, guruhlar ham bir nechta darslarda faoliyat ko`rsatib, vazifa bajarilgach, hisobot beradilar va guruhlar sifatida faoliyatini to`xtatadi.

Ta`lim oluvchilarni guruhlarda ishlashga o`rgatish o`ta muhimdir. Guruhdagi asosiy ishtirok etuvchilar:

• *Ta`lim oluvchilar-g*uruh a`zolarining majburiyatlarini bilishlari va bajarishlari zarur:

- har bir a`zo o`rtoqlarini fikrini eshitishi lozim.
- har bir a`zo ishda faol qatnishishi va hamkorlikda ishlashdan bo`yin tortmasligi kerak;
- har bir a`zo, zarurati bo`lganda yordam so`rashi kerak;
- har bir a`zo, undan yordam so`rashganda, boshqalarga o`z yordamini berishi kerak;
- har bir a`zo guruh ishining natijalarini baholashda ishtirok etishi kerak;
- har bir a`zo o`zining rolini yaxshi tushunishi va bajarishi kerak;
- har bir a`zo, konkret vazifani bajarishda, o`zining konkret vazifasini bilishi kerak.

• Y*etakchi*:

Guruhning vazifasi, to`g`ridan - to`g`ri guruh yetakchisi yoki ta`lim oluvchining rahbarligi ostida bajariladi. Guruh a`zolaridan bittasini yetakchi (skiper, tashkilotchi) etib tayinlash lozim. Uni, teng ravishda, o`z fikrini aytmaydigan va past natijalar ko`rsatgan yoki yaxshi o`zlashtiradigan va faol ta`lim oluvchilarning ichidan tanlash mumkin.

O`quv jamoasining yetakchisi guruh yetakchisi rolini bajarishi shart emas. Barcha o`quvchilar, yetakchining rolini tushunishiga iqror bo`ling. U, turlifunktsiyalarni bajarishi mumkin, lekin, doimo, barcha o`quvchilarni ishni bajarishda qatnashishi ustidan nazorat qilishi kerak.

Yetakchilarga, ularning roli, nafaqat guruh nomidan yakun yasashdan iborat emasligini tushunishlariga yordam berish darkor: ularga, guruh vazifalarini bajarish usullari, guruhning har bir a`zosini individual ulushi to`g`risida gapirib berish kerak.

Katta guruhlarda bahs yoki munozara uyushtirilganda, boshlovchining roli ayniqsa kattadir. CHunki u har bir guruhdagi tortishuvlar va fikr almashinuvlarning boshida turmog`i kerak bo`lsa, ular faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda yo`naltirib turmog`i lozim. Kichik guruhdagidan farqli o`laroq,

katta guruhlarda boshlovchi u yoki bu ichki guruxga yon bosmasligi yoki ularni o`zining shaxsiy fikriga majburan ergashtirmasligi kerak. Aks xolda, u o`zining faoliyati bilanboshqalar tashabbusiga salbiy ta`sir ko`rsatishi va bahsning yo`nalishini buzib qo`yishi mumkin. SHuning uchun katta guruhlar uyushtiriladigan munozarannig mavzusi oldindan tanlangan va unga boshlovchi ma`lum ma`noda tayyor bo`lishi shart.

Guruhlar bilan ishlashda e`tibor berilishi kerak bo`lgan yana bir holat, bu vazifaning mazmuni masalasidir. Vazifaning mazmuni o`qitishning an`anviy shakllariga qaraganda boshqacharoq xarakterga ega bo`lishi lozim. Masalan guruhga darslikdagi ma`lum bir paragrafni konspektini olish vazifa sifatida berish maqsadiga muvofiq emas, chunki har bir o`quvchi bu ishni o`zi, mustaqil bajarishi mumkin.

Amaliyot shuni ko`rsatmoqdaki, muammoni nostandart qo`yilishigina, o`quvchilarni bir-biridan yordam olishga, boshqalarning ham fikrini bilishga, natijada esa, guruhning umumiy fikrini shakllantirishga undaydi.

Quyida «Windows operatsion tizimining tashxis dasturlari bilan ishlash» mavzusini o`qitishda talabalarning faol munosabatlarini tashkil etish uslublaridan ayrimlarini va ularni amalga oshirish texnologiyalarini tavsiya qilamiz.

## “FSMU texnologiyasi”

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o`tkazishda yoki o`quv-seminari yakunida talabalarning o`quv mashg`ulotlari hamda o`tilgan mavzu va bo`limlardagi ba`zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida qo`llanilishadi. CHunki bu texnologiya talabalarni o`z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o`z fikrini boshqalarga o`tkazishda, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o`quvchi-talabalar tomonidan o`quv jarayonida egallangan darajasini aniqlashga, baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o`rgatadi.

Ushbu texnologiya talabalarni tarqatilgan oddiy qog`ozga o`z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Texnologiyani o`tkazish tartibi:

- o`qituvchi har bir talabaga FSMU texnologiyasining to`rt bosqichi yozilgan qog`oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to`ldirishni iltimos qiladi. Bu yerda:

- **F** – fikringizni bayon eting;
- **S** – fikringiz bayoniga sabab ko`rsating;
- **M** – ko`rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;
- **U** – fikringizni umulashtiring.

- o`qituvchi talabalar bilan, bahs mavzusi (yoki muammo)ni belgilab oladi;

**Bahs-munozara mavzusi**

*Windows operatsion tizimi tashxis dasturlarining tizim ishini muvofiqlashtiruvchi funktsiyalari!*

- yakka tartibdagi ish tugagach, talabalar kichik guruhlarga ajratiladi va o`qituvchi kichik guruhlarga FSMU texnologiyasining to`rt bosqichi yozilgan katta formatdagi qog`ozlarni tarqatadi;
- kichik guruhlarga har birlari yozgan qog`ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda to`rt bosqich bo`yicha yozishlarini taklif etiladi;
- o`qituvchi kichik guruhlarning yozgan fikrlarini jamoa o`rtasida himoya qilishlarini so`raydi;
- mashg`ulot o`qituvchi tomonidan muammo bo`yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

**"Rezyume texnologiyasi"**

*Texnologiyaning tavsifi*. Bu texnologiya murakkab, ko`p tarmoqli mumkin qadar muammoli mavzularni o`rganishga qaratilgan. Texnologiyaning moxiyati shundan iboratki, bunda bir yula mavzuning turli tarmoqlari bo`yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri aloxida nuqtalardan muhokama etiladi.



## *Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:*

1. Ta’lim jarayoni ishtirokchilariga kimlar kiradi?
2. Kasbiy ta’limning tashkiliy shakllari qaysi hususiyatlariga binoan turlanadi?
3. Sinf-dars tizimining asosiy o‘ziga hos jihatlari nimalardan iborat?
4. Sinf-dars tizimining ijobiy tomonlari nimalardan iborat?
5. Kasbiy ta’lim darslariga qanday talablar qo‘yiladi?
6. Kasb ta’limida zamonaviy darslarga qanday didaktik talablar qo‘yiladi?
7. Kasb ta’limida zamonaviy darslarga qanday tarbiyaviy talablar qo‘yiladi?
8. Kasb ta’limida zamonaviy darslarga qanday rivojlantiruvchi talablar qo‘yiladi?

## *Foydalanilgan adabiyotlar*


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
2. 2017-2021yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Abdiquddusov O., Rashidov H. Kasb-xunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
4. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
5. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.
6. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.
7. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.

8. www.inter-pedagogika.ru
9. www.didaktika.ru
10. www.School. edu. uz
11. www.Ppsy. ru
12. www.Bank/referat. ru

## MODUL V. DARSDAN HAMDA O‘QUV MUASSASASIDAN TASHQARI O`QUV-TARBIYA ISHLARINI TASHKIL QILISH.

**MODULNING UMUMIY MAQSADI:** Ekskursiyani tayyorlash, o‘tkazish hamda uning yakuni bo‘yicha hisobot ishlari, to‘garak qatnashchilarining rejalarini tuzish, to‘garak qatnashchilarining faolligini oshirish yo`llari, ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish, o‘quvchilar ishlab chiqargan mahsulotlar ko‘rgazmalari va o‘quvchilarning kasbiy mahorat tanlovlariga oid nazariy bilim berish, beshinchi modulga oid dastlabki ko‘nikmalarni shakllantirish

MODULNING O‘QUV MAQSADLARI:

**ta’limiy maqsad**: talabalarga beshinchi modul va uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, beshinchi modulga oid tushunchalarni o‘zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;

**tarbiyaviy maqsad**: talabalarda fanning o‘ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;

**rivojlantiruvchi maqsad**: talabalarning kasbiy yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashini va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.

## MAVZU 20. DARSDAN HAMDA O`QUV MUASSASASIDAN TASHQARI MASHG`ULOTLARNI REJALASHTIRISH VA TASHKILLASHTIRISH.

***O’quv maqsadi*** ⇒ *Ekskursiyani tayyorlash, o‘tkazish hamda uning yakuni bo‘yicha hisobot ishlari, ommaviy tadbirlarni tashkillashtirishiga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganish*

## 20.1. Ekskursiyani tayyorlash, o‘tkazish hamda uning yakuni bo‘yicha hisobot ishlari, to‘garak qatnashchilarining rejalarini tuzish, to‘garak qatnashchilarining faolligini oshirish yo‘llari.



***Tayanch so`z va iboralar:***

*Ekskursiyalar, rahbarlik qilish, intizomga qat’iy rioya qilish, loyixalash vazifalari, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlari, faoliyat tizimini, tarbiyaviy ishlar rejasi, zamonaviy tashkil etish, ijodiy jarayon.*

**Ekskursiyalar**. Noan’anaviy dars shakllaridan biri hisoblangan ekskursiyalar sinf-dars tizimi, shuningdek, amaliy mashg‘ulotlardan tubdan farq qiladi. Bu farqlar quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- ta’lim oluvchi rejalashtirilgan va o‘tkaziladigan barcha ekskursiyalarga rahbarlik qilsa ham, u ekskursiya obyektlarining barcha detallarini yaxshi bilmasligi mumkin, bunday hollarda maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan ekskursovod ish olib boradi;
- ekskursiya muddati turlicha bo‘lib, unda doimiy o‘quv jadvali talablariga amal qilish mas’uliyati mavjud;
- ta’lim beruvchi yoki ekskursovodning rahbarlik usuli va ta’lim oluvchilar faoliyati turlicha bo‘lishi mumkin.

Ekskursiyalar to‘rt yo‘nalishda uyushtiriladi.

Ekskursiya davomida ta’lim oluvchilardan intizomga qat’iy rioya qilish talab etiladi. Ta’lim oluvchilar obyektni kuzatish jarayonida vaqti-vaqti bilan savollar beradilar, zarur ma’lumotlarni yozib boradilar. Ekskursiya davomida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarning bugungi kuzatganlarini avval o‘zlashtirilgan materiallarga bog‘lab suhbat o‘tkazadi. Ekskursiya materiallari asosida ta’lim oluvchi hisobot, bayon yoki insho yozadi.

O‘quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini loyixalash vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijtimoiy moslashuv doirasini tashkil etish va o‘kuvchilarning ijtimoiy harakatchanligini ko‘rsatish;

- bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy moslashuvi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish;
- o‘quvchilarni mustaqil ravishda ta’limni davom etgirishga yo‘naltirish;
- har bir o‘quvchining qobiliyati, qiziqishi va ishtiyoqlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- o‘quvchilarga bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanishni va dam olishni o‘rgatish.

Darsdan tashqari faoliyat tizimi ko‘p komponentli bo‘lib, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlari quyidagi tarkibda, tartibda, shaklda va joylarda amalga oshirilishi mumkin:

- o‘quv guruhi tarkibida;
- o‘quv yurti jamoasi tarkibida;
- individual (yakkama-yakka) tartibda;
- ijtimoiy birlashmalarda va tashkilotlarda;
- klublarda, to‘garaklarda, muzeylarda;
- mehnat jamoalarida;
- alohida fanlarni chuqur mustaqil o‘rganish chog‘ida;
- ta’lim muassasasidan tashqaridagi madaniy dam olishning turli shakllarida.

O‘quvlarning darsdan tashqari faoliyat tizimining o‘ziga xosligi shundaki, uning har bir komponenti alohida loyihalashtiriladi va har doim ham pedagogik ta’sir doirasi bilan qamrab olinmaydi.

O‘quvchilarning darsdan tashkari shakllari:

- o‘quv yurtining ish rejasi;
- o‘quv yurtining o‘quvchilar bilan olib boradigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar rejasi;
- o‘quv guruhlari o‘quvchilari bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar rejasi va boshqalar.

O‘quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar rejasini tuzishning asosiy tartiblari va qoidalari:

- diagnostik asos yaratish;

- o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini, jamoaning mahorat darajasi va shakllanganligini hisobga olish;
- tarbiyaviy jarayonda asosiy mazmuniy komponentlarga muvofiq faoliyatani qo‘yish ishlarini belgilash;
- tadbirlarni o‘tkazish muddatlarini, kunlarini, ishtirokchilarini aniq belgilash;
- tarbiyaviy ishlar rejasining qulayligi, hayotiyligi va aniqligi;
- tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda o‘quvchilarning shaxsan ishtiroki.

Darsdan tashqari faoliyatni zamonaviy tashkil etish ijodiy jarayon bo‘lib, tarbiyachidan chuqur bilim, malaka va hohish talab o‘quvchilardan ham ularning intilishlari va ehtiejlarini talab etadi. O‘quvchilar va tarbiyachi qiziqishlarini birlashtirish, tarbiyada mualliflik tizimini shakllantirishning yagona yo‘lidir. Bu holda, tarbiya shaxs kamolotini boshqarish jarayoni, uning ijtimoiylashuvi va rivoji uchun sharoit va imkoniyatlar yaratish mezoni sifatida qaraladi. Darsdan tashkari faoliyat (dam olishni tashkil etish) esa, shaxsning ijodiy imkoniyatlarini yuqoriga ko‘tarish (birinchi navbatda, tarbiyachining), uning ijtimoiy faolligini amalga oshirish maydoni sifatida tushunilishi mumkin.

Hordiq – insonning yangilanish, tiklanish, uning jismoniy va ma’naviy kuchini ko‘paytirish, dunyoqarashini boyitish, ijodiy faolligini oshirishni amalga oshirishga mo‘ljallangan va shu asosda rejalashtirilgan shaxsiy vaqtning bir qismidir.

Ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish asosiga ilg‘or milliy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va mezonlar, xalq pedagogikasi, marosimlar, bayramlar, o‘yinlar va boshqalar qo‘yilishi kerak. Ularni tashkil etishda va o‘tkazishda tarbiya texnologiyalaridan yoki inter faol uslublaridan foydalanish o‘quvchida o‘z yurtiga mexr-muhabbat, oilaparvarlik, kasbiy fidoiylikni shakllantirishga yordam beradi.

To‘garaklar talaba-yoshlarning optimal yechimlarini izlab topishga oid ko‘nikma va malakalarini, egallangan bilim, kunikma va malakalarni amaliyotga tabid eta olish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan Ilmiy-ijodiy uyushma sifatida qiziqishlari uzaro yaqin bo‘lgan bir guruh talabalarining ma’lum fan va

yo‘nalishlar bo‘yicha tashkil etiladi va unga kafedra va bo‘linmalarning tajribali professor-o‘qituvchilari rahbarlik qilishadi. Zarur hollar- da bu ishga sohaning taniqli vakillari tashqaridan taklif etilishi mumkin.

To‘garak kafedra mudiri, fakultet dekani tavsiyasi asosida rektorning buyrugi bilan tashkil etiladi. Unga tajribali professor-o‘qituvchilar rahbarlik qiladi va yo‘nalishlar bo‘yicha mas’ul prorektorlar nazorati ostida fakultet dekanlari tomonidan boshqariladi hamda fakultet Kengashiga muntazam hisobot beradi.

To‘garak rahbarining vakolatlari:

- ilmiy va ijodiy to‘garak Nizomiga o‘zgartirishlar va to‘ldirishlar kiritish tashabbusi bilan chiqadi;
- to‘garak a’zolarining sonini (ishtirokchilar soni 10 nafardan kam bo‘lmasligi kerak) belgilaydi;
- to‘garak vakolatlarini va uning asosiy faoliyat yo‘nalishlarini belgilaydi;
- to‘garak a’zolari va yo‘nalishlar bo‘yicha to‘garak a’zolari tomonidan taqdim etilgan dasturiy xujjat, loyiha va konsepsiyalarni muhokama qiladi va ular yuzasidan tegishli qarorlar qabul qiladi;
- to‘garak faoliyatini takomillashtirishga doyir turli taklif va tashabbuslar bilan chiqadi.

To‘garak raxbarlarida kuyidagi me’yoriy-xuquqiy xujjatlar bo‘lishi lozim:

- OTMda qabul qilingan Nizom asosida ishlab chiqilgan to‘garak Nizomi;
- to‘garak dasturini tuzish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar;
- institut soxa prorektori hamda fakultet Kengash tomonidan tasdiqlangan to‘garakning yillik ish rejasi;
- ishtirokchilarning davomatini qayd qilish jurnali;
- to‘garak ish jadvali;
- to‘garak ishtirokchilarining ro‘yxati;
- to‘garak faoliyatiga oid xisobotlar.

To‘garak yig‘ilishlari uning xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Xar qanday xolatda ham uning haftasida kamida bir marta yigilishi shart.

To‘garak kafedra mudiri, fakultet dekani tavsiyasi asosida rektorning buyrugi bilan tashkil etiladi. Unga tajribali professor-o‘qituvchilar rahbarlik qiladi va yo‘nalishlar bo‘yicha mas’ul prorektorlar nazorati ostida fakultet dekanlari tomonidan boshqariladi hamda fakultet Kengashiga muntazam hisobot beradi.

To‘garak rahbarining vakolatlari:

- ilmiy va ijodiy to‘garak Nizomiga o‘zgartirishlar va to‘ldirishlar kiritish tashabbusi bilan chiqadi;
- to‘garak a’zolarining sonini (ishtirokchilar soni 10 nafardan kam bo‘lmasligi kerak) belgilaydi;
- to‘garak vakolatlarini va uning asosiy faoliyat yo‘nalishlarini belgilaydi;
- to‘garak a’zolari va yo‘nalishlar bo‘yicha to‘garak a’zolari tomonidan taqdim etilgan dasturiy xujjat, loyiha va konsepsiyalarni muhokama qiladi va ular yuzasidan tegishli qarorlar qabul qiladi;
- to‘garak faoliyatini takomillashtirishga doyir turli taklif va tashabbuslar bilan chiqadi.

To‘garak raxbarlarida kuyidagi me’yoriy-xuquqiy xujjatlar bo‘lishi lozim:

- OTMda qabul qilingan Nizom asosida ishlab chiqilgan to‘garak Nizomi;
- to‘garak dasturini tuzish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar;
- institut soxa prorektori hamda fakultet Kengash tomonidan tasdiqlangan to‘garakning yillik ish rejasi;
- ishtirokchilarning davomatini qayd qilish jurnali;
- to‘garak ish jadvali;
- to‘garak ishtirokchilarining ro‘yxati;
- to‘garak faoliyatiga oid xisobotlar.

To‘garak yig‘ilishlari uning xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Xar qanday xolatda ham uning haftasida kamida bir marta yig`ilishi shart.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Ekskursiyalar sinf-dars tizimi, shuningdek, amaliy mashg‘ulotlardan qanday farq qiladi?
2. Ekskursiya davomida ta’lim oluvchilardan nimalarga qat’iy rioya qilish talab etiladi?
3. O‘quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini loyixalash vazifalariga nimalarni kiritish mumkin?

4. Darsdan tashqari faoliyat tizimi o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlari qanday tarkibda, tartibda, shaklda va joylarda amalga oshirilishi mumkin?

5. O‘quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar rejasini tuzishning asosiy tartiblari va qoidalari nimalardan iborat?

6. Ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish asosiga nimalar kiradi?

## 20.2. Ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish, o‘quvchilar ishlab chiqargan mahsulotlar ko‘rgazmalari, o‘quvchilarning kasbiy mahorat tanlovlari.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish, ommaviy ish shakllari, yo'nalishning afzalliklari va cheklovlari, ijodiy ish texnologiyasi, topshiriqlarni taqsimlash, ish muvaffaqiyati va kamchiliklari, ijodiy ishlar texnologiyasi, mashg'ulot modelini tayyorlash, guruh mashg'ulotlarini samarali o'tkazish, munozara qoidalariga o'rgatish.*

Guruhdan tashqari ommaviy ish shakllari har bir talabaga jamoa orqali ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Ular talabalarda boshqalarni tushunish malakalarining rivojlanishiga, jamoa bo'lib birgalikda harakat qilishga, tengdoshlari va kattalar bilan hamkorlik qilishga yordam beradi.

Guruhdan tashqari ommaviy ishlarning bu shaklini ikkita katta guruhga ajratish mumkinki, bu guruhlar talabalarning faoliyati xarakteriga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Birinchi guruh — frontal shakllar. Talabalarning faoliyati “yaqin”, “yonma-yon” prinsipi bo'yicha tashkil etiladi, ya'ni ular birgalikda harakat qiladilar, har bir talaba aynan bir xil ishni mustaqil ravishda amalga oshiradi. Pedagog ham har bir talabaga bir vaqtda ta'sir ko'rsatadi. Teskari aloqa cheklangan talabalar bilan amalga oshiriladi. Guruhda olib boriladigan tarbiyaviy mashg'ulotlarning ko'pchiligi “yonma-yon” prinsipi bo'yicha tashkil etiladi.

Talabalarning guruhdan tashqari faoliyatini tashkil etish shakllarining ikkinchi guruhi “birgalikda” prinsipi bilan ajralib turadi. Umumiy maqsadga erishish uchun har bir ishtirokchi o'z rolini bajaradi va umumiy natijaga o'z hissasini qo'shadi. Hamma bajarayotgan ishning muvaffaqiyati har bir ishtirokchining harakatiga bog'liq. Ish bunday tashkil etilganda talabalar bir-birlari bilan yaqindan hamkorlik qilishga majbur bo'ladilar. Bunday faoliyat turi kollektiv (jamoaviy) ish nomini oldi, bu xildagi tarbiyaviy ishlar esa kollektiv tarbiyaviy ishi deb ataldi. Pedagog har bir talabaga alohida ta'sir etmaydi, balki talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqaga ta'sir ko'rsatadi. Bu o'qituvchi bilan talabalar o'rtasidagi teskari aloqaning yaxshi bo'lishiga imkon beradi. Talabalarning juft-juft bo'lib, kichik guruhlarda, guruhda faoliyat ko'rsatishi “birgalikda” prinsipi bo'yicha tashkil etilishi mumkin.

Har bir yo'nalishning o'z afzalliklari va cheklovlari mavjud.

Birinchi guruh pedagog uchun tashkil etishning soddaligi bilan ajralib turadi, ammo unda kollektiv o'zaro hamkorlik malakalari unchalik shakllanmaydi. Ikkinchi guruhning talabalarda hamkorlik qilish, bir-biriga yordam ko'rsatish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish malakalarini rivojlantirishda tengi yo'q. Biroq kichik yoshdagi talabalarning yosh xususiyatlariga ko'ra (ular boshqalarda teng huquqlilikni ko'rmaydilar, kelishib olish, odamlarga aralashishni unchalik bilmaydilar) ishning kollektiv shakllarini tashkil etish pedagogdan ko'p vaqt sarflashni, muayyan tashkilotchilik malakalarini talab etadi. Uning pedagog uchun murakkabligi ham ana shundadir.

Ikkala yo'nalish o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiradi, shu sababli quyida biz har bir yondashuv imkoniyatlarini aniq bir forma (shakl) misolida qarab chiqamiz.

Guruhdan tashqari ishlarni “birgalikda” prinsipi bo'yicha tashkil etishning samarali shakli kollektiv ijodiy ishdirki, uning texnologiyasi o'zbekistonlik olima, pedagogika fanlari doktori, professor R.A.Mavlonova tomonidan ishlab chiqilgan.

Kollektiv ijodiy ish texnologiyasi demokratik ta`lim muassasasi sharoitida ayniqsa aktualdir, chunki u gumanistik negizga — talabalarning kichik guruhlardagi hamkorligi asosiga qurilgan. U to'rtta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda talabalar oldiga umumiy maqsad qo'yiladi. Bu maqsadga erishish uchun ular guruhlarga (3 dan 7-9 kishigacha) bo'linadi. Har bir guruh o'z variantini, bu maqsadga erishish loyihasini taklif etadi. Bu bosqichda faoliyatning umumiy maqsadi asosida talabalarning birlashuvi ro'y beradi va har bir talabada bu faoliyatni asoslash uchun sharoitlar yaratiladi.

Ikkinchi bosqichda taklif qilingan barcha variantlami muhokama qilish davomida bittasi tanlanadi, yoki yig'ma variant yaratiladi. Shundan so'ng har bir guruh vakillaridan ishchi kengashi saylanadi. Bu kollektiv boshqaruv organi bo'lib, ishning barcha ishtirokchilari o'rtasida vazifalarni, bajariladigan ishlarni taqsimlaydi. Talabalar boshqalarning nuqtayi nazarini tushunish, kelishib olishga o'rganadilar.

Uchinchi bosqichda ishchi kengashi tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradi, guruhlar o'rtasida topshiriqlarni taqsimlaydi, zarur yordam ko'rsatish maqsadida ularning ishini tekshirib boradi. Har bir guruh umumiy loyihani amalga oshirishga o'z hissasini qo'shadi. Bunda boshqalarning muvaffaqiyati bir guruhning ishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun guruhlarning ishi ular o'rtasidagi raqobatga emas, balki hamkorlik asosiga quriladi. Bu bosqichda talabalar kollektiv bo'lib faoliyat yuritish tajribasini egallaydilar, bir-birini tushunish, bir-biriga g'amxo'riik qilish, yordam ko'rsatishga o'rganadilar, turli xil amaliy ko'nikma va malakalar hosil qiladilar, o'z qobiliyatlarini rivojlantiradilar yoki kashf etadilar.

To'rtinchi bosqichda o'tkazilgan ish muvaffaqiyat va kamchiliklar nuqtayi nazaridan muhokama qilinadi. Har bir guruh o'zining xatti-harakatini tahlil qiladi,

kelgusiishga doir takliflar aytadi. Mazkur bosqich talabalarda o'zining va boshqalarning ishlarini tahlil qilish, ularga o'zgartirishlar kiritish malakalari shakllanishiga yordam beradi. Talabalarda, shuningdek, obyektiv ravishda o'ziga o'zi baho berish hissi rivojlanadi, chunki bunday muhokamalarda hech qachon talabalarning shaxsiy fazilatlariga daxldor gaplar aytilmaydi.

Kollektiv ijodiy ishlar talabalarga har tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularning shaxsiy tajribasini boyitadi, muomala doirasini kengaytiradi. Kollektiv ijodiy ishlar texnologiyasini muntazam ravishda qo'llashda har bir talaba turli guruhlarda ishtirok etish va turli rollarni (tashkilotchi va ijrochi rolini) bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kollektiv ijodiy ishlar texnologiyasi bilan guruhdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish texnologiyasi o'rtasida ba'zi bir o'xshashliklar bor: unda ham, bunda ham modellashtirish, ishlarni amaliy ravishda bajarish va tahlil qilish mavjud. Shu sababli, agar pedagog o'zini tarbiyaviy ishlarni mazkur algoritm asosida tashkil etishga o'rgatsa, uning talabalarni kollektiv ijodiy ishlarga jalb etishi oson bo'ladi.

Faraz qilaylik, algoritmga muvofiq, talabalar kollektivini o'rganish bosqichi tugallangan va pedagog mashg'ulotning mana shu shakhni tanlagan. Birinchi navbatda, mashg'ulotning mazmuni belgilanadi, unga muvofiq mazkur guruh uchun aktual bo'lgan mashg'ulot mavzusi tanlanadi va mashg'ulot g'oyasi ifodalanadi. Pedagog o'zidan fikran shunday deb so'rashi kerak: “Mazkur mavzuni ochib berish orqali talabalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishim natijasida nimaga erishishni istayman?" Guruh tarbiyaviy mashg'ulotining mazmuni rivojlantirish, to'g'rilash, shakllantirish vazifalarini aks ettirishi kerak. Ta'lim berish vazifasi umumiy vazifalardan bin sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda “... haqidagi ma'lumotlarni bayon qilish” tarbiyaviy mashg'ulotning maqsadi bo'lishi mumkin emas (vazifalaridan biri bo'lishi mumkin). Pedagog guruhdan tashqari mashg'u-lotning maqsadi hamda vazifalarini qanchalik aniq ifodalasa, uning istalgan natijalar haqidagi tasavvuri ham aniq bo'ladi. Faqat shundan keyingina mashg'ulotning mazmunini, metodlarni, vositalarni tanlashga kirishish mumkin. Mashg'ulotning

mavzusi, mazmuniga alohida ahamiyat berib, uning maqsadini ifodalashga formal yondashadigan yoki uni umuman e'tibordan chetda qoldiradigan pedagoglar noprofessional ish ko'radilar. Bunday holda tarbiyaviy ishning maqsadga yo'naltirilganligi va sistemaliligi yo'qoladi.

Mashg'ulot modelini tayyorlash natijalari guruh tarbiyaviy mashg'uloti konspektida aks ettiriladi. U quyidagicha tuziladi:

1) mashg'ulotning nomi;
2) maqsadi, vazifalari;
3) jihozlanishi;
4) o'tkazish shakli;
5) borishi.

Mashg'ulotning nomida guruhdan tashqari mashg'ulotning mavzusi aks ettiriladi. U faqat mazmunni aks ettirib qolmay, shakl bo'yicha lo'nda qilib ifodalangan, ta'sirli bo'lishi lozim.

Vazifalar juda aniq bo'lib, mazkur mazmunni aks ettirishi kerak. Ular universal xarakterda bo'lmasligi lozim. Masalan, “Jonajon shahriga muhabbat uyg'otish” vazifasi o'rniga “Shahar tarixiga qiziqishni oshirish”, “Talabalarda shahar yubileyiga tayyorgarlik ishlariga o'z hissasini qo'shish istagini uyg'otish”, “Talabalarda shahar tarixidagi mashhur kishilarga nisbatan hurmat hissining shakllanishiga yordam berish” kabi vazifalar qo'yish mumkin.

Guruhdan tashqari mashg'ulotning jihozlanishiga turli vositalar: qo'llanmalar, o'yinchoqiar, videofilmlar, diapozitivlar, adabiyotlar va boshqalar kiradi. Adabiy manbaning nominigina emas, balki uning muallifi, nashr etilgan joyi va yili ko'rsatilishi kerak.

Guruh mashg'ulotlari ekskursiya, viktorina, konkurs, spektakl va hokazo shaklda o'tkazilishi mumkin. Bunday holda mashg'ulot rejasida uni o'tkazish shakli “Matematik viktorina”, “Fantaziyachilar konkursi”, “Hayvonot bog'iga ekskursiya” nomi bilan birlashtiriladi. Agar, guruh mashg'uloti o'zida bir necha o'tkazish shakllarini birlashtirsa, unda talabalarni joylashtirish usuli ko'rsatiladi: aylana shaklida, komandalar bilan va hokazo.

Mashg'ulotning borishida uning mazmuni, tarbiya metodlari tavsif etiladi va pedagogning mashg'ulotni birinchi shaxs nomidan batafsil, izchillik bilan bayon qilishidan iborat bo'lishi yoki (pedagogning shaxsiga qarab) asosiy mazmuni kartochkalarda ifodalangan tezisli rejadan tashkil topishi mumkin. Mashg'ulotning borishini modellashtirishda uning qancha vaqt davom etishi va strukturasi (tuzilishi)ni hisobga olish zarur. Guruh tarbiyaviy mashg'uloti olti yoshlilar uchun 15-20 daqiqadan, o'n-o'n bir yoshlilar uchun 1-2 soatgacha davom etishi mumkin.

Mazmuni va metodlari bo'yicha xilma-xil bo'lgan guruh mashg'ulotlarini samarali o'tkazish maqsadida uning asosiy to'rt bosqichdan iborat bo'lishiga amal qilish ma'qul.

1. *Tashkiliy qism* (0,5-3 daq).

Pedagogik maqsad: talabalarni o'quv faoliyatidan faoliyatning boshqa turiga ko'chirish, ana shu faoliyat turiga qiziqish, ijobiy his-tuyg'ular uyg'otish.

Tipik xatolar: darsning boshlanishini aynan takrorlash, vaqt jihatidan uzoq davom etishi.

Tavsiyalar: tashkiliy qismda kutilmagan holatni yuzaga keltirish, ya'ni topishmoqlar, muammoli masalalar, o'yin, tovush yozuvlari va hokazolardan foydalanish; talabalarni uyushtirish shakllarini o'zgartirish; talabalarni boshqa binoga (biologiya, fizika, musiqa guruhlariga, kutubxonaga, ta`lim muassasasi muzeyiga) o'tkazish yoki ularni guruhda gilamga aylana shaklda joylashtirish talabalarning darsdan tashqari faoliyatga ko'chishiga yordam beradi. Bu bo'lajak mashg'ulotga qiziqish, ijobiy his-tuyg'ular uyg'otadi.

2. *Kirish qismi* (butun mashg'ulot vaqtining 1/5 qismidan 1/3 qismigacha).

Pedagogik maqsad: talabalarni faollashtirish, ularni tarbiyaviy ta'sirga moyil qilish. Pedagog o'zining pedagogik prognozi talabalar-ning imkoniyatlari, shaxsiy sifatlari, mazkur mavzu yuzasidan xabardorlik darajasi, emotsional kayfiyati, faollik, qiziqish darajasi bilan qanchalik mos tushishini aniqlaydi. Bu bosqichda pedagogdan talabalarni qiziqtirishgina emas, balki mashg'ulotning borishi davo-mida unga qanday tuzatishlar kiritish kerakligi va bu tuzatishlar qanday xarakterda bo'lishini aniqlash talab etiladi. Masalan, pedagog o'zi ma'lum qiladigan

narsalarning yangiligiga umid bog'lab, hikoyani rejalashtirgan edi, ammo kirish suhbati talabalarning bu haqda bilishini ko'rsatdi. Bunday holda pedagog hikoyani suhbat yoki o'yin vaziyati bilan almashtirishi zarur. Shunday qilib, kirish qismining maqsadi talabaning shaxsiy tajribasidan mashg'ulot mavzusiga “ko'prik tashlash”dan iborat.

Tipik xato — pedagogning kutilmaganda talabalarning ta'sirlanishidan (talabalar pedagog kutayotgan narsani aytmasligi yoki qilmasligi mumkin) qo'rqqani tufayli bu bosqichni inkor etishi. Pedagog mashg'ulotning kirish qismini talabalarning faolligiga emas, balki shaxsiy faollik asosiga quradi, teskari aloqani mensimay, talabalarga passiv tinglovchilar rolini beradi. U talabalarning emotsional kayfiyatini e'tiborga olmaydi.

Tavsiyalar: kirish qismi mashg'ulotning mazmuniga qarab kirish suhbatidan (bilish xarakteridagi estetik va axloqiy mashg'ulotlar) yoki aqlni “charxlab olish” topshiriqlaridan (viktorina, konkurs va h. k.) iborat bo'lishi mumkin.

Birinchi holatda savollar, ikkinchisida — topshiriqlar talabalar uchun qiziqarli bo'lib qolmay, pedagogga talabalarning tayin-langan materialni idrok qilishga tayyorligi haqida axborot berishi kerak. Kirish qismida pedagog talabalarning bo'lg'usi mashg'ulot haqidagi dastlabki tasavvurlarini shakllantiradi, ularning faoliyatini tashkil etadi, ya'ni baholash sistemasi bilan tanishtiradi, mashg'ulot rejasini ma'lum qiladi, ularni komandalarga bo'ladi. Baholashning an'anaviy tizimida pedagog aniq mezonlarni berishi, zarur qoidalarni tushuntirishi kerak.

Talabalar komandalarga bo'linganda ularning xatti-harakatlarini raqobat asosiga emas, balki hamkorlik asosiga qurish lozim. Buning uchun quyidagi usul samaralidir: komandalarga to'g'ri javoblari uchun ochkolar o'rniga qirqib ajratilgan rasmning bo'lakchalari tarqatiladi. Mashg'ulotning yakuniy qismida bu bo'lakchalardan umumiy rasm yig'iladi hamda ballar miqdori emas, balki umumiy natija muhimligi ayon bo'lib qoladi.

Mashg'ulotning kirish qismida talabalarni faollashtirishning turli-tuman metodlari hamda vositalaridan: muammoli suhbat, rebus, krossvord, topqirlik va chaqqonlikka doir topshiriqlar va hokazolar-dan foydalanish mumkin.

3. *Mashg'ulotning asosiy qismi* vaqt jihatidan eng davomli bo'lishi kerak (mashg'ulotning 2/4, 1/3 dan sal ko'proq qismi).

Pedagogik maqsad: mashg'ulotning asosiy g'oyasini amalga oshirish.

Tipik xatolar: talabalarning qisman yoki butunlay passivligida pedagogning faoUigi. Metodlarning bir xilligi — faqat hikoya yoki suhbat. Ko'rgazmalilikning yo'qligi va foydalaniladigan tarbiya vositalarining juda ham kamligi. Ongni shakllantirish metodlarining xulq-atvorni shakllantirish metodlaridan ustunligi. Darsning o'quv muhiti yaratilishi, ibratlilik, o'rgatish, nasihatgo'ylik qilish.

**Metodik tavsiyalar:** agar talabalar maksimal ravishda faol bo'lsalar, mashg'ulotning rivojlantiruvchi, to'g'rilovchi, shakllanti-ruvchi, tarbiyalovchi, ta'lim beruvchi vazifalarini amalga oshirishda tarbiyaviy samara yuqori bo'ladi. Guruhdan tashqari mashg'ulotda talabalarni faollashtirishda darsdan farq qiladigan alohida emotsional muhitni yaratish birinchi darajali ahamiyatga ega. Masalan, talabalardan qo'llarini ko'tarish, o'rinlaridan turish talab etilmaydi. Intizomni saqlab turish uchun alohida qoidalar joriy qilinadi (kiritiladi): strelka ko'rsatgan, fant tushgan talaba javob beradi. Bir masala yuzasidan bir necha talaba o'z fikrini bildirishi eng qulaydir. Pedagogning nutqida “to'g'ri”, “balli”, “ofarin” kabi rag'batlantiruvchi so'zlarning bo'lmasligi, buning o'rniga xayri-xohlik, his-hayajon, pedagogning his-tuyg'ularini ifodalovchi, hayrat bilan aytilgan “ha”, “juda qiziqarli”, “yangi xabaring uchun rahmat”, “shundaymi?”, “buni qarang-a!” kabi iboralardan foydalanish iliq, xayrixohlik muhitining yaratilishiga yordam beradi.

Agar, pedagog xulq-atvorni shakllantirishning xilma-xil metodlaridan (tarbiyalovchi mashqlardan foydalanish, o'rgatish, topshiriqlar berish) iloji boricha ko'p foydalansa, mashg'ulotga turli xil faoliyat tudari: mehnat, ijodiy ishlar, sport elementlari va hokazolarni kiritsa, asosiy qismning samaradoriigi oshib boradi. Pedagog xilma-xil faoliyat turlarini tashkil etishda talabalarni komandalarga birlashtirar ekan, ularni bir-birlari bilan erkin muomalada bo'ladigan qilib joylashtirishi, vazifalarni esa har bir ishtirokchi o'zi uchun alohida emas, balki o'zini jamoaning bir qismi deb his etadigan qilib taqsimlashi kerak. Topshiriqni bajarish uchun vaqt berishda komandaga uni bajarishni muhokama qilishga bir necha

daqiqa vaqt ajratish va komanda vakilidan tayyorligini so'rash lozim. Shunday taqdirdagina talabalarda faoliyatning umumiy maqsadi, xilma-xil vazifalar va hamkorlik uchun sabab (motiB)lar bo'ladi.

Ongni shakllantirish metodlari talabalarda e'tiqodning, amaliy etik (axloqiy) tushunchalarning tarkib topishiga yordam berishi kerak. Bu maqsadlarda hikoya metodini talabaning axboroti, dokladi tarzida o'zgartirish, tez-tez munozaradan foydalanish yaxshi samara beradi. Guruhdan tashqari tarbiyaviy ishlarning ommaviy shakllarida talabalami munozara qoidalariga o'rgatish lozim:

1. Shuni yodda tutingki, bahslashuvchilar haqiqatni izlaydilar, ammo uni turlicha tasavvur qiladilar; bahsda umumiy mazmunni aniqlash, keyin esa qarashlardagi farqni oydinlashtirish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish kerak.
2. Munozaraning maqsadi — tomonlardan birining haqligini aniqlash emas, balki haqiqatni qaror toptirishdir.
3. Haqiqatni opponent shaxsiga ayblar qo'yish bilan emas, balki faktlar yordamida qidirish zarur.
4. So'zlovchini avval diqqat bilan tinglash, keyin esa o'z nuqtayi nazarini bildirish lozim.

4. Mashg'ulotning yakuniy qismi.

Pedagogik maqsad: talabalarni egallagan tajribalarini o'zlarining ta`lim muassasasidan tashqari hayotlarida amalda qo'llashga moyil qilish (xohish uyg'otish) va mashg'ulot g'oyasini amalga oshirishga qanchalik muvaffaq bo'lganligini aniqlash. Shunday qilib, yakunlovchi qism pedagogning talabaga boshqa muhitda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.

**Tipik xatolar:** bu qism umuman inkor qilinadi yoki, “Yoqdimi?”, “Nimalarni bilib oldingiz?” qabilidagi ikki savoldan iborat bo'lib qoladi.

**Tavsiyalar:** dastlabki natijalarni aniqlash uchun krossvord, kichik viktorina, berilgan savolga uzoq o'yiamay tez javob qaytarish, o'yin vaziyatlari kabi talabalarni qiziqtiradigan test xarakteridagi kontrol topshiriqlar; talabalarning egallagan tajribalarini shaxsiy hayotlarida qo'llashga doir turli tavsiyalar berish. Bu esa

mazkur muammoga doir kitoblarni ko'rsatish, talabalarning mashg'ulotda egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarini qo'llashi mumkin bo'lgan vaziyatlarni muhokama qilish bo'lishi mumkin. Hosil qilingan tajribani qo'llashga doir talabalarga maslahatlar: ular o'z yaqinlariga nimalarni gapirib berishlari, mazkur mavzu yuzasidan nimalar haqida so'rash mumkin; qayerga borish, u yerda nimalarga e'tibor berish, qanday o'yinlar o'ynash, mustaqil ravishda nimalar qilish mumkin va hokazo. Yakunlovchi qismda mashg'ulot mavzusini kelgusida yana yoritib berish zarurati bormi, bor bo'lsa, buni qanday yo'l bilan amalga oshirish mumkinligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulotning yakunlovchi qismidan pedagog bundan keyingi guruh mashg'ulotlarini o'tkazishda talabalar tashabbusini rivojlantirish uchun ham foydalanishi mumkin.

Guruhdan tashqari tarbiyaviy ishlarning individual va ommaviy shakllarini tashkil etish va o'tkazishda ota-onalar bevosita ishtirok etsalar, ularning tarbiyaviy ta'siri ancha samarali bo'ladi.



### *Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari*

1. O’quvchilar tarbiyasida darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarnini o’rni qanday?
2. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarning qanday shakllari mavjud?
3. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarda to’garaklarning o’rnini izohlang.
4. To’garak turlariga nimalar kiradi?
5. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarning asosiy xususiyatlariga nimalar kiradi?

### *Foydalanilgan adabiyotlar*


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
2. 2017-2021yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Abdiquddusov O., Rashidov H. Kasb-xunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv

qo‘llanma. O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.

4. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
5. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.
6. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.
7. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
8. www.inter-pedagogika.ru
9. www.didaktika.ru
10. www.School. edu. uz
11. www.Ppsy. ru
12. www.Bank/referat. ru

# MAVZU 21. KASB TA’LIMI TIZIMIDA ISHLAB CHIQARISH AMALIYOTI.

***O’quv maqsadi*** ⇨ *Ishlab chiqarish amaliyotining maqsad va vazifalari kasb – hunar kolleji bilan tanishish, o‘quv yurti rahbarlari ishlarini o‘rganish ga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganish*

## 21.1. Ishlab chiqarish amaliyotining maqsad va vazifalari, aktiv va passif amaliyot.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Ishlab chiqarish amaliyoti, kasbiy tayyorgarlik, ishlab chiqarish korxonasi, amaliyotga raxbarlik qilish, ta’limi ustasi, tarbiyaviy ishlar, kasb faoliyati, “Usta-talaba” tizimi, tarbiyaviy faoliyat.*

Ishlab chiqarish amaliyoti kasbiy tayyorgarlikning yakuniy bosqichini tasvirlaydi va o‘qitishning sunggi oylarida o‘tkaziladi. Ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida yechiladigan vazifalarga quyidagilar kiradi:

- talabalarning ishlab chiqarish sharoitlariga ijtimoiy, psixologik va fiziologik jihatdan moslashishi;
- kasbiy bilim, ko‘nikma va maxoratlarni takomillashtirish;
- tanlangan kasb bo‘yicha ixtisoslashtirish;
- murakkab ishlab chiqarish ishlarini bajarishda mustaqil ishlash tajribasini to‘plash;
- progressiv texnologiyalar va zamonaviy jihozlarni, mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish vositalarini o‘rganish;
- yuqori unumli asbob va moslamalarni, ishlab chiqarish ilg‘orlari tajribasini o‘zlashtirish;
- korxona texnik va texnologik hujjatlarni, ish o‘rinlarida mexnatni ilmiy tashkil qilish masalalarini o‘rganish;
- ko‘nikma va maxoratni shakllantirish, bilimlarni amaliyotda qo‘llash, murakkab ishlab chiqarish vazifalarini yechishdan iboratdir.

Ishlab chiqarish amaliyoti tayanch ishlab chiqarish korxonasi ish o‘rinlarida tashkil etiladi. Korxona odatda, amaliyotga rahbarlik qilish uchun muhandis-texnik xodimlar va malakali mutaxassislarni  ajratadi. Ta’lim olishning bu davrida talabalar korxonada mustaqil ishlashga to‘liq tayyorlanadilar.

Kasbiy faoliyat ob`ektlarini ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr kasb faoliyatining ob`ektlariga kasb-hunar kolleji va akademik litseylardagi o`qituvchilar, o`quv tarbiyaviy jarayonlar, pedagogik texnologiyalar va o`qitish uslublari hamda davlat aktsioner va xususiy firmalar, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, davlat boshqaruv tizimi tashkil etadi.

Kasbiy faoliyat turlari boshqa faoliyat turlari bilan birgalikda asosan o`qituvchilik va o`quv-uslubiy sohaga qaratilgan bo`lib, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda tasdiqlangan o`quv dasturi asosida umumixtisoslik, ixtisoslik fanlaridan o`qituvchilik faoliyatini bajaradi.

Ishlab chiqarish amaliyoti bo`yicha talabalar tanishuv(passiB) va malakaviy (faol) amaliyotlarni o`tadilar.

Ishlab chiqarish amaliyoti tanishuv (passiB) amaliyotida:

- ishlab chiqarish muassasasi tuzilmasini;
- ishlab chiqarish muassasalariga oid direktiv me`yoriy hujjatlarni;
- ishlab chiqarish muassasalarining tayyorlov yo`nalishlarini;
- ishlab chiqarish muassasalarida olib boriladigan ish asoslarini;
- ishlab chiqarishni tashkillashtirish usullarini;
- ishlab chiqarish ishchilarining ishlarini kuzatish va tahlil qilishni;
- ishlab chiqarish muassasasida o`quv-tarbiyaviy ishlarni o`tkazishni;
- ishlab chiqarish muassasasida ishchilarning kasbiy bilim, ko`nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashga qo`yilgan talablarni;
- ishlab chiqarish muassasasida mutaxassislarning ish samaradoriligini oshirish usullarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi.***

Ishlab chiqarish amaliyoti bo`yicha talabalar malakaviy(faol) amaliyotda:

- ishlab chiqarish muassasalari tuzilmasi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan xodimlar ishlarini kuzatish, tahlil qilishni;
- me`yoriy hujjatlarni o`rganib, ulardan amaliyotda foydalana olishni;
- ishlab chiqarish o`quv tarbiyaviy ishlar bo`yicha nazariy va amaliy bilimlarni;
- tanlagan kasbi bo`yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiq etish;
- ixtisoslik bo`yicha olingan texnologiyalarni amaliyotda qo`llash bo`yicha;
- tayyorlov yo`nalishlaridagi kasbiy mahorat bo`yicha;
- ishlab chiqarish amaliyotlariga rahbarlik qilish bo`yicha;
- o`tkazilgan amaliyotlar natijasida hisobotlar tayyorlash;
- ixtisoslik bo`yicha faoliyatini boshqarish va nazorat qilish, baholash ***malakasiga ega bo`lishi lozim.***

O`tkazilgan amaliyotlar natijasida talabalar hisobotlarni tayyorlaydilar va topshiradilar.

Ishlab chiqarish amaliyotining aniq tashkiliy faoliyatini yuritish mazkur tizimni boshqaruv tashkiloti va uning me`yoriy hujjatlariga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Talabalar amaliyot davrida ta`lim va tarbiya mazmunini yanada takomillashtirish zaruriyatiga, ta`limning ilmiy darajasini oshirish va o`quv jarayonining g`oyaviy yo`nalishini kuchaytirish lozimligiga ishonch hosil qiladilar.

Ishlab chiqarish amaliyotining muvaffaqiyatli natijalari amaliyotchilarning ham kirish, ham davomiy yoki operativ tajribaning o`tishiga bevosita bog`liq. Amaliyotchi ishi ustidan muntazam nazorat o`rnatish ham muhim ahamiyatga ega. Faqat ana shunday sharoitlarda amaliyotchilar o`quvchilar tarbiyasida, ularning mustaqil bilim olishga ko`nikmalarni rivojlantirishda, tashkiliy va ijtimoiy-siyosiy, ma`naviy-ma`rifiy ishlarni jonlantirishda, yoshlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilishda rahbar tashkilotlar va mutasaddilarga faol yordamchilarga aylanadilar.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Ishlab chiqarish amaliyoti deganda nimani tushunasiz?
2. Ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida yechiladigan vazifalar nimadan iborat?
3. Ishlab chiqarish amaliyoti qayerda o`tkaziladi?
4. Ishlab chiqarish amaliyotida ishlab chiqarish ta’limi ustasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Ishlab chiqarish ta’limi ustasining kasb faoliyati, avvalombor, talabalar bilan bog‘liqdir. Buni misollar bilan isbotlang.
6. “Usta-talaba” tizimidagi o‘zaro munosabatlar haqida nima deya olasiz? Buni misollar bilan tushuntiring.
7. Ishlab chiqarish ta’limi ustasining motivatsiyali komponenti haqida nima deya olasiz? Buni misollar bilan tushuntiring.
8. Qiziqish mehnat faoliyati sifatida talabalarni ma’lum yo‘nalishda harakatlanishlariga majbur qiladi. Siz bunga qanday qaraysiz? O`z fikringizni bayon eting.

9. Kasbiy dunyoqarash deganda nimani tushunasiz? O`z fikringizni bayon eting.

10. Ishlab chiqarish amaliyoti kasbiy tayyorgarlikning qaysi bosqichini tasvirlaydi va qachon o'tkaziladi?

## 21.2. Kasb – hunar kolleji bilan tanishish, o'quv yurti rahbarlari ishlarini o'rganish.



***Tayanch so'z va iboralar:***

*Uyg`unlashtirish, islohotlar, yangilanish jarayonlari, davlat ta`lim standartlari, malaka, ko`nikma va qobiliyatlarni shakllantirish, professional adaptatsiyalashuv, mashg`ulotlar uzviyligi, pedagogik negizlarini shakllantirish, mustaqil faoliyat, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik amaliyot davrida.*

Respublikamizda Milliy ta`lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg`unlashtirish asosida jahon andozalari va ko`nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Bugungi kunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash ta`lim va bilim berish tizimi, hayotimizda, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari talablari bilan yaqindan chambarchas, har tomonlama bog`langan bo`lishi lozim.

YAngi talablarga javob bera oladigan pedagog kadrlarni tayyorlash, davlat ta`lim standartlarini joriy etish va yangi o`quv dasturlari ustida ishlash, kasb-hunar kolleji va akademik litsey tizimiga uslubiy-metodologik zamin tayyorlash, uzluksiz ta`lim-tarbiyaga asos soladigan tadbirlarni amalga oshirish kabi masalalar bizning oldimizda turibdi.

Muhandis-pedagoglarning muvaffaqiyatli mustaqil pedagogik faoliyati, ularning kasbiy tayyorgarligi, g`oyaviy-ma`naviy mavqeining hozirgi zamon o`quv-tarbiya jarayoniga qanchalik javob berishiga bog`liq.

«Kasb ta`limi (bakalavriat ta`lim yo`nalishlari bo`yicha) talabalari ijtimoiy-siyosiy, umumtexnikaviy va maxsus muhandislik kasb-hunarlarini o`rganish bilan birga o`z bilimlarini psixologik va pedagogik yo`nalishdagi fanlar bilan

bog`laydilar. Bu o`z navbatida talabalarning dars mashg`ulotlariga tayyorlashni va uni o`tkazish bo`yicha malaka, ko`nikma va qobiliyatlarni shakllantiradi, o`kuvchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni ta`lim va tarbiyasi hamda o`quv materialining adekvat (aynan o`xshash ma`nodagi) mazmuni, uslub va vositalarini izlab topishga yordam beradi.

Talabalarda muhandis-pedagogning kasbiy malaka va ko`nikmalarining shakllanishi pedagogik amaliyotlar jarayonida yaqqol namoyon bo`ladi. Muhandis malaka tavsifnomasiga daxldor amaliyotchi talaba shaxsiy sifatlarining shakllanishi, amaliy mashg`ulotlarga tayyorgarligi, ularni tashkil etilishi va o`tkazish darajasi va saviyasi bilan chambarchas bog`liq.

YUqorida keltirilganlarni umumlashtirib pedagogik amaliyotning maqsad-mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin:

Amaliyotda muhandis-o`qituvchilarni tayyorlash tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Professional adaptatsiyalashuv (moslashuB) o`quv- tarbiya jarayonining borishi va tarkibini chuqur o`rganish imkonini beradi. SHuningdek o`quvchilar shaxsiyatini shakllantirishga bilimlarni oshirishga va ta`limning progressiv shakl va yo`nalishini, hamda uslub vositalarni qo`llagan holda darsdan tashqari mashg`ulotlar va tarbiyaviy ishlarni tayyorlash va o`tkazish, o`quvi va ko`nikmalarini shakllantirishga poydevor yaratiladi.

Ta`lim, fan, ishlab chiqarishni samarali integratsiyalash mexanizmlarining mazmuni va usullarini talabalarda shakllantirish maqsadida o`qitishni ilmiy-tadqiqot bilan qo`shib olib borish, fanlar bo`yicha bilimlar majmuasini o`zlashtirish, amaliy-nazariy mashg`ulotlar uzviyligi, pedagogik negizlarini shakllantirishni ta`minlash maqsadida pedagogik amaliyot talaba ko`z o`ngida mustaqil shakllanadi.

Pedagogik amaliyotda bo`lajak muhandis-pedagoglarning mustaqil faoliyati va kasbiy tayyorgarligida eng muhim bosqichlardan biri sifatida ta`limning quyidagi tarbiyaviy vazifalarini bajarishga qaratilgan:

- talabalar tomonidan psixologiya, pedagogika, o`qitish metodikasi va shuningdek, maxsus muhandislik fanlarini o`rganish bo`yicha olingan

nazariy bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish;

- dars maqsadi, turi, tarkibi, o`qitish uslubi, o`quv jihozlari mavjudligiga muvofiq nazariy bilimlarni o`quv materialiga aylantirishga o`rgatish;

Kasb ta`limi (bakalavriat ta`lim yo`nalishlari bo`yicha) talabalari amaliyotini to`g`ri tashkil qilish va o`tkazish, bo`lajak muhandis-pedagoglarni tayyorlash sifatini oshirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Talabalar amaliyotini tayyorlash va o`tkazish jarayonida quyidagi kishilar doirasi o`zaro hamkorlikda harakat qiladilar: OO`YU professor-o`qituvchilari, talabalari, uslubshunoslari, kasb-hunar kollejlari o`qituvchilari, ishlab chiqarish ta`limi o`quv ustalari, guruh rahbarlari, direktor, o`quv va ma`naviy-ma`rifiy ishlar bo`yicha direktor o`rinbosarlari.

Pedagogik amaliyot davrida muhandis-pedagog shaxsining shakllanishi o`quv jarayonining barcha ko`rinishlarini qanchalik muvaffaqiyatli va aniq tashkil etilganligiga bog`liq. Pedagogik amaliyotda muhandis-pedagog shaxsining shakllanishi, pedagogik jarayonning barcha tarmoqlaridagi hamkorlik ishining qanchalik aniq tashkil etganligiga bog`liq.

Talabalarning kasb-hunar kollejlardagi pedagogik amaliyotining birinchi haftasi ular faoliyatining yangi sharoitlariga moslashuv rejasi alohida ahamiyat kasb etadi. Talaba o`qituvchi, tarbiyachi rolida o`zining «men»ini his qilishi lozim. Darhaqiqat amaliyotning birinchi haftasida talabaning kommunikativ aloqalari va notanish kishilar bilan o`zaro munosabat malakalari shakllanadi (o`quvchilar va muhandis-pedagog xodimlar bilan).

Pedagogik amaliyot davrida oliy o`quv yurti uslubchisi, kasb-hunar kolleji o`qituvchisi, amaliyotchi talaba bir-biri bilan ishchan, uzviy aloqani saqlab turishi, hamkorlikda faoliyat ko`rsatishi juda muhim rol o`ynaydi.

Pedagogik amaliyot davrida quyidagi ko`p tarmoqli kommunikativ bog`lanishlar tizimining umumiy ta`sir ko`rsatishi va yaxshi natijalar berishi lozim.

Bu hamkorlik bog`lanishlar tizimida quyidagi mas`ul xodimlar ishtirok etadilar:

OO`YUdan: uslubshunos (rahbar), pedagog, psixolog, amaliyotchi-talaba;

kasb-hunar kollejidan: kollej direktori, kasb-ta`limi bo`yicha direktor muovini (rahbar), o`qituvchi, uslubiyotchi, guruh rahbari, muhandis-pedagoglar.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Muhandis-pedagoglarning muvaffaqiyatli mustaqil pedagogik faoliyati, ularning kasbiy tayyorgarligi, g`oyaviy-ma`naviy mavqeining hozirgi zamon o`quv-tarbiya jarayoniga qanchalik javob berishiga bog`liq. Siz nima deb o`ylaysiz? O`z fikringizni bayon eting.
2. Pedagogik amaliyotda bo`lajak muhandis-pedagoglarning mustaqil faoliyati va kasbiy tayyorgarligida eng muhim bosqichlardan biri sifatida ta`limning qaysi tarbiyaviy vazifalarini bajarishga qaratilgan?
3. Pedagogik amaliyot davrida muhandis-pedagog shaxsining shakllanishi o`quv jarayonining barcha ko`rinishlarini qanchalik muvaffaqiyatli va aniq tashkil etilganligiga bog`liq. Siz nima deb o`ylaysiz? O`z fikringizni bayon eting.
4. Pedagogik amaliyot davrida quyidagi ko`p tarmoqli kommunikativ bog`lanishlar tizimining umumiy ta`sir ko`rsatishi va yaxshi natijalar berishi lozim. Siz nima deb o`ylaysiz? O`z fikringizni bayon eting.

***Foydalanilgan adabiyotlar***


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
2. 2017-2021yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Abdiquddusov O., Rashidov H. Kasb-xunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
4. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
5. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.

6. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.
7. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
8. www.inter-pedagogika.ru
9. www.didaktika.ru
10. www.School. edu. Zu

## MAVZU 22. KASB – HUNAR TA’LIMI USTASINING O‘QUV – TARBIYAVIY ISHLARINI TASHKIL ETISH.

***O’quv maqsadi***

*Kasb – hunar ta’limi ustasining o‘quv – tarbiyaviy ishlarini o‘rganish, darsdan va o‘qishdan tashqari ishlarni o‘rganishi pedagogik amaliyotga qo‘yiladigan talablar, pedagogik amaliyot bo‘yicha xujjatlar va ularni rasmiylashtirish, pedagogik amaliyotni yakunlashiga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o`zlashtirish*

### 22.1. Kasb – hunar ta’limi ustasining o‘quv – tarbiyaviy ishlarini o‘rganish.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Zamonaviy ta’lim, Ishlab chiqarish ta’limi, ta’limi ustasi, mexnat faoliyatini rivojlantirish, kasb-hunar ta'lim tizimi, ta’limi ustalari ishining tahlili, odob-axloqning shakllanishi, kasb faoliyati, “Usta-talaba” tizimi, motivatsiyali komponent, yo‘naltiruvchi komponent.*

Zamonaviy ta’lim to‘g‘risida so‘z yuritganda, muayyan mutaxassisni tayyorlashda ta’lim va tarbiya berishning asosiy qonuniyatlari amalga oshirilishi shart. Bunday qonuniyatlardan biri “Pedagog-o‘qituvchi” munosabatini erkinlashtirish hisoblanadi.

Ishlab chiqarish ta’limi ustasi kasbi – pedagogik faoliyatining xususiyati shundaki, u xuddi ikki taraflama mehnat predmetiga egadir. Bir tomondan uning asosiy vazifasini insonlar bilan o‘zaro munosabat tashkil qilsa, ikkinchi tomondan ma’lum bir kasb soxada maxsus bilim, ko‘nikma va maxoratga ega bo‘lishni talab qiladi. Ishlab chiqarish ta’limi ustasi uchun bu ma’lum bir kasb faoliyat bo‘yicha bilim va maxoratidir.

Bundan tashqari ishlab chiqarish ta’limi ustasi talabalarning mexnat faoliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning yosh xususiyatlarini e’tiborga olishi kerak. Bu kasb tarbiyashunoslik va maxsus soxa bo‘yicha tayyorgarlikni talab etadi. Demak, ishlab chiqarish ta’limi ustasi xushmuomala bo‘lishi, shuningdek ma’lum shaxsiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Ishlab chiqarish ta’limi ustasi kasbining o‘ziga xosligi uning ijtimoiy, jamoaviy va ijodiy tavsifidan iboratdir.

Kasb-hunar kollejlarida ishlab chiqarish ta’limi ustalari ishining tahlili shuni ko‘rsatdiki, bugun Davlat ta’lim standartida belgilangan tayyorgarlik bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar bilan bir qatorda tarbiyaviy, tashkiliy, boshqaruvchanlik, o‘quv uslubiy ishlarni bajarish kabi mahoratga ham ega bo‘lishi kerak.

Bu yerda bo‘lajak ishlab chiqarish ta’limi ustasining ishlab chiqarish amaliyoti bo‘yicha ko‘nikma va mahorati, kasb-hunar kollejidagi faoliyati jarayonida shakllanishi kerak. Aynan usta talabalarda kasb madaniyati bo‘yicha dunyoqarash, odob-axloqning shakllanishi bo‘yicha bosh vazifani hal qiladi. Bu funksiyalarni bajarish uchun ustaning o‘zi mos ravishda tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak.

Ta’kidlab o‘tganimizdek, ishlab chiqarish ta’limi ustasining kasb faoliyati, avvalombor, talabalar bilan bog‘liqdir. Bu o‘zaro harakat, ya’ni “Pedagog-o‘qituvchi” tarbiyaviy munosabatlari doirasida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham ishlab chiqarish ta’limi ustasi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatiga shuningdek, ikki taraflama yondashish kerak. Birinchidan, kasb ta’limi mazmuni bo‘yicha usta u yoki bu maxsus sohada ma’lum bilim, ko‘nikma va

mahoratlarning tashuvchisi hisoblanadi, biroq shu vaqtning oʻzida talabalar bilan oʻzaro harakatda boʻlib, u burch, vijdon, adolat tashuvchi shaxs sifatida xizmat qiladi.

"Usta-talaba" tizimidagi oʻzaro munosabatlar muhim pedagogik shartlardan biri boʻlib, boʻlajak kichik mutaxassislarni tarbiyalashning asosi hisoblanadi. Ishlab chiqarish ta'limi ustasining tarbiyaviy ishlar sohasidagi bilim va mahorat darajasi faqat ularning pedagogika, psixologiya, ishlab chiqarish ta'limi uslubi boʻyicha savollarga bergan javobi boʻyicha baholanadi. Koʻrinib turibdiki, bu yerda ishlab chiqarish ta'limi ustasi faoliyatida tarbiyaviy yoʻnalish inobatga olinmagan va oʻquv rejasida ham bunday fan yoʻq.

Nazariy jihatdan u yoki bu faoliyat tayyorgarligini baholash quyidagi komponentlar asosida amalga oshiriladi. Bular motivatsiyali yoʻnaltiruvchi ijtimoiy-psixologik va jarayonli komponentlardan iborat.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasining motivatsiyali komponenti tarbiyaviy ishga ijobiy munosabatni, tarkib topshirish, rivojlantirish va boshqalarni oʻz ichiga oladi. "Tarbiyaviy ishda motivatsiya" deganda tarbiyaviy faoliyat mazmunini, yoʻnaltirilganligi va tavsifini aniqlovchi motivatsiyalar, toʻplami tushuniladi.

Tarbiyaviy faoliyatning tashqi motivatsiyalari mavjud boʻlib, ularga ta'lim muassasasidagi ishning ustuvorligi, pedagog sifatida shaxsiy va kasbiy oʻsish imkoniyati, tarbiyaviy motivatsiyalarga ishlab chiqarish ta'limi ustasi faoliyatining jarayoni va natijasini kiritish mumkin. Shuningdek, motivatsiya sifatida va boshqaruv motivatsiya ham mavjud boʻlib, bular ishlab chiqarish ta'limi ustasi va talaba oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlikdagi harakatida yuzaga chiqadi. Bu ustaning yetakchi tarbiyaviy motivatsiyasi boʻlib, talaba shaxsining boʻlajak malakali kichik mutaxassis sifatida shakllanishiga gʻamxoʻrlik qilish hisoblanadi.

Tarbiyaviy ishga tayyorgarlikning yoʻnaltiruvchi komponenti ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasb faoliyati xususiyatlari va sharoitlari toʻgʻrisidagi bilim va tasavvurlarini oʻz ichiga oladi va qiziqish, yondashuvchanlik, dunyoqarash, ishonch hosil qilish, koʻzlangan maqsad orqali kasbiy yoʻnaltirilganligini ifodalaydi.

Qiziqish asosan, yo‘naltirilgnalikning birinchi shakli hisoblanib, o‘rta maktabda shakllanishni boshlaydi. Tarbiyaviy ishga qiziqish bir qancha talablarga ega bo‘lib , insonlarning o‘zaro ta’sir bilan bog‘liqdir. Qiziqish shuningdek tarbiya soxasidagi ma’lum bilimlarga bo‘lgan talabni ham ifodalaydi. Maktabda olingan bilim tarbiyaviy ishga bo‘lgan qiziqishga asos bo‘lishi mumkin.

Qiziqish mehnat faoliyati sifatida talabalarni ma’lum yo‘nalishda harakatlanishlariga majbur qiladi.

Tarbiyaviy ishga bo‘lgan qiziqish “Bilimga chanqoqlik”ni keltirib chiqarsa, yondashuvchanlik-“Faoliyatga chanqoqlik”ni yuzaga keltiradi. Yondashuvchanlikni bo‘lajak ishlab chiqarish ta’limi ustasining o‘qitish va tarbiyalash jarayonida doimo rivojlantirib borish zarur.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Nima uchun zamonaviy ta’lim to‘g‘risida so‘z yuritganda, muayyan mutaxassisni tayyorlashda ta’lim va tarbiya berishning asosiy qonuniyatlari amalga oshirilishi shart?
2. Ishlab chiqarish ta’limi ustasining pedagogik faoliyat xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Bo‘lajak ishlab chiqarish ta’limi ustasining ishlab chiqarish amaliyoti bo‘yicha ko‘nikma va mahorati qanday shakllanadi?
4. “Usta-talaba” tizimidagi o‘zaro munosabatlarning muhim pedagogik shartlariga nimalar kiradi?
5. Ishlab chiqarish ta’limi ustasining motivatsiyali komponentining xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Tarbiyaviy faoliyatning tashqi motivatsiyalariga nimalar kiradi?

## 22.2. Ishlab chiqarish ustasi va guruh rahbari olib boradigan kasbga qiziqtirish ishlari, usullari va metodlari bilan tanishish hamda ularni o‘rganish.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Zamonaviy ta’lim, “Pedagog-o‘quvchi” munosabati, kasbiy – pedagogik faoliyat, ishlab chiqarish ta’limi ustalari, “Usta-talaba” tizimi, “Tarbiyaviy ishda motivatsiya”, tarbiyaviy ishga qiziqish o`yg`otish, kasbiy dunyoqarash, tarbiyaviy faoliyat.*

Zamonaviy ta’lim to‘g‘risida so‘z yuritganda, muayyan mutaxassisni tayyorlashda ta’lim va tarbiya berishning asosiy qonuniyatlarini amalga oshirilishi shart. Bunday qonuniyatlardan biri “Pedagog-o‘quvchi” munosabatini erkinlashtirish hisoblanadi.

Ishlab chiqarish ta’limi ustasi kasbiy – pedagogik faoliyatining xususiyati shundaki, u xuddi ikki taraflama mehnat predmetiga egadir. Bir tomondan uning asosiy vazifasini insonlar bilan o‘zaro munosabat tashkil qilsa, ikkinchi tomondan ma’lum bir kasb soxada maxsus bilim, ko‘nikma va maxoratga ega bo‘lishni talab qiladi. Ishlab chiqarish ta’limi ustasi uchun bu ma’lum bir kasb faoliyat bo‘yicha bilim va maxoratidir.

Bundan tashqari ishlab chiqarish ta’lim ustasi talabalarning mexnat faoliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning yosh xususiyatlarini e’tiborga olishi kerak. Bu kasb tarbiyashunoslik va maxsus soxa bo‘yicha tayyorgarlikni talab etadi. Demak, ishlab chiqarish ta’limi ustasi xushmuomala bo‘lishi, shuningdek ma’lum shaxsiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Ishlab chiqarish ta’limi ustasi kasbining o‘ziga xosligi uning ijtimoiy, jamoaviy va ijodiy tavsifidan iboratdir.

Kasb-hunar kollejlarida ishlab chiqarish ta’limi ustalari ishining tahlili shuni ko‘rsatdiki, bugun u Davlat ta’lim standartida belgilangan tayyorgarlik bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar bilan bir qatorda tarbiyaviy, tashkiliy, boshqaruvchanlik, o‘quv uslubiy ishlarni bajarish kabi mahoratga ham ega bo‘lishi kerak.

Bu yerda bo‘lajak ishlab chiqarish ta’limi ustasining tarbiyaviy ish bo‘yicha ko‘nikma va mahorati, kasb-hunar kollejida faoliyati jarayonida shakllanishi kerak. Aynan usta talabalarda kasb madaniyati bo‘yicha dunyoqarash, odob-axloqning shakllanishi bo‘yicha bosh vazifani hal qiladi. Bu funksiyalarni bajarish uchun ustaning o‘zi mos ravishda tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak.

Ta’kidlab o‘tganimizdek, ishlab chiqarish ta’limi ustasining kasb faoliyati avvalombor talabalar bilan bog‘lihdir. Bu o‘zaro harakat, ya’ni “Pedagog-o‘qituvchi” tarbiyaviy munosabatlari doirasida amalga oshiriladi.

Shuning uchun ham ishlab chiqarish ta’limi ustasi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatiga shuningdek, ikki taraflama yondashish kerak. Birinchidan, kasb ta’limi mazmuni bo‘yicha usta u yoki bu maxsus sohada ma’lum bilim, ko‘nikma va mahoratlarning tashuvchisi hisoblanadi, biroq shu vaqtning o‘zida talabalar bilan o‘zaro harakatda bo‘lib, u burch, vijdon, adolat tashuvchi shaxs sifatida xizmat qiladi.

“Usta-talaba” tizimidagi o‘zaro munosabatlar muhim pedagogik shartlardan biri bo‘lib, bo‘lajak kichik mutaxassislarni tarbiyalashning asosi hisoblanadi. Ishlab chiqarish ta’limi ustasining tarbiyaviy ishlar sohasidagi bilim va mahorat darajasi faqat ularning pedagogika, psixologiya, ishlab chiqarish ta’limi uslubi bo‘yicha savollarga bergan javobi bo‘yicha baholanadi. Ko‘rinib turibdiki, bu yerda ishlab chiqarish ta’limi ustasi faoliyatida tarbiyaviy yo‘nalish inobatga olinmagan va o‘quv rejasida ham bunday fan yo‘q.

Nazariy jihatdan u yoki bu faoliyat tayyorgarligini baholash quyidagi komponentlar asosida amalga oshiriladi. Bular motivatsiyali yo‘naltiruvchi ijtimoiy-psixologik va jarayonli komponentlardan iborat.

Ishlab chiqarish ta’limi ustasining motivatsiyali komponenti tarbiyaviy ishga ijobiy munosabatni, tarkib topshirish, rivojlantirish va boshqalarni o‘z ichiga oladi. “Tarbiyaviy ishda motivatsiya”si deganda tarbiyaviy faoliyat mazmunini, yo‘naltirilganligi va tavsifini aniqlovchi motivatsiyalar, to‘plami tushuniladi.

Tarbiyaviy faoliyatning tashqi motivatsiyalari mavjud bo‘lib, ularga ta’lim muassasasidagi ishning ustuvorligi, pedagog sifatida shaxsiy va kasbiy o‘sish

imkoniyati, tarbiyaviy motivatsiyalarga ishlab chiqarish ta'limi ustasi faoliyatining jarayoni va natijasini kiritish mumkin. Shuningdek, motivatsiya sifatida va boshqaruv motivatsiya ham mavjud bo'lib, bular ishlab chiqarish ta'limi ustasi va talaba o'rtasidagi o'zaro hamkorlikdagi harakatida yuzaga chiqadi.

Ustaning yetakchi tarbiyaviy motivatsiya bo'lib, talaba shaxsining bo'lajak malakali kichik mutaxassis sifatida shakllanishiga g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

Tarbiyaviy ishga tayyorgarlikning yo'naltiruvchi komponenti ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasb faoliyati xususiyatlari va sharoitlari to'g'risidagi bilim va tasavvurlarini o'z ichipga oladi va qiziqish, yondashuvchanlik, dunyoqarash, ishonch hosil qilish, ko'zlangan maqsad orqali kasbiy yo'naltirilganligini ifodalaydi.

Qiziqish, asosan, yo'naltirilgnalikning birinchi shakli hisoblanib, o'rta maktabda shakllanishni boshlaydi. Tarbiyaviy ishga qiziqish bir qancha talablarga ega bo'lib , insonlarning o'zaro ta'sir bilan bog'liqdir. Qiziqish shuningdek tarbiya soxasidagi ma'lum bilimlarga bo'lgan talabni ham ifodalaydi. Maktabda olingan bilim tarbiyaviy ishga bo'lgan qiziqishga asos bo'lishi mumkin.

Qiziqish mehnat faoliyati sifatida talabalarni ma'lum yo'nalishda harakatlanishlariga majbur qiladi.

Tarbiyaviy ishga bo'lgan qiziqish "Bilimga chanqoqlik"ni keltirib chiqarsa, yondashuvchanlik-"Faoliyatga chanqoqlik"ni yuzaga keltiradi. Yondashuvchanlikni bo'lajak ishlab chiqarish ta'limi ustasining o'qitish va tarbiyalash jarayonida doimo rivojlantirib borish zarur.

Ma'lumki, dunyoqarash dunyo haqidagi uning qonuniyatlari haqidagi, insonni o'rab turgan mavjudotlar, tabiat va jamiyat haqidagi qarashlar va tasavvurlar tizimini bildiradi.

Tarbiyaviy faoliyatga nisbatan kasbiy dunyoqarash, qiziqish va yondashuvchanlikdan farqli ravishda tarbiyaviy ish haqida to'liqroq integratsiyalangan tasavvurni beradi.

Kasbiy dunyoqarash, fikrlash va iroda bilan birga asta-sekin shakllanib va rivojlanib boradi. Tarbiyaviy ishda kasbiy dunyoqarashni shakllantirish-ishlab chiqarish ta'limi ustasini tayyorlashdagi bosh vazifa bo'lib hisoblanadi.

Ijtimoiy-psixologik komponent – ishlab chiqarish ta'limi ustasining talabalar bilan muomala va o'zaro hamkorlik qilishdagi adekvat faoliyatini ta'minlaydi.

Jarayonli komponent ishlab chiqarish ta'limi ustasining tarbiyaviy uslub va usullarini egallashida, ularni bajarish uchun bo'lgan bilim, ko'nikma va mahoratni sintez qilishda ifodalanadi.

Tarbiyaviy faoliyat – darsdan tashqari ishlarni, ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlaridagi tarbiyaviy yondashuvlari, talabalar bilan faol ishlashni, guruhiy ishlarni shakllantirishni, psixologo-pedagogik tashxis o'tkazishni, talabalardan shaxs sifatida shakllanishini, ota-onalar bilan ishlashni o'z ichiga olishi mumkin.

Demak, ishlab chiqarish ta'limi ustasi pedagogik kabi bo'lib, uning vazifasi bo'lajak kichik mutaxassisni shaxsini tarbiyalash va shakllantirishdan iboratdir.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Kasb – hunar kollejida ta'lim va tarbiya berishning asosiy qonuniyatlarini amalga oshirilishida nimalarga e`tibor berilishi lozim?
2. Ishlab chiqarish ta'lim ustasi talabalarning mexnat faoliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda nimalarga e`tibor berishi lozim?
3. "Usta-talaba" tizimidagi o'zaro munosabatlar haqida nimalarni bilasiz? Misollar keltiring.
4. Tarbiyaviy faoliyatning tashqi motivatsiyalari mavjud. Bunga qanday misollar keltirishingiz mumkin?
5. Qiziqish mehnat faoliyati sifatida talabalarni ma'lum yo'nalishda harakatlanishlariga majbur qiladi. Bunga o`z fikringizni bayon eting.
6. Tarbiyaviy ishda kasbiy dunyoqarashni shakllantirish qanday ahamiyatga ega?
7. Tarbiyaviy faoliyat deganda nimani tushunasiz? O`z fikringizni bildiring.

## 22.3. Pedagogik amaliyotga qo'yiladigan talablar, pedagogik amaliyot bo'yicha xujjatlar va ularni rasmiylashtirish, pedagogik amaliyotni yakunlash.



***Tayanch so'z va iboralar:***

*Amaliyot jarayoni, o`quv va tarbiyaviy ishlar, mutaxassis-uslubchilar, moslashish haftasi, zaruriy hujjatlar, tekshirish va nazorat qilish.*

Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar o`qituvchining asosiy ishini bajaradilar, guruh rahbariga yordamchi bo`lib xizmat qiladilar, o`quv muassasining hamma o`quv uslubiy va tashkiliy uslubiy ishlarida to`liq qatnashadilar, psixologik - pedagogik kuzatish va tekshiruv ishlarini olib boradilar, jamoaning ob`ektiv ishida qatnashadilar (amaliyot dasturi va o`quv muassasi ma`muriyatining ko`rsatmasiga asosan).

O`quv va tarbiyaviy ishlar bilan tanishtirish maqsadida amaliyotchi-talaba o`quv guruhiga biriktiladi. YOrdamchi rahbar sifatida har bir talabaga quyidagi mutaxassis-uslubchilar birikitiladi:

a) institutning o`qituvchi-uslubchisi, pedagogikadan, psixologiyadan o`qituvchi;

b) fan o`qituvchisi (kasb-hunar kollejidan);

c) talaba biriktiriladigan guruhning rahbari, kuratori;

d) kasb-hunar kollejining muhandis-pedagogi.

Pedagogik amaliyotning umumiy rahbarlari bo`lib quyidagilar hisoblanadi:

a) institutdan – fakultet dekani (talabalarning qaysi kollejga borishini, ularning taqsimlanishini aniqlaydi, shuning bilan birga uslubchi va talabalarning ishlarini nazorat qilib boradi);

b) kollej direktori yoki uning o`rinbosari (talabalarni kollej bo`yicha guruhlarga taqsimlaydi, ularga rahbarlik qiluvchi uslubshunoslarni tayinlaydi, talabalarning ish faoliyati va intizomini nazorat qilib boradi).

Amaliyotning birinchi haftasi talabalar uchun moslashish haftasi bo`lib hisoblanadi. Talaba o`quv yurti, uning an'analari, pedagogik kollektiv bilan

tanishadi. Ma’muriyat va o`qituvchilar tomonidan talabalar bajarishi lozim bo`lgan topshiriqlar va vazifalar belgilanadi.

Birinchi hafta davomida talaba o`ziga biriktirilgan o`quv guruhi bilan tanishadi. O`qituvchi va muhandis-pedagogning ish dasturlarini o`rganadi va ularning darslariga qatnashib tahlil qiladi. Kuzatish va tahlillar qisqa xulosalar shaklida kundalikda yozib boriladi. SHu davr ichida talaba o`ziga biriktirilgan rahbar - uslubchilar yordamida amaliyot jarayonida bajaradigan ishlarining rejasini tuzadi va tasdiqlatadi.

Barcha hisobot uchun birinchi kundan boshlab tayyorlab borilishi lozim.

Amaliyotning oxirgi haftasi davomida amaliyotchi-talaba o`zining individual ish rejasi bo`yicha bajargan ishlariga yakun yasashga kirishadi va hujjatlarni rasmiylashtiradi. II-pedagogik amaliyot davomida talaba har haftada 3-4 soat, jami bo`lib 14-18 soat dars o`tkazishlari shart.

Amaliyotchi talabaning ishini tekshirish va nazorat qilib borish kollej va institut tomonidan biriktirilgan rahbarlar zimmasiga yuklatiladi. Amaliyot davomida har bir kollej yoki akademik litseyda talabalar orasidan sardor tayinlanadi. Uning zimmasiga talabalarning davomatini olib borish, talabalar burchagini tashkil qilish (uslubshunos - o`qituvchi bilan hamkorlikda) yuklatiladi.

Talaba o`quv ishlari (amaliy va nazariy mashg`ulotlar)ni olib borar ekan, u tarbiyachi vazifasini ham bajaradi va tarbiyaviy ishlarda faol qatnashadi. Amaliyotchi - talaba guruh rahbari sifatida siyosiy, axloqiy, mehnat, iqtisodiy, estetik, jismoniy va ekologik muammolar bo`yicha darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtiradi va tashkil qiladi. Amaliyotchi tarbiyaviy ishlarni o`quvchilar guruhining rivojlanganlik darajasi va ularning yosh va individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda olib boradi, shunga muvofiq holda turli tarbiya metodlari va ularning shakllarini qo`llaydi.

Ikkinchi pedagogik amaliyotning xususiyati shundan iboratki, bunda talabalar «o`qituvchi - tarbiyachi» sifatida kasbiy faoliyatning real muammolari doirasiga kiritiladi, «o`qituvchi - tarbiyachi» ishlarining real mazmuni va hajmi bilan tanishtiriladi.

Amaliyotchi - talabaning kollejda tarbiyaviy ishlar bo`yicha asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

**Birinchi hafta:**

1.1. Guruh rahbari (muhandis - pedagog)ning tarbiyaviy ishlar rejasini o`rganish;

1.2. O`quvchilar guruhini o`rganish;

1.3. O`quvchilar jamoasi bilan tarbiyaviy ish masalasini aniqlash;

1.4. Jamoa bilan belgilangan tadbirlarni tanlash.

**Ikkinchi va keyingi haftalar:**

2.1. Guruh jamoasi bilan ishlash;

2.2. Guruh rahbari, muhandis-pedagog bilan doimiy hamkorlikda bo`lish;

2.3. O`quvchilarni tarbiyalashda jamoatchilikni jalb qilish;

2.4. O`quvchilar ishtirokida turli tadbirlar o`tkazish (suhbat, baxs, anjuman, guruh majlisi va boshq.);

2.5. Guruh o`quvchilarining ota-onalari bilan ishlash:

- amaliyotchi talaba tomonidan o`quvchilarning oilada tarbiyalanishining aniq shart - sharoitlarini o`rganish;
- guruhda ota - onalar majlisini o`tkazish;
- ota - onalar o`quvini o`tkazish.

Amaliyot jarayonida talaba guruh rahbari sifatida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishga doir quyidagi amaliy topshiriqlarni oladi:

- guruh rahbari ishi bilan tanishish, o`quvchilar jamoasini o`rganish;
- o`qituvchi va muhandis - pedagogga guruh bilan ishlashda yordam berish;
- 1-2 tarbiyaviy tadbirlarni mustaqil tayyorlash va o`tkazish.

Tarbiyaviy tadbirlarni o`tkazishda hamma talabalar qatnashishlari shart. Tarbiyaviy ishda amaliyotchi - talaba uning mavzusi, maqsadi, tarbiyaviy ahamiyatini va uning o`rnini ochib beradi. Qatnashgan talabalar o`tkazilgan mashg`ulotni tahlil qilib, uning ijobiy va salbiy tomonlarini yoritib beradilar.

Hisobotga quyidagi tarbiyaviy ishlar kiritilishi lozim:

1. Ikkita tarbiyaviy soat stsenariysi;
2. Bitta guruh yig`ilish bayoni;
3. Bir yillik tarbiyaviy ishlar rejasi (muhandis - pedagog, guruh rahbarining 6 oylik ish rejasidan foydalanishi lozim);
4. Muhandis - pedagog tomonidan tasdiqlangan kundalik;
5. Ikkita tarbiyaviy soat tahlili (4-ilovaga qarang);
6. Al'bom (unda amaliyot davrida kilingan ishlar natijalari o`z aksini topishi shart).



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar o`qituvchining qaysi ishlarini bajaradilar?
2. O`quv va tarbiyaviy ishlar bilan tanishtirish maqsadida amaliyotchi-talaba kimga biriktiladi?
3. Amaliyotning birinchi haftasi talabalar uchun moslashish haftasi bo`lib hisoblanadi. Bu nimalardan iborat?
4. Amaliyotning oxirgi haftasi davomida amaliyotchi-talabaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Pedagogik izlanishlar deganda nimani tushunasiz?

***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.
2. 2017-2021yillarda O'zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Abdiquddusov O., Rashidov H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi. O'quv qo'llanma. O'MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
4. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000

5. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDPU, 2007y.
6. Olimov Q. T. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. –T.: 2006. 164 b.
7. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
8. www.inter-pedagogika.ru
9. www.didaktika.ru
10. www.School. edu. uz
11. www.Ppsy. ru
12. www.Bank/referat. ru

# MODUL VI. KASB – HUNAR KOLLEJLARIDA O‘QUVCHILAR BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI NAZORAT QILISH VA METODIK ISHLAR.

**MODULNING UMUMIY MAQSADI:** Kasb – hunar ta’limida ta’lim – tarbiya jarayonini nazorat qilishning maqsad va vazifalari, kasb – hunar ta’limida o‘quv mashg‘ulotlarni nazorat qilish, kasb – hunar ta’limida tarbiya jarayonini nazorat qilish, baholashning ob’ektivligi va tabaqalashtirilganligi, baholashda e’tiborga olinadigan omillar, o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashning reyting tizimi va uni amalga oshirishiga oid nazariy bilim berish, oltinchi modulga oid dastlabki ko‘nikmalarni shakllantirish.

**MODULNING O‘QUV MAQSADLARI:**

**ta’limiy maqsad**: talabalarga oltinchi modul va uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, oltinchi modulga oid tushunchalarni o‘zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;

**tarbiyaviy maqsad**: talabalarda oltinchi modulning o‘ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;

**rivojlantiruvchi maqsad**: talabalarning kasbiy yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashini va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.

## MAVZU 23. KASB – HUNAR KOLLEJLARIDA O‘QUVCHILAR BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH.

***O’quv maqsadi***

*Kasb – hunar kollejlarida o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash, baholashning ob’ektivligi va tabaqalashtirilganligi, baholashda e’tiborga olinadigan omillar, o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashning reyting tizimi va uni amalga oshirish ga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganish*

## 23.1. Kasb – hunar ta’limida ta’lim – tarbiya jarayonini nazorat qilishning maqsad va vazifalari, kasb – hunar ta’limida o‘quv mashg‘ulotlarni nazorat qilish, kasb – hunar ta’limida tarbiya jarayonini nazorat qilish.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Qonun-qoida, kasb ta`limi, ilmiy texnikaning asosi, EHM, texnologiya, mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ta`lim prinsiplari, kasbiy faoliyat, o`qitish metodikasi, metod va usullar, o`qitishning tashkiliy ko`rinishlari.*

Talabalar o‘qish jarayonida bilim ko‘nikma va malakalarni egallab oladilar. Bilimlarda ob’ektiv dunyo umumlashtirilgan holda aks ettiriladi. Bilimlarni o‘zlashtirish faktlar, tushunchalar va qonuniyatlarni o‘rganishni nazarda tutadi.

Bilimlarning ta’sirchanligi, ularni bemalol egallab, ularning o‘zgaruvchanligi, ulardan turli sharoitlarda, jumladan, yangi bilimlarni egallash uchun foydalana bilish bilimlarning to‘laligi va chuqurligining muhim ko‘rsatkichidir.

Ko‘nikma-kishining ma’lum bir harakatlarni ongli ravishda bajarish qobiliyatidir,bu qobiliyat bilimlar va eng oddiy tajriba asosida hosil qilinadi. Bilimlar bajarilayotgan harakatning nazariy asosi hisoblanadi.Bilimlar tufayli harakatlarning ayrim bosqichlari va ularning ketma-ketligi tushunarli bo‘ladi. Ko‘nikmalar-bu amaldagi bilimlardir.

Malaka-mashq qilish yo‘li bilan hosil bo‘ladigan ish-harakatdir.Mashq qilish natijasida yurish,o‘qish,yozish,og‘zaki hisoblash,xilma-xil mehnat jarayonlarini bajarish malakalari hosil qilinadi. Talaba harakatni bajarishning muayyan usullarini egallab oladi va bu ishni ongning nazoratisiz avtomatik ravishda bajaradi. Lekin boshlang‘ich bosqichda harakat doimo ongli suratda bajariladi. Masalan, tikuv mashinasiga ip taqish ketma-ketligini tasavvur qilish, kerakli ip va ignani tanlash lozim. Agar talaba ipni taqishni bir necha marta takrorlagandan so‘ng, harakat odatdagi bir harakatga aylansa, u ongning zohiriy ishtirokisiz bajariladi. Yangi tikuv mashinasiga iplarni taqish, gazlamani tepki

ostiga o‘rnatish va mashinasi ishga tushirish ishlarini ko‘p marta takrorlash har doim bu harakatlarning ketma-ketligini o‘ylab ko‘rishdan ozod qiladi.

Tikuv mashinasida bajariladigan texnologik jarayon o‘zgarganda ya’ni tikilayotgan kiyimga qo‘yiladigan texnologik talabga qarab, iplar rangi, turi, ignalar, tepkilar tanlanadi. Bunda tikuvchining ongi ishga kirishadi.

Ta’lim oluvchilar tomonidan o‘quv materilalari o‘zlashtirilganligini, ko‘nikma va malakalar xosil bo‘lganligini tekshirish va baholash ta’lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o‘qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o‘quv jarayonining turli bosqichlarida ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Umuman pedagogik, shu jumladan, kasb-hunar ta'limi jarayonining qonunlari ta'lim-tarbiya va o’quvchi shaxsini rivojlantirish jarayonida ob'ektiv ravishda mavjud aloqadorlik va o’zaro munosabatlarda o’z ifodasini topadi. Rus pedagog olimi L.D.Stolyarenko va uning maslakdoshlari tomonidan quyidagi ta'lim qonuniyatlari e'tirof etilgan bo’lib, ular bevosita kasb-hunar ta'limiga ham tegishlidir:

- kasb-hunar ta'limi jarayonining tizim shaklida yaxlit va uzviy aloqador hamda ma'lum o’zaro munosabatda bo’lgan komponentlardan iborat ekanligi;

- ta'limning tarkibiy qismlari: maqsadi, mazmuni, metodlari, vosita va natijalarining ijtimoiy tuzumga bog’liqligi, ya'ni: ijtimoiy munosabatlar, jamiyatning mutaxassis kadrlarga bo’lgan ehtiyoji va talablari, fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish texnologiyalari, madaniyat kabilarni pedagogik jarayonning barcha tashkil etuvchi komponentlarini shakllantirishga ta'siri;

- ta'limning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi tavsifga ega ekanligi;

- ta'lim natijalarining o’quvchilarning ongli, faol o’quv-bilish faoliyatlariga bog’liqligi;

- kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik va ishlab chiqarish qonuniyatlarining hisobga olinishi, ularning birligi va o’zaro aloqadorligi;

- kasbiy tayyorgarlik jarayonining o’zaro bog’liq nazariy va amaliy ta'lim integratsiyasidan iboratligi;

- kasbiy tayyorgarlik jarayonida o’quvchilarning yakkama-yakka (individual) va jamoaviy faoliyatlarining tashkil etilishi kabilar.

Uzluksiz ta'lim, shu jumladan, kasb-hunar ta'limi quyidagi pedagogik qonuniyatlarga asoslanadi:

- kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonida o’qituvchi (muhandis-pedagog) va o’quvchilar hamda o’rganilayotgan ob'ektlarning o’zaro ta'siri;

- kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonida o’quvchilarning ongliligi, mustaqilligi va faolligi;

- kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonida uning ishtirokchilari (o’qituvchi va o’quvchilari) maqsadlarining bir-biriga mushtarakligi;

- kasbiy ta'lim-tarbiya ishi natijalarining o’quvchilar ongli, faol o’quv-bilish faoliyatiga bog’liqligi;

- kasbiy ta'lim-tarbiya, ya'ni pedagogik jarayonni tashkil etuvchi maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl, natija va ishtirokchilar orasida o’zaro bog’liqlik hamda munosabatlarning mavjudligi;

- kasbiy ta'lim maqsadi, uning mazmuni va metodlari, metod va mazmuni maqsadga erishilganlik darajasini belgilashi;

- kasbiy ta'lim mazmuni (o’quv materiali)ning vaqt, o’quvchilar yoshi, tayyorgarlik darajasi va boshqa individual xususiyatlariga mos holda tashkil etilganda maqbul o’zlashtirilishi;

- kasbiy ish-harakat usullari (ko’nikma va malakalar)ning asosi hisoblangan bilimlar mohiyatini anglagan holda ish-harakat operatsiyalarini takror bajarish orqali shakllanishi;

- o’quv materialini puxta o’zlashtirilishi avval o’zlashtirganlariga tayanganligi va muntazam ravishda takrorlanganligiga bog’liqligi;

- o’quv materialining maqsadga muvofiq holda shakllantirilganligi va o’quvchilarga etkazilishi;

- o’zlashtirish sifat va darajasining o’quvchilar imkoniyatlari, qiziqishi, idroki, tafakkuri, xotirasi, qobiliyati, o’qituvchi tomonidan uning ahamiyatli jihatlarini yoritilishi kabilarga bog’liqligi;

- o’quv materialini o’zlashtirish maromi va puxtaligini o’qituvchi tomonidan aniq, lo’nda hamda qiziqarli etkazilishiga bog’liqligi;

- o’quvchining aqliy rivojlanganligi, o’zlashtirgan bilim, ish-harakat usullari, hayotiy tajribalariga bog’liqligi;

- kasb-hunar ta'limining muvaffaqiyati, tezligi va natijalarining o’quvchilar individual xususiyatlariga bog’liqligi;

- o’quvchilarda mustaqil ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish va rivojlantirishning ular oldiga muhim ahamiyatga ega hayotiy dolzarb muammolar yechimini topish vazifasining qo’yilganligiga bog’liqligi kabilar. Kasb-hunar ta'limi jarayonida ishlab chiqarishning quyidagi qonuniyatlari hisobga olinishi zarur:

- ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqarish kuchlari tavsifiga mosligi;

- mulkchilik munosabatlari;

- mehnat harakteridagi o’zgarishlar;

- talab va ehtiyojning ishlab chiqarish darajasidan yuqoriligi;

- mehnatga yarasha taqsimot;

- ishlab chiqarish vositalarining ishlab chiqarishga nisbatan o’sishi;

- rejali, proportsional rivojlanish;

- moddiy ne'matlar yaratuvchi odamlar o’zlarining ongi, xulq-atvori va . his-tuyg’ularini qayta ishlab chiqishi;

- yirik mashinasozlik sanoatining uzluksiz ortib borishi;

- ishlab chiqarish jarayonlarini tabaqalashtirish va integratsiya-lashtirish;

- ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va kooperatsiyalashtirish;

- ishlab chiqarishni majmuaviy mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish va robotlashtirish;

- ishlab chiqarishning intellektuallashuvi;

- mexnat resurslarining o’zaro taqsimlanish sur'atini ortishi;

- xo’jalik hisoblari, o’zini-o’zi mablag’ bilan ta'minlash;

- sanoat sohasi bilan mashg’ul mutaxassislar sonini qisqarishi;

- mehnatni jamoaviy tashkil etishning ortishi, demokratiyalash o’zini boshqarish va shu kabilar.

Insonparvarlashtirish - ta'lim muassasalarida o’rganiladigan o’quv predmetlari mazmuniga inson omili, uning qadr-qiymati, shani, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmatlash g’oyalarini singdirish zarurligini nazarda tutadi.

Insoniylashtirish prinsipi - ob'ektiv olamdagi barcha ne'matlar, shart-sharoit, inson kamoloti, kishilik jamiyati farovonligi, tinchligi uchun xizmat qilishi haqidagi g’oyani ilgari suradi. Mazkur g’oya, hozirgi zamon va istiqbol talablari pedagogik jarayonga yakka hokimlik (avtoritor) tarzda yondoshmay, uni ishtirokchilarining ham korligi asosida tashkil etib amalga oshirish zarurligini asoslaydi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Tikuv mashinasida bajariladigan texnologik jarayon o‘zgarganda, ya’ni tikilayotgan kiyimga qo‘yiladigan texnologik talabga qarab, iplar rangi, turi, ignalar, tepkilar qanday tanlanadi?
2. Kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonida o’qituvchi (muhandis-pedagog) va o’quvchilar hamda o’rganilayotgan ob'ektlarning o’zaro ta'siri qanday namoyon bo`ladi?
3. Kasb-hunar ta'limi jarayonida ishlab chiqarishning qaysi qonuniyatlari hisobga olinishi zarur?
4. Insonparvarlashtirish deganda nimani tushunasiz?

## 23.2. Baholashning ob’ektivligi va tabaqalashtirilganligi, baholashda e’tiborga olinadigan omillar, o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashning reyting tizimi va uni amalga oshirish.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Nazorat turlari, baholash mezonlari, mustaqil ish, bilim darajasi, bilimning yutug‘i va kamchiligi.*

Baholash - ta’lim jarayonining ma’lum bosqichida o‘quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o‘lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta’limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o‘quv materialining o‘zlashtirilganligi haqida ta’lim beruvchi ham, ta’lim oluvchi ham muayyan ma’lumotga ega bo‘ladi. Baholash natijasida, ta’lim beruvchi uchun ta’lim oluvchilarning nimani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi material yaxshi o‘zlashtirilgani, qaysi biri hali, yetarli darajada o‘zlashtirilmaganligi yoki umuman o‘zlashtirilmaganligi ma’lum bo‘ladi. Bu ta’lim oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Ta’lim beruvchi o‘z ishining afzalliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi. O‘z ish metodlariga tuzatishlar kiritadi. Shuningdek, baholash natijalari ta’lim beruvchining o‘quv dasturiga materilalarni ta’lim oluvchilarning bilish imkoniyatlari nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqishi va baholashi uchun ham juda muhimdir.

Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o‘zlashtirilishi aniq-ravshan bo‘ladi. Bu ta’lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko‘rishi va o‘quv mashg‘ulotini o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ta’lim oluvchiga ham ta’lim jarayonida qaysi o‘quv materialini yaxshi, qaysinisini qoniqarli va nimani yomon o‘zlashtirgani ma’lum bo‘ladi. Bilimlarni tekshirmasdan ta’lim oluvchi o‘z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to`g‘ri baholashga qodir emas. Ba’zan unga go‘yo u o‘quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, tekshirish chog‘ida esa materialni yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmasligi ma’lum bo‘lib qoladi. Baholash natijasida, ta’lim oluvchilarning o‘rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo‘llay olish, tahlil qilish va o‘z bilimlariga tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi. Ta’lim oluvchi o‘z bilimlarining ijobiy tavsifi, kasb-hunar kollejida va uydagi ishining uslubini takomillashtirish, bilimlari, malaka va ko‘nikmalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mavzu bo‘lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, guruhdagi ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi.

Bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta’lim oluvchilarning o‘qishga, o‘z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug‘iladi. Baholash hamisha ta’lim oluvchining shaxs sifatida o‘ziga nisbatan muayyan bir munosabatini hosil qiladi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchining o‘ziga nisbatan munosabatini, tuyg‘ularini, uning harakteridagi irodalilik, hamkorlik, o‘zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga qaratishi lozim bo‘ladi.

Ba’zan baholash jarayonida ta’lim oluvchi qo‘shimcha bilim, ko‘nikma va malakalarga ham erishadi. Ta’lim jarayonida o‘zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib yetadi. Shu bois, baholashni ta’lim olish jarayonining davomi deb ham aytish mumkin.

Ta’lim oluvchi o‘rtoqlarining, ota-onalarining unga, uning kollejdagi yutuqlariga va muvaffaqiyatsiliklariga munosabatiga xech qachon befarq bo‘lib qolmaydi. Uning bilimlariga berilgan baholar ushbu munosabatni belgilaydi. Mana shuning uchun ham maqtov, ma’qullash, tanbeh berish, yaxshi yoki yomon baho qo‘yish ta’lim oluvchi shaxsining fazilatlarini, uning tengdoshlari jamoasidagi va katta yoshdagilar orasidagi mavqeini shakllantiradi. Bu ayniqsa, o‘smirlar orasida katta ahamiyatga egadir.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta’lim muassasasi jamoasining ta’lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, talabalarning umumiy o‘zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta’lim standartlarida davlat tomonidan qo‘yilgan talablar nechog‘lik bajaraliyotganligi aniqlanadi.

Natijalarni baholash orqali bir paytning o‘zida butun ta’lim tizimi va uning komponentlari tekshirilib ko‘rilishi kerak. Bu bilan ta’lim tizimida kutilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib o‘lchanadi. Bilimlarni muntazam baholab borish ta’lim rejasi, uning katta kichik bo‘limlari asosida amalga oshiriladi. Ta’lim tizimi natijalari muayyan standart me’yori orqali ifodalanadi.

Baholash natijasida nafaqat ta’lim oluvchining, balki ta’lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o‘quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi. Ta’lim vositalari, rejalar, ta’lim jarayonini tashkil etish sifatiga ham baho beriladi.

Ta’lim dasturini qism bo‘laklari buyicha muntazam baxolab borish oxir-oqibat aniq va adolatli baholanish shakllanishga olib keladi. Kichik bo‘limlar bo‘yicha baholash, jamlash va umumlashtirish yakuniy baholashning aniq bo‘lishiga yordam beradi. Ta’lim oluvchini muntazam ravishda o‘z natijalari to‘g‘risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishi va istaklarini ro‘yobga chiqarishga ijodiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim berish davomidagi nazorat natijalarini o‘lchab borish bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash talabaning o‘zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

**Nima uchun baholash kerak?**

- O‘quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- Keyingi bosqichga o‘tishdan oldin avvalgi o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- Natijaga erishilganligini tasdiqlash uchun;
- Talabalarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- Yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- O‘qituvchi o‘z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
- Yalpi o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- Ta’lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- Talabalarni yutuqlariga qiziqtiirish uchun;

- Tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma’lumot berish uchun.

**Nimani baholash kerak?**

- nazariy bilimlarni;
- amaliy ko‘nikma va malakalarni;
- xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarni

**Qachon baholash kerak?**

- Ta’lim jarayoni boshida (boshlang‘ich baholash);
- Ta’lim jarayoni davomida (joriy baholash);
- Ta’lim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

**Baholashning asosiy xususiyatlari:**

- Ta’lim maqsadiga yo‘nalganlik;
- Muntazam o‘tkazib borish;
- Pedagogik, psixologik va xuquqiy tamoyillarga asoslanganlik;
- Umumiy qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik.

Yuqorida ta’kidlanganidek, nazariy bilimlar baholanayotganida kognitiv o‘quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko‘nikma va malakalar baholanayotganida psixomotorik, xulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanayotganida esa –affektiv o‘quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi.

Reyting tizimining maqsad va vazifalari. Reyting tizimi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat ta’lim standartlari hamda, mehnat ta’limi davlat ta’lim standartlarining tarkibiy qismi bo‘lib, Kadrlar tayyorlash milliy dastur talablaridan kelib chiqqan holda o‘quvchilarning bilimini haqqoniy baholash, ulardan fanlarni o‘zlashtirish bo‘yicha qiziqishlarni oshirish va ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashga bo‘lgan ehtiyojlarni rivojlantirish o‘qitish jarayonida reyting tizimini qo‘llashning asosiy maqsadini tashkil qiladi. Reyting tizimi quyidagi vazifalarni halqilish uchun kiritiladi: - davlat ta’lim standartlari talablariga mos holda barcha o‘quv fanlari o‘quv dasturlari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quvchilar tolmonidan o‘zlashtirish darajasini ob’ektiv

baholash; - o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan ijobiy intilish ehtiyojini shakllantirish, ularda o‘zaro bellashuvga qiziqish uyg‘otish; - o‘quvchilarni mustaqilishlashga o‘rgatish; - o‘quvchilarni doimiy baholash va baholarni taqqoslab borish; - o‘quv muassasalari o‘qituvchilari ishlab chiqarish ta’lim ustalari pedagoik faoliyatini to‘g‘ri baholash; - o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatini oldindan rejalashtirish, o‘quv jarayoniga zaruriy o‘zgarishlar kiritish; - Respublikaning turli xududlaridagi o‘quv muassasalari natijalarini tahlil qilish, taqqoslash va chora tadbirlar ishlab chiqish; - O‘quvchilarning mehnat va tarbiyaviy intizomini yaxshilash, ularning fanlar bo‘yicha uzluksiz tayyorgarligini amalga oshirish. Reyting tizimini nazorat turlari  Reyting tizimida o‘quv rejasig akiritilgan har bir o‘quv fani bo‘yicha o‘quvchilarning bilim sifatini baholash uchun quyidagi nazorat turlaridan foydalaniladi:  Joriy nazorat (JN); Oraliq nazorat (ON); Yakuniy nazorat (YaN). Joriy nazorat (JN) – og‘zaki so‘rov,  kollokviumlar, seminarlar, yozma ishlar, laboratoriya  ishlari, texnikaviy diktant,  kurs loyihalari, uy vazifasi va hokazo, ya’ni siz o‘z amaliyotingizda qo‘llaydigan barcha so‘rov turlarini o‘z ichiga oladi. Joriy nazorat (JN) da o‘tkaziladigan so‘rov turlarini quyidagi qisqartirilgan kodlar bilan belgilashni tavsiya  etiladi: 133 Test so‘rovlar (T), og‘zaki so‘rov (O), laboratoriya ishi (L), masala echish (M), uy vazifasi (U), kurs loyihasi (KL), yozmaish (Yo), kartochka so‘rovi (KC), texnikaviy diktant (TD), amaliy ish (A), va xokazo. Joriy nazorat o‘quv  dasturini bir yoki bir nechta mavzularini o‘rgangandan so‘ng o‘tkaziladi. Oraliq  nazorat (ON)- o‘quv fanining alohida maqsadga qaratilgan katta  va tugallangan  hajmidan keyin  o‘tkaziladi. Bu o‘quv  dasturini  bir yoki bir nechta bo‘limi bo‘lishi  mumkin. ON semestr davomida 2-4 marta o‘tkazilishi  maqsadga muvofiqdir. Yakuniy  nazoratga (YaN) – yakuniy  nazorat (YaN) semestr davomida o‘tilgan  barcha bob  va  mavzularga taalluqli  asosiy  savollarni  qamrab  olishi  kerak. Bu  nazorat semestr yakunida test asosida o‘tkaziladi. ON va YaN o‘tkazishning ob’ektivligini  ta’minlovchi nazoratni  asosiy  shakli-test sinovlari  o‘tkazishdir. Test sinovlarini  o‘tkazishda quyidagilarga  e’tibor  berish  zarur, ya’ni  o‘quv  materialini  o‘zlashtirish natijalarini ob’ektiv baholash  uchun  sharoitlar  yaratish; ko‘pvariantli test

savollarini ishlab chiqish; bir-biridan ko‘chira olmasligini ta’minlash; har bir o‘quvchini individual test savollari bilan ta’minlash. ON sonini, mazmunini va o‘tkazish vaqtini o‘qituvchi taqvim mavzular rejaga mos holdabelgilaydi. ON o‘tkazilish haqida o‘quvchilar bir hafta oldin ogohlantiriladi. ON va YaN doirasida bittasi yoki bir nechtasi bo‘yicha tanlab olinib tashkqi nazorato‘tkazilishimumkin. Nazorat qilish ta’lim muassasa rahbarlari tomonidan o‘tkaziladi. Tashqi nazoratning maqsadi ta’lim standartida ko‘rsatilgan mos darajada o‘quvchilar o‘zlashtirishining ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda bir xildagi fanlar bo‘yicha (kasblar) bu ko‘rsatkichlarni taqqoslash. O‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otish uchun o‘tkazilgan nazorat natijasini dars mobaynida bevosita o‘quvchilar ishtirokida ko‘rib chiqish va tahlil qilish yaxshi natija beradi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. O‘zlashtirish natijalarini bilish nima uchun kerak?
2. Ta’lim natijalarini nazorat qilish vositalari nimalardan iborat?
3. Nazorat qilishning o‘ziga xos xususiyatlari va vazifalarini nimalardan iborat?
4. Didaktik testlarning vazifalari qanday?
5. Me’yoriy test bilan mezonli testning farqini aytib bering.
6. Standartlashtirilgan testning asosiy funksiyasi nimalardan iborat?

## *Foydalanilgan adabiyotlar*


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
2. 2017-2021yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Abdiquddusov O., Rashidov H. Kasb-xunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
4. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000

5. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.
6. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.
7. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
8. www.inter-pedagogika.ru
9. www.didaktika.ru
10. www.School. edu. uz
11. www.Ppsy. ru
12. www.Bank/referat. ru

## MAVZU 24. KURS ISHI VA BITIRUV MALAKAVIY ISHLARGA QO‘YILADIGAN METODIK TALABLAR.

***O’quv maqsadi***

*Kurs ishlarining maqsad va vazifalari, ularning mavzularini tanlash va tasdiqlashga qo‘yiladigan talablar, kurs ishlarini bajarish va unga qo‘yiladigan talablar mazmuni, bitiruv malakaviy ishlarining mavzularini tanlash, maqsad va vazifalarini belgilashga qo‘yiladigan talablar, bitiruv malakaviy ishlarni bajarish va unga qo‘yiladigan talablari, bitiruv malakaviy ishlarini amalga oshirishda tadqiqot metodlariga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganish*

### 24.1. Kurs ishlarining maqsad va vazifalari, ularning mavzularini tanlash va tasdiqlashga qo‘yiladigan talablar, kurs ishlarini bajarish va unga qo‘yiladigan talablar.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Kurs ishlarini bajarish, yo‘nalishlari va mutaxassisliklar, o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan, kurs ishining vazifalari, ilmiy rahbar.*

Kurs ishi – bu o‘quv rejasiga kiritilgan, biror aniq mavzu bo‘yicha talaba tomonidan tayyorlanadigan, ilmiy-tadqiqot elementlarini o‘z ichiga olgan yozma

ish. Kurs ishlarini bajarish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan “Davlat ta’lim standartlari”da ko‘zda tutilgan. Uni yozish talabalarning fan bo‘yicha olgan bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlashga, mustaqil ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish ko‘nikmasini egallashga, bajargan ilmiy ishi natijalarini ijodiy yakunlashni o‘rganishga yordam beradi.

Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari talabalarida ilmiy-tadqiqot ishlari va moddiy ishlab chiqarishdagi masalalarning yechimini topishga imkon beruvchi chuqur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda kurs ishining ahamiyati kattadir. Kurs ishini bajarish jarayonida talaba egallagan nazariy bilimlari va mavjud me’yoriy hujjatlar, ma’lumotnomalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib amaliy masalalarni mustaqil ravishda yechish hamda o‘z g‘oya va yechimlarini jamoada himoya qilish ko‘nikmasini egallaydi.

Kurs ishini bajarishdan maqsad – o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan muayyan fan bo‘yicha ma’ruza, tajriba va amaliy mashg‘ulotlarda olgan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, umumlashtirish va ushbu bilimlarni konkret ijodiy va amaliy masalalarni mukammal yechishda qo‘llashdir.

Kurs ishini bajarish orqali talaba murakkabroq nazariy va amaliy masalalarni, masalan, bitiruv-malakaviy ishini bajarishga tayyorlanadi. Shu bilan birga kurs ishi talabada davlat standartlari, soha me’yorlari, ma’lumotnomalar, jadvallar, diagrammalar, yo‘riqnomalar va muqaddam egallangan tajribalardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, kurs ishi talabalarda hisob-kitob ishlarini bajarish, masalalar chizmalarini chizish, tushuntirish hisobotlarini rasmiylashtirish ko‘nikmalarini hosil qilishi lozim.

Kurs ishining vazifalariga asosan quyidagilar kiradi:

-talabalarning ma’ruza, tajriba va amaliy mashg‘ulotlarda, mustaqil faoliyatlarda olgan nazariy va amaliy ko‘nikmalarini, ijodiy masalalarni bajarishda qo‘llay olishini namoyish etish;

- talabalarda me’yoriy, ma’lumotnoma va boshqa adabiyotlardan foydalanish ko‘nikmalarini hosil qilish;

- mustaqil fikrlash va eng maqbul yechimlarni qabul qilishga o‘rgatish;

- axborot texnologiyalari vositasida tayyorlagan o‘z ishining taqdimoti (himoyasi) ni o‘tkazish, unda kurs ishini bajarish jarayonida egallagan natijalarni ishonchli dalillar bilan asoslash, o‘zini dadil tuta bilish, turli zamonaviy texnik vositalar va ularning dasturlaridan foydalana olish qobiliyatini ko‘rsatish;

- o‘quv jarayonida shakllangan kommunikativ ko‘nikmalarini namoyish etish, o‘z nuqtai nazarini himoya qila olish va muzokaraga kelish, muloqotga qo‘shilish, ish bo‘yicha savollarga asoslangan javob berish, etika qoidalariga rioya qilgan holda bahslashish, muzokaralar va davra suhbatlarida qatnashish imkoniyatini namoyish etish;

- talabalarda guruh bilan ishlash ko‘nikmalarini faollashtirish, oldinga qo‘yilgan maqsadni bajarish bo‘yicha tashabbus ko‘rsatish qobiliyatini kengaytirish, umumiy masalalarni yechishda hamkorlar bilan ishlash ko‘nikmalarini mustahkamlash;

- mustaqil ijodiy ishlash, ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, qayta ishlash va saqlash uchun zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalana olish, ijodiy ishlash jarayonini to‘la nihoyasiga yetkazish mas’uliyatini his etishga o‘rgatish.

Kurs ishini bajarishda muhim masalalardan biri uning mavzusini to‘g‘ri aniqlashdir.

Kurs ishining mavzulari mazkur fanning o‘quv vazifasiga javob berishi bilan bir qatorda ilm-fan va ishlab chiqarishning dolzarb muammolari bilan bog‘liq bo‘lishi lozim. Kurs ishi mavzularining amaliyligi – bu, avvalambor, ularning ilmiyligi, zamonaviyligi va talabalarda mustaqil ijodiy ishga ko‘nikmani shakllantirishga yo‘naltirilganligidir.

Kurs ishlarining mavzulari mazkur fanga mos o‘quv masalalari talablariga javob bergan holda, respublikamiz fani va xalq xo‘jaligi oldida turgan amaliy ishlar bilan bog‘langan bo‘lishi kerak.

Kurs ishlari mavzularining tarkibi ilmiy va boshqa korxonalarning amaliy masalalari, talabalar malakaviy amaliyotlarining natijalari, kafedra a’zolari va

talabalar to‘garaklarining ilmiy ishlari, xorijiy va mamlakatdagi ilm-fan va texnika yutuqlarini aks ettirgan adabiyotlar asosida tuzilishi lozim.

Kurs ishi mavzulari ro‘yxati kafedra tomonidan tasdiqlanadi. Talabaga mavzuni tanlash huquqi beriladi. Talabaga, ilmiy rahbari bilan kelishgan holda, kurs ishi mavzulari ro‘yxatida bo‘lmagan, lekin o‘rganilayotgan fanga bevosita aloqasi bo‘lgan mavzu bo‘yicha ham kurs ishi yozishga ruxsat etiladi. Kurs ishini bir necha talabaning bitta mavzudan yozishlariga ruxsat etilmaydi. Bundan istisno holda, ilmiy rahbarning ruxsati bilan bir mavzuning turli jihatlarini yoritib beradigan holatlarda bir necha talabaning bir mavzuda kurs ishi yozishiga ruxsat beriladi. Albatta, bunday tanlangan mavzular tegishli kafedrada ro‘yxatdan o‘tkazilishi shart.

Talabaning ilmiy rahbari bo‘lib, u o‘qiydigan guruhda dars olib boradigan o‘qituvchi hisoblanadi. Talaba kurs ishining rejasini, foydalanadigan adabiyotlar ro‘yxatini, mavzu bo‘yicha yig‘iladigan materiallarni yig‘ish usullari, ularni qayta ishlashni va barcha ma’lumotlarni tekshirtirish muddatlarini ilmiy rahbari bilan muvofiqlashtirishi kerak.

Kurs ishining asosiy etaplarini tartiblashtirish maqsadida ish rejasini bajarilish muddatlarini ko‘rsatib tuzish maqsadga muvofiqdir. Kurs ishining ish rejasiga quyidagi bosqichlarni kiritish mumkin:

1) mavzuni tanlash;

2) maxsus adabiyotlarni o‘rganish;

3) kurs ishi rejasini tuzish;

4) ilmiy rahbardan maslahat olish;

5) ishning amaliy tatbiqini o‘rganish;

6) ishning birinchi(qora)variantiniyozish;

7) ishni ilmiy rahbarga ko‘rsatish va uning maslahatlarini olish;

8) ko‘rsatilgan kamchiliklarni tuzatish, ishni tahrir qilish va kafedraga kurs ishining tayyor variantini taqdim etish;

9) dokladni tayyorlash va ishni himoya qilish.

Kurs ishi quyidagi tarkibdan iborat bo‘ladi:

a) titul varag‘i (ilova - 1 da ko‘rsatilgan);

b) mundarija (reja) (ilova - 2 da ko‘rsatilgan);

c) kirish;

d) asosiy qism (3-4 paragrafdan iborat bo‘lishi mumkin);

e) xulosalar;

j) foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;

g) ilovalar (zarurat bo‘lsa).

Kurs ishining hajmi A4 (297x210 mm) formatdagi qog‘ozga kompyuterda terilgan 20 – 25 betdan iborat bo‘ladi. Betlar soniga ilovalar kiritilmaydi. Qog‘ozga matn 1,5 intervalda, xarflar o‘lchami 14, Times New Roman ning o‘zbekcha variantida qog‘oz chetlarida chapdan 30 mm, tepadan 20 mm, pastdan 20 mm va o‘ngdan 15 mm joy qoldirib teriladi.

Kurs ishini tayyorlash jarayonida foydalanilgan barcha adabiy manbalarga ixtibos (сылка) qilinishi shart.

Har bir ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kurs ishlari bajariladigan fanlar soni va bajarilish muddatlari kafedraning ishchi o‘quv rejasida ko‘rsatiladi. Agar o‘quv rejasida bir semestrda bir necha fandan kurs ishi bajarish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, ulardan biri bo‘yicha kurs ishi bajriladi.

Kurs ishlari mavzulari o‘quv yili boshida talabalarga taqsimlanib, ilmiy rahbarlar tayinlanadi va kafedra yig‘ilishida tasdiqlanadi.

Kurs ishlariga rahbarlik qilish kafedra professorlari, dotsentlari, katta o‘qituvchilari va ma’lum yo‘nalishda faol ilmiy ish olib borayotgan o‘qituvchilarga yuklanadi. Har bir professor-o‘qituvchining kurs ishlariga rahbarlik qilish me’yori va har bir kurs ishini bajarishga ajratiladigan vaqt amaldagi “Vaqt me’yorlari”ga asosan aniqlanadi.

Quyida ko‘rsatilgan hollarda kurs ishi himoyaga qo‘yilmaydi:

- maxsus adabiyotlar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, monografiyalar, ilmiy jurnallardagi maqolalar va internet ma’lumotlaridan foydalanmasdan, faqat darslikning o‘zidan foydalanib tayyorlangan ishlar;

- darslik, o‘quv qo‘llanmasi yoki monografiyalardan tayyorlangan konspekt

asosida ko‘chirib tayyorlangan, foydalanilgan adabiyotlar yoki mualliflar ishlariga ixtibos (ssылka) lar qilinmaganishlar;

- kurs ishi mavzusining mazmuni yoritib berilmagan va juda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yilganishlar;

- ko‘p sondagi grammatik va stilistik xatolari bo‘lgan, shuningdek, tartibsiz va noto‘g‘ri tayyorlanganishlar.

Bunday ishlar talabalarga kamchiliklarini tuzatish uchun qaytarib beriladi. Talaba qaytadan tayyorlangan ishga avvalgi ishning taqrizini ham qo‘shib topshiradi, bunda ilmiy rahbar taqrizchi tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklarning to‘la tuzatilganligiga ishonch hosil qiladi.

Ko‘rsatilgan muddatda kurs ishini kafedraga topshirmagan, uzrsiz sabablarga ko‘ra kurs ishini himoya qilmagan, himoyada qoniqarsiz baho olgan talabalar akademik qarzdor hisoblanadi va ular kurs ishini qaytadan tayyorlaydilar.

Kurs ishini to‘g‘ri rasmiylashtirishga jiddiy e’tibor berish ham muhim hisoblanadi. Chunki kurs ishini mazmunli va yetuk saviyada yozish bilan birga uni did bilan rasmilashtirishga e’tibor berilsa, bu taqrizda alohidako‘rsatiladi.

Shunday qilib, kurs ishining ham ijobiy ham salbiy tomlarini tahlil qilish, talabalarga tanlangan muammo bo‘yicha chuqur, nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishga ko‘maklashadi hamda ularni kelajakda yetuk iqtisodchi mutaxassislar bo‘lib yetishishiga yordam beradi. Talabaning yozgan kurs ishini hech qanday asossiz, qoniqarsiz baholashga yo‘l qo‘yish mumkin emas, aks holda, bu ularning xafsalasini pir qilib, o‘qishga bo‘lga ishtiyoqini so‘ndiradi, ya’ni talabaning ijodiy faoliyatiga ta’sir qiladi. Shu boisdan taqrizda kurs ishi mavzusi mohiyati qanday darajada yoritilganligini har tomonlama ob’ektiv taxlil qilib, qo‘yilgan bahoni dalillar bilan asoslash lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kurs ishini yozish natijasida talabalar ijodiy fikrlay boshlaydi. Bu esa ularga kelgusidagi ilmiy ishlarini yozishida katta yordam beradi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Kurs ishi deganda nimani tushunasiz? Qisqa izohlab bering.
2. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari talabalarida ilmiy-tadqiqot ishlari va moddiy ishlab chiqarishdagi masalalarning yechimini topishga imkon beruvchi chuqur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda kurs ishining ahamiyati kattadir. Siz bu fikrga qanday qaraysiz?
3. Kurs ishini bajarish orqali talaba murakkabroq nazariy va amaliy masalalarni qanday yechadi?
4. Kurs ishining vazifalariga asosan nimalar kiradi?
5. Kurs ishining mavzulari mazkur fanning o‘quv vazifasiga javob berishi bilan bir qatorda yana nimalarga javob berishi lozim?
6. Kurs ishi mavzulari ro‘yxati kim tomonidan tasdiqlanadi?
7. Kurs ishining ish rejasiga qaysi bosqichlarni kiritish mumkin?
8. Har bir ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kurs ishlari bajariladigan fanlar soni va bajarilish muddatlari qayerda ko‘rsatiladi?
9. Qaysi hollarda kurs ishi himoyaga qo‘yilmaydi?

## 24.2. Bitiruv malakaviy ishlarining mavzularini tanlash, maqsad va vazifalarini belgilashga qo‘yiladigan talablar, bitiruv malakaviy ishlarni bajarish va unga qo‘yiladigan talablar.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

***Bitiruv malakaviy ishi, bakalavriat bosqichi talabalari, ixtisoslik fanlari, fan-texnika, texnologiya taraqqiyoti, ishlar mavzusi, to‘lov-kontrakt mablag‘i, ilmiy rahbar, akademik guruh, yo‘nalishlarga e’tibor qaratish.***

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy Dasturiga asosan, kadrlar tayyorlash sifati va raqobatbardoshligini kuchaytirish, xalqaro ta’lim standartlari darajasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2010 yil 9 iyundagi 255-sonli buyrug‘i bilan yangi tahrirdagi “Institutda bakalavrlarning bitiruv malakaviy ishi (BMI) ni bajarishga qo‘yiladigan talablar” qabul qilindi.

Davlat ta’lim standartlarida bakalavriat bosqichi talabalari barcha fanlar bloki bo‘yicha qo‘llanilishi talab etilgan bilimlarni, tugallangan kasbiy vazifasini o‘zining bitiruv malakaviy ishida amalga oshirishi belgilangan. Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida talabalar o‘qishning yakuniy bosqichida bitiruv malakaviy ishini tayyorlashlari va himoya etishlari ko‘zda tutilgan.

Bitiruv malakaviy ishini yozishdan maqsad – talabalar tomonidan ixtisoslik fanlari bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyot ma’lumotlari bilan bog‘lagan holda, tahlil ishlarini amalga oshirib, tegishli xulosalarni shakllantirish, fanning muayyan mavzusi bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirib, bilim darajalarini yuksaltirishdir.

Bitiruv malakaviy ishi mavzulari buyurtmachilarning xodimlarga bo‘lgan talabini, hozirgi zamon fan-texnika va texnologiya taraqqiyotini e’tiborga olgan holda oliy ta’lim muassasalarida mutaxassis tayyorlovchi kafedralar tomonidan aniqlanadi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzulari nazariy-tahliliy, tahliliy-amaliy, ilmiy-izlanish kabi yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishlari mavzusi muammoning zamonaviy holatini va iqtisodiyot, ishlari chiqarish, texnika, ijtimoiy sohalar, fan, ta’lim va madaniyatning istiqboldagi rivojlanishini o‘zida aks ettirishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishlar mavzusi kadrlar tayyorlovchi kafedra tomonidan belgilanadi va institut yoki fakultetning Kengashi tomonidan tasdiqlanadi hamda har o‘quv yili boshida qayta ko‘rib chiqiladi.

Bitiruv malakaviy ishlari mavzusining ro‘yxati bitiruv amaliyoti boshlanishiga qadar yoki bitiruv kursi boshida e’lon qilinadi.

Talabalarga (retinglari bo‘yicha kamayish tartibida) bitiruv malakaviy ishlarining mavzularini tanlash huquqi beriladi. Talaba yoki talabaning o‘qishi uchun to‘lov-kontrakt mablag‘ini to‘layotgan buyurtmachi zaruriy asoslar bilan bitiruv malakaviy ishlar mavzusi bo‘yicha o‘z variantlarini taklif etishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishlar mavzusi va rahbarini talabaga biriktirish kafedraning taqdimnomasiga ko‘ra rektorning buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

Bitiruv malakaviy ishlariga tayinlangan ilmiy rahbar BMI mavzusiga muvofiq talabaga BMIga tegishli materiallarni to‘plash bo‘yicha (jumladan, malakaviy amaliyot o‘tkazish davrida ham) topshiriq beradi. Topshiriqning shakli institut o`quv-uslubiy boshqarmasi tomonidan belgilanadi. Topshiriq BMI bilan birgalikda Davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etiladi. Masalan, ushbu uslubiy qo‘llanmaning 1-ilovasida bakalavriatning “Moliya” yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan bitiruv malakaviy ishi mavzulari namuna tariqasida keltirilgan. Tavsiya etiluvchi mavzular ro‘yxati kafedraning yetakchi professor-o‘qituvchilari tomonidan tuziladi, bunda bitiruvchilar faoliyat boshlaydigan soha mutaxassislari, Moliya vazirligining hududiy boshqarma va bo‘limlari hamda boshqa moliya tashkilotlarining talablari, ularning taklif-mulohazalari inobatga olinadi. Mavzular ro‘yxati har o‘quv yilida kamida 40-50 foizga yangilanishi va amaliyot muassasalari bilan muvofiqlashtirilishi ta’minlanadi. O‘quv yili boshlanishida kafedra professor-o‘qituvchilari bitiruvchi kurs talabalarini mazkur mavzular bilan tanishtiradilar. Talabalar o‘z qiziqishlaridan, avvalgi bosqichlarda yozilgan kurs ishlari, ilmiy

maqolalari va boshqa shu kabi ilmiy izlanishlari mavzularidan kelib chiqqan holda kafedra tomonidan taqdim etilgan ro‘yxatdagi mavzulardan birini tanlaydilar.

Bir akademik guruhda ikki va undan ortiq talabaning bir mavzu bo‘yicha bitiruv malakaviy ishi yozishlariga ruxsat berilmaydi. Ixtisoslik fanlari bo‘yicha dars o‘tuvchi kafedra professor-o‘qituvchilari talabalar bilan suhbatlashib, mavzu tanlash bo‘yicha maslahatlar beradilar va har bir talabaga biriktirilgan mavzular bo‘yicha ma’lumot yig‘ib, buyruq loyihasini tayyorlash uchun kafedraga taqdim etadilar. Buyruq loyihasi kafedra yig‘ilishida muhokama etiladi.

Talabalar tanlagan mavzular bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan kafedraning yetakchi professor-o‘qituvchilari bitiruv malakaviy ishlariga ilmiy rahbar sifatida biriktiriladi. Bunda ommaviy axborot vositalarida o‘z ilmiy maqolalarini chop etgan, talabalar ilmiy to‘garaklarida qatnashgan yoki boshqa shu kabi ilmiy izlanishlarni olib borgan iqtidorli talabalar o‘z izlanishlari mavzusi doirasida o‘z ilmiy rahbarlari boshchiligida bitiruv malakaviy ishlarini yozishlari ta’minlanadi. Har bir professor-o‘qituvchining ilmiy salohiyati, pedagogik tajribasi, o‘quv yuklamasi, intizomi, o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashishi darajasi kabi shaxsiy fazilatlari ham hisobga olinadi.

Bitiruv malakaviy ishi rahbari, malakaviy ishning mavzusiga muvofiq talabaga malakaviy ishga tegishli materiallarni to‘plash bo‘yicha (jumladan, malakaviy amaliyot o‘tkazish davrida ham) topshiriq beradi. Topshiriqning shakli kafedra tomonidan belgilanadi.

Malakaviy ishlarga rahbarlar mazkur oliy o‘quv yurtining shu sohaga tegishli bo‘lgan professor-o‘qituvchilari safidan tayinlanadi.

Malakaviy ish rahbari:

- malakaviy ishning bajarilish jadvalini rejalashtiradi;
- topshiriq beradi;
- asosiy adabiyotlar, ma’lumot va arxiv materiallarini hamda mavzu bo‘yicha manbalarni tavsiya etadi;
- talabalar bilan muntazam ravishda maslahatlar o‘tkazadi;

- malakaviy ishning bajarilish jarayonini nazorat etadi;

talaba bajargan malakaviy ishning sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularning qaytarilishiga yoki ko‘chirilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Malakaviy ish rahbarining taklifiga binoan, kafedra malakaviy ishga rahbarlik qilishga ajratilgan vaqt budjeti hisobidan ishning ayrim bo‘limlari bo‘yicha ilmiy maslahatchilarni taklif etishi mumkin.

Malakaviy ishning bo‘limlari bo‘yicha ilmiy maslahatchilar etib, turdosh oliy o‘quv yurtlarining professorlari va dotsentlari, ilmiy xodimlari hamda boshqa muassasa va korxonalarning yuqori malakali mutaxassislari tayinlanishi mumkin. Ilmiy maslahatchilar talaba bajargan ishning sifatini oshirish yuzasidan amaliy maslahatlar beradi.

Mutaxassis chiqaruvchi kafedra malakaviy ishga qo‘yiladigan majburiy talablar hajmini belgilagan holda malakaviy ishni bajarish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqadi va talabalarni ta’minlaydi.

Talaba bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratishi lozim:

- bitiruv malakaviy ishi mavzusining nazariy jihatlarini yoritishi;
- o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha qo‘yilgan savol holatiga tushuncha berishi;
- bitiruv malakaviy ishi maqsad va vazifalarini shakllantirish va muammo holatini amaliy materiallar asosida tahlil etishi;
- bajarilgan ishlar natijasi bo‘yicha xulosalar qilish hamda tegishli faoliyat sohalarida ularni amalda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashi.

Malakaviy ish berilgan topshiriq asosida, shaxsan talaba tomonidan bajariladi.

Kafedraning tavsiyasiga binoan malakaviy ish chet (ingliz, nemis yoki fransuz) tilida bajarilishi mumkin. Chet tilida bajarilgan ishga davlat tilidagi annotatsiya ilova etiladi va himoya vaqtida tarjima ta’minlanadi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Bitiruv malakaviy ishi (BMI) ni bajarishga qo‘yiladigan talablar qaysi qonunda qabul qilingan?
2. Bitiruv malakaviy ishlarining mavzulari nimaga asosan tuziladi?
3. Bitiruv malakaviy ishlar mavzusi kim tomonidan belgilanadi?
4. Talabalarga qaysi holatda bitiruv malakaviy ishlarining mavzularini tanlash huquqi beriladi?
5. Talabalar tanlagan mavzularga kimlar ilmiy rahbar sifatida biriktiriladi?
6. Malakaviy ish rahbarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
7. Talaba bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda nimalarga e’tibor qaratishi lozim?

## 24.3. Bitiruv malakaviy ishlarini amalga oshirishda tadqiqot metodlari, bitiruv malakaviy ishlarini rasmiylashtirish, himoya qilish va unga qo‘yiladigan talablar.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Malakaviy ishni bajarish, ishning kirish qismi, ishning 1-bobi, ishning 2-bobi, ishning 3-bobi, ishining xulosa qismi, ishning rasmiylashtirilishi.*

Malakaviy ishni bajargan talaba tanlangan mavzuning to‘g‘riligiga va uning topshiriqqa muvofiqligiga, malakaviy ishda ko‘chirmachilik holatining yo‘qligiga javob beradi. Malakaviy ish kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati qismlaridan iborat bo‘ladi. Ishning hajmi 80-120 bet, qo‘lyozma shaklida bo‘lishi tavsiya etiladi.

Ishning *kirish qismi*da malakaviy ish mavzusining dolzarbligi asoslanadi, mavzu bo‘yicha ilmiy ishlarini chop etgan iqtisodchi olimlar haqida ma’lumot keltiriladi, izlanishning maqsadi va vazifalari, izlanish ob’ekti, predmeti va ma’lumot bazasi aks ettiriladi. Mavzuning dolzarbligini asoslashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Miziyoyev asarlari va ma’ruzalaridan iqtibos keltirish mumkin. Kirish qismini ko‘pi bilan 5-6 bet hajmda yozish tavsiya etiladi.

Ishning *1-bobi*da mavzuning nazariy jihatlari yoritiladi. 1-bobni 2-3 paragrafdan iborat holda yozish, 1-paragrafda mavzuning nazariy asoslari, mohiyati, ahamiyatini yoritish, 2-paragrafida mavzuning tashkiliy-huquqiy asoslarini aks ettirish va 3-paragrafda tadqiqotning xorijiy tajribalarini bayon etish tavsiya etiladi. Bunda turli iqtisodiy maktablar vakillari bo‘lgan iqtisodchi olimlar asarlarining qiyosiy tahlili amalga oshirilishi, davriy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalardan foydalanilishi, mavzuga oid asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarida keltirilgan nazariy fikrlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilishi mumkin. 1-bobning har bir paragrafini 10-12 bet hajmida yozish tavsiya etiladi.

Malakaviy ishning *2-bobi*da mavzuga oid amaliyot holati tahlilini amalga oshirish va tahlil natijalariga asoslangan holda tegishli xulosalar shakllantirish, 2-bobni 2-3 paragrafdan iborat holda yozish tavsiya etiladi. 2-bobda jadvallar, diagrammalar, rasmlar shaklida amaliyot ma’lumotlaridan keng foydalanish, ularni batafsil tahlil etish talab etiladi. Tahlil jarayonida davriy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalarga, hukumat idoralarining rasmiy internet saytlarida keltirilgan ma’lumotlarga, talaba tomonidan bitiruvoldi va malakaviy amaliyot davomida to‘plangan amaliyot ma’lumotlariga asoslanish tavsiya etiladi. Bunda har bir jadval, diagramma va rasmlarning manbalari aniq ko‘rsatilishi zarur. 2-bobning har bir paragrafini 12-15 bet hajmida yozish tavsiya etiladi.

Ishning *3-bobi*da mavjud holatni takomillashtirish yuzasidan iqtisodchi olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda bayon etish tavsiya qilinadi. 3-bobni 2 paragrafdan iborat holda yozish,1-paragrafda mavzu bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni mamlaka- timizda qo‘llash mumkin bo‘lgan jihatlari haqida fikr-mulihozalar berib, ularni asoslash, 2-paragrafda mavzuga oid zamonaviy asarlarda tadqiq etilayotgan mavzuni takomillashtirish yuzasidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda, ularga nisbatan talabaning mustaqil munosabatini bildirishi talab etiladi (mavzudan kelib chiqib, ayrim hollarda 3-bobni paragraflarga ajratmaslik ham mumkin). 3-bobning har bir paragrafini 10-12 bet (agar 3-bobni paragraflarga ajratmasa 20-22 bet) hajmida yozish tavsiya etiladi.

Malakaviy ishining *xulosa* qismida mavzuni o‘rganish davomida talaba tomonidan shakllantirilgan xulosalar bayon qilinadi. Amalga oshirilgan tahlil jarayonida chiqarilgan xulosalar aks ettiriladi. Mavzuga oid zamonaviy asarlarda bayon etilgan tadqiq etilayotgan mavzuni takomillashtirish yuzasidan xulosalar keltiriladi. O‘zgarishlar dinamikasini hisobga olgan holda, kuzatilgan asosiy an’analar to‘g‘risida talabaning shaxsiy munosabati bildiriladi.

Bitiruv malakaviy ishi qo‘l yozma tarzida rasmiylashtirilgan bo‘lishi shart. Malakaviy ish A4 o‘lchamdagi oq qog‘ozda, ko‘k rangli ruchkada yozilishi talab qilinadi, boshqa rangdagi ruchkalarni ishlatishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bo‘limlar, jadvallar, rasmlar raqamini va nomlarini ham boshqa rangli ruchkada (qora, qizil, yashil) yozishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Varaqning chap tarafida 3 sm, pastda 2,5 sm, tepada 2 sm, o‘ngda 1 sm joy qoldirish tavsiya qilinadi, bunda bir varaqda 28-30 qator bo‘lishi zarur. Varaq tagiga yo‘l-yo‘l qog‘oz (“zebra”) qo‘yib yoziladi, varaqning o‘ziga matn yozish uchun to‘g‘ri chiziqlar chizish yoki printerda chiziqlar chop etilgan varaqlarga yozishga yo‘l qo‘yilmaydi. Varaq raqami varaqning pastki qismiga, o‘rtasiga qo‘yiladi, bunda raqamlardan foydala- nilishi shart. Raqamning ikki tarafiga chiziqcha qo‘yish mumkin. Masalan, - 5 - shaklida.

Malakaviy ishning har bir bobiga muvofiq asoslar, qarorlar va xulosalar bilan yoritiladi. Malakaviy ishda, ilgari bajarilgan mustaqil ishlarning natijalari yoki boshqa mualliflarning (ilmiy ma’ruzalar va maqolalari, hisob-grafika ishlari, kurs ishlari va loyihalaridan foydalanish bilan bunda foydalangan har bir manba havola (snoska) shaklida ko‘rsatilishi shart) ishlari aks ettirilishi yoki ulardan foydalanish mumkin.

Davlat arboblari, xorijiy olimlar va umuman, barcha iqtisodchi olimlar fikrlaridan iqtibos (sitata) keltirilganda, manba aniq ko‘rsatilishi talab qilinadi. Bunda, avval muallifning familiyasi, ismi, keyin asar nomi, asar turi (darslik, o‘quv qo‘llanma, to‘plam yoki boshqa shu kabilar), chop etilgan joyi, nashriyot nomi, chop etilgan yili, asar jami necha varaqdan iborat ekanligi va keltirilgan fikr bu asarning nechanchi varag‘ida berilganligi aniq ko‘rsatiladi. Iqtibos matni

qo‘shtirnoq ichida beriladi, yakunida “havola” (сноска) belgisi qo‘yiladi va varaq pastida manba ko‘rsatiladi.

Masalan, quyidagi shaklda «soliqqa tortish tizimining asosiy bo‘g‘ini hisoblangan soliq elementlari esa soliqqa tortishda ifodalanadigan tushunchalar bo‘lib, ular soliq to‘lovchilar va davlat budjeti o‘rtasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi».

Davriy nashrlarda (jurnal, gazeta kabi) chop etilgan maqolalardan iqtibos keltirish ham yuqoridagiga o‘xshash bo‘lib, unda asar turi o‘rniga, nashr turi bayon etiladi (... jurnali yoki ... gazetasi kabi), chop etilish joyi, sanasi va raqami ko‘rsatiladi.

Bitiruvchi talabalarni bitiruv malakaviy ishini dastlabki himoya qilish jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Dastlabki himoyani birinchi bosqichida talaba tomonidan quyidagi ma’lumotlarni dastlabki himoya komissiya a’zolariga taqdim etadi. Jumladan:

–ilmiy rahbar tomonidan tasdiqlangan bitiruv malakaviy ish irejasi;

–bitiruv malakaviy ishining kirish qismi (mavzuni dolzarbligi, o‘rganilganlik darajasi, izlanishning maqsadi va vazifalari, izlanish ob’ekti, ishning predmeti va ma’lumot bazasi) aks ettiriladi;

–bitiruv malakaviy ishining 1 – bobini har bir paragrafi bo‘yicha mavzuning nazariy-huquqiy asoslari bayon etiladi;

–bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati taqdim etadi.

Dastlabki himoyaning ikkinchi bosqichida talaba tomonidan quyidagi ma’lumotlar taqdim etiladi:

–talabani bitiruv oldi amaliyoti davrida amaliyot bazasining barcha ma’lumotlari bo‘yicha bitiruv malakaviy ishining tahlil etilganlik darajasi asosida ishning 2-bobi dastlabki himoya komissiyasi a’zolariga bayonetiladi;

–bitiruv malakaviy ishining 3-bobi (ishning 2-bobi ya’ni, tahliliy qismidan kelib chiqib, mavzuni takomillashtirishga qaratiladi ) taqdimetiladi;

–bitiruv malakaviy ishining xulosa qismi ko‘rsatib beriladi.

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan malakaviy ish talaba tomonidan rahbarga takdim etiladi. Rahbar, malakaviy ish bilan tanishb chiqib, talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildir-gandan so‘ng, ishni o‘z taqrizi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabaning faolligi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar va malakaviy ishning boshqa ijobiy tomonlari tavsiflanadi. Kafedra mudiri, taqdim etilgan materiallar asosida, malakaviy ishni talaba tomonidan DAKda himoya qilishga kiritish haqida qaror qabul qiladi. Agar, kafedra mudiri talabaning malakaviy ishini himoyaga kiritish mumkin emas deb hisoblasa, masala kafedra majlisida, rahbar ishtirokida muhokama etiladi. Bu holatda kafedra majlisining bayonnomasi fakultet dekani tomonidan tasdiq uchun rektorga takdim etiladi.

Himoyaga kiritilgan malakaviy ish taqrizga yuboriladi.

Taqrizchilar tarkibi bitiruvchilarni iste’mol qiluvchi soha mutaxassislari safidan tanlanadi. Moliya vazirligining hududiy boshqarma va bo‘limlari hamda boshqa moliya tashkilotlari mutaxassislari taqrizchi sifatida tanlanadi. Taqrizchilar sifatida turdosh oliy o‘quv yurtlarining professor va o‘qituvchilari ham jalb etilishi mumkin.

Taqriz olingandan so‘ng, kafedrada tuziladigan bitiruv malakaviy ishining dastlabki himoyasi bo‘yicha Attestatsiya hay’ati oldida malakaviy ishlarning dastlabki himoyasi o‘tkaziladi. Dastlabki himoyada ijobiy baholangan bitiruv malakaviy ishlari ro‘yxati fakultet dekaniga taqdim etiladi.

Fakultet dekani malakaviy ishni taqriz bilan himoya uchun DAKga yuboradi. Dekanat tomonidan kafedra bilan kelishilgan holda bitiruv malakaviy ishlarini himoya qilish reja jadvali ishlab chiqiladi. Uzrli sabab bilan bitiruv malakaviy ishini belgilangan muddatda himoya qilolmagan talabalarga rektorning qarori bilan, Davlat attestatsiya komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar, boshqa muddatlarda himoya qilishga ruxsat beriladi.

Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Bitiruv malakaviy ishlarini baholash mezonlari kafedra tomonidan tayyorlanadi, Davlat attestatsiya komissiyalarining raislari ishtirokida muhokama qilinadi va oliy o‘quv yurti ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Baholash mezonlarida bitiruv malakaviy ishi mavzusida ommaviy axborot vositalarida ilmiy maqolalarini chop etgan talabalarni rag‘batlantirish ko‘zda tutiladi.

Bitiruv malakaviy ishlari himoyasi davlat attestatsiya komissiyalarining ochiq majlislarida, a’zolarning uchdan ikki qismi ishtirok etgan holda o‘tkaziladi.

Davlat attestatsiya komissiyalari institut rahbariyati va ilmiy-pedagogik kadrlari tarkibidan (attestatsiya komissiyasi tarkibining 50% dan ortiq bo‘lmagan) va boshqa taklif etiladigan muassasalar vakillaridan – mazkur soha kadrlarini iste’molchilari bo‘lmish korxona, tashkilot va muassasalarning yetuk mutaxassislari, turdosh oliy o‘quv yurtlarining yetakchi professor-o‘qituvchi va ilmiy xodimlari, muvofiq sohalar va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tizimidagi olimlardan shakllantiriladi.

Yakuniy Davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlarining natijalari o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari (%ga nisbatan) bilan aniqlanadi va attestatsiya komissiyasining majlis bayoni belgilangan tartibda rasmiylashtirilgandan so‘ng shu kunning o‘zida e’lon qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining “Me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1998 yil 31 dekabr 362-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining yakuniy Davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi Nizom” va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus maxsus ta’lim vazirligining 2010 yil 9 iyundagi 255-son buyrug‘i bilan yangi tahrirdagi “Institutda bakalavrlarning bitiruv malakaviy ish(BMI)ini bajarishga qo‘yiladigan talablar” va mazkur qo‘llanma Toshkent Moliya instituti talabalari uchun bitiruv malakaviy ishini yozish va himoya qilish jarayonini tartibga soluvchi asosiy me’yoriy hujjat hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash va himoya qilish jarayonida ushbu hujjatlarda ko‘rsatilmagan boshqa hujjatlarni talab qilish, boshqa cheklovlar yoki talablarga yo‘l qo‘yilmaydi.

BMI himoyasidan so‘ng (kamida 10 yil) oliy ta’lim muassasasida saqlanadi. Har xil sabablar bo‘yicha BMIni boshqa tashkilot yoki xodimlarga topshirish zaruriyati mavjud bo‘lganda (tatbiq etish, tanlovlar va hakozo), ishdan nusxa olinadi (ishning asl nusxasi oliy o‘quv yurtida qoldiriladi).



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Tanlangan mavzuning to‘g‘riligiga va uning topshiriqqa muvofiqligiga, malakaviy ishda ko‘chirmachilik holatining yo‘qligiga kim javob beradi?
2. Ishning kirish qismida malakaviy ish mavzusining dolzarbligi asoslanadimi? Misollar bilan isbotlab bering.
3. Ishning 1-bobida mavzuning qaysi jihatlari yoritiladi?
4. Malakaviy ishning 2-bobida mavzuga oid nimalar tahlilini amalga oshiriladi?
5. Ishning 3-bobida mavzuning qaysi jihatlari yoritiladi?
6. Malakaviy ishining xulosa qismida nima yoritiladi?
7. Bitiruv malakaviy ish qanday rasmiylashtiriladi?

***Foydalanilgan adabiyotlar***


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
2. 2017-2021yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Abdiquddusov O., Rashidov H. Kasb-xunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
4. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
5. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.
6. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.

7. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
8. www.inter-pedagogika.ru
9. www.didaktika.ru
10. www.School. edu. uz
11. www.Ppsy. ru

## MAVZU 25. KASB – HUNAR TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNI TARBIYALASH TIZIMI.

| | |
|---|---|
| ***O’quv maqsadi*** ⇨ | *Kasb – hunar kollejlarida o‘quvchilar tarbiyalashning maqsad va vazifalari, kasb – hunar kollejlarida o‘quvchilarni tarbiyalashga qo‘yiladigan talablari, o`quvchilarni o`rganishning pedagogik-psixologik metodlari mazmuniga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganish* |

### 25.1. Kasb – hunar kollejlarida o‘quvchilar tarbiyalashning maqsad va vazifalari, kasb – hunar kollejlarida o‘quvchilarni tarbiyalashga qo‘yiladigan talablar.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Tarbiya san'ati, qadimiy muammo, ko’rsatish va tushuntirish, rag’batlantirish va jazolash, vazifa berish va talab qilish, tekshirish, tuzatish, ishontirish va tahlil qilish, majburiy ravishda tarbiyalash, axloq tushunchasi, allomalar fikri.*

«Tarbiya san'ati – deyarli hammaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa, hatto oson tuyulish xususiyatiga ega, u qanchalar tushunarli va oson tuyulsa, o’sha inson u bilan nazariy va amaliy jihatdan shunchalar kam tanish», degan edi K.D.Ushinskiy.

Tarbiya – pedagogik nazariya va amaliyotidagi eng o’zgarmas, va eng qadimiy muammodir. Lekin, «Bolalarni tarbiyalash muammosi yo’q, faqatgina: qanday

qilib bolalar va kattalar birga yashashlari mumkin, degan bir savol bor, xolos,» degan edi L.N.Tolstoy. Bunday tarzda qo'yilgan savol eng avvalo, o'zingizga nazar tashlashingiz kerak bo'lgan har qanday holatdagidek o'ta murakkabdir.

Tarbiya, asosan, quyidagi vositalar yordamida amalga oshiriladi: ko'rsatish va tushuntirish, rag'batlantirish va jazolash, vazifa berish va talab qilish, tekshirish, tuzatish, ishontirish va tahlil qilish. Ana shunday ta'sir ko'rsatish yo'li bilan kattalar bolalarning bilish va amaliy faoliyatlarini yuzaga keltirib, ma'lum tomonga yo'naltiradilar va bu faoliyatlar nazorat qilinib, to'g'rilab hamda shuning bilan birga faoliyatlarni rivojlantirish amalga oshiriladi.

Pedagogikada tarbiya berish usuli ikki turga bo'linishi qayd etilgan. Avvalgi usul, (ilhomlantiruvchi) san'atni o'z rag'batlari bilan o'rganuvchilarga ishlatiladigan usul. Ikkinchi usul, (majbur etish) esa majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul. tarbiya beruvchi yoki shogirdlar ustida turgan o'qituvchilarning qo'llaydigan usuli bunga misoldir. Masalan, hukumat yoki davlat, mazkur mamlakatda yashovchining muallimi, tarbiyachisi bo'ladi. Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo'lib, u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi. Mana shundan ma'lum bo'ladiki, hukumat (davlat) va muallim har ikkovi o'z yo'lida bolalar yoki mehnatkashlarga tarbiya beruvchi ustoz va muallimlardir. Ulardan biri bolalarga mehribonlik va yaxshi so'zlar bilan tarbiya bersa, ikkinchisi majburiy ravishda tarbiyalaydi.

Forobiy tarbiyaning usuli deganda axloqiy fazilatlarni tushunadi. Uning tasavvurida axloqiy fazilatlar bilimdonlik, donolik va mulohazali bo'lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko'pchilik manfaatini yuqori qo'yish, haqiqat, ma'naviy yuksaklikka intilish, adolatlilik kabi xislatlardir. Ammo, bu xislatlarning eng muhimi har bir insonning bilimli, ma'rifatli bo'lishidir. Shuning uchun ham, Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog'liq holda tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me'yorlari ifodasi sifatidagina emas balki kishilarning aqliy faoliyatning natijasi sifatida ham talqin

etilganligini ko’ramiz. Forobiyning ta'lim – tarbiya yo’llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir.

U «… insonda go’zal fazilatlar ikki yo’l, – ya'ni ta'lim va tarbiya yo’li bilan hosil qilinadi. Ta'lim nazariy fazilatlarni birlashtirsa, tarbiya esa tug’ma fazilat, nazariy bilimlar va omiliy kasb – hunar, xulq - odob fazilatlarini birlashtiradi. Ta'lim so’z va o’rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan amalga oshiriladi» deb ta'lim beradi.

Har ikkalasi birlashsa etuklik namoyon bo’ladi, ammo bu etuklik bilim va amaliy ko’nikmalarni qay darajada o’rganganligiga qarab paydo bo’ladi deb uqtiradi alloma.

Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o’rganilsa tarbiyada ma'naviy, axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o’rganiladi, kasb – hunarga oid malakalar hosil qilinadi deb tushuntiradi.

Bahouddin Naqshband tarbiyaviy qarashlarining markazida orif insonni shakllantirish g’oyasi yotadi.

Orif inson avvalo aqlli, ilmli va ma'rifatli bo’lishi lozim. Uning ta'limotiga ko’ra insoniy ilmi shariat, ilmi ma'rifat va ilmi haqiqatni o’z ichiga olgan tasavvur ta'limotidan iborat bo’lishi lozim. Bu yo’l orqali insonlar mavjud dunyo tilsimlarini o’rganishlari va bilishlari imkoniyatiga ega bo’ladilar.

Xo’ja Bahouddin Naqshbandning bu ta'limotini o’rganuvchilarga piru ustoz bo’lib ta'lim berganlar. Piru ustoz Naqshband muridlar (shogirdlar)ning dunyoqarashini kengaytirib Valiy avliyo darajasigacha aqlini rivojlantirganlar, ularga ta'lim berish uslubiyotini ishlab chiqqanlar. (Bu toifa uch qismga bo’linadi: muqallid, oif va mukammal). Bu pedagogika buyuk sohibqironning davlatni boshqarish va uni idora qilishida qolibona harbiy yurishlarida, mamlakatda asosiy tartib o’rnatish, fan va madaniyatni rivojlantirish, xalqlar o’rtasida buzilmas do’stlik mehr – shavqat, odamiylik va axloq – odobni tarbiyalash kabi muammolarni hal qilishga katta yordam bergan. Ustozning axloq va odob haqidagi ta'limotiga quyidagilar kiradi:

- adolat va adolatsizlik;

- so’z va ishning birligi;
- do’st va dushmanlik;
- botirlik va qo’rqoqlik;
- so’z va shirinsuxanlik.

Ta'lim – tarbiya ishlari ham Naqshband g’oyalarini ifoda etuvchi mafkura sifatida amalga oshiriladi. Farzandlarga islom diniga e'tiqod qilishni o’rgatish bilan birga alloma mehnatni sevishni, axloqli bo’lishni, odamlarga yordam ko’rsatishni, bilim olish, hunar o’rganish va boshqa olijanobliklarni uqtiradilar. Masjid va madrasalarda talabalar ongida ollohga yaqin bo’lishning to’g’ri va samarali yo’li tarki dunyochilik emas, balki jamiyat saodati uchun yashash, bunyodkorlik, savob ishlar va mehnatni qadrlash, ilm va bilim olishdir. Mukammal axloqqa erishish, xullas jamiyat hayotida faol ishtirok etishni taqozo etadigan xulq – atvorni, sa'y – harakatni o’zida mujassam etadigan mafkura izchil ravishda singdirildi.

Agar bolalarga jazo berish sabablarini chuqur tahil qiladigan bo’lsak, burchakda tik qo’yish yoki shirinlikdan mahrum qilish jazosini atroflarida shu «sho’r suv»ni «shimish»ga olib keladigan shunday muhitni yaratib qo’yganlarini sezmaydigan kattalarga berish kerak bo’ladi. Lekin, ularning shu siz ham muammolari ko’p, shuning uchun ular o’zlariga tinmay: «Men o’z ehtiyojlarimni boshqarayapmanmi? Nimani afzal ko’rib, nimani ko’proq qadrlayapman? Va bu hatti – harakatim boshqalarga bo’lgan munosabatlarimda qanday aks etyapti?» degan savollarni beraverishdan tortinadilar. O’z hissiyotlarini boshqarish, ularni (o’z erkinligini) cheklash, boshqasini (va uning erkinligini) hisobga olish – tarbiyaning asosi. Shu ma'noda, o’quv dargohini (o’qituvchilar) mutaxassislar rahbarligi ostida mashq qilib ko’rish mumkin bo’lgan mashq maydonchasiga o’xshatsa bo’ladi. Tajribali tarbiyachi, eng avvalo, har bir talabaning o’z hissiyotlarini hisobga olib, uni maqsadga yo’naltiradi, ularni boshqarish uchun sharoit yaratib beradi. Bu jadvalda shunday ko’rinish kasb etadi:




Hissiyotlarning boshqarilishi – bu dolzarblikni tushunish, qiziqish harakatga undovchi sabab – faollik, qaror qabul qilish demak. Agar har birimiz o’z dunyoqarashimizni kengaytirish orqali o’z hissiyotlarimizni boshqarish, muvofiqlashtirish, me'yorga intilishni o’rgansak, hayotimizdan jahldorlik, ochko’zlik, munofiqlik ketib, aqlimiz kiradi. Ongimizning aynan shu qismi o’z hayotimiz ma'naviyati darajasini boshqaradi, ya'ni yaxshilik yoki yomonlik; ijodiy yaratuvchanlik yoki bema'ni vayrongarchilik; boshqalarga nisbatan sevgi yoki nafratga o’z munosabatimizni belgilaydi.

Xulosa qilib aytsak, tarbiyani o’z hissiyotlarini, xohish va istaklarini boshqarish jarayoni, deb aytsak xato bo’lmaydi.

Pedagogik jarayonda o’z hissiyotlarini boshqarishni har bir talabaga o’rgatish bu maqsadni aniq mo’ljalga yo’naltirilganligini ko’rsatadi.

O’qituvchi auditoriya bilan o’zaro muloqot (o’quv jarayonidan alohida vaqtda emaC) o’z vaqtida tarbiyaviy jarayon borayotganligini anglay olishi darkor. qiziqishlarini saqlab qolish, asoslab bera olish, faolliklarini qo’llab-quvvatlash, o’qituvchilarda pedagogik jarayonda maqsadni yuzaga keltiradi, ular kasbiy faoliyatda juda zarur bo’lgan o’zliklarini anglash mashqini oladilar.

Tarbiya to’g’risida qanchalar gapirilgan. Yana biror narsa qo’shish mumkinmikan? Balkim, agar fikr, so’z, harakatni ishlab chiqishga undaydigan yo’nalishni: jarayondan natijaga «bilim, mahorat, ko’nikma» dan «bilim, mahorat, ko’nikma plyus qarashlar, harakatlar»ga cheklangan intellektli iste'molchini shakllantirish (diqqat, o’qish, xotira - imtihon uchun etarli!) dan to’laqonli

yaratuvchi (diqqat, o’qish, xotira, fikrlash) ni shakllantirishga o’zgartira bilsak, mumkindir. Shundagina, tarbiyaga ham qandaydir yangilik kiritish mumkin bo’ladi.

O’quv jarayoniga qadam qo’ygan talabalar o’qish mazmuni qo’yilishi kerak bo’lgan o’z ichki ehtiyojlari (ichki normalar) ga ega bo’ladilar, ya'ni ba'zi bir tashqi narsalar (informatsiya) hozircha ularga begona bo’lgan har qanday narsa ularni hushyorlikka chorlaydi.

Narsa hodisaning tarkibini sistemali (tizimli) ravishda ko’rish kerak, ya'ni ma'lum ilmiy bilimni zanjirga aylantirish: sistema (elementlar va aloqalanish), yoki podsistema (elementlar va aloqalar) va h.h.

Kasbiy faoliyat mazmunining asosi bo’lib - malakali talablar, o’lchovlar, mezon, maqsad, vazifalar xizmat qiladi va ular kasbiy faoliyatga o’qish yordamida madaniyatga ega bo’ladilar.

Kasbiy faoliyat mazmunini, uning quyidagi qurilma ko’rinishida ko’rish mumkin:




Jadvaldan ko’rinib turibdiki, o’lchovga mazmun va mezon ta'sirini ko’rsatish orqali amalga oshadi va u kasbiy madaniyatni shakllantiradi. Bu shaxsning kasb ko’nikmalarini o’stirishga xizmat qiladi.

Ko’pincha kattalarning ta'limdagi odatiy texnologiyalari – ma'lumotlarni berishgagina yo’naltirilgan bo’ladi va shu sababli talabalarga har qanday mazmunda bo’lishi mumkin bo’lgan o’z muammolarini hal qilish metodi, usuli va texnologiyasini o’zlashtirishga sharoit yaratilmaydi. Bunda mazmun tuzilmasi

fikrlash texnikasini, uni taqdim etish usuli esa kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirmaydi. Bu kasbiy faoliyat uchun salbiy holatdir.

Faqatgina pedagogik texnologiyalarda talabaning ichki xususiyatlarini o’stirish, ularni uning ichki mazmuniga bog’liq holda amalga oshirilgan taqdirdagina tarbiya va ta'limda unumdorlikni kam yo’kotishi mumkin. O’qituvchi «mening yo’limdan yur» talablari o’rniga «Atrofga qara, o’yla, tanla, mening yordamimda o’rgan» talabiga o’tsagina bu kasbiy faoliyatni tashkil etish maqsadli bo’ladi. «Taraqqiyot va ta'lim biror kishiga tayyor holda xabar berilmaydi va taqdim etilmaydi. Buning uchun istagan har bir odam unga o’z faoliyati, o’z kuchi va o’z intilishi orqali erishadi» - degan edi, A. Disterveg.




Pedagogik faoliyatda o’qituvchining fikrlashi (fikrlash texnikasi), so’z bilishi (kommunikatiB) qobiliyati, izlanuvchan ongi va anglanganligi (refleksli) harakatida namoyon bo’ladi.

Fikrlash texnikasi qobiliyatlarni rivojlantirish, izlanuvchanlik texnikasini egallashdan kelib chiqadi .

Har qanday pedagogik texnologiya ham o’qituvchi, ham talabadagi fikrlash texnikasini amalga oshirish jaryonida sodir bo’ladi va rivojlanadi.

Tabiiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning funktsiyasi ta'lim jarayonining asosini tashkil etadi.

Atrofimizga qaraylik: bizni norozi qiladigan hamma holatlar bir-birimizni tushunmaslik, bir – birimiz bilan kelisha olmasligimiz, o’z fikrimizni o’zgalar diqqatiga etarli darajada asoslab, nuqtai nazarimizni, himoya qila olmasligimizdan kelib chiqadi. Donishmandlardan biri «oxirgi dalil-o’q» deb bekorga aytmagan. Demak, o’q otishning raqobatdoshi - ko’proq, salmog’liroq dalillarni keltirish ekan, ya'ni fikrlash ekan, u albatta – natijali bo’ladi.

Pedagogik jaryonda kommunikatsiya ro’y beradi – intellektual va hissiy mazmunlar almashadi, ya'ni pedagogik muhitda qayd etilganidek, to’g’ri va teskari aloqa ya'ni natijali kommnikatsiya sodir bo’lishini tashkil etish orqali uchun o’qituvchida yuqori malaka shakllanadi.

Refleksiv qobiliyatlar o’qituvchining kasbiy yoki shaxsiy sifatlarining ishi uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

Pedagogik ijodkorlik va mahorat ko’pincha o’qituvchining rivojlanish darajasiga bog’lik bo’ladi. Biror yangilik yaratishga, o’z harakatlarini, tajribalarini qaytarishga urinish, agar sharoit o’zgarishi, ya'ni yangilik elementlarini hisobga olgan holda amalga oshirilsa, muvaffaqiyatga erishish mumkin. Bunda o’qituvchiga ijodiy qobiliyatlar zarur bo’ladi.

Agar ta'lim sub'ekti to’g’risidagi bizning tasavvurimiz bizni o’rab turgan olam yaxlitligiga mutanosib ravishda: fikr - so’z – harakat («ruh» - «sotsio» - «bio») bilan hamjihat bo’lsa, bizning pedagogik jarayondagi vazifamiz – shu yaxlitlikni ta'minlash uchun asos bo’ladi. Buni quyidagi jadvalda ko’rish mumkin:



Fikr, so'z, harakat mazmunidan o'rin olgan qobiliyatlar o'zgarishi – tabiat in'om etgan hamma narsani ongimizda rivojlantirishi mumkin.

Unutmaylik, pedagogik jarayonda aynan metodlar – talabalarning faoliyat yo'nalishini aniqlaydi, va belgilaydi, o'qituvchining mahoratiga bog'liq ravishda u yoki bu qobiliyatni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Shu sababdan o'quv yurtini faqat ilm olish maskani emas, balki mashq maydonchasi sifatida ham ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Chunki u erda bo'lajak kasbiy faoliyat egalari o'z qobiliyatlarini malakali mutaxassislar rahbarligida rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunda metod boshqaruvchi rolida bo'ladi. Qarang:

Ba'zan metod unumdorligi kasbiy faoliyat unumdorligi bilan almashtiriladi. Ayni paytda, metod tanlashda quyidagi asosiy mezonlardan foydalaniladi:

- talabalar qobiliyatini rivojlantirish;
- faoliyatning kasbiy vositalar bilan mutanosibligini ta'minlash;
- refleksiya, kommunikatsiya, fikrlash texnikasining ijtimoiy – madaniy o'lchovlarga muvofiqlashtirish;
- pedagogik jarayonning mazmuni va maqsadlariga mutanosiblikni ta'minlashdan iborat

Jamiyatning kundan kunga o'zgarishi har bir pedagogdan tashabbuskorlik, faoliyat, mustaqil fikrlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishni talab etadi.

Ba'zi o'qituvchilar iqtisodiy – ijtimoiy, siyosiy hayotdagi o'zgarishlarni taxlil qilmaydilar. Ular talabalarni mustaqil fikrlashga, turli xil munozaralar, savol - javoblar qilishga va o'quv materialini mustaqil o'rganishga yo'naltirishlari lozim. Har bir yangi g'oya va o'zgarishlar texnika va texnologiyalar so'nggi yutuqlari o'quv jarayoniga tatbiq qilib borish kerak. Talabalarni o'quv mehnat faoliyatiga qaratishda ularda xursandchilik, yutuq, omad tuyg'ularini tug'dirish yoki shakllantirish, oldinga harakatlantirish va rivojlantirish lozim. Bugungi pedagogik hamkorlik talabalarni o'qishga jalb qila olishga tayanch bo'lishi kerak. Pedagogik hamkorlikning yana bir asosiy tamoyili talabalardan darsdagi qo'rquvni olish, uni bamaylixotir, erkin, o'z kuchiga ishonishdan iboratdir. V. Suxomlinskiyning so'zlari bilan aytganda "qaerda yutuq bo'lsa o'sha yerda qiziqish bo'ladi". Ilg'or

o‘qituvchilar dars jarayonida shunday usullarni qo‘llashlari kerakki, bunda har bir talaba o‘zini shaxs deb hisoblashi va o‘qituvchining shaxsan unga e’tibor qaratishi lozim. Hozirgi zamonaviy kasb-hunar ta’lim sharoitida talabalarni o‘qitish, tarbiyalash, ularni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagog va talabalar o‘zaro hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishlari talab etiladi.

Shuning uchun ham kasb-hunar kollejlari maxsus fan o‘qituvchisi pedagogik mahoratga ega bo‘lishi va o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lishi kerak.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. Tarbiya qaysi vositalar yordamida amalga oshiriladi?
2. Forobiy tarbiyaning usuli deganda nimani inobatga olgan?
3. Bahouddin Naqshband tarbiyaviy qarashlarining markazidaqaysi g`oyani ilgari suradi?
4. Tajribali tarbiyachi, eng avvalo, har bir talabaning o’z hissiyotlarini hisobga olib, uni maqsadga yo’naltiradi, ularni boshqarish uchun sharoit yaratib beradi. Siz bu holatni qanday izohlaysiz? Fikringizni bayon eting.
5. Hissiyotlarning boshqarilishi deganda nimani tushunasiz?
6. Kasbiy faoliyat mazmunining asosi bo’lib nima hizmat qiladi?
7. O’qituvchining refleksiv qobiliyatlari nima uchun asos bo’lib xizmat qiladi?
8. Hozirgi zamonaviy kasb-hunar ta’lim sharoitida talabalarni o‘qitish, tarbiyalash, ularni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagog va talabalar o‘zaro hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishlari talab etiladi. Siz nima deb o`ylaysiz? Fikringizni bayon eting.
9. Pedagogik ijodkorlik va mahorat ko’pincha o’qituvchiningnimasiga bog`liq?

## 25.2. O‘quvchilarni o‘rganishning pedagogik – psixologik metodlari, kasb – hunar kollejlarida o‘quvchilarni tarbiyalash metodlari va shakllari.



***Tayanch so‘z va iboralar:***

*Boshqarish vositasi, ziddiyatli tarkibiy qismlar, muomalaning muvaffaqqiyatli bo‘lishi, shaxsning qobiliyatlari, pedagogik qobiliyatlar, pedagogik-psixologik kuzatuvchanlik, shaxsning xususiyati, o`quvchilar guruhi.*

O‘qituvchining o`quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi, o‘rnini to‘ldiruvchi vazifasini ham bajaradi. Shu munosabat bilan tarbiya diskret (uzlukli) jarayon ekanligini nazarda tutish kerak. O`quvchilar kiradigan turli jamoalar, unga nisbatan tarbiyaviy vazifani bajaruvchi katta yoshdagi kishilar, unga ta’sir qiluvchi tevarak atrofdagi voqe`likning ko‘pdan-ko‘p omillari bir-biri bilan yetarli darajada aniq va puxta ishlab chiqilgan aloqa tizimiga ega emas. Har bir o`quvchiga har xil ta’sirlar oqimi yetib boradi, ular bir-birlari bilan unchalik mos kelmasligi va ma’lum darajada biri ikkinchisiga zid kelishi mumkin. Bunday sharoitlarda o`qituvchining o`quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida shu narsada namoyon bo‘ladiki, u ma’lum darajada bu ta’sirni birlashtiradi, ularning zanjiridagi yetishmovchi xalqalarning o‘rnini to‘ldiradi, bu ta’sirning ziddiyatli tarkibiy qismlariga tuzatish kiritadi. Shubhasiz, muomala cheklangan tarzda bo‘ladi. Lekin o`qituvchining o‘z tarbiyalanuvchilariga ko‘rsatiladigan turli-tuman ta’sirlarning xususiyatidan xabardorligi, uning ana shu ta’sirni birlashtirish, o‘rnini to‘ldirish va unga tuzatish kiritishga intilishi, uning shaxsiy sifatlari, o`quvchilarga munosabati va o`qituvchiik mahoratiga qarab, boshqarish vositasi bo‘lgan muomalaning samaradorligi ko‘p yoki oz darajada bo‘lishi mumkin.

O‘qituvchining o`quvchilar bilan bo‘lgan muomalasining muvaffaqqiyatli bo‘lishi, ko‘p jihatdan unda pedagogik qobiliyatning mavjudligiga va pedagogik nazokat (odobi)ni egallaganiga bog‘liq bo‘ladi.

Psixologiyada pedagogik qobiliyatlar deganda insonning muayyan psixologik xususiyatlarini tushunish qabul qilingan. Bu xususiyatlar uning o‘qituvchi vazifasida o`quvchilarni o‘qitish va o`quvchilarga ta’lim berishda yuksak natijalarni qo‘lga kiritishining sharti hisoblanadi.

Ma’lumki, shaxsning u yoki bu qobiliyatlarini hosil qiluvchi xislatlar va xususiyatlar orasida bir xillari yetakchi rol o‘ynasa, boshqalari yordamchi rol o‘ynaydi. O`qituvchiik faoliyatda shaxsning o‘zaro fikr almashuvi bilan bog‘liq xususiyatlari yetakchi rol o‘ynaydi. Birinchi navbatda perseptiv, ya’ni idrok qilish sohasiga taaluqli bo‘lgan xususiyatlar (ulardan eng muhimrog‘i kuzatuvchanlikdir) yetakchi rol uynaydi, o‘qituvchiga o`quvchining psixologiyasini, uning psixik holatini o‘xshash tarzda idrok etish, muayyan holda umuman guruh, jamoaning ahvoliga va xususan mazkur o`qituvchiik vaziyatdagi ahvoliga to‘g‘ri  baho berish imkonini beradi. O‘qituvchi shaxsining o‘zaro fikr almashuvi bilan bog‘liq xususiyatlari tarkibiy qism sifatida empatiyaga, ya’ni o`quvchilarning psixik holatini tushunishga va ularga achinishga tayyorgarlikni hisoblash mumkin. Buning zarur sharti o`quvchilarga bo‘lgan muhabbatdir. Nihoyat, o‘qituvchi shaxsining o‘zaro fikr almashuvi bilan bog‘liq xususiyatlarining uchinchi tarkibiy qismi deb ijtimoiy o‘zaro harakatga bo‘lgan yuksak rivojlangan ehtiyojni hisoblash mumkin. U bilimlarni boshqalarga berishda, o`quvchilar bilan muomala qilishga intilishda, o`quvchilar jamoasini tashkil etish istagida namoyon bo‘ladi. Tashkil etish qobiliyati ham o`qituvchiik qobiliyatning tarkibiy qismidir. U barcha o`quvchilarning har xil faoliyat turlariga jalb qilinishida, jamoaning har bir o`quvchiga ta’sir ko‘rsatish quroliga aylanishida, har bir o`quvchiga faol vaziyatni ta’minlab berishida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchida ijtimoiy o‘zaro harakatga bo‘lgan ehtiyojni muvaffaqiyatli amalga oshirishning sharti bo‘lib, unda mavjud bo‘lgan pedagogik nazokat maydonga chiqadi.

Endi pedagogik qobiliyatlar strukturasiga kiradigan yordamchi xislatlar va xususiyatlardan ayrimlarini qarab chiqamiz. Bu avvalo, aql-idrokning muayyan xislatlari: hozirjavoblik, tanqid ko‘zi bilan qarash, sobitqadamlik va boshqa bir qator xislatlardir. O‘qituvchining nutqi, notiqlik qobiliyatining mavjudligi, so‘z

boyligi va hokazolar ham muhim rol o‘ynaydi. Tabiatida bir qadar artistlik qobiliyatiga ega bo‘lish (xayol, fantaziya ishlata bilish) ham o`quvchilar bilan muomalada muvaffaqiyatga erishishda muayyan rol o‘ynaydi.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyat samarali bo‘lishining shartigina emas, balki ko‘p jihatdan o‘qituvchining muvaffaqiyatli ishlashining natijasi hamdir. Shu munosabat bilan o‘qituvchining o‘zida o`qituvchiik qobiliyatlarning aniq maqsadni ko‘zlab tarkib topishi va rivojlanishi katta rol o‘ynaydi. Tajriba va maxsus tadqiqotlar buning batamom xaqiqiy narsa ekanligini ko‘rsatmokda. Masalan, shaxs perseptiv xususiyatlarining eng muhim elementi bo‘lgan kuzatuvchanlik o‘qituvchining o`qituvchiik tajriba hosil qilish jarayonida ham, uning maxsus kuch-g‘ayrati natijasida ham rivojlanadi, takomillashadi. O‘qituvchi o‘zining pedagogik-psixologik kuzatuvchanligini, ya’ni o`quvchilarda turli xarakter xususiyatlari va mayllarni payqab olish qobiliyati bilan birga ularning paydo bo‘lish sabablarini bilib olish va bu sabablarning paydo bo‘lish vaziyatiga muvofiq baho berish mahoratini va hokazolarni rivojlantirishga qodirdir.

O‘qituvchining muhim ijtimoiy yo‘l-yuriqlaridan biri dilkashlikdir. An’anaviy dilkashlik yoki odamlarga aralashmaslik shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari deb qaraladi, bu butunlay qonuniy holdir. Lekin bunday yondashuv bir tomonlamadir. Dilkashlik, odamlarga aralashmaslik shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarigina bo‘lib qolmay, shu bilan birga odamning u yoki bu vaziyatdagi muayyan hulq-atvori hamdir, ya’ni ijtimoiy yo‘l-yo‘rig‘idir.

Shaxsning xususiyati bo‘lgan dilkashlikni atrofdagilar bilan barqaror, kuchli rivojlangan aloqalarga intilish sifatida ta’riflash mumkin, bu intilish odamlar bilan tez aloqa o‘rnatish bilan birga qo‘shib olib boriladi. Dilkashlik va odamlarga aralashmaslikni shaxs xususiyatlari sifatida qarab chiqish ekstravert va introversiya tushunchalari bilan bog‘liq ravishda samarali bo‘ladi. Ekstravert shaxslarga umumiy faollik, osoyishtalik, ta’sirlarga moyillik xosdir. Introvertlar ichki olamga berilgan, odamlarga aralashmaydigan, o‘z-o‘zini nazorat qilishga, refleksiyaga, ichki xavotirlikka moyil bo‘ladilar. Albatta, o‘ta introvertlar bilan ekstravertlar favqulodda hodisa bo‘lib, individlar bu ikki chetki nuqtalar o‘rtasidagi oraliqda

joylashadilar. Dilkashlik ko‘proq ekstravert tiplarga, odamlarga aralashmaslik esa introvert tiplarga xosdir.

O`quvchilar bilan munosabatlar sohasidagi eng muhim ijtimoiy yo‘l-yo‘riqlarning ayrimlari ana shulardan iboratdir. O‘qituvchida ularning mavjudligi uning o`qituvchiik nazoratga rioya qilishining zamini va sharti hisoblanadi.

O‘smirlar o‘qiydigan guruhlarda o‘qituvchining holati rahbar degan so‘z bilan ifodalanishi mumkin. V. Dal bu so‘zni quyidagicha, ya’ni ko‘rsatuvchi, murabbiy, ish boshi, boshlovchi deb ta’riflaydi. O`qituvchilarning o‘smirlarga ta’sir ko‘rsatishining asosiy mazmuni ularning faoliyatiga rahbarlik qilish zarurati bilan belgilanadi, bu faoliyat o‘z-o‘zini tashkil qilishning ko‘proq ulushini o‘ziga qamrab oladi, bu esa o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayoni rahbari sifatida o`quvchilarga qo‘yadigan talablari mazmunini belgilab beradi. O‘smirlar o`qituvchiik talablarni ongli va sidqidildan bajarishlari uchun mavzu talabiga nisbatan o‘qituvchi va o`quvchining bir xil yo‘l tutishi zarurdir, u bilish nuqtai nazaridan qiziqarli bo‘lishi yoki amaliy jihatdan foydali bo‘lishi zarur, yoxud hissiyotlarni yengillashtirish va hokazolar uchun kerak, boshqacha so‘zlar bilan aytganda, jamoa faoliyat jarayonini qulaylashtirish uchun zarurdir, aks holda talab samarasiz bo‘lib qoladi.

Katta yoshdagi o‘smirlarga nisbatan o‘qituvchi, homiy yoki tarbiyachi holatida turadi, bu so‘zlar V. Dal lug‘atida «homiylik qiluvchi, g‘amxo‘r, serharakat inson” sifatida ta’riflanadi.

O`quvchilar bilan muomala qilish o`qituvchining o‘z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Buning uchun esa, u gapirishni bilishi lozim. Gapirishni, muloqot qilishni doimo o‘rganib borishi kerak. Bu o‘rinda ikki savol tug‘iladi: «nimani o‘rganish kerak?» va «qanday o‘rganish kerak?»

O`qituvchi jamoa, o`quvchilar guruhi, ayrim o`quvchilar bilan gaplasha olishi kerak. U darsni samarali olib borish uchun gapirishni bilishi, suhbat, ma’ruza, hikoya qilish kabi usullardan foydalanishi, umuman butun ta’lim-tarbiya jarayonida o`quvchilar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ya olishi lozim. O`quvchilar

bilan gaplasha olish (har qanday shaklda), muayyan qoidalarni bilish va bu qoidalarni amalga oshirishning muayyan usullarini egallashni nazarda tutadi. Ularni ko‘rib chiqamiz:

O`quvchilar jamoasi bilan muomala ko‘pincha suhbat, ma’ruza, axborot va hokazolar shaklida bo‘ladi. Xo‘sh, bu muomala samarali bo‘lishi uchun nimalar zarur?

Birinchi navbatda suhbatni qaysi so‘zdan boshlash, qanday qilib darhol o‘qituvchining gaplariga o`quvchilarning diqqatini tortish, ularni qiziqtirish mumkinligi haqida gapirib o‘tamiz. Buning uchun bir necha usullar bor. Gapni masalaning qo‘yilishidan boshlash mumkin, bu masalada bo‘lajak suhbatning ma’nosi mujassamlashgan bo‘ladi. Mavzuga diqqatni tortishga urinib ko‘rish ham mumkin, bunda gapni erkin, qiziqarli faktni ma’lum qilishdan boshlasa bo‘ladi, keyin uni tushuntirish va tahlil qilish esa muomalaning mazmunini tashkil etadi. Tegishli maqola yoki sitata keltirish ham muvaffaqiyatli bo‘lib chiqishi mumkin. Bundan tashqari, darhol o`quvchilarga bo‘lajak suhbat ularning qiziqishlari bilan (jamoaning yoshi, xususiyatlari asosida) bog‘liq ekanligini aytib o‘tsa ham bo‘ladi.

Suhbatga o`quvchilarning diqqati jalb qilindi, ham deylik, endi uning mavzusini ancha qisqa, lekin yetarli darajada aniq qilib ochib berish vazifasi turadi. Buni qanday amalga oshirish mumkin? Masalan, suhbatni tuzishning bunday varianti bo‘lishi mumkin. Dastlab, o`qituvchi o`quvchilar ongi va hissiyotiga yetkazmoqchi bo‘lgan asosiy fikr qisqacha bayon etiladi. So‘ngra u ochib beriladi, buning uchun faktlar, misollar va illustrasiyalar tizimi bayon qilinadi. Bunda erkin taqqoslashlar, kutilmagan o‘xshatishlardan foydalanish juda foydali bo‘ladi. Shundan keyin xulosa chiqarish, ya’ni suhbatning asosiy fikrini boshqacha so‘zlar bilan takrorlash mumkin.

Muomala maqsadini bu xilda ta’riflash o`quvchilar muomalasining asosiy ikki turi: rollararo va shaxslararo muomalaning nisbiy mustaqilligi sharoitida uning dialektik birligini ko‘rsatib beradi.

Rollararo (amaliy) muomala tashkiliy faoliyatning har - xil turlari jarayonida amalga oshiriladi. Faoliyat qatnashchilarini uning maqsadiga, bir-biriga

munosabati, xarakteriga qarab ular o‘rtasida sheriklik yoki o‘rtoqlik muomalasi vujudga keladi. O‘rtoqlik muomalasi faqat faoliyat qatnashchilarining o‘zlari emas, balki xodimlarining faoliyat maqsadiga erishishdagi o‘zaro yordami, hayrixohligi va manfaatdorligini nazarda tutadi.

Shaxslararo (erkin) muomala tashkiliy faoliyatdan tashqari amalga oshiriladi. Muomala qiluvchilarning hissiy ko‘ngil bog‘lashuviga qarab tanishuv, oshna-og‘aynigarchilik, do‘stlikni farqlash mumkin.

O`quvchilar muomalasining mazmun tomoni, ular faoliyatining butun xilma-xilligi bilan belgilanadi. Har bir yoshdagi o`quvchilar uchun muomalaning o‘ziga xos hissiy-ma’naviy g‘oyasiga xosdir. Muomalaning asosiy g‘oyasidagi farq shunda namoyon bo‘ladiki, u har bir yosh bosqichida o`quvchi shaxsining shakllanishi va rivojlanish xususiyatini belgilab beradigan yetakchi ijtimoiy munosabatlarni asosiy munosabatlar sifatida o‘z ichiga oladi.

Umuman olganda, o`quvchilar muomalasining mazmuni o‘ziga turmushning buyumlar sohasini, hayotning voqeiy qatlamini, g‘oyaviy-ahloqiy muammolari va hissiy-ahloqiy sohasini qamrab oladi. Yoshga qarab har bir qatlamning aniq mazmuni va ularning o‘zaro nisbati turlichadir. Har bir yosh bosqichidagi muomalaning bosh g‘oyasi o`quvchilar muomalasining asosiy mazmunini aks ettirib, muomala mazmunining, u yoki bu tomoni ustun bo‘lishini belgilab beradi va asosan uning xilma-xil bo‘lishini cheklamay, o`quvchilar uchun ichki sub’ektiv jihatdan ahamiyatli bo‘lgan rejani tashkil etadi.

Muomalaning asosiy g‘oyasi va mazmuni bilan bog‘liq ravishda muomala darajalarini qarab chiqish maqsadga muvofiqdir, ular o`quvchilar muomalasi, ob’ektiv mazmunining chuqurligini aks ettiradi. Muomalaning to‘rtta darajasini ajratib ko‘rsatish mumkin: faktik, axborot, munozaraviy va oshkoraviy.

Muomalaning faktik darajasi — bu suhbatni qo‘llab-quvvatlash uchun nutq ayirboshlashdir, buning natijasida suhbatdosh bilan aloqa o‘rnatish mumkin bo‘ladi. U individ (o`quvchi)ning atrofdagilar bilan munosabatda o‘zini qulay his qilishini qo‘llab-quvvatlashdan iborat bo‘lgan muhim vazifani bajaradi.

Muomalaning axborot darajasi - o`quvchilar o‘rtasida ham rollararo, ham shaxslararo muomalada ro‘y beradigan g‘oyat turli-tuman xossaga ega bo‘lgan axborot bilan doimo almashinib turishdir. Bunda o`quvchilarning aqliy qiziqishlari doirasiga juda xilma-xil axborotlar jalb qilinadiki, ularni o`quvchilar ta’lim-tarbiya jarayonida, o‘qituvchilardan, boshqa turli-tuman manbalardan oladilar.

Muomalaning munozaraviy darajasi shu sababdan vujudga keladiki, o`quvchilar bir vaqtning o‘zida bir qancha birlashmalarga kiradilar va o‘ziga xos shaxs bo‘lib, faqat shaxsiy axborot tashuvchilar va u yoki bu faktlarga shaxsiy tarzda izoh beruvchilargina emas, balki normalar va qadriyatlarga ham izoh beruvchilar hisoblanadilar. Natijada, o`quvchilarning o‘zaro muomalasida turli nuqtai nazarlar to‘qnash keladi. Bu to‘qnashuvda u yoki bu faktlarga, voqealarga va hokazolarga izoh berish imkoniyati aniqlanadi. Munozaraviy daraja faoliyatning har - xil ko‘rinishlari jarayonida o`quvchilarning muomalasida katta rol o‘ynaydi. Chunki faoliyat maqsadiga erishish odatda sheriklarning shaxsiy kuch g‘ayratlarini kelishib olishni talab qiladi, bu esa odatda munozara jarayonida sodir bo‘ladi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. O‘qituvchining o`quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaraladi deydilar. Siz bu fikrga qanday qaraysiz? O`z fikringizni bildiring.
2. O‘qituvchining o`quvchilar bilan bo‘lgan muomalasining muvaffaqqiyatli bo‘lishi ko`proq kimga bog`liq? Misollar bilan isbotlang.
3. Ma’lumki, shaxsning u yoki bu qobiliyatlarini hosil qiluvchi xislatlar va xususiyatlar orasida bir xillari yetakchi rol o‘ynasa, boshqalari yordamchi rol o‘ynaydi. Siz bu fikrga qanday qaraysiz? O`z fikringizni bayon eting.
4. Pedagogik qobiliyatlar strukturasiga kiradigan yordamchi xislatlar va xususiyatlar haqida nimalarni bilasiz?
5. O‘qituvchining muhim ijtimoiy yo‘l-yuriqlaridan biri dilkashlikdir. Siz bu fikrga qanday qaraysiz? O`z fikringizni bayon eting.

6. O`quvchilar jamoasi bilan muomala ko‘pincha qaysi shaklida bo‘ladi?
7. Muomala maqsadi o`quvchilar muomalasining nechta turi orqali amalga oshiriladi? Misollar bilan izohlang.
8. Muomalaning asosiy darajalarini ajratib bering.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
2. 2017-2021yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekistan Respublikasi Prezidenti
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
4. 2017-2021yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
5. Abdiquddusov O., Rashidov H. Kasb-xunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
6. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
7. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.
8. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.
9. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
10. www.inter-pedagogika.ru
11. www.didaktika.ru
12. www.School. edu. uz
13. www.Ppsy. ru
14. www.Bank/referat. ru

## MAVZU 26. KASB TA'LIMI O'QITUVCHISINING METODIK ISHLARI.

***O'quv maqsadi*** ⇒ *O'qituvchining mustaqil metodik ishlari: o'z siyosiy ongini o'stirish, kasbi bo'yicha bilim va tajribani kengaytirish, ta'lim – tarbiya sohasidagi o'z bilim va mahoratini shakllantirish mazmuniga oid ma'lumotlarni nazariy jihatdan o'rganish*

### 26.1. O'qituvchining mustaqil metodik ishlari: o'z siyosiy ongini o'stirish, kasbi bo'yicha bilim va tajribani kengaytirish, ta'lim – tarbiya sohasidagi o'z bilim va mahoratini shakllantirish, didaktik materiallar tayyorlash.



***Tayanch so'z va iboralar:***

*Mustaqil metodik ishlar, vazifalarni egallash, manba materiali, o'quv materiallari, didaktik materiallar, vaqt va texnik imkoniyatlar, amaliy ko'rsatmalar, vositalardan foydalanilani, tarqatiladigan materiallar, matnlarni ranglash, proektor slaydlari.*

Kasbiy - texnik ta`lim tizimining takomillashishi jarayonida o'qituvchi o`zining mustaqil metodik ishlarini olib borib, shakllanib boradi. U bugungi kunda ko`plab tushuncha va ma`lumotlar bilan boyib, rivojlanib kelmoqda. Har qanday fan sohasida bo`lgani kabi u tushuncha, sifat ko`rsatkichlariga ega bo`lib, bular uning bilim olish asosini tashkil qiladi.

O'qituvchi o`zining mustaqil metodik ishlarini olib borib, kasbiy ta`limni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalarni egallashga harakat qiladi:

* o`qituvchilarning yangi, yanada murakkab tadbirlarni amalga oshirish maqsadida o`z kasbiy mahoratlarini oshirishda o`zining sharoitini yaratadi;

* kasbiy-texnik ta`limning yangi konsepsiyalarini amalga oshirishning yangi yo`l va vositalarining yo`llarini yaratishga e`tibor qaratadi, faol-ijodkor shaxsni tarbiyalaydi;

* pedagogik bilimlarni egallashga yangicha yondoshuvni yuzaga keltiradi;

* ta`lim tarbiyaning yangi, yanada samarali shakl va metodlarini yaratadi;

* rivojlanib boruvchi yangi pedagogik jarayonlarni loyihalash, ta`lim oluvchilarning barcha imkoniyatlari va qobiliyatlarini ishga solish uchun sharoit yaratadi

* kasbiy mahoratni egallashi uchun sarflanadigan vaqtni qisqartirishga erishadi;

*tashqi va ichki, boshqariluvchi va boshqarilishga berilmaydigan omillar tomonidan shaxsning shakllanish jarayonini rivojlantiradi;

*inson shaxsining shakllanishida ma`lum maqsadga qaratilgan, o`zi tushunib yetib, orzu qilgan (o`zini mustaqil tarbiyalay oladigan) fazilatlar, sifatlar va xulqlarning shakllantirilishida katta rol o`ynaydi;

*bolalarning maxsus tashkil etiladigan faol mustaqil, bilish - tanish, mehnat, estetik, jismoniy faoliyatiga, tabiiy qobiliyatlarini va psixik jarayonlarini rivojlantirish, tajribalar, ko`nikmalar hamda bilimlarni egallash, o`zlashtirishga yo`naltirilgan faoliyatiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi;

* estetik, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy maqsadlarga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqlan o`ylab ko`rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo`lgan mehnatining o`ziga xos hususiyatlarini rivojlantiradi va boshqalar.

Nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun manba materiali sifatida ishlatiladigan vositalarimiz quyidagicha farqlanadi:

Ko‘pincha o‘quv materiallari bir paytning o‘zida didaktik materiallar sifatida, ya’ni o‘qitish, o‘rganish uchun ishlatiladi.

O‘quv materiallari → ular amaliyot o‘qituvchilari tomonidan darsni ko‘rgazmali o‘tkazish va bilim berish uchun qo‘llaniladi

Didaktik materiallar → ular talabalar tomonidan o‘ rganish uchun qo‘llaniladi va o‘qituvchisi tomonidan tayyorlanadi

O‘quv va didaktik materiallarni tayyorlash deganda, o‘qituvchi tomonidan ularning tanlanishi va nazariy yoki amaliy mang‘ulotlar maqsadiga moslashtirilishi tushuniladi.

Agar tayyor vositalar yo‘q bo‘lsa, u holda ularni o‘qituvchining o‘zi tayyorlashiga to‘g‘ri keladi.

O‘quv va didaktik materiallarni tayyorlashda amaliyot o‘qituvchisi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarini inobatga olgan holda e’tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

-ish varaqalari, tarqatmalar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska tasvirlari uchun eskizlar

-yozma topshiriqlar, yozma va og‘zaki testlar uchun so‘rov qog‘ozlari

- baholash varagi, nazorat qog‘ozi

- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar

Nazariy darslarni o‘tkazish paytida amaliy ko‘rsatmalar berilganda quyidagi vositalar ishlatiladi:

| Turi | Ishlatish uchun ko‘rsatmalar |
|---|---|
| O‘quv kitoblari | Kitobning muayyan betlarini belgilab, dars rejasiga kiritiladi |
| Tarqatma materiallar | O‘quv kitoblaridan yoki boshqa manbalardan saylanma nusxalar tayyorlanadi va ko‘paytiriladi. |
| Doska tasvirlari | Mavzu va grafiklarga eskizlar tayyorlash |
| Slaydlar | Ular nusxalash apparatida yoki kompyuterda tayyorlanadi |
| Modellar | Ustaxonadagi har bir predmet yaroqli – ham yaxshi ham yomon mahsulotlari ko‘rsatilishi lozim. |

Amaliy mashg‘ulotlar yoki amaliy ish jarayonlari paytida amaliy ko‘rsatmalar bilan to‘ldirilgan quyidagi vositalardan foydalaniladi:

| Turi | Ishlatish uchun ko‘rsatmalar |
|---|---|
| Texnik chizmalar (kinematik sxemalar,konstruktiv chizmalar) | buning uchun asl nusxalari maxsus jildlarda to‘planadi. |
| Ekspluatatsion ko‘rsatmalar | nusxalardan tarqatmalar va slaydlar tayyorlash uchun ishlatiladi. |
| Ish rejalari va boshqa xujjatlar | faqat nusxalar ishlatiladi,asl nusxalari esa toza saqlanadi |
| Modellar, real jihozlar asboblar va mahsulotlar | yaroqli va yaroqsiz jihozlar, yaxshi va yomon mahsulotlar sifatiga nisbatan yuzaga kelgan farqni ko‘rsatib berishi mumkin. |

O‘qituvchi uchun materiallar nafaqat sohaga tegishli ma’lumotlarni, balki tashkiliy ishlar, usul va natijalarni baholash borasidagi ma’lumotlarni ham o‘z

ichiga oladi.Talabalar uchun materiallar esa qoida bo‘yicha faqatgina sohaga tegishli jihatlarni o‘z ichiga oladi. Didaktik materiallar faqatgina talabaga mo‘ljallangan bo‘lsa, o‘qitish materiallardan farq qilishi mumkin. Masalan: topshiriqlar varaqlari, savolnomalar, yo‘naltiruvchi usul savollari va muayyan tarqatma materiallar. Talabalarga tarqatiladigan materiallar tarkibida quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi lozim:

- sodda tilda yozilgan o‘quv mazmunlari;
- matnlarda bo‘sh qoldirilgan joylar (talabalar tomonidan to‘ldirilishi uchun;
- talabaning erkin fikrlashiga imkoniyat beruvchi savollar;
- ustaxonada ishlash uchun mo‘ljallangan, ish bosqichlari ko‘rsatilgan tushunarli chizmalar(eskizlar) va jadvallar;
- material, jihoz, asbob-uskunalar va yordamchi vositalar haqida ma’lumotlar.

Matn tayyorlash bo‘yicha eng yangi usullardan biri bu matnlarni ranglar bilan ajratish sanaladi:

-oq qog‘ozlar: mazmuniy jihatlar borasida matnlar (o‘qituvchi va talabalar uchun);

-yashil qog‘ozlar: talabalarga topshiriqlar;

-qizil qog‘ozlar: o‘qituvchining uslubiy hujjatlari va topshiriqlarning javob varaqalari;

Ranglarni kodlash hujjatlardan foydalanishni yengilllashtiradi, xuddi shu usuldan mazkur seminar hujjatlarini tayyorlashda ham foydalaniladi.

O‘qitish jarayonidagi eng muhim vositalar doskalar, flipchartlar va kodoskop (proektor) hisoblanadi. O‘qituvchi bu vositalar orqali ko‘rgazmali tus beriladigan namunalar yaratishi kerak.

Bo‘r bilan yoziladigan doska uchun avval qog‘ozda ishlangan va matnlar bilan to‘ldirilgan suratlar, flipchartlar uchun esa qoida bo‘yicha taqdimot namunalari bo‘lishi mumkin. Proektor slaydlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tayyorlanishi mumkin.

Doska suratlari uchun namunalar asosan o‘quv kitoblaridan olinishi yoki shaxsiy qarashlaridan kelib chiqqan holda tayyorlanishi mumkin. Bunda ko‘p vaqt sarf etmasdan oddiy shakllar orqali tuzilgan grafiklar, sxemalar, diagramma va shu kabilarni doskaga chizish mumkin. Matnlar uchun namunalar tayyorlash shart emas.

Shunga o‘xshash tarzda flipchart suratlarini tayyorlash mumkin. Bu usul nazariy dars yoki amaliy mashg‘ulot tayyorlanishni yengillashtiradi.

Flipchart bloklarini birga olib yurish mumkinligi tufayli tasvirlar qog‘ozlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushirilishi mumkin.

Proektor slaydlari qo‘lda, fotonusxalar yoki kompyuter yordamida maxsus shaffof plyonkada tayyorlanadi.

Slaydlarni tayyorlash uchun:

- oddiy asestat yoki qog‘ozi-shaffof sun’iy qog‘oz;
- nusxa olish mumkin bo‘lgan maxsus qatlamli slaydlar;
- flamaster, permanent va suvda eruvchan slaydlarni tozalash uchun spirt;
- surat chizish moslamalari (shablon, chizg‘ich va boshqalar)lar ishlatiladi.

**Slaydlarni qo‘lda tayyorlash uchun:**

- surat yoki matn qog‘ozga eskizlanadi
- slaydni uni ustiga qo‘yib, skrepka bilan mahkamlab namunadagi surat slaydga ko‘chiriladi.



***Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:***

1. O‘qituvchi o`zining mustaqil metodik ishlarini olib borishida nimalarga e`tibor berishi kerak?
2. O`qituvchilarning metodik ishlarini bajarishida uning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

3. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun manba materiali sifatida ishlatiladigan vositalar qanday farqlanadi?
4. O‘quv materiallari nima uchun qo‘llaniladi?
5. Didaktik materiallar nima uchun tayyorlanadi?
6. O‘quv va didaktik materiallarni tayyorlashda amaliyot o‘qituvchisi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarini inobatga olgan holda e’tiborini nimalarga qaratishi lozim?
7. Nazariy darslarni o‘tkazish paytida amaliy ko‘rsatmalar berilganda qaysi vositalar ishlatiladi?
8. Amaliy mashg‘ulotlar paytida amaliy ko‘rsatmalar bilan to‘ldirilgan qaysi vositalardan foydalaniladi?
9. Talabalarga tarqatiladigan materiallar tarkibida qaysi ma’lumotlar bo‘lishi lozim?
10. Matn tayyorlash bo‘yicha eng yangi usullardan biri bu matnlarni ranglar bilan ajratish sanaladi. Bularga nimalar kiradi?
11. Slaydlarni tayyorlash uchun nimalardan foydalaniladi?

### *Foydalanilgan adabiyotlar*


1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
2. 2017-2021yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Abdiquddusov O., Rashidov H. Kasb-xunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
4. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
5. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2007y.
6. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. 164 b.

7. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.- Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
8. www.inter-pedagogika.ru
9. www.didaktika.ru
10. www.School. edu. uz
11. www.Ppsy. ru
12. www.Bank/referat. ru

# XULOSA

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da har tomonlama yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning mohiyati, zaruriyati, zamonaviy fan va texnikaning rivojlanish talablariga mos barkamol avlodni tarbiyalash masalalari izchillik bilan tahlil etilgan, dolzarb vazifalar va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari belgilab berilgan. Shu bois, oliy o‘quv yurtlarida talabalarni hozirgi zamon talabi ruhida tarbiyalash, olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash, ko‘nikma, malakalarini shakllantirishga qaratilgan ko‘pgina ta’lim-tarbiya vositalari, uslubiy shakl yo‘riqlari mavjud. Jumladan, bu borada yoshlarni hayotga tayyorlashda ko‘p asrlar davomida qo‘llangan usullar, vositalar, tadbir shakllari, urf-odatlar va an’analar, g‘oyalar, hayotiy tajribalardan iborat namunalar majmuasidir.

Mazkur darslikda mualliflar hozirgi zamon “Kasbiy ta`lim metodikasi” fanining yutuqlari hamda uzoq yillar olib borilgan kuzatishlari, mazkur fanni o‘qitishdagi tajribalarga asoslanib, kasb ta`limining ilmiy – nazariy va amaliy – metodik asoslari xususida fikr yuritadilar. “Kasbiy ta`lim metodikasi”ning nazariy – metodologik asoslari, mazmuni, funktsiyasi, tarkibiy qismlari, ularning vazifalari, o‘quv – tarbiya jarayonini boshqarishda o‘qituvchi va talaba mahorati aniq dalillar asosida yoritilgan.

Ushbu darslikda kamchiliklar, hali qiyomiga yetmagan fikrlar bo‘lishi mumkin. Shu sababdan, sizning fikr-mulohazalaringizni kutamiz va keyingi nashrlarda albatta inobatga olamiz.

Maqsadimiz - o‘qituvchilarga, xususan, faoliyatini endigina boshlagan o‘qituvchilarga, pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan talabalarga kasbiy pedagogik mahoratni egallashda “Kasbiy ta`lim metodikasi” haqida ma’lumot berishimizdan iborat.

## GLOSSARIY (IZOHLI LUG`AT)

| | |
|---|---|
| ***Adekvatlik*** | teng, o‘xshash, muvofiq kelmoq |
| ***Affekt*** | kuchli, jo‘shqin va nisbatan qisqa muddatli emotsional kechinmalar sifatida ro‘y beradigan psixologik holat |
| ***Analogiya*** | psixik hodisalar va xulq-atvor xususiyatlarining o‘xshashligi |
| ***Anketa*** | metodlardan biri bo‘lib, respondent to‘g‘risida aniq ko‘zlangan ma’lumotlarni yig‘ish maqsadida qo‘llaniladi |
| ***Apatiya*** | kishining tevarak atrofdagi olamga nisbatan befarqlik holati |
| ***Assotsiatsiya*** | psixik hodisalar orasidagi o‘zaro bog‘lanish, u ma’lum qonunlar bo‘yicha tarkib topadi |
| ***Astenik*** | shaxsning faolligini susaytiruvchi kechinmalar |
| ***Attraksiya*** | bir kishini boshqa kishi ko‘rib qolganda, idrok etishda yuz beradigan tafakkur turi |
| ***Audivizual idrok*** | shaxsning bir vaqtning o‘zida ham eshitib, ham ko‘rib idrok qilishi |
| ***Autogen mashq*** | shaxsning o‘z-o‘zini ishontirish va o‘z-o‘zini idora qilishga asoslangan psixoterapevtik usul |
| ***«Axloq»,*** **«xulq» va «atvor»** | arabcha so‘z bo‘lib, ular o‘zbek tilida ham o‘z ma’nosida qo‘llaniladi. Axloq kishilarning har bir jamiyatga xos xulq me’yorlari majmuidir. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, hamma soxalarda kishilarning hatti-harakatlarini tartibga solish funksiyalarini bajaradi. |
| ***Bakalavriat*** | o‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi negizida oliy |

| | |
|---|---|
| | ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha fundamental bilimlar beradigan, o‘qish muddati to‘rt yildan kam bo‘lmagan tayanch oliy ta’limidir |
| ***Biografik metod*** | odamni uning tarjimai holi bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlar orqali o‘rganish usuli |
| ***Bixeviorizm*** | psixologiyaning o‘rganish predmeti sifatida odam xulq atvorini olinishi nazariyasi |
| ***Bosqichlar*** | muloqotda mavjud bo‘lgan shaxsning o‘zi bilan, boshqalar bilan va avlodlar orasida kechadigan jarayoni |
| ***Breynstorming*** | aqlga hujum – bahslarni tashkil etishda qo‘llaniladigan interfaol usuldir |
| ***Dialog*** | ikki va undan ortiq kishilarning o‘zaro og‘zaki gaplashishi |
| ***Dialogik nutq*** | nutq turlaridan bo‘lib, bunda so‘zlovchilar barobar teng, birgalikda faollik ko‘rsatadi |
| ***Diqqatning barqarorligi*** | diqqatning ma’lum ob’ektga uzoq vaqtdavomida muttasil qaratilishi |
| ***Diqqatning ko‘lami*** | bir vaqtning o‘zida diqqatning bir qancha ob’ektga qaratilishi imkoniyati |
| ***Diqqatning ko‘chishi*** | diqqatni ixtiyoriy ravishda bir ob’ektdan ikkinchisiga ko‘chirish |
| ***Diqqatning taqsimlanishi*** | diqqatning bir vaqtda bir necha ob’ektga taqsimlanish xusuiyati |
| ***Dominant shaxs*** | boshqalar bilan muomala va munosabat o‘rnatishda o‘z fikrini o‘tkazish xislatining yorqin namoyon bo‘lishi |
| ***Dunyoqarash*** | odamning tevarak-atrofdagi oamga va unda o‘zining tutgan o‘rniga qarashlaridan kelibchiqqan |

| | |
|---|---|
| | tizim. Uning falsafiy, siyosiy, ilmiy, diniy, aqliy va estetik qarashlari yig‘indisi |
| ***Egotsentrizm*** | men, markaz ma’nosida individualizm va egoizmning eng tuban turi |
| ***Ekstrovert shaxs*** | shaxsning har qanday sharoit va holatlarida o‘z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining yuqoriligi |
| ***Emotsiya*** | odam va hayvonlarning sub’ektiv ifodalangan ichki va tashqi qo‘zg‘oluvchilar ta’siriga javob reaksiyasi |
| ***Empatiya*** | boshqa odamlarning psixik holatini tushunish qobiliyati |
| ***Faoliyat*** | insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo‘ladigan va tashqi olam bilan kishining o‘z-o‘zini bilishga, uni qayta qurishga yo‘naltirlgan faolligi. |
| ***Faollik*** | tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak muhit bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lishida namoyon bo‘ladi |
| ***Flegmatik*** | temperament turlaridan biri bo‘lib, harakatlar sekinligi, barqarorligi, emotsional holatlarning tashqi ko‘rinishlari kuchli emasligida namoyon bo‘ladi |
| ***Genotip*** | ota-onadan farzandga o‘tadigan irsiy belgilar majmui |
| ***Gerontopsixologiya*** | psixologiya tarmog‘i, qarilik davri psixologiyasini o‘rganadi |
| ***Gnostik*** | butun borliqni bilishga yo‘naltirilgan faoliyat |
| ***Guruh*** | odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo‘lish harakteri kabi qator belgilarga |

| | |
|---|---|
| | asoslangan ijtimoiy jamoa |
| ***Jamoa*** | maqsadlari jamiyat maqsadiga ms keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi |
| ***Jamoaning negizi*** | umuiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishga taalluqli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a’zolari |
| ***Idrokning butunliligi*** | sezgi a’zlariga bevosita ta’sir etib turgan ob’ektlarni, ularning belgi va xususiyatlari bilan birgalikda qo‘shib idrok etish |
| ***Idrokning konstantligi*** | idrok sharoiti o‘zgarsa-da, idrok qilishdan hosil bo‘lgan narsa obrazlarning nisbatan o‘zgarmasligi |
| ***Idrokning predmetliligi*** | jamiki olamdan olingan ma’lumotlarni ichki olam ob’ektiga kiritish xususiyati |
| ***Individuallik*** | individning boshqalardan farqlanadigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o‘ziga xosligi, qaytarilmasligi |
| ***Ijtimoiylashuv*** | inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o‘zlashtirish jarayoni |
| ***Ijtimoiy tasavvurlar*** | shaxsga jamiyat orqali ta’sir etgan narsa va hodisalarning yaqqol obrazi |
| ***Ilmiy taxmin*** | tekshirish va tadqiqot olib borish maqsadida ilgaridan kutilishi mumkin bo‘lgan holatning bashorat qilinishi |
| ***Ijtimoiy psixologik eksperiment*** | asosiy metodlardan biri bo‘lib, o‘zgaruvchan mustaqil turli holat va jarayonlarning boshqa nomustaqil holat va jarayonlarga ta’sir etishdagi aniq ma’lumotlariga tayanai |
| ***Ijtimoiy psixologiya*** | psixologiya fanining o‘ziga xos maxsus tarmog‘i bo‘lib, unda psixik va jamiyat taraqqiyoti qonunlari |

| | |
|---|---|
| | o‘rganiladi |
| ***Interaktiv*** | shaxslararo munosabatlarda bir-biriga xulq-atvor ta’sir ko‘rsatish jarayoni |
| ***Introvert shaxs*** | shaxsning har qanday sharoit va holatlarida o‘z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining nihoyatda pastligi |
| ***Istedod*** | shaxsning ma’lum faoliyatda ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi |
| ***Kasb*** | faoliyat shakllari birlashmasi bo‘lib, mazmun, vositalar, tashkilotlar, mehnat natijalari hamda mehnat sub’ektini tayyorlashga qo‘yiladigan talablar majmui |
| ***Kichik guruh*** | a’zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi va bevosita shaxslararo munosabatda bo‘luvchi kishilar guruhi |
| ***Kommunikativ*** | shaxslararo munosabatlarda ma’lumot, axborot, g‘oyalar almashinuvi jarayoni |
| ***Kontent-analiz*** | tekshirilayotgan matnda so‘z, ibora, abzatslarni ma’no-mohiyatini takrorlanish darajasiga qarab tahlil etish usuli |
| ***Kuzatish*** | sinaluvchini aniq maqsad, faoliyat, vaqt, guruh bilan bog‘liq ravishda tekshirish, o‘rganish, ma’lumotlar to‘plash metodi |
| ***Ko‘nikma*** | odamning ma’lum ishni bajarishga tayyorligida ko‘rinadigan qobiliyati. Kasb mahoratning asosini tashkil etadi |
| ***Malaka*** | mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarilishining avtomatlashgan usullari |
| ***Mehnat*** | inson ehtiyojini qondirish asosida tashqi olamni |

| | |
|---|---|
| | o‘zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat |
| ***Mehnat faoliyati psixologiyasi*** | bu psixologiyaning bir sohasi bo‘lib, inson shaxsini mehnat sub’ekti sifatidagi shakllanishi xususiyatlarini, mehnatning shart-sharoitlari, yo‘llari va usullarini ilmiy jihatdan o‘rganadi |
| ***Mehnat psixologiyasi*** | kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o‘rganadigan fan |
| ***Mehnat sub’ekti (egasi)*** | bu faol harakat qiluvchi, anglash va o‘zgartirishga layoqatli, ong va iroda bilan ish olib boruvchi individ yoki jtimoiy guruh |
| ***Melanxolik*** | temperament turlaridan biri bo‘lib, psixik faollikning sust, tez ta’sirlanuvchanlik, xatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta’sirotga berilishi bilan harakterlanadi |
| ***Metod*** | bilishning nazariy va amaliy o‘zlashtirish usullari yig‘indisi |
| ***Metodologiya*** | tadqiqot, tekshirish usuli bo‘lib, bilishning nazariy va amaliy o‘zlashtirish usullari yig‘indisidir |
| ***Mobil shaxs*** | shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o‘tish va moslashish imkoniyatining yuqori darajada kuzatilishi |
| ***Monolog*** | ma’ruzachi tomonidan nutq so‘zlanishi, ma’ruzachi aktiv, tinglovchi passiv bo‘lgan jarayon |
| ***Monologik nutq*** | bir odamning o‘z fikrlarini og‘zaki yoki yozma ravishda ifodalash nutqi |
